O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**IQTISODIYOT FAKULTETI**
**YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BIZNES KAFEDRASI**

**IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH USULLARI”**
**fanidan**

# O’ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

***4-kurs, kunduzgi ta’lim shakli uchun***

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar |
| **Ta’lim yo’nalishi:** | 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) |

**Namangan-2024**

Ushbu o’quv uslubiy majmua “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish” fanidan ishlab chiqiiylgan o’quv dasturi asosida tayyarlangan hamda Namangan davlat universiteti O’quv-uslubiy Kengashining 2024yil “28” iyundagi 16-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:** **Sh.Lutpidinov**
NamDU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD)

**Taqrizchilar:** **K.Sirojiddinov**
NamDU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”
kafedrasi i.f.n., dots

**D.Boymirzayev**
Namdu, “Menejment” kafedrasi mudiri, dots

Fanning o’quv uslubiy majmuasi “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi kafedraning 2024 yil 24 iyundagi 11-sonli yig’ilishida muhokamadan o’tkazilgan va fakultet kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** **B.Urinov**

Fanning o’quv-uslubiy majmuasi Iqtisodiyot fakultetining kengashing 2024 yil 25 iyundagi 16-sonli yig’ilishida muhokamadan o’tkazilgan va universitet kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani:** **N.Narzullayev**

**MUNDAR IJA**

Betlar

**I. O'QUV MATERIALLARI** 4

1.Kirish 5

2. Ma'ruza matnlari 6
3. Amaliy mashg'ulotlar 135

**II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI** 143

**III. GLOSSARIY** 154

**IV. ILOVALAR** 167

1. Ishchi o'quv dasturi 168
2. Testlar 190
4. Keyslar banki 200
5. Tarqatma materiallar (slaydlar) 201
6. O'quv-uslubiy majmuaning elektron variant 214

# O’QUV MATERIALLAR

## KIRISh

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fanida monopoliya sub`ektlariga mahsulot (xizmat)ning muayyan bir turini yagona firma yoki kompaniya tomonidan ishlab chiqarishni nisbatan past xarajatlar bilan amalga oshirilishi hamda ishlab chiqarilgan mahsulot (ko`rsatilgan xizmat) orqali iste`molchilarning katta guruhini ta`minlovchi yaxlit tarmoq sifatida qaraladi.

O`zbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida monopoliya sub`ektlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib, Respublika Birinchi Prezidenti I.Karimovning «…xalq xo`jaligining yetakchi tarmoqlari, avvalo, tabiiy monopoliyalar deb ataladigan energetika, temir yo`l transporti, shuningdek, paxta tozalash va kimyo sanoati, kommunal xo`jaligi tarmoqlarida boshqaruv tizimini isloh qilish bo`yicha boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish dolzarb bo`lib qolmoqda»[1], deb ta`kidlab o`tishi ham buning yaqqol dalilidir.

Darhaqiqat, bu borada mamlakatda o`tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim jihati ham shundaki, ular tabiiy monopoliya sub`ektlari mahsulotlari va xizmatlaridan sifatli hamda kafolatli foydalanish, mahsulotlar narxlarining muqobilligini ta`minlash, iste`molchilar ehtiyojlarini to`laroq qondirish orqali pirovardida makroiqtisodiy ko`rsatkichlarni o`stirishga qaratilgandir. Bu esa o`z navbatida davlat tomonidan yirik tabiiy monopoliyalar faoliyatini tarkibiy o`zgartirish va soddalashtirish hamda raqobatchilik muhitini yaratilishiga yo`naltirilgan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Shu maqsadlardan kelib chiqib, iqtisodiyotni monopoliyadan himoya qilishga qaratilgan O`zbekiston Respublikasining «Monopolistik faoliyatni cheklash to`g`risida»gi (1992 yil 2 iyul ), «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to`g`risida»gi (1996 yil 27 dekabr ), «Iste`molchilar huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi (1996 yil 27 aprel ), «Tabiiy monopoliyalar to`g`risida»gi (1997 yil 24 aprel  va 1999 yil 19 avgustda yangi o`zgarishlari bilan) qonunlari qabul qilinib, ular iqtisodiyotda tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning me`yoriy asoslarini belgilab berdi.

Shu o`rinda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usullari va ulardan foydalanish samaradorligini o`rganish muhim nazariy-uslubiy ahamiyat kasb etadi.

**Mazkur keysning asosiy maqsadi** – O`zbekistonda tabiiy monopoliyalarni tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari hamda usullarining samaradorligini baholashdan iborat.

**O`quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar:** tabiiy monopoliyalarning iqtisodiy mazmuni, ob`ektiv asoslari va amal qilish xususiyatlari to`g`risidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish; tabiiy monopoliyalarni tartibga solish zarurligi hamda usul va vositalari bo`yicha bilimga ega bo`lish; O`zbekistonda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish xususiyatlari bilan tanishish; tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usullarining samaradorligini belgilovchi ko`rsatkich va mezonlarni aniqlash; tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usullarining samaradorligini baholash.

**Keysning muvaffaqiyatli hal etilishi uchun** monopolistik hukmronlik, monopoliyalarning turlari va vujudga kelish shart-sharoitlari; monopoliyalarning iqtisodiyotdagi o`rni, ijobiy va salbiy jihatlari; tabiiy monopoliyalarning iqtisodiy asoslari, amal qilish xususiyatlari; tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usul va vositalari to`g`risida bilimlarga ega bo`lish taqozo etiladi.

---

[1] Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш, ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш – бош йўлимиз. «Халқ сўзи», 2002 йил 15 февраль, 34-сон, 2-бет.

# NAZARIY MAShG`ULOTLAR MAZMUNI

## 1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari va iqtisodiy siyosatning maqsadlari.

### 1.1. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.

Bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan va rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi yuzaga keldi: davlat va bozor mexanizmlari. Fanning maqsadi - davlat va bozor mexanizmlarining o`ziga xos xususiyatlarini yoritishdir. Ular hayotda aralash va o`zaro aloqadorlikda uchraydi. Ularning optimal aloqadorlikda bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Fanning vazifasi iqtisodiyotni boshqarishda bozor munosabatlari bilan birgalikda davlat mexanizmini qabul qilgan sohalarni va shakllarini ko`rsatish, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning o`rni haqidagi turli kontseptsiyalarni tahlil etishdir.

Bozor – insoniyat taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan biridir. Uning rivojlanishi uzoq yo`lni bosib o`tgan: bu jarayon kichik-kichik ishlab chiqaruvchilar bilan iste`molchilar o`rtasidagi aloqalar sifatidagi oddiy shakllaridan boshlab to zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakllari, jamiyat iqtisodiy sub`ektlari o`rtasidagi rivojlangan iqtisodiy munosabatlari, ijtimoiy maxsulotni yaratishdan to uni iste`mol etishgacha bo`lgan davrni qamrab oladi.

Bozor – bu turli ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish ko`rinishidagi faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi murakkab mexanizmdir. Bunda ijtimoiy mehnat taqsimoti va xususiy mulkchilik bozorni hal etuvchi shartlari bo`lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga undovchi asosiy kuch bo`lib hisoblanadi.

Ma`lumki, bozorning muxim elementi bu narx va uning darajasi bo`lib, bu ishlab chiqaruvchi uchun ham, tadbirkor uchun ham va xaridor uchun ham muhim ko`rsatkich hisoblanadi.

Bozor tizimi ishlab chiqaruvchilar va haridorlarni qaror qabul qilishlarida egiluvchanlik va moslashuvchanlik jixatlarini yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Bozor ishlab chiqaruvchi va iste`molchi o`rtasidagi aloqalarni bo`glaydi. Tarmoqlar o`rtasida resurslarni samarali taqsimlanishida, talab va taklif mutanosibligini ta`minlashda bozor mexanizmi qulaydir.

Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishida, ijtimoiy mehnat taqsimotida, davlatlararo aloqalarning kengayishida, iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o`rtasidagi aloqalarni tartibga solish kabi iqtisodiy jarayonlarda bozor mexanizmining tartibga solish imkoniyatlari chegaralanganligi namoyon bo`ladi. Bunga iqtisodiyotda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz davri qarama-qarshiliklarini misol keltirish mumkin. 1929-1933 yillarda sodir bo`lgan jahon iqtisodiy inqirozi yaqqol misol bo`la oladi.

Bozor mexanizmi bajara olmaydigan va tartibga sola olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining vazifalari mavjud. Sanaot rivojlanishda erkin raqobat asosida ishlab chiqarish kuchlari nafaqat yakka tartibdagi xususiy mulk doirasida o`smoqda, balki jamoa (aktsionerlik)va boshqa mulkchilik shakllarining o`rni ham oshib bormoqda. Biroq, davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini o`z zimmasiga olishga, ularni rivojlantirishga va tartibga solishga majbur bo`lmoqda. Masalan: temir yo`l, telegraf, pochta, mudofaa va h.k. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan ijtimoiy vazifalar ham mavjud. Bundan tashqari, bozor munosabatlari asosidagi ba`zi faoliyat natijalariga davlatning aralashuvi ehtiyoji tu`giladi.

Bu, avvalam bor, iqtisodiyotni makro darajada tartibga solishda, aholining ma`lum qismini ijtimoiy himoya qilish va ularga yordam ko`rsatishda (ishsizlarga, tu`gma nogironlarga), pensiya ta`minotida, mudofaani ta`minlashda, ekologik muammolarni xal etishda, ijtimoiy tartibni saqlashda, pul muomalasini tartibga solishda, iqtisodiy takror ishlab chiqarish tsikliga ta`sir etishda, fundamental ilmni rivojlantirishda davlat aralashuviga zarurat tu`giladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat aralashuvisiz tartibga solib bo`lmaydi. Bozor mexanizmi jamiyat manfaatlarini himoya etish,

uzoq davrli ijtimoiy muammolarni va mamlakatlarning o`zaro aloqalarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf eta olmaydi.

Davlat bozor mexanizmi bajara olmaydigan bir qator iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilardir:

1. Mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy xavfsizligini va milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta`minlash;
2. Barqarorlashtirish vazifalari (pul muomalasini tartibga solish, inflyatsiyani oldini olish va h.);
3. Qonuniy tartibga solish vazifasi;
4. Muvofiqlashtirish vazifasi;
5. Ijtimoiy yo`naltirilgan vazifasi;
6. Taqsimlash;
7. Nazorat va boshqalar.

Yuqoridagilarning barchasi hozirgi zamon iqtisodiyotida bozor mexanizmi orqali iqtisodiyotni tartibga solish qanchalik zarur bo`lsa, davlat mexanizmini shunchalar zarur ekanligini ko`rsatadi. Eng muhimi, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda xar ikkala mexanizmlarni afzal jixatlarini birlashtirishdir. Bu esa iqtisodiyotni ratsional boshqarishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## 1.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy usullari va shakllari. Ularning rivojlanish bosqichlari.

Iqtisodiyot o`zini-o`zi tartibga solish davrida bozor mexanizmi uzoq vaqt mobayinida iqtisodiyotni tartibga solishning yagona mexanizm bo`ldi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan taribga solish zarurati va uni bozor bilan uy`gunlashtirish biroz keyinroq yuzaga keldi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning rivojlanishini ikki yirik bosqichga bo`lish mumkin: 1. Ikkinchi jahon urushiga qadar; 2. Ikkinchi jahon urushidan keyin.

Birinchi bosqichda davlat xususiy kapitalni takror ishlab chiqarilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi: mehnat, soliq, savdo va ijtimoiy qonunchilik asoslari ishlab chiqildi. Erkin raqobat davrida davlat xarbiy zavodlar va temir yo`l qurilishida xususiy kapitalni kengaytirish yo`li bilan xo`jalik jarayonida ishtirok etishni boshladi. Shu bilan birga davlat alohida sohalarni tartibga solishni boshlaydi (agrar soha, pul-kredit …).

Ikkinchi bosqichda bir qator davlatlar tarmoqlarni rejalashtirishga, milliy va hududiy rivojlanishni dasturlashtirishga, davlatning byudjet-kredit sohasida iqtisodiyotni tartibga solish faolligini oshirishdi. Iqtisodiy rivojlanishda davlat aralashuvi umum iqtisodiy xususiyatga ega bo`lib, davlat uzoq muddatli strategik maqsadlarni ishlab chiqdi. Bu bosqich integratsion ittifoqlar doirasida xalqaro darajadagi o`rta muddatli umumdavlat kelishuvlari bo`yicha davlat faoliyatlarini tavsiflaydi. (EI, O`IXT va b. ).

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish xususiy kapitalni takror ishlab chiqarilishi uchun qulay sharoit yaratishdan to iqtisodiy hamkorlik doirasida o`rta muddatli umumdavlat dasturini xalqaro kelishuvlar darajasigacha bo`lgan yo`li bosib o`tildi.

Hozirgi kunda davlat iqtisodiy tizimda iqtisodiy indikatorlarga faol ta`sir etuvchi yagona va asosiy tartibga soluvchi, muvofiqlashtiruvchi markaziga aylanmoqda, iqtisodiy o`zgarishlarga qulay sharoit yaratmoqda. Bozor iqtisodiyotini barcha jabxalarni tartibga solishda davlat boshqaruviga zaruriy elementi sifatida qaraladi.

Umumiy holda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi - 1. Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish; 2. Bozorni amal qilishi uchun qulay sharoit yaratish; 3. Iqtisodiy o`sishning barqaror darajasini ta`minlash; 4. Iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni boshqarish; 5. Ijtimoiy taraqqiyotni ta`minlash; 6. Ekologik va demografik muammolarni xal etish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi turli uslublar bilan amalga oshiriladi. Ulardan: iqtisodiy, qonuniy-ma`muriy va sudlov. Ushbu uslublar turli vositalardan foydalangan holda turli usullar orqali amalga oshiriladi. U umumiy ko`rinishda 1-chizmada keltirilgan.

Sxema 1**. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning uslubi, usuli va vositalari**



Davlat tomonidan tartibga solish turlari: mutloq davlat monopoliyasi (sobiq ittifoq va boshqa davlatlar) va iqtisodiy erkinlik darajalari, ya`ni bu darajalar o`rtasida bir qator oraliq ko`rinishlari mavjud bo`ladi (Xitoyda bozor sotsializmi, Germaniya va Avstriyada ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti, Shvedtsiya aralash iqtisodiyot modeli va h.k.).

Ta`kidlab o`tilgan davlat tomonidan tartibga solish usullari to``gri va egri usullarga bo`linadi. To``gri usullarga: davlat subsidiyasi, davlat tadbirkorligi, iqtisodiyotni davlat boshqaruvi tizimi taaluqlidir. Egri usullarga: soliq, jarima, kvotalar, bojxona bojlari va boshqalar taaluqlidir.

Indikativ rejalashtirish va davlat dasturlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakli hisoblanadi.

## 1.3. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning butun iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli.

Davlat sektori – bu mulk egasi davlat bo`lgan ja`mi korxonalar va tashkilotlar majmuidir. Uning bir qismi milliylashtirishdan va ikkinchi qismi esa davlat mabla`glari hisobidan shakllanadi. Kapital talab etuvchi yangi tarmoqlarni yaratish (kosmik sanoat ishlab chiqarish va boshqalar) hisobiga iqtisodiyotning davlat sektori oshib boradi.

Turli mamlakatlarning ijtimoiy ishlab chiqarishida davlat sektori ulushi turlicha bo`lib, u asosiy kapitalning 2% dan 50% gachasini tashkil etadi. MDX davlatlarida bozor iqtisodiyotiga o`tish va iqtisodiyotni isloh qilishdan so`ng davlat sektori ulushi sezilarli darajada qisqardi. Misol uchun: Rossiya Federatsiyasi sanoatida davlat sektori ulushi 5%dan kamni tashkil etdi, O`zbekiston Respublikasida – 30%.

Davlat sektori ishlab chiqarish maqsadlariga ko`ra nodavlat sektoridan farqlanadi. Ishlab chiqarishdan asosiy pirovard maqsad - bu foyda olish, lekin davlat sektorining asosiy maqsadi – bu investitsiyani, bandlikni tartibga solish, nodavlat sektoriga yordam ko`rsatish va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish hisoblanadi. Davlat sektori maqsadlari milliy iqtisodiyot manfaatlaridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vazifalarini amalga oshirish uchun soliqqa tartish va yi`gimlar yo`li bilan davlat byudjeti resurslari tashkil etiladi va davlat sektorining moddiy bazasi shakllantiriladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi va jamiyat iqtisodiyotii rivojlantirishdir.

Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmi bozor mexanizmi bilan uzluksiz bo`glangan. Bundan hulosa qilsak, «Samarasiz davlat boshqaruvi bilan iqtisodiy barqaror rivojlanib bo`lmaganidek, ijtimoiy rivojlanib ham bo`lmaydi». Bu borada taniqli iqtisodchi P.Samuel son shunday deydi – «Iqtisodiyotni u yoki bu mexanizmisiz boshqarish – bu bir qo`lda qarsak cholish bilan barobardir»[2].

## 1.4. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi.

Markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o`tishda iqtisodiyotni tartibga solish borasida davlatning roli mazmun va shakli jihatdan o`zgaradi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishda mulkchilik munosabatlari tizimini shakllantirish vazifasi yuzaga keladi. Bunday sharoitda davlatning aralashuvisiz ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tib bo`lmaydi.

O`tish davrida davlat islohatlarni amalga oshirish, yo`naltirish va javobgarliklarni o`z zimmasiga oladi. Davlat bozor munosabatlariga o`tishda quyidagi vazifalar asosiy etib belgilaydi:

1. Monopoliyadan chiqarish, raqobatli muxitni yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy bazani yaratish va qulay sharoitni ta`minlash;
2. Aralash iqtisodiyotda yangi mulkchilik munosabatlarini va bozorning barcha elementlarini shakllantirish;
3. Inflyatsiyaga qarshi siyosat olib borishda, pul va moliya-kredit sohasida nazorat vazifalarini saqlab qolish va takomillashtirish.

---
[2] Цитировано по «Общая экономическая теория (политэкономия)» учебник М.: 1995. стр. 144.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishda davlat iqtisodiyotdagi asosiy o`zgarishlarni amalga oshiruvchisi bo`lib, Prezidentimiz ta`kidlaganidek - «davlat iqtisodiyotda bosh islohotchi hisoblanadi». O`tish davrida ijtimoiy yo`naltirilgan bozor xo`jaligini shakllantirish maqsadi yo`lidagi barcha vazifalarni davlat bajaradi.

Hozirgi kunda davlat, asosan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solishda va jamiyatni rivojlantirishda muhim rolni o`ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning rolini alohida olib ko`rsatish juda murakkabdir.

Iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda davlat tomonidan tartibga solishning sifat o`zgarishlari yuzaga keladi. Gap shundaki, davlat va bozorning o`zaro aloqalari, ya`ni o`tish davrida bozor mexanizmi bajara olmaydigan nafaqat davlat vazifalari nazarda tutiladi, balki davlatning zamonaviy fuqarolik jamiyati bo``ginlari vazifalarini bajarish ham nazarda tutiladi. Bunda ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar uyushmasi, inson huquqlarini himoya qilish jamiyati, istemolchilar huquqi, hayriya va boshqa fondlar nazarda tutiladi.

**Asosiy tushuncha va atamalar**

Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi, iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmi, davlat sektori, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning to``gri va egri usullari, indikativ rejalashtirish, davlat dasturlari, markazlashtirilgan rejalashtirish.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmining ustunlik va kamchilik tomonlarini ayting?
2. Bozor mexanizmi qanday ijtimoiy vazifalarni bajara olmaydi?
3. Davlat boshqaruv rolisiz kerakli natijalar bera olmaydigan bozor mexanizmi vazifalarni sanang?
4. Zamonaviy davlatning iqtisodiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shaklinining asosiy rivojlanish boqichlarini tavsiflang. Davlat tomonidan tartibga solishdan asosiy maqsad. YaIM va davlat xarajatlari xajmi o`rtasidagi mutanosiblik nimani bildiradi?
6. Markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o`tishda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlarini ayting?

# 2. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 2.1. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli haqida Merkantilizm va Fiziokrat maktablari namoyondalarining nazariy qarashlari.

Dastlabki iqtisodiy nazariyalar kapitalizmning boshlan`gich davriga to``gri keladi (XV-XVII asrlar). Bu davrda merkantilistlar jamiyat boyligi muomala sohasida yaratiladi, millat boyligi esa pul miqdori bilan aniqlanadi degan fikrni ilgari surishadi. Merkantilizm – bu iqtisodiy nazariyadagi birinchi maktab bo`lib, uning mashhur namoyondalaridan biri Tomas Men hisoblanadi (1571-1641 y.).

Merkantilizm kapitalni dastlabki jam`garilishi davriga xos bo`lib, savdo burjuaziya manfaatlarini ifoda etadi. Merkantilizmga ikki xususiyat xosdir: 1) boylik pul bilan ifodalanadi (davlat qancha ko`p pulga ega bo`lsa, u shuncha badavlat hisoblanadi) 2) davlat xokimiyati yordamida pul boyliklarini jam`garishga erishish mumkin. Ushbu maktab namoyondalari mamlakatga olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlar o`rtasidagi farqning (aktiv savdo balansi)

yuqoriligi bilan davlat boyligi oshadi va davlat aktiv savdo balansida siyosiy ishlarni olib borishi zarur deb hisoblashadi. Davlat mamlakatdan tovarlarni olib chiqishni ra`gbatlantirish va mamlakatga tovarlar olib kirishni cheklash, ba`zi tovarlarni esa olib kirilishini ta`qiqlash bilan protektsionizm siyosatini yuritishi lozim. Bunda quyidagi tamoyil ol`ga suriladi: chet eldan arzon bahoga sotib olish, boshqa davlatlarga qimmatroq sotish.

Merkantilizm maktabi «Siyosiy iqtisod» atamasining paydo bo`lishi bilan bo`gliq. U frantsuz merkantilisti A.Monkrettonning 1615 yilda chiqqan «Siyosiy iqtisod traktlari» kitobiga kiritilgan edi. Merkantilistlar birinchi bo`lib iste`mol qiymatini emas, balki almashinuv qiymatini boylik deb e`lon qildilar.

Keyingi iqtisodiy maktab fiziokratlar edi. Ushbu maktabning eng ko`zga ko`ringan namoyondasi – F.Kene (1694-1774 y.). Uning xizmati: fiziokratlar muomala sohasini taxlil etishdan ishlab chiqarishni taxlil etishga tomon burilish yasadi. Faqat ular qishloq xo`jaligi bilan chegaralanishdi. Kene ekvivalent ayirboshlash ta`limini ol`ga surdi va savdodagi ayirboshladan xech qanday boylik yaratilmasligini va ayirboshlash xech narsa ishlab chiqarilmasligini isbotladi.

F.Kene «tabiiy tartiblanish» holatini, ya`ni bozor narxining beqaror tebranishi, erkin raqobat va ba`zi hollarda davlat aralashuvi asosida iqtisodiyotni rivojlatirishni ol`ga surdi. Fiziokratlar iqtisodiy rivojlanish o`zida tabiiy jarayonni namoyon qilishi, qonunlarga amal qilinishi va odamlar ta`siridan holi bo`lishini lozim deb bilishdi. Bu ularning mutloq yutuqlari edi.

## 2.2. Klassik siyosiy-iqtisod namoyondalarining kontseptsiyalari. Iqtisodiy liberalizm va uning mohiyati.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi tadbirkorlar sinfini vujudga kelishi va mustaxkamlanishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning aralashuvi ushbu maktab nuqtai nazarida, ya`ni merkantilizmni iqtisodiy liberalizm `goyasi bilan almashinish oqibatida tadbirkorlik faoliyatini cheklangan va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini salbiy baholagan. Bu `goya A.Smit va D.Rikardolarning ilmiy ishlarida asoslangan. Ular klassik siyosiy iqtisod maktabi asoschilari bo`lib, qiymatining mehnat nazariyasini yaratdi, kapitalning mazmunini va qo`shilgan qiymat nazariyasini yoritib berdi.

Iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning roli xususidagi ularning qarashlari davlatning aralashuvi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi degan fikrdan kelib chiqadi. Masalan, Smit `goyasi quyidagicha: «Bozor iqtisodiyoti o`zini-o`zi boshqarishga moslashgan, uning asosida qanday qilib ko`proq fayda olishga harakat qilish bilan bo`gliq «ko`rinmas qo`l» - shaxsiy manfaat yotadi». Smit xulosasiga ko`ra, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning aralashuvi olib tashlansa, iqtisodiyot samarali amal qiladi va bozor butunlay erkin bo`lmo`gi lozim.

D.Rikardo, J.B.Sey, D.Mil , A.Marshallar A.Smit `goyasining davomchilari bo`lib, ular iqtisodiy liberalizm `goyasi ilgari surishdi va hozirgi kunga qadar zamonaviy iqtisodchilar tomonidan ijobiy baholanmoqda (neoklassik yo`nalish).

Klassiklar ja`mi talab va ja`mi taklif mutanosibligini o`zlariga xos talqin etishdi. Ular: ja`mi taklifning o`zgarishi unga mos ja`mi talabni o`zgarishini yuzaga keltiradi degan fikrdan kelib chiqishadi. Bu Sey qonunida o`z aksini topadi, ya`ni taklif etilgan tovar unga mos ravishda talabni keltirib chiqaradi, bu esa talab va taklif o`rtasidagi yuzaga keladigan farqlarni bartaraf etadi. Oldindan ishlab chiqarishning o`rni yo`qoladi. Tovar ishlab chiqarishning o`sishi, ish haqlarini oshishiga olib keladi, buning natijasida taklifga mos ravishda talab ham oshadi.

Haqiqatda esa barcha daromadlar tovarlarga ayirboshlanilmadi. Jam`garish yuzaga keladi va jam`garilgan pul miqdori investitsiyaga har doim ham teng bo`lmaydi. Klassikchilar ja`mi talab va ja`mi taklifga bo`gliq holda narxning tebranishi barcha bozorlarni, shu o`rinda mehnat bozorini ham, resurslar bozorini ham barqarorlashtiradi deb hisoblashdi. Bo`glanish: bozorda narxning pasayishi ish haqini pasayishiga olib keldi yoki ish haqi avvalgiday qolsa u holda ishsizlik yuzaga keldi.

Biroq iqtisodiy inqirozlarning keskinlashuvi oqibatida asosan 1929-1933 yillardagi, klassik iqtisodiy liberalizm nazariyasini zaif ekanligini ko`rsatdi.

## 2.3. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va iqtisodiyotni rivojlanishida davlatning roli haqidagi iqtisodiy liberalizm nazariyasining inqirozi.

Iqtisodiy inqiroz bozor mexanizmining o`zi iqtisodiyotni tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi yagona mexanizm bo`la olmasligini ko`rsatdi. Iqtisodiy liberalizm kontseptsiyasining ta`siri zaiflashdi. 1929-1933 yillarda bo`lib o`tgan iqtisodiy inqiroz davrida ishlab chiqarish sur`ati 45% ga pasaydi, ishsizlik darajasi oshib ketdi va h.k. Asosan 1929-1933 yillardagi inqiroz o`zgaruvchan sharoitda bozor davlatning aralashuvisiz ishlab chiqarishni tartibga solishga va resurslardan samarali foydalanishni ta`minlash imkoniyatiga ega emasligini ko`rsatdi.

Ingliz iqtisodchisi Dj.M.Keyns(1883-1946) taklif etgan kontseptsiya iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli haqidagi qarashlarning rivojlanishida yangi va muhim bosqichi hisoblanadi. U bozor iqtisodiyotida davlatning roli haqidagi klassik qarashlarda keskin burilish yasadi. U tartibga solishning bozor mexanizmi bilan uy`gunlashtirilgan iqtisodiyotda davlatning aralashuvisiz iqtisodiyot samarali rivojlana olmasligini ko`rsatib berdi. Keyns kontseptsiyasi o`sha davrdagi xo`jalik tizimini xalokatli larzalardan saqlab qolishga qaratilgan edi. U iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o`rniga klassik(iqtisodiy liberalizm) qarashlarda burilish yasadi. Iqtisodiyotni rivojlanishida bozor va davlatning roli, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurati haqidagi Keyns qarashlari iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli haqidagi qarashlarda keyns inqilobi nomini oldi.

Keyns iqtisodiy modelning mazmunini «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi»(1936 y.) asarida yoritib berdi. Bu tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti doktrinasi edi. U bozor iqtisodiyoti «kasal» uni davolash lozim deb hisoblaydi.

«Keyns inqilobi» jarayonida ol`ga surilgan `goya klassik siyosiy iqtisodchilarni qarashlarida bozor iqtisodiyotiga qarashlarida burilish yasadi. Keyns yalpi talab va taklifni takomillashtirishda davlat siyosatidan foydalanmasdan turib ishlab chiqarish inqirozidan chiqish mumkin emasligini ko`rsatib berdi.

Ja`mi talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari orqali davlat tomonidan tartibga solish - Keyns `goyasining asosini tashkil etadi. Keyns ta`limotidagi asosiy tezis: - talab taklifni belgilaydi.

Ishsizlikni va resurslardan to`liq foydalanilmaslikni qisqartirish uchun esa davlat o`zning harajatlarini kengaytirish yo`li bilan talabni ra`gbatlantirishi, kam foizli soliq tizimi orqali xususiy investitsiyani ra`gbatlantirishi lozim.

Keyns modeli narxlar va ish haqlari qisqa davr ichida sekin o`zgarishi bilan klassik modeldan farqlanadi. Keyns Seyning taklif shaxsiy talabni yuzaga keltiradi degan qonunini rad etdi. Keyns ja`mi talab ja`mi taklifni yuzaga keltiradi, degan fikrni ilgari suradi.

## 2.4. Iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlatning roli haqida zamonaviy nazariyalar.

### Iqtisodiyotga davlat aralashuvining keynscha nazariyasi

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan so`ng keynschilik nazariyasi iqtisodiyot fanida yangi oqim sifatida yuzaga keldi. Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns ushbu iqtisodiy maktabning

asoschisi edi. U mazkur nazariyani o`zining 1936 yilda nashrdan chiqqan «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asarida bayon qilib berdi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, soha mutaxassislari orasida Keyns iqtisodiyotga davlat aralashuvi zaruriyatini dalillab bergan dastlabki iqtisodchi hisoblanmagan. Keynsning o`tmishdoshlari bo`lmish A. Pigu va K.Viksell ham iqtisodni davlat tomonidan boshqarish zarurligini ilmiy asoslab berdilar. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri G. Xaberler o`zining «Ravnaq va tur`gunlik» nomli kitobida davriylik nazariyasini tahlil qilib berdi, inqirozni kapitalning haddan tashqari jam`garilishi bilan yoki yetarlicha iste`mol qilinmaslik bilan izohladi va davriylik tebranishlari amplitudasini kamaytirish maqsadida bu ikki kulfatdan qanday qutulish choralari to``grisida o`z fikrlarini bayon qildi. J.M.Klark tomonidan mul tiplikator va akselerator mexanizmi ishlashining tadqiq qilinishi ham iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish nazariyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning tadqiqotlari Keyns tadqiqotlari bilan bir vaqtda o`tkazilgan edi. Ammo Keyns nazariyasi uning o`tmishdoshlari va zamondoshlari nazariyalaridan shu bilan farq qiladiki, u ishsizlik va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari tasodifiy, o`z-o`zidan yuzaga keladigan hodisalar emas, balki kapitalistik bozor mexanizmi harakati tufayli ro`y beradigan hodisalar ekanligini isbotlagani holda, birinchi marta iqtisodiyotni davlat hokimiyati tomonidan doimiy, muntazam ravishda tartibga solib turish zarurligini e`lon qildi. Keyns nazariyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, u iqtisodchilardan birinchi bo`lib, makroiqtisodiy davlat tartiblashi foydasiga asosiy dalillarni bayon qilib berdi, bunda u o`zigacha hukmron bo`lgan tartiblashning mikroiqtisodiy yondashuvini rad etdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning keynscha nazariyasi uch asosiy holatni o`z ichiga oladi: birinchidan, unda o`z-o`zidan harakatga keladigan bozor mexanizmiga baho beriladi; ikkinchidan, iqtisodiyotning boshboshdoqlik asosida rivojlanishi jarayonida paydo bo`ladigan qiyinchilik va ziddiyatlarning sabablari talqin qilinadi; uchinchidan, kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida iqtisodiyotni tartiblash tadbirlari tizimi belgilanadi.

Keyns o`zining dastlabki tadqiqotlarida Sey qonunini inkor etgan holda samarali talab[1] nazariyasini asoslab berdi. Keynsgacha bo`lgan davrda klassiklar tomonidan Sey qonuni qabul qilingan bo`lib, unga muvofiq taklif o`z talabini yuzaga keltirar edi. Keyns esa, aksincha, jami talab o`z taklifini yuzaga keltirishi `goyasini ilgari surdi.

Samarali talab nazariyasiga muvofiq mahsulot (yoki mehnat) muayyan miqdori taklifning bahosi deb daromadning shunday miqdoriga aytilganki, bu miqdor tadbirkorlarning ushbu mahsulot (yoki mehnat)ni taklif qilishga bo`lgan ra`gbati uchun yetarlidir. Jami talab bahosi va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o`rtasidagi nisbat jami talab funktsiyasi deb ataladi. Bu yerda shuni aytib o`tish lozimki, tadbirkorlar daromadni faqat muayyan miqdordagi mahsulotni sotganlaridan so`nggina olishlari mumkin. Kutilayotgan daromad va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o`rtasidagi nisbat jami talab funktsiyasi deb ataladi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotning muayyan hajmida ko`zda tutilgan daromad jami taklif bahosidan oshsa, unda tadbirkorlar yanada yuqori foyda olish maqsadida mahsulot hajmini (va bandlikni) oshiradilar va agar kutilayotgan daromad taklif bahosidan past bo`lsa, u holda tadbirkorlar mahsulot hajmini (va bandlikni) kamaytiradilar. Faqat ko`zda kutilayotgan daromad va taklif bahosi o`rtasida tenglik bajarilgan sharoitdagina optimal holatda bo`ladilar, shuning uchun ular mahsulot ishlab chiqarishni ushbu darajada ushlab turishga intiladilar. Demak, tadbirkorlar uchun qulay bo`lgan ishlab chiqarish darajasi jami talab funktsiyasi bilan jami taklif funktsiyasi kesishgan nuqta bilan belgilanadi, ushbu nuqtadagi jami talab funktsiyasining qiymati samarali talab deb ataladi. Jami talab esa daromad darajasini belgilab beradi:

U Keyns nazariyasida quyidagi tenglama bilan ifodalangan:

Y q C Q I

bu yerda: Y - milliy daromad;

C - iste`mol;

---

[1]Пезенти А. Очерки политической экономии капитализма. В 2 т.: Пер. с итальянского. Т. 2. -М.: “Прогресс”, 1976. -С.615-616.

I - jami investitsiyalar.

Keyns tomonidan kashf qilingan asosiy psixologik qonun uning iste`mol funktsiyasini tadqiq qilinishida yo`naltiruvchi omil bo`lib xizmat qildi. “Asosiy psixologik qonun shundan iboratki, - deb yozgan edi. J. Keyns, - kishilar, odatda, daromadlari ortishi bilan o`z iste`molini ko`paytirishga moyildirlar, lekin bunda iste`mol daromad ortgan darajada oshmaydi”[1].

Bu hol shuni bildiradiki, agar daromad o`zgarsa, unda iste`mol ham ana shu yo`nalishda o`zgaradi, lekin iste`mol o`zgarishi daromad o`zgarishidan kichik. Keyns iste`mol o`zgarishi va uni o`zgartirgan daromad o`zgarishi o`rtasidagi nisbatni iste`molga bo`lgan chekli moyillik deb atadi va uni quyidagi formula bilan ifodaladi:

MPC q $\frac{C}{Y}$ yoki MPC q $\frac{dC}{dY}$

Iste`mol va umumiy daromad o`rtasidagi nisbatni esa u iste`molga bo`lgan o`rtacha moyillik deb atadi:

APC q $\frac{C}{Y}$ .

Keyns tomonidan ochilgan asosiy psixologik qonunga muvofiq iste`molga bo`lgan chekli moyillikning miqdori O dan 1 gacha bo`lgan oraliqda yotadi:

O < $\frac{\Delta C}{\Delta Y}$ < 1.

Keyns o`z kontseptsiyasini asoslash uchun “iste`molga bo`lgan moyillik” tushunchasi bilan bir qatorda “jam`garishga bo`lgan moyillik” tushunchasini kiritdi. Jam`garishga bo`lgan moyillik - bu jam`garma (S) miqdori o`zgarishi bilan uni o`zgartirgan daromad o`zgarishi o`rtasidagi nisbatdir:

MPC q $\frac{\Delta S}{\Delta Y}$ .

Jam`garishga bo`lgan o`rtacha moyillik esa jam`garishning umumiy daromadga bo`lgan nisbati bilan ifodalanadi:

APS q $\frac{S}{Y}$ .

Bu o`rinda shuni ta`kidlash joizki, agar umumiy daromad oshsa, u holda kishilar ushbu orttirilgan daromadning bir qismini iste`molga, ikkinchi qismini esa jam`garishga yo`naltiradilar. Shuning uchun iste`mol va jam`garma o`zgarishlari yi`gindisi, albatta, daromad o`zgarishiga teng bo`lishi lozim, ya`ni

$\Delta C + \Delta S = Y$

Demak,

$\frac{\Delta S}{\Delta Y}$ Q $\frac{\Delta S}{\Delta Y}$ q 1.

Jam`garishga bo`lgan chekli moyillikka iste`molga bo`lgan chekli moyillik nisbati uni birgacha to`ldiruvchi kattalik ekanligi yuqoridagi formuladan ko`rinib turibdi.

Qisqa muddatli makroiqtisodiy modellarda iste`mol va daromad o`rtasidagi nisbat chiziqli hisoblanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

---

[1] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. -М.: «Иностранная литература», 1948. 90-бет.

S qA Q S x Y,

bu yerda:

A - jamiyat daromadi darajasi O ga teng bo`lgan vaziyatda iste`mol darajasi (musbat kattalik);

U - avtonom iste`mol deb ham ataladi, chunki u daromadga bo`gliq emas;

S - iste`molga bo`lgan chekli moyillik.

Keynscha nazariyaning daromad va bandlik darajasini belgilovchi asosiy tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega:

U q S (Y) Q 1.

Agar iste`mol funktsiyasi chiziqli funktsiya ekanligini nazarda tutadigan bo`lsak, u holda yuqorida keltirilgan asosiy tenglama mana shunday ko`rinishda ifodalanadi:

YqAQ S x Y Q 1.

Demak, sarmoyalar hajmi va iste`mol funktsiyasi ko`rinishi daromad va bandlik darajasini belgilovchi omillar ekan. Investitsiyalar hajmining o`zgarishi milliy daromadning ham ana shu yo`nalishda o`zgarishiga olib keladi.

Keyns nazariyasiga ko`ra, mul tiplikator jam`garishga bo`lgan chekli moyillikka teskari kattalikdir yoki 1 soni bilan iste`molga bo`lgan chekli moyillik o`rtasidagi farqqa teskari kattalikdir, ya`ni:

$$M \text{ q } \frac{1}{MPS} \text{ yoki } M \text{ q } \frac{1}{1MPC}\ .$$

Mul tiplikativ effekt har bir qo`shimcha mabla`g tovarlarga bo`lgan talabning ortishiga, u ham, ravshanki, (ishlab chiqarish omillaridan to`la foydalanilmayotgan sharoitda) o`ziga teng ravishda daromad ortishiga olib kelishini ko`rsatadi. Ammo daromadning ortishi, o`z navbatida, daromadi oshgan kishilar tomonidan iste`molning kengayishiga olib keladi:

$$MPC \text{ q } \frac{\Delta C}{\Delta Y} \qquad \Delta S \text{ q } MPC \text{ x } \Delta Y$$

Agar $\Delta Y$ q 50, MPC q 0,5, $\Delta I$ q 50 bo`lsa, u holda $\Delta C$ q 25.

Bu yerda agar iste`mol ortsa, u holda jami talab ham va demak, daromad ham ortishini ta`kidlab o`tish joiz.

Inqirozlarni bartaraf etish uchun Keyns “samarali talab” ni shakllantirish, ya`ni kapital mabla`glarini va iste`molni eng ko`p darajada ra`gbatlantirish zarur ekanligini taklif qildi. Uning fikriga ko`ra, sarmoyalar orttirish bandlikning o`sishiga va daromadning ortishiga olib keladi. Daromad ortishi jam`garmalar shaklida emas, balki investitsiya sifatida sarflanishi uchun buyuk iqtisodchi olim qarz foizi me`yorini pasaytirishni taklif qildi. U davlat aralashuvini “samarali talab” ga, va, demak, to`la bandlikka erishish vositasi, deb bildi. «Davlat, - deb yozgan edi J.Keyns, - iste`molga bo`lgan moyillikka nisbatan o`zining rahbarlik ta`sirini qisman mos tizim yo`li bilan, qisman foiz me`yorini belgilash bilan va qisman, ehtimol, yana boshqa usullar bilan ro`yobga chiqarishi lozim bo`ladi»[1].

U past foiz me`yori orqali yuqori foyda olishni ta`minlaydi, tadbirkorlarda optimistik kayfiyatni kuchaytiradi, ularning sarmoya solishga bo`lgan moyilligini qo`llab-quvvatlaydi va yuksalish holatini ushlab turadi, deb hisobladi.

Keyns davlat byudjeti orqali byudjet kamomadi paydo bo`lishidan hayiqmagan holda katta xarajatlar qilish taklifi bilan chiqdi. Bunda u byudjet kamomadi qo`goz pullarni qo`shimcha muomalaga chiqarish yo`li bilan qoplanishini nazarda tutadi. Uning fikricha, davlat kapital mabla`glari

[1] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер-с англ. –М.: «Иностранная литература», 1948. - С. 364.

foiz me`yorini pasaytirib, yuksalish holatini uzaytiradi. Bularning barchasi inqirozning oldini olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy keynschilar soliqlar, davlat xarajatlari, byudjet kamomadi, davlat qarzi davlat yo`li bilan boshqarishning asosiy vositalari, deb hisoblaydilar. Ularning ta`kidlashicha, sanoat yuksalishi davrida daromadlar ortgan sari soliq tushumlari ham ko`payib boradi. Bu esa ortiqcha talab va ortiqcha ishlab chiqarishning paydo bo`lishiga to`sqinlik qiladi. Inqirozning boshlanishi ishsizlikning ortib borishi davlat byudjetidan ishsizlik bo`yicha nafaqa to`lovlarining ortib borishiga olib keladi. Bu esa to`lovga qobiliyatli talabning kamayishiga qarshilik qiladi. Shuning uchun ular tomonidan moliyaviy kompensatsiya o`rnini qoplash siyosati va kamomadli moliyaviy ta`minlash nazariyalari ol`ga surilmoqda.

## Iqtisodiyotni tartibga solishda monetar nazariya va siyosatning ahamiyati

Bugungi kunda iqtisodiyotni monetar boshqarishning pul nazariyasi, inflyatsiya bilan kurash muammolari 1976 yilgi Nobel mukofoti sovrindori amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tomonidan zo`r berib ishlab chiqilmoqda.

Monetar nazariya burjua iqtisodiy nazariyasi shakllanishi paytida paydo bo`ldi. O`sha mahalda “pul neytralligi” kontseptsiyasi umumiy iqtisodiy ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi “bo`lmasligini” va demak, kapitalizmning hayotbaxshliligini isbotlashda asos bo`lib xizmat qilgan edi. XX asrning 20-yillarida boshqarishning monetar usullari ko`pchilik iqtisodchilar tomonidan “abadiy farovonlikka” erishish vositasi sifatida baholandi. Ammo mazkur usul 30-yillar sinoviga bardosh bera olmadi. Hatto ular 1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqirozning va undan so`ng uzoq davom etgan tanazzulning asosiy sabablaridan biri bo`ldi. Xuddi mana shuning uchun pul keynscha modelning muhim tarkibiy qismi bo`lsa ham ushbu modelning ko`plab o`ziga xos jihatlari monetar omillar ta`sirini yetarlicha e`tiborga olmadi. Pul jarayonlarining bunday nazarga ilinmasligi, ularning mumkin bo`lgan ta`sirini mensimaslik iqtisodiy siyosat masalalari bo`yicha tavsiyalarda yorqin namoyon bo`ldi, ushbu tavsiyalar sarmoyalar mul tiplikatorining sodda sxemasiga asoslangan edi. Biroq kamomadli moliyaviy ta`minlash amaliyoti pul sohasi beqarorligiga va inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi. Shuning uchun 50-yillardan boshlab monetar tahlilni faollashtirish zarurati paydo bo`ldi. Ayniqsa, 1971-1973 yillardagi iqtisodiy hamda valyuta inqirozlari inflyatsiya bilan kurashning va iqtisodiyotni boshqarishning monetar usullarini dolzarb qilib quydi. Ayni 50-yillarning boshlaridan pul nazariyasi keynschilar va M. Fridman boshliq monetarchilar o`rtasidagi kurash maydoniga aylandi. Monetarchilar pulni xo`jalik tuzilmasining muhim qismi, pul-kredit siyosati esa iqtisodiyotni boshqarishning eng samarali usuli, deb hisoblaydilar. Fridman keynscha kontseptsiyaga mantiqiy muqobil bo`lgan nazariya yaratish maqsadida pulning miqdor nazariyasi asosiy qoidalariga yangicha ta`rif berdi va asosiy e`tiborni inflyatsiyaga qaratdi. U inflyatsiyani sof pul muammosi sifatida ko`rib chiqdi. Uning fikricha, bu muammoni monetar tadbirlar tizimi yordamida hal qilish mumkin.

Monetar nazariya tahlil sohasi bo`lib, u iqtisodiy muvozanat va o`sishning umumiy muammolari hamda pul va bank mexanizmi ishlashi maxsus masalalari qo`shilgan joyda yotadi. Monetar soha pul agregati ko`rsatkichlari o`rtasidagi sababiy va funktsional bo`gliqliklar, shuningdek, ularning xo`jalik tizimi monetar elementlari bilan o`zaro ta`siri muammolari, uning asosiy yo`nalishi bo`lib xizmat qiladi. “Monetar siyosat” tushunchasi deganda esa davlatning pul-kredit sohasida boshqaruvchilik tadbirlari majmui tushuniladi. Shuning uchun keynschilik va monetarizm bahsida asosiy e`tibor pulning ahamiyatiga va pul-kredit sohasidagi siyosatga qaratiladi. Masalan, keynscha yondashuv iqtisodiy kon`yunktura va xo`jalik rivoji sur`atlari ra`gbatlantirilishini kundalik boshqarish vositasi sifatida puldan tezkor foydalanish `goyasini o`zida aks ettiradi. Monetarizm pul sohasida bunday harakatlarni qoralaydi. Monetarizm tarafdorlarining fikriga ko`ra, bunday siyosat xo`jalik ziddiyatlari va mutanosibliklari kuchayishiga hamda bozorning o`z-o`zidan barqarorlashtiruvchilar harakatining qiyinlashuviga olib keladi.

Ayirboshlash tenglamasi yoki Fisher formulasi - monetarizmning asosiy tenglamasidir:

MV q R x Q

bu yerda: M - pul taklifi;

V - daromadlar doiraviy aylanmasida pul muomalasi tezligi;

R - baholar darajasi, aniqro`gi, ishlab chiqarish natural hajmi har bir birligining sotiladigan o`rtacha bahosi;

Q - ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning natural hajmi.

MV - jami ishlab chiqarilgan boyliklarni sotib olishga xaridorlar xarajatlarining umumiy sarfi bo`lsa, RQ esa ushbu boyliklarni sotgan sotuvchilarning umumiy daromadini bildiradi. Agar MV bir yilda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga sarflangan umumiy xarajatlar bo`lsa, u holda u nominal SMM (sof milliy mahsulot)ga teng bo`lishi kerak, ya`ni SMM q R x Q[1].

Shuning uchun monetarchilar pul massasi o`sish ta`sir sohasini obligatsiyalar xarid qilish va undan so`ng foiz stavkasini pasaytirish bilan cheklab qo`yish o`rniga pul taklifining kengayishi ham real, ham moliyaviy aktivlarning barcha turlariga, shuningdek, ishlab chiqarishning joriy hajmiga bo`lgan talabni oshiradi, deb hisoblaydilar. Demak, M ning ortishi yoki R ning, yoki Q ning, yoki bo`lmasa biror nisbatda ham R, ham Q ning ortishiga olib keladi; M ning kamayishi esa teskari natijani beradi.

M. Fridman ushbu qoidani asoslash uchun quyidagi formulani taklif qiladi:

$$\frac{M}{P} \text{ q f (rd x re; } \frac{1}{P} \text{ x } \frac{dP}{\text{B}t} \text{ W } \frac{V}{P} \text{ ; U )}$$

bu yerda: real kassa qoldiqlariga bo`lgan talab ($\frac{M}{P}$) foiz stavkalari;

(rv, re), baholar o`zgarishi sur`atlari (. $\frac{1}{P}$ x $\frac{dP}{dt}$)

aktivlar summasi (W), real daromad ($\frac{V}{P}$) hamda did va imtiyozlar (U) funktsiyasidir.

Fridman nazariyasiga muvofiq, pul qoldiqlari boshqa aktivlar bilan taqqoslanadigan aktiv sifatida ko`rib chiqiladi. Ushbu nazariya oqim sifatida emas, balki zaxiralar tariqasida talqin qilinadi. Pul daromadi - bu oqimdir va uni biror vaqt orali`gida aniqlash mumkin. Pulning o`zi esa zaxiradir, ya`ni muayyan bir vaqtda mavjud biror miqdordir. Zaxirani orttirish uchun kishilar o`z xarajatlarini kamaytiradilar yoki o`zlarining pul bo`lmagan aktivlarini pulga almashtiradilar. Zaxiralarni qisqartirish uchun esa ular aksincha ish tutadilar,

Fridman pulga bo`lgan turli moliyaviy yangiliklar, moliyaviy aktivlarning daromadliligi Markaziy bank faoliyati ta`siri ostida o`zgarishi mumkin, deb hisoblaydi. Biroq shunga qaramasdan kishilar baribir pul taklifini nazorat qiluvchi sarmoyalarning barqarorligi saqlanib qolgan davrda o`z pul mabla`glarini yalpi milliy mahsulot (YaMM)ning biror muayyan ulushi darajasida ushlab turishga harakat qiladilar. Agar pulga bo`lgan talab barqaror miqdor bo`lsa, unda Markaziy bank taklifni barqaror saqlab qolgan holda jami talab ham barqaror bo`ladi. Shunday qilib, bank zaxiralarining o`sish sur`atlarini va pul taklifini boshqarish Markaziy bankning muhim vazifasi bo`lishi lozim.

Bundan davlatning jami talabni boshqarish buyicha ikki siyosati, ya`ni fiskal va kredit-pul siyosatlari kelib chiqadi.

Iqtisodiyotni boshqarishning monetar yondashuviga muvofiq bozor mexanizmi kamchiliklarini to``grilash emas, balki uning ishlashi uchun eng yuksak darajada barqaror moliyaviy sharoitlarni ta`minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadda pul birligi

---

[1] Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2-т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т. 1- М.: Республика, 1992, -С. 321-322.

xarid kuchi va valyuta kursi barqarorligi ular uchun muhim jihatlardir. Shuning uchun ular fiskal siyosatning resurslarni qayta taqsimlash va barqarorlashtirish vositasi sifatidagi ahamiyatiga kam e`tibor beradilar. Ularning fikricha, siqib chiqarish effekti sababli fiskal siyosat mutlaqo yaramaydi. Ular quyidagicha fikr yuritadilar: davlat obligatsiyalar sotib, ya`ni pulni aholidan qarzga olib, byudjet kamomadini hosil qiladilar. Bunda davlat fondlar uchun xususiy biznes bilan raqobatli kurashga kirishadi.

Shu tariqa davlat qarzlari pulga bo`lgan talabni kengaytiradi, foiz stavkasini oshiradi va, demak, ko`p miqdordagi xususiy kapital mabla`glarni siqib chiqaradi, aks holda ular foydali bo`lar edi. Demak, monetarchilar fikricha, byudjet kamomadining jami xarajatlarga bo`lgan ta`siri pirovard natijasini oldindan aytib bo`lmaydi yoki u sezilmaydi. Agar kamomad yangi pullarni muomalaga chiqarish bilan qoplansa, siqib chiqarish effekti sodir bo`lmasligi mumkin va kamomaddan so`ng iqtisodiy faoliyatning kengayishi yuz berishi mumkin. Ammo bunday kengayish faqat qo`shimcha pullar yaratish tufayligina amalga oshadi[1].

Monetarizm nazariyasiga muvofiq iqtisodiy beqarorlik aksariyat hollarda iqtisodiyotning ichki o`zgaruvchanligiga nisbatan noto``gri pul-kredit boshqarilishi tufayli yuzaga keladi: birinchidan, o`zgaruvchan vaqt laglari mavjudligi. U shuni bildiradiki, bunda pul-kredit ta`siri bevosita berilsa-da, pul taklifidagi o`zgarishlar nominal SMMga uzoq va noma`lum vaqt orali`gidan so`ng ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun vaqt lagining noma`lum muddatida, monstarchilar fikricha, iqtisodiyotni davriy (tsiklik) yuksalish va pasayishga moslashtirish uchun diskret pul-kredit siyosatidan foydalanish aksincha samara berishi va davriy (tsiklik) tebranishlarni kuchaytirishi mumkin. Ikkinchidan, Federal zaxira tizimi foiz stavkasini barqarorlashtirishga urinib, iqtisodiyotni beqarorlashtirish va inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib kelishi mumkin[1].

Shuning uchun monetarchilar hukmron pul-kredit muassasalari foiz stavkasini barqarorlashtirish o`rniga pul taklifi o`sishi sur`atlarini barqarorlashtirishlari zarur, degan xulosaga keldilar. Bunga bo`gliq holda M. Fridman monetar qoidalarni[2] qonun yo`li bilan belgilash taklifi bilan chiqdi, unga ko`ra pul taklifi har yili YaMM o`sishi mumkin bo`lgan sur`atda oshishi, ya`ni pul taklifi barqaror ravishda yiliga 3-5%ga kengayishi, lozim.

Demak, monetarchilar fikriga ko`ra, pul taklifini berilgan sur`atda doimiy ravishda oshirib borish, xarajatlarni har qanday inflyatsiya yo`li bilan oshirish mabla`glar yetishmasligi tufayli o`z-o`zidan yo`qolib ketadi.

## Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning neoklassik modeli

Neoklassik yo`nalishdagi iqtisodchilar, asosan, davlatning jamiyatdagi daromadlarni odilona taqsimlash va allokatsion, ya`ni iqtisodiyotdagi resurslarni samarali joylashtirish maqsadidagi vazifalarni tadqiq qiladilar. Bozor iqtisodiyotini mikroiqtisodiy tahlil qilish neoklassik modelning tadqiqot ob`ekti hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning alohida iste`molchilar va firmalarning o`zaro aloqadorlikdagi faoliyatining aniq holati o`rganiladi. Neoklassiklar rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo`lgan mamlakatlarda davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish, uning iqtisodiyotni tartibga solishini cheklashni talab qiladilar. Ammo ular umuman iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishini butunlay inkor etmaydilar. Ularning fikricha, bozorning baho mexanizmi, regulyatori ko`p hollarda resurslarning optimal, samarali ishlatilishini ta`minlaydi. Ammo ba`zi holatlarda bozor ulardan samarali foydalanishga erishishni ta`minlay olmaydi. Xuddi ana shunday holatlarda davlat allokatsiya (taqsimlash)ni yaxshilab, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta`minlashda ijobiy rol  o`ynashi mumkin ekan.

---

[1] Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2 Т.Пер.с англ. 11-го изд. Т1.- М.: Республика, 1992.- С. 328.
[1] Ўша жойда, 328-329-бетлар.
[2] Ўша жойда, 327-бет.

Ushbu neoklassik modelning asosini ratsional kutish nazariyasi tashkil qiladi. Unga ko`ra kishilar o`zlarini ratsional tarzda tutadilar. Ular o`zlarining pulli manfaatlariga muvofiq keladigan narsalar bilan bo`gliq kutishlarining shakllanishidagi axborotlarni yi`gadilar va ularni o`rganadilar. Ushbu axborotlarga muvofiq ravishda o`z hayotlarini yaxshilashga qaratilgan qarorlar qabul qiladilar. Kutish bozor talabining kengayishiga (yoki qisqarishiga) olib keladi. Bu o`zgarishlar, o`z navbatida, tovarlar va xizmatlar baholarining ular hali ishlab chiqarilmasdan va sotilmasidan oldin o`sishi (yoki pasayishi)ni belgilab beradi.

Ratsional kutish nazariyasi yangi axborotlarning talab va taklif egri chiziqlarida tezda o`z aksini topishini, shuning uchun ham muvozanat baholari va ishlab chiqarish hajmlarining bozordagi yangi holatlarga, davlat iqtisodiy siyosatidagi o`zgarishlarga tezda moslashuvchan bo`lishini ifodalaydi[1].

Bu o`zgarishlar mohiyati Paretoning samaradorlik kriteriyalari asosida tushuntirilishi mumkin. Unga ko`ra jamiyat biron-bir a`zosining farovonligi boshqasining turmushini yomonlashuvi hisobiga yaxshilanishi mumkin bo`lmaydigan holatni vujudga keltiradigan resurslarning taqsimlanishi optimal hisoblanadi. Ayirboshlash munosabatlariga erkin kirishish imkoniyati bozorda muvozanat holatiga erishishni ta`minlaydi.

Bu muvozanatda mavjud baho darajasida tovarlarga talab miqdori ularning taklifi miqdoriga tenglashadi. Bu shunday holatki, bironta ham sub`ekt yangi ayirboshlash operatsiyalari natijasida bir-birlari hisobiga yutuqqa erisha olmaydi. Bunda resurslarning taqsimlanishi optimal bo`ladi, chunki iqtisodiyotda muvozanatlashuv sodir bo`ladi.

Demak, mukammal bozor resurslarning samarali alokatsiyani (taqsimlanishini) yaxshi ta`minlay olmaydi. Xuddi shu hol neoklassiklar nazarida bozor mexanizmiga davlatning aralashuvi uchun potentsial imkoniyatlar yaratadi[2].

Ushbu oqim tarafdorlari jamoatchilik ne`matlarini ishlab chiqarishni tashkil etishni davlatning eng muhim iqtisodiy vazifasi deb qaraydilar. Bu ne`matlarga milliy mudofaa, jamoatchilik tartibotini saqlash, atrof-muhitni nazorat qilish, ta`lim, so`gliqni saqlash va boshqalar uchun zarur bo`lgan tovar va xizmatlar kiradi. Bunday ne`matlarni ishlab chiqarish davlat korxonalarida to`planishi yoki ularni iste`mol qiluvchilardan soliq olish orqali to`plangan mabla`glarni xususiy korxonalarga buyurtma berishga, ularni ishlab chiqarishni subsidiyalashtirishga yo`naltirilishi mumkin.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlariga bo`gliq bo`lmagan, undan tashqarida bo`lgan atrof-muhitning yomonlashuvi bilan bo`gliq munosabatlar ham neoklassiklar nuqtai nazariga ko`ra davlat tomonidan tartibga solinishi lozim.

Neoklassik yo`nalish tarafdorlari kapitalning erkin oqib turishi uchun ham to`siqlarni bartaraf etish maqsadida davlatning tartiblash mexanizmi zarur ekanligini ta`kidlaydilar. Ularning nuqtai nazarlariga ko`ra davlat kichik biznes, fermer xo`jaliklari hamda qo`shma korxonalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish; yangi tashkil topgan firmalarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar berish, imtiyozli soliq solish, litsenziya, patentlar, iqtisodiy faoliyatning ma`lum turi bilan shu`gullanish uchun mutlaq huquqlar berish; iqtisodiy yakkahokimlikka qarshi kurash mexanizmlari orqali davlat kapitalining erkin harakat qilishi uchun to`siqlarni bartaraf qilib iqtisodiyotda raqobat mexanizmining yaratilishini tartibga soladi.

Demak, neoklassiklar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash tarafdorlari bo`lishlariga qaramasdan, uning ma`lum, yuqorida bayon etilgan doirada iqtisodiyotni tartiblash borasidagi faoliyatini asoslab beradilar.

Asosiy tushuncha va atamalar

---

[1] Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. С. 331.

[2] Ширяева Л., Мамедова Н. Неоклассическая модель государственного регулирования рыночных отношений. – Российский экономический журнал. – 1992. -№4. С. 100-101.

Klassik siyosiy iqtisod, iqtisodiy liberalizm, merkantilizm, fiziokratlar, iqtisodiy inqiroz, keynschilik, neokonservatorlar, monetarizm, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o`rni haqida merkantilistlar qarashlarini izohlb bering?
2. Iqtisodiy rivojlanishda davlatni roli haqida fiziokrat maktabi namoyondalarining qarashlarini tavsiflab bering?
3. Iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlatning o`rni haqida klassik siyosiy iqtisod kontseptsiyasi mazmunini yoriting?
4. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli haqida ratsional kutish maktabi namoyondalarining fikrlarini aytib bering?
5. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli haqidagi qarashlarda Keyns inqilobini tavsiflab bering?
6. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o`rni haqida Monetar nazariyani tushuntirib bering?

# 3.IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IQTISODIYoTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISh MEXANIZMINING ShAKLLANIShI

## 3.1. O`zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasining yaratilishi

O`zbekistonda mustaqillik e`lon qilingandan so`ng ijtimoiy yo`naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Yurtboshimiz rahbarligida ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida mashaqqatli taraqqiyot yo`li bosib o`tildi. Birinchip prezidentimiz mustaqil taraqqiyot yo`li va galdagi vazifalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati nuqtai nazaridan bu yo`lni ikki bosqichga bo`lish lozimligini asoslab berdi.

Dastlabki bosqich - 1991-2000 yillar o`tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bo`gliq birinchi galdagi islohot va o`zgarishlarni o`z ichiga oladi.

2001 yildan to hozirgacha bo`lgan muddatni o`z ichiga olgan ikkinchi bosqich faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo`lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta`minlashda muhim rol o`ynadi[1].

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida uni chuqur tanazzuldan chiqarib, barqaror rivojlantirishga, aholi turmush farovonligiga erishishga qaratilgan tub o`zgartirishlar siyosatining strategik maqsadlari birinchi prezidentimizI.A.Karimovning “O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida” nomli asarida quyidagicha izohlab berildi:

1. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta`minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko`p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo`lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo`lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta`minlash.

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон, 2007, 4-5-бетлар.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo`jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma`muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va ra`gbatlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta`minlaydigan chuqur strukturaviy o`zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo`shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o`zgartirish, har bir kishiga o`z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish”[1].

O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tish yo`li ijtimoiy-yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo`lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustuvorligini ta`minlash;
- o`tish davrida davlatning bosh islohotchi bo`lishi;
- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta`minlanishi;
- bozor munosabatlariga o`tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabridagi qo`shma majlisidagi ma`ruzasida “Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya`ni “shok terapiyasi” yo`li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo`lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday o`gir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo`lgan iqtisodiy va ijtimoiy to`fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo`lganimizni bugun hayotning o`zi tasdiqlab bermoqda”[1], - degan.

Mamlakatni 1991-2000 yillar davomida isloh qilish va yangilash bosqichida milliy davlatchilikni shakllantirish respublikamizni barqaror rivojlantirishda mustahkam zamin bo`ldi. Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma`muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo`lga qo`yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o`tkazish jarayoni amalga oshirildi[2].

Ushbu bosqichda, birinchi navbatda, qishloq xo`jaligi tubdan isloh qilinib, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ekologiyasiga katta zarar yetkazgan paxta monopoliyasiga barham berildi. Qishloq xo`jaligi ekinlari tarkibi o`zgartirildi. Mamlakatda `galla mustaqilligiga erishildi. Buning natijasida O`zbekiston o`zining `gallaga bo`lgan ehtiyojini qoplabgina qolmasdan, qo`shni MDH mamlakatlariga, Af`goniston, Eron kabi davlatlarga `galla va un mahsulotlarini eksport qilmoqda. Mamlakatimizda yangi neft -gaz konlarini aniqlash, bu sohaga investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali yirik korxonalarning qurilishi va rekonstruktsiya qilinishi natijasida neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 3 barobar ortdi. Respublika energetika mustaqilligiga erishdi.

**Ikkinchi bosqichda** iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, shuning negizida iqtisodiy o`sishni ta`minlab, bozor munosabatlarini to`liq joriy qilish maqsad qilib qo`yildi. Shu maqsaddan kelib chiqib, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo`lgan vazifalarni ko`rsatib berdi:

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т., “Ўзбекистон”, 1995, 18-бет.
[1] Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2010, 4-бет.
[2] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон, 2007, 29-бет.

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish;
- davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- iqtisodiy o`sishni va makroiqtisodiy mutanosiblik hamda barqarorlikni ta`minlash;
- milliy valyuta – so`mni yanada mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o`zgartirish, xom ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o`tish, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash.

O`tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta`minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko`rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo`l davom ettirildi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlab o`tganidek, mazkur bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»[2]. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko`zda tutdi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o`tkazish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo`naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta`minlash;
- yurtimizda transport kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish;
- soliq yukini kamaytirish, faol investitsiya, faol eksport siyosatini yuritish;
- aholi turmush darajasini oshirish, avvalo, qishloq joylarda kishilarning turmush sharoitini izchil yaxshilash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o`rin egallashiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko`lamda integratsiyalashuvini ta`minlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish eng asosiy vazifamiz[2].

Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning xar tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni

---

[2] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-ж -Т.: Ўзбекистон, 2000, 15-бет.

[2]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги фармони

[3]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги фармони

modernizatsiya qilish hamda xayotning barcha soxalarini liberallashtirish bo‘yicha mutlaqo yangicha yondoshuv hamda tamoyillar ishlab chiqishdan iborat[3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning mamlakatda olib borilayotgan barcha islohotlar to‘g‘ririsida shunday fikr bildiradilar “Islohot –islohot uchun emas inson manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak” demak yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarning barchasi insonlar uchun insonning manfaatlari uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonini e’lon qilindi.

Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda, yurtumizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo’yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

1-yo‘nalish: Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish

2-yo‘nalish: Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish

3-yo‘nalish: Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish

4-yo‘nalish: Ijtimoiy sohani rivojlantirish

5-yo‘nalish:Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish

## 3.2. Institutsional islohotlar va iqtisodiyotni tartibga solish tizimini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati

Mustaqillikka erishganimizdan keyin davlatimiz va uning ko`p millatli xalqi manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkoniyati tu`gildi. Bu vaqtda respublikamiz oldida o`ta muhim bo`lgan bir qator vazifalarni hal etish masalasi turardi. Birinchidan, yakkahokimlik tizimidan meros bo`lib qolgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish, ikkinchidan, mustaqil, demokratik jamiyatning mustahkam poydevorini yaratish va o`tish davriga xos muammolarni hal qilish.

Avvalambor, asosiy e`tibor yakkahokimlik tizimining illatlarini zudlik bilan tugatish, boshqaruvning ma`muriy-buyruqbozlik uslublari va direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni barqarorlashtirishga e`tibor qaratildi.

Respublikada yakkahokimlik, ma`muriy-buyruqbozlik tizimining amal qilishi iqtisodiyotni nochor ahvolga tushirib qo`ydi. Iqtisodiyotda ziddiyatlar kuchayib bordi, amaldagi xo`jalik yuritish mexanizmi esa mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishga noqobil edi. Bu holat jamiyat hayotida 60-yillardayoq yaqqol namoyon bo`la boshlagan edi. Iqtisodiyotning rivojlanish sur`ati keskin pasayib, sarf-xarajatlar ortib bordi. Rivojlanishning iqtisodiy vositalari va omillari amalda ishlamadi.

Respublikamiz davlat mustaqilligini qo`lga kiritgandan keyin bu salbiy oqibatlarni tugatish va rivojlanish sari dadil qadam tashlash imkoniyatiga ega bo`lindi. Totalitar tuzumdan qolgan “meros”ning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish lozim deb qaraldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «O`zbekiston - bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li» kitobida shunday yozadi: «...totalitar merosning o`gir oqibatlarini tugatish, iqtisodiyotga bozor asosida madaniylik baxsh etish faoliyatning ayrim sohalarini o`zgartirish yo`li bilan emas, balki keng miqyosda tubdan yaxlit iqtisodiy islohot o`tkazish orqaligina erishish mumkin...»[1].

Bozor iqtisodiyotiga o`tish iqtisodiy munosabatlarni yangilash, institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish va boshqarishning tegishli strukturasini yaratishni talab etadi. Shuning uchun ham

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998, 82-бет.

respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida boshqaruv tizimini isloh qilish masalasiga alohida e`tibor qaratildi.

### 3.3.O`zbekistonda institutsional islohotlarning mohiyati va maqsadlari.

Institutsional o`zgarishlar jarayonida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariga mos keladigan, xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini ra`gbatlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

Tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarishni markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va tashkil etishdan boshqarishning iqtisodiy mexanizmalariga o`tish masalasiga jiddiy e`tibor qaratildi.

Boshqaruv sohasidagi o`zgarishlar natijasida ko`plab boshqaruv organlari bo``ginlarining vazifasi o`zgardi, ba`zi o`zini oqlamagan boshqaruv organlari tugatildi va yangi organlar tuzildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov murakkab o`tish davrida qabul qilingan qonunlarning amalda bajarilishini ta`minlay oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qodir bo`lgan ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etar ekan, – “Shu maqsadda tub ma`muriy islohotlar amalga oshirildi: markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimining tayanchlari bo`lgan Davlat plan komiteti, Davlat ta`minot komiteti, Davlat narx komiteti, Davlat agrosanoat komiteti va ko`plab tarmoq vazirliklari tugatildi, mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil qilindi – viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik instituti joriy etildi. Mahalliy o`zini o`zi boshqarish organi tizimi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e`tibor qaratildi”[1], - deb ta`kidladi.

O`zini oqlamagan Davlat reja qo`mitasi o`rniga Davlat istiqbolini belgilash va statistika qo`mitasi tuzildi. Mazkur Qo`mita 1997 yildan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirildi. Hozirgi davrda bu vazirlik Iqtisodiyot vazirligi deb ataladi.

Narxlarni erkinlashtirish sharoitida Davlat narx qo`mitasi batamom tugatildi.

Yakkahokim bo`lib olgan taqsimot idorasi - Davlat ta`minot qo`mitasi va uning vorisi – “O`zshartnomasavdo” o`rniga yangi bozor strukturasi – Respublika ulgurji va birja savdosi aktsiyadorlik uyushmasi tuzildi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida va bozor munosabatlarini boshqarishda moliya-kredit tizimi muhim o`rinni egallaydi. Islohotlarning birinchi bosqichida, respublika Moliya vazirligi va Markaziy bankning vazifalari qayta ko`rib chiqildi. Ularning yangi bo``ginlari tuzildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish uchun Davlat soliq qo`mitasi va Davlat bojxona qo`mitasi tuzildi.

Respublikamizda mavjud boshqaruv organlarining nafaqat faoliyati, balki ularning vazifalari ham yangi jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda qayta ko`rib chiqildi hamda o`zgartirildi. Tashkil etilgan yangi ijro organlari tizimi rejalash – taqsimlash vazifalaridan xoli bo`lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini bajarmoqda.

Institutsional o`zgarishlar jarayonida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariga mos keladigan, xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini ra`gbatlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

### 3.4.O`zbekistondagi ma`muriy islohotlarning asosiy yo`nalishlari

[1] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон, 2007, 11-12-бетлар.

O`zbekistondagi ma`muriy islohotlarning asosiy yo`nalishlari quyidagilarda o`z ifodasini topadi:

**Birinchidan,** iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini keskin cheklash, davlatning boshqaruv tuzilmalari va ularning vazifalarini qisqartirish, davlat boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirish zarur. Davlat vazifalari va vakolatlarini tobora ko`proq jamoat, nodavlat tashkilotlarga, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga o`tkazish kerak.

**Ikkinchidan**, boshqaruvni nomarkazlashtirish, ayrim vazifalarni esa hududiy boshqaruv bo``ginlariga keng ko`lamda topshirish, ortiqcha ma`muriy vertikal tuzilmalarni tugatish zarur. Barcha darajadagi hokimliklarning islohotlarni amalga oshirish, joylardagi ishlarning ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, bandlik muammolarini yechish hamda aholi turmushini farovonlashtirish borasidagi mas`uliyatini kuchaytirish lozim.

**Uchinchidan**, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ayrim tarmoq va hududiy boshqaruv tuzilmalarini qayta tuzish, birlashtirish, qisqartirish va tugatish asosida iqtisodiyotni boshqarish tuzilmalarining samaradorligini ta`minlash. Bugungi kunda nafaqat ayrim bo``ginlarni, balki qilinayotgan sarf-xarajatlarni deyarli oqlamayotgan ayrim idoralarni ham saqlab qolish qay darajada maqsadga muvofiq, degan masalani qayta ko`rib chiqish payti keldi.

**To`rtinchidan**, boshqaruv tizimining samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish. Qarorlarni tayyorlash va qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning ijrosi ustidan ta`sirchan nazorat mexanizmini joriy etish zarur.

Vazirlik va xo`jalik birlashmalarining mavjud boshqaruv shakli, usul va metodlarini ma`muriy-buyruqbozlikdan xalos qilish, ularning korxonalar xo`jalik faoliyatiga aralashib, xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning iqtisodiy mustaqilligini cheklashiga yo`l qo`ymaslik uchun tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim.

**Beshinchidan**, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, keraksiz hisobotlarni va qo`gozbozlikni qisqartirish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hisobidan uning samaradorligini oshirish.

Ma`muriy islohotlarni amalga oshirishda oldimizga qo`yilayotgan eng asosiy vazifa, birinchidan, davlat, jamoat va xo`jalik sub`ektlarini boshqarishning butun tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirishni ta`minlash, ikkinchidan esa, ularni mamlakatni isloh va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichi talablariga mos holatga keltirishdan iborat.

## 3.5.Institutsional o`zgartirishlar natijasida vujudga keltirilgan davlat boshqaruvining iqtisodiy strategiya va siyosati.

O`zbekistonda institutsional o`zgartirishlarning amalga oshirilishi natijasida vujudga keltirilgan davlat boshqaruvi tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bo`yicha iqtisodiy strategiya va siyosat ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Davlatning iqtisodiy strategiyasi uning siyosiy strategiyasini amalga oshirish uchun iqtisodiyotga davlatning aralashuvi mexanizmlari va ustuvorliklarining transformatsiyalashuvini belgilab beradi. Iqtisodiy strategiya uzoq muddatli davr ichida davlat faoliyatining yo`nalishi va uning amalga oshirish printsiplarini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne`matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo`llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati o`z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-byudjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi (1-chizma).




1-chizma
**Davlatning iqtisodiy siyosati**

Davlat siyosatining muvaffaqiyati jamiyat ehtiyojlari va ularni qondirish vositalarini aniqlash uchun real holatni aniq belgilash va iqtisodiy bilimlar darajasiga bo`gliqdir.

Davlat iktisodiy siyosatining printsiplari quyidagilarda ifodalanadi:

**Iqtisodiyotning samaradorlik printsipi**. Mavjud resurslar hisobiga ko`p miqdorda ne`matlar yoki kam sarf-xarajatlar evaziga ko`p miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarish.

**Ne`matlarning odilona taqsimlanishi printsipi**. Mamlakat fuqarolari daromadlaridagi tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiyot samaradorligiga qo`shgan hissalariga muvofiq har bir fuqaro daromadlarining ko`payib borishini ta`minlash.

**Barqarorlik printsipi:**

iqtisodiy o`sishning barqarorligi;

inflyatsiya o`sishi sur`atining pastligi;

ishsizlik darajasining yuqori emasligi.

Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi:

**Iqtisodiy indikatorlar** davlat iqtisodiy xavfsizligi sharti buzilishining asosiy belgisi – YaIM tarkibida ishlab chiqarish investitsiyalari ulushining kamayishidir.

**Ijtimoiy indikatorlar** xavf va tahdidning bosh signali mehnat unumdorligi ra`gbatlarining susayishi va jamiyatda aholi ijtimoiy tabaqalanishining kuchayishi.

**Moliyaviy indikatorlar** moliyaviy xavf signali – ishlab chiqarishning qisqarishi va ishlab chiqarish investitsiyalari hajmining pasayishi sharoitida davlat qarzining o`sib borishi.

**Bozor munosabatlariga o`tish sharoitida davlat va hukumatning vazifalari quyidagilardan iborat bo`ldi:**

- xususiy mulkni erkinlashtirish va huquqiy jihatdan kafolatlash;
- bozor iqtisodiyoti uchun ma`muriy va moliyaviy infratuzilmalarni yaratish;
- narxlarni erkinlashtirish;
- sanoat siyosatini asoslash va amalga oshirish, investitsiyalar, iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiya qilish va tarkibiy o`zgartirish uchun bozor sharoitlarini yaratish;
- jahon bozori uchun iqtisodiyotning ochiqligini ta`minlash;

- makroiqtisodiy ahvolni boshqarish, oqilona byudjet-soliq va pul-kredit siyosatni amalga oshirish;
- markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy, ta`lim infratuzilmalari va mehnat bozorini vujudga keltirish;
- hukumatning bozor iqtisodiyotini ma`muriy tartibga solish qobiliyatini samarali davlat xizmatini shakllantirish.

Asosiy tushuncha va atamalar

Iqtisodiy islohot, davlat bosh islohotchi, institutsional islohotlar, iqtisodiyotni boshqarish, ma`muriy boshqarish tizimi, davlat boshqaruv tizimi, iqtisodiyotni ma`muriy boshqarish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi, iqtisodiy strategiya, iqtisodiy siyosat.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

**1.**O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar strategiyasining mohiyatinimadan iborat?
2.Iqtisodiyot sobiq totalar tizim davrida qanday boshqarilgan?
3.Sobiq totalitar tizim davrida davlat boshqaruv organlari qanday tarkibga ega edi?
4.O`zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin nima uchun institutsional islohotlarga zaruriyat tu`gildi?
5.Institutsional islohotlarning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
6.Institutsional islohotlar qanday yo`nalishlarda amalga oshirildi?
7.Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning qanday institutlari vujudga keldi?
8.Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasining mazmuni va tamoyillari nimalardan iborat?
9. Davlatning iqtisodiy siyosatining mohiyati va tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

# 4. O`ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLAShTIRISh VA BOShQARISh – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISh VOSITASI

## 4.1. Davlat mulki va tadbirkorlik

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim davlat vositalaridan biri o`z mulki bo`lgan tarmoq va korxonalarni boshqarish, ya`ni bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shu`gullanishdir.

Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismini mulk egasi sifatida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi, rejalashtiradi va uni nazorat qiladi. Davlat tadbirkorlik faoliyati orqali fan-texnika inqilobi talablariga ko`ra xalq xo`jaligi tuzilishini shakllantirishga hamda bozor baholaridan birmuncha past baholarda tovar sotish va xizmatlar ko`rsatish orqali ishlab chiqarishning boshqa sektorlarining rivojlanishiga ko`maklashadi. Davlat mulki va sohibkorligi ko`lami bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan bo`ladi. U, asosan, mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Uning doirasiga O`zbekiston Respublikasida, birinchidan, oltin, uran, neft , gaz, ko`mir, rangli metallar va boshqa tabiiy boyliklarni qazib chiqarish sanoati tarmoqlari; energetika, temir yo`l, avtomobil yo`llari, transportning bir qismi kirishi lozim.

Qazib chiqaruvchi tarmoqlar mahsulotlari mamlakatning eng muhim milliy boyligi hisoblanadi. Energetika va transport esa xalq xo`jaligining hayotiy qon tomirlaridir. Shu bilan birga, ularning kapital hajmkorligi yuqori va aylanish muddati uzoq bo`lganligi uchun xususiy korxonalarning bu sohadagi tashabbuskorligi cheklangan bo`ladi. Ana shu sabablarga ko`ra, ushbu tarmoqlarni davlat bevosita boshqarishi maqsadga muvofiqdir. Hamma rivojlangan mamlakatlarda ham davlat kapital mabla`glarining ko`p qismi ushbu sohalarga yo`naltiriladi.

Ikkinchidan, O`zbekiston iqtisodiy mustaqillikni qo`lga kiritish uchun mashinasozlik, shu jumladan, avtomobilsozlik, uskunasozlik, fan-texnika inqilobi vujudga keltirgan elektrotexnika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishi zarurdir. Bu yangi tarmoqlar qaror topishi davlat tadbirkorlik faoliyati doirasida bo`ladi.

Uchinchidan, fan-texnika inqilobi sharoitida fan va texnikaga rahbarlik qilish ham davlat zimmasiga yuklanadi. Davlat eng qimmatli fundamental fanlar sohasidagi ilmiy ishlarni moliyalashtiradi.

Davlat o`z korxonalarining tovar va xizmatlarini past darajadagi, aksariyat hollarda ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin bo`lgan baholar bilan sotadi. Bu bilan aholi turmush darajasining oshishiga, xususiy va boshqa korxonalarning samarali ishlashiga, xalq xo`jaligi tarmoqlarining ma`lum nisbatlarini shakllantirishga ta`sir ko`rsatadi.

Davlat o`ziga qarashli korxonalarni ijaraga berish, mehnat kollektivlariga, xususiy shaxslarga sotish, aktsionerlik jamiyatlariga aylantirish yo`li bilan aralash mulkni shakllantirish orqali iqtisodiyotning boshqa mulk doiralarining tashabbuskorligiga, rentabelligining oshishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Davlatning xususiy, jamoa va boshqa toifadagi korxonalardan tovar va xizmatlar sotib olishi iqtisodiyotni tartibga solishning bir usuli hisoblanadi. XX asrning buyuk iqtisodchilaridan biri bo`lgan Jon Keyns bu vositani “iqtisodiyotni tetiklantiradi” deb ta`kidlagan. Ushbu o`rinda savol tu`giladi. Xo`sh, davlat qanday tovarlarni sotib oladi?

Davlat, birinchidan, o`ziga qarashli tarmoq va korxonalarning samarali ishlashi uchun xom ashyo, asbob-uskunalar; ikkinchidan, boshqaruv apparati xodimlarini moliya bilan ta`minlash; uchinchidan, mehnatga layoqatsiz mayib-majruhlar, qariyalar, yetim bolalar, kamba`gallar hamda ko`p bolali oilalar, yol`giz, qarovsiz kishilarga yordam maqsadida iste`mol tovarlari va xizmatlar bilan ta`minlash; to`rtinchidan, harbiy anjomlar, qurol-yaro`glar armiya uchun lozim bo`lgan iste`mol tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, beshinchidan, turli xil tabiiy ofatlarning oldini olish uchun davlat zaxiralarini tashkil etish maqsadida tovarlar sotib oladi. Buning oqibatida davlatning tovarlar va xizmatlar bozori shakllanadi. Davlat bozori muhim ijobiy rol o`ynaydi. Bu bozor kafolatli bo`lib, uning to`lov qobiliyati davlatning byudjet va valyuta fondi orqali ta`minlanadi. Har qanday bozor kon`yunkturasi sharoitida ham davlat buyurtmasi va kontraktlari yuzasidan ishlayotgan korxonalar bozori kasod bo`lmaydi. Bu bozor davlat buyurtmalari orqali tartibga solinadi, unda kelishilgan baholar amal qiladi va uning ishtirokchilariga barqaror foyda keltiradi.

## 4.2. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari

O`zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Amalda bu O`zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o`tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo`li hisoblanadi.

Ana shu yo`nalishlarda keng ko`lamda chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va strategik vazifalari mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan asoslab berilgan[3]. Unga ko`ra xususiylashtirish jarayonida ikkita muhim strategik vazifa hal etilishi ko`zda tutilgan:

**Birinchi strategik vazifaning asosiy mazmuni** – bu davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan mulkning haqiqiy mulkdorlar qo`liga berilishi iqtisodiy munosabatlarni tubdan o`zgartirish uchun real shart-sharoit yaratishga imkon tu`gdiradi.

Xususiylashtirishning **ikkinchi strategik vazifa**si esa iqtisodiyotda ko`p ukladlilikni hamda ra`gbatlantiruvchi kuchga ega bo`lgan raqobat muhitini yaratish, shu orqali davlatni mulkka

[3] И.А.Каримов. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1995. 246– б.

bo`lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarni barpo etishdir.

Ana shu modelga asoslangan holda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari shartli ravishda o`zaro bo`gliq uch bosqichga bo`linadi.

Dastlabki, **birinchi boskich “**kichik xususiylashtirish” davri deb nomlandi va 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Unda aholi yashaydigan davlatga tegishli uy-joylar, savdo, maishiy xizmatlar ko`rsatish, dorixona va shu kabi 53,9 mingta mayda davlat korxonalari xususiylashtirildi. Ularning negizida 28,8 mingdan ortiq nodavlat korxonalari tashkil etildi. (.2.1-jadval).

Ushbu bosqichning o`ziga xos tomonlari shundan iborat bo`ldiki, unda davlat mulkiga asoslangan korxonalarni xususiylashtirish shakllarini tanlash va xususiylashtiriladigan mulkni baholash bo`yicha tegishli tajribalar to`plandi.

Xususiylashtirishning keyingi - **ikkinchi bosqichi** „ommaviy xususiylashtirish” davri deb nom oldi va u 1994-1998 yillarni o`z ichiga oladi. Bu davrda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qurilish, avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa tarmoqlarning o`rta va yirik korxonalari ochiq aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan bir vaqtning o`zida qimmatli qo`gozlar, ko`chmas mulk bozorlarini shakllantirish boshlandi. Bundan asosiy maqsad xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamlari hamda chet el sarmoyalarini jalb etish va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining nodavlat sektorini jadal rivojlantirishni ta`minlash bo`ldi. Ushbu bosqichda 21361 xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida 5747 ta ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari, 3903 ta mas`uliyati cheklangan jamiyat va 11711 ta xususiy mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalar tashkil etildi.

Xususiylashtirishning **uchinchi bosqichi** 1999 yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqich “yakka tartibda xususiylashtirish” davri hisoblanadi.

Xususiylashtirishning ushbu davri avvalgi bosqichlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, ushbu davrda iqtisodiyotning yonil`gi-energetika, metallurgiya, kimyo, temir yo`l transporti va shu kabi boshqa strategik tarmoqlarning yirik korxonalarini chet el investitsiyalarini keng jalb etgan holda yakka loyihalar asosida xususiylashtirishga kirishildi. Ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan ochiq aktsiyadorlik jamiyatlaridagi joylashtirilmagan, shu jumladan, davlatga tegishli aktsiyalar paketlari hamda ayrim korxonalarni butunlay yoki ular mulkining bir bo`lagini birja yoki birjadan tashqaridagi bozorlarda turli yondashuvlar va usullarni qo`llash asosida sotish yo`lga qo`yildi. Uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar bilan ishlovchi hamda istiqbolsiz korxonalar va ular mulkidagi davlat ulushlari nol qiymat bilan chet el yoki mamlakatimiz sarmoyadorlariga investitsiya kiritish hisobiga bepul berish tartibi joriy etildi va amalga oshirilmoqda.

**Xususiylashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari**
**(2018 yil yanvar’-dekabr’ holatiga)**

| | Xususiylashtirilgan korona va ob’ektlar soni | | Davlat aktivlarini sotishdan tushgan tushumlar | |
|---|---|---|---|---|
| | Brilik | Jamiga nisbatan foizda | Mln.so‘m | Jamiga nisbatan foizda |
| O‘zbekiston Respublikasi | 835 | 100,0 | 223048,2 | 100,0 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 74 | 8,9 | 5718,4 | 2,6 |
| Viloyatlar | | | | |
| Andijon | 66 | 8,0 | 5578,8 | 2,5 |
| Buxoro | 43 | 5,1 | 9104,7 | 4,1 |
| Jizzax | 38 | 4,6 | 5459,4 | 2,4 |
| Qashqadaryo | 69 | 8,2 | 5342,8 | 2,4 |
| Navoiy | 28 | 3,3 | 2010,1 | 0,9 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Namangan | 65 | 7,8 | 11605,7 | 5,2 |
| Samarqand | 60 | 7,2 | 9336,3 | 4,2 |
| Surxondaryo | 73 | 8,7 | 3771,2 | 1,7 |
| Sirdaryo | 38 | 4,6 | 2178,0 | 1,0 |
| Toshkent | 133 | 15,9 | 16233,7 | 7,2 |
| Farg‘ona | 84 | 10,1 | 10161,2 | 4,6 |
| Xorazm | 52 | 6,2 | 5753,0 | 2,6 |
| Toshkent.sh | 12 | 1,4 | 130795,1 | 58,6 |

O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish dav lat qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 835 ta(dastur doirasida va dasturdan tashqari) korxona ob’yektlar xususiylashtirildi.

Xisobot davrida eng ko‘p xususiylashtirilgan ob’ektlar soni:

Toshkent viloyati- 133(15,9%)

Farg’ona viloyati – 84(10,1%)

Qoraqolpog’iston Res – 74(8,9%)

Surxondaryo viloyati - 73 (8,7%)

Qashqadaryo viloyati - 69 (8,2%)

Andijon viloyati - 66 (8,0%)

**Xususiylashtirilgan** davlat mulki ob’ektlari tarkibida eng ko‘p ulush mahalliy xokimiyatlarga 683 ta ob’ekt (respublika bo‘yicha jami xususiylashtirilgan ob’ektlarning 81.8 %), Sog‘liqni saqlash vazirligi 72 ta ob’ekt (8,6%), Xalq ta’limi vazirligi -13 ta ob’ekt (1,6), Qishloq xo‘jaligi vazirligi -13 ta ob’ekt (1,6 %), va “Navoiy kon metallaurgiya kombinati” DK-12 ta ob’ekt (1,4%) ga to‘g‘ri keladi.

2018 yilning yanvar’-dekabrida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 223,0 mlrd so‘mni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar’-dekabrida respublika xududlari kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar tarkibi: Hududlar kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shaxriga(Barcha tushumlar 58,6%), Toshkent(7,2%), Namangan (5,2%),Farg‘ona (4,6 %),Samarqand (4,2 %), Buxoro (4,1%) viloyatlari issasiga to‘g‘ri keladi.

Davlat noturarjoy fondidan samarali foydalanish maqsadida 2018 yilda ob’ektlarni ijaraga berish bo‘yicha 30,9 mingdan ortiq ijara shartnomalari tuzildi. Buning natijasida 5,5 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlar jami 135,0 mlrd. So‘mni tashkil etdi.

2018 yil yanvar’-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko‘p savdoda 11713 ta, shuningdek:

Savdoda – 11713 ta;

Sanoatda – 11262 ta;

Qurilishda- 6360 ta;

Qishloq, shrmon va baliqchilik xo‘jaligida -5586 ta;

YAshash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 3891 ta;

Tashish va saqlashda – 2107 ta;

Axborot va aloqada – 1228 ta;

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda -1154ta;

Boshqa turdagi xizmatlarda – 5621 tani tashkil etdi.

**, O‘zbekistonda xususiy mulk shaklidagi korxonalar**

1. Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ)
2. Ma’suliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)
3. Qo‘shimcha ma’suliyatli jamiyat (QMJ)
4. Qo‘shma korxonalar
5. Xususiy korxonalar

6. Oila tadbirkorligi
7. Fermer xo‘jaliklari
8. Dehqon xo‘jaliklari
9. SHirkat xo‘jalilari (yaylov chorvachiligida)

### 4.3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning hozirgi bosqichining xususiyatlari

«Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish.» bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategi yasi to‘g‘risida »gi farmoni e’lon qilindi.

**Xususiylashtirishning hozirgi bosqichiga xos xususiyatlar va tamoyillar:**

• xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilishga doir qonunchilikni yanada mustahkamlash;

• xususiylashtirish ishlariga nisbatan munosabat va yondashuvlarni tubdan o`zgartirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga qarashli korxonalarning aktsiyalarini kimoshdi savdosiga qo`yish;

• davlat mulkini xususiy investorlarga sotish samarasini ta`minlashda investorlarning korxonalarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiya majburiyatlari bilan jalb etilishi ustuvorligi;

• zarar ko`rib ishlayotgan, past rentabelli, istiqbolsiz davlat korxonalari va ulardagi davlat ulushini investitsiya majburiyatlari evaziga nolga teng xarid qiymati bo`yicha xususiy mulkka sotish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mexanizmini takomillashtirish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 20 iyuldagi “2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo`yicha choralar to``grisida”gi PQ-672 sonli Qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda “Iqtisodiyot real sektori korxonalari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo`yicha choralar to``grisida”gi PF-4053-sonli Farmoni, 2008 yil 24 apreldagi “Baholash tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning ko`rsatiladigan xizmatlar sifati uchun mas`uliyatini oshirish to``grisidagi PQ-843-sonli Qarori qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 yanvardagi “Davlat aktivlarini sotish mexanizmini takomillashtirish bo`yicha choralar to``grisida”gi 27-sonli Qarori bilan “Birja savdolarida davlat aktivlarini sotish tartibi to``grisida”gi va “Birjadan tashqari savdolarda davlat aktivlarini sotish to``grisida”gi tartiblar tasdiqlangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi PQ-843-sonli Qaroriga binoan Davlat mulk qo`mitasi BMT Rivojlanish dasturi bilan “O`zbekiston Respublikasida baholash metod+ologiyasi va amaliyotini rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash” loyihasi amalga oshirish bo`yicha shartnoma imzolangan. Ushbu loyiha doirasida O`zbekiston Respublikasining uchta milliy standarti, ya`ni “Xususiylashtirish maqsadida mulkning qiymatini baholash”, “Biznes qiymatini baholash”, “Ko`chmas mulk qiymatini baholash”standartlari O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro`yxatdan o`tkazildi.2017 –yil 18-apreldagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish to’g’risida”gi farmoni ishlab chiqildi.

2010 yilda 96 ta davlat aktivlari 64,5 mln. dollar va 40,98 mlrd. so`mga, shu jumladan, ulardan 63,5 mln. dollar va 21,26 mlrd. so`mlik investitsiya majburiyatlari hisobiga sotilgan. Davlat tender komissiyasi qaroriga binoan 60 ta davlat aktivi 64,52 mln. dollar va 35 mlrd. so`mga sotildi. Ularning 63,5 mln. dollari va 17,73 mlrd. so`mini investitsiya majburiyatlari tashkil etadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida 2007-2010 yillarda 474 ta shartnoma bo`yicha investitsiya majburiyatlari bajarildi. Ularning umumiy qiymati 129,37 mln. AQSh dollari va 106,53 mlrd. so`mni tashkil etdi. Shu jumladan, xorijiy investorlar tomonidan 42

ta mulkni investitsiya majburiyatlari asosida xarid qilish to``grisidagi shartnomalar to`liq bajarildi. Ularning qiymati 2007-2010 yillarda 86,76 mln. AQSh dollari va 11,86 mlrd. so`mni tashkil etdi (4.3.2-jadval).

**4.3.2-jadval**
**Davlat aktivlarini harid qilganlar tomonidan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi ko`rsatkichlari[1]**

| | 2011y | 2012y | 2013y | 2018y |
|---|---|---|---|---|
| Bajarilgan investitsiya majburiyatlari bo`yicha shartnomalar soni | 105 | 131 | 142 | 96 |
| Ularning umumiy qiymati | | | | |
| mln. AQSh dollari | 14,23 | 37,35 | 57,89 | 19,9 |
| mlrd. So`m | 10,31 | 56,99 | 19,13 | 21,1 |
| Shu jumladan | | | | |
| Xorijiy investorlar tomonidan, shartnomalar soni | 13 | 11 | 10 | 8 |
| mln. AQSh dollari | 11,93 | 30,5 | 25,46 | 12,87 |
| mlrd. So`m | 2,61 | 8,05 | 1,2 | - |
| Mahalliy investorlar shartnomalar soni | 26 | 69 | 74 | 54 |
| mln. AQSh dollari | 2,3 | 0,85 | 0,034 | 0,618 |
| mlrd. So`m | 2,4 | 4,29 | 11,9 | 11,219 |
| Nol xarid qiymatida shartnomalar soni | 66 | 51 | 58 | 34 |
| mln. AQSh dollari | - | - | 32,4 | 6,4 |
| mlrd. so`m | 5,3 | 37,3 | 6,026 | 9,9 |
| O`zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar | | | | |
| mln. AQSh dollari | 80,1 | 97,40 | 32,63 | 18,0 |
| Bekor qilingan shartnomalar soni | 34 | 33 | 18 | |
| mln. AQSh dollari | 22,45 | 1,51 | 2,19 | |
| mlrd. so`m | 2,52 | 4,34 | 8,48 | |

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining hozirgi bosqichida davlat ulushi bor bo`lgan xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati monitoringi amalga oshirilmoqda (8.3.1-rasm).

**8.3.1-rasm**
**Faoliyati monitoring qilinayotgan xususiylashtirilgan korxonalar soni[1]**

Davlat mulk qo`mitasi tomonidan 2018 yil xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati o`rganilgan bo`lsa, korxona faoliyati tahlil qilindi.

O’zbekistonda 40 ming ob’yekt o’rganilib, ularning 3ming 900 tasibo’sh turgani va to’liq ishlamayotgani aniqlandi..

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to``grisida”gi 102-sonli Qaroriga binoan Davlat mulkini ijaraga berish markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат мулк қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.
[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат мулк қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

- ijaraga berilayotgan davlat mulki hamda uni ijaraga berishdan tushadigan mabla`glarni hisobga olish va manitoringi olib borish;

- ijaraga beriladigan davlat mulki bo`yicha ma`lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

- ijara ob`ektlaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to`lovi o`z vaqtida va to`liq to`lanishini nazorat qilish;

- ijaraga beriladigan davlat mulkini har choraklik asosda xatlovdan o`tkazish;

- foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to``grisidagi e`lonlar va ijaraga

berilayotgan davlat mulki ro`yxatini respublika va viloyat davriy nashrlarida hamda O`zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo`mitasi, monopoliyadan chiqarish, raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida har chorakda e`lon qilish.

Xususiylashtirish va mulkdorlar safini kengaytirish, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo`nalishidagi qilinishi lozim bo`lgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

– davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo`yicha ishlarni davom ettirish;

– aktsiyalashtirish amaliy natija bermagan korxona va ob`ektlarni xususiy mulkdorlarga berish;

– yangi mulkdorlarning korxonalar samarali faoliyatini ta`minlash, investitsiya majburiyatlarini so`zsiz bajarish bo`yicha huquqiy va iqtisodiy javobgarligini oshirishni ko`zda tutgan holda amaldagi qonunchilikning me`yorlarini qayta ko`rib chiqish va kuchaytirish;

– xususiylashtirish jarayoniga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bo`yicha majburiyatlarni o`z zimmasiga oladigan ishonchli va mas`uliyatli investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

2008 yilda O`zbekiston Respublikasining “Qimmatli qo`gozlar bozori to``grisida”gi hamda “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoyalash to``grisida”gi qonuniga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to``grisida”gi qonunlari hamda boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar qimmatli qo`gozlar bozorini rivojlantirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va aktsiyadorlarning korxonalarni boshqarishdagi faolligini oshirish, baholovchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish va ularning ko`rsatilajak xizmatlar sifatiga mas`uliyatini oshirish, yangi mulkdorlarning korxonalarni samarali faoliyat yuritishi uchun mas`ulligini oshirishning huquqiy asosini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatda tadbirkorlik sub`ektlarini tashkil etish va samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida ham sezilarli chora-tadbirlar ko`rilmoqda. Biznesni ro`yxatdan o`tkazish, ixtiyoriy tugatish ishlari soddalashtirildi va tartibga solindi. Ayrim qoidabuzarliklar bo`yicha jarima sanktsiyalari pasaytirildi yoki umuman bekor qilindi. Soliq stavkalari ham unifikatsiya qilinib, tobora pasaytirib borilmoqda.

Xususan, kichik korxonalarga yagona soliq to`lovi 13% dan 6%(sanoat korxonalari uchun5%ga tushirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularning 486 tasida davlat ulushi 52 trillion so‘mni tashkil etmoqda.

YOqilg‘i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport va bank sohalarida davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ayrim vazirliklar o‘zi nazorat qiladigan sohadagi korxonalarda ta’sischi ekani erkin va sog‘lom raqobatga yo‘l bermayapti, buniyam bugun ochiq aytish kerak. Bunday tizimni endi o‘zgartirmasak, ushbu tarmoqlarda ham va umuman, iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.

Davlat aktivlari tartibsiz boshqarilayotgani ham samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda 972 ta davlat korxonasi aktivlarining atigi 21 foizi Davlat raqobat qo‘mitasi tomonidan, qolgan 79 foizi vazirlik va idoralar hamda xo‘jalik birlashmalari tomonidan boshqarilmoqda[1].

O‘zbekiston Respublikasi SHavkat Mirziyoevntng Oliy majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr’.

Bunday yondashuv so‘nggi 27 yil davomida davlat korxonalarini qanday ahvolga olib kelgani hech kimga sir emas. Aviasozlik sanoati kabi butun bir soha yo‘q bo‘lib ketdi.

Mavjud tizimni tartibga solish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni mustaqil agentlik etib qayta tashkil qilish lozim.

Bu Agentlik davlat mulkini boshqarish, davlat korxonalarini isloh qilish, aksiya va obligatsiyalar chiqarish yo‘li bilan ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish, xususiylashtirish jarayonlariga bosh-qosh bo‘ladi.

Tadbirkorlarni yuqori likvidli moddiy resurslar bilan ta`minlashning bozor mexanizmlari yaratildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtda bozor infratuzilmalari shakllandi va ular rivojlanish bosqichiga o`tdi. Bu fond, tovar hamda ko`chmas mulk bozorlari, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting va shu kabi boshqa tuzilmalarni tashkil topishi va rivojlanishi bilan namoyon bo`ldi.

Erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan respublikamizning ayrim hududlarida xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash ishlariga e`tibor sustligicha qolmoqda. Vaholanki, mulkdan samarali foydalanish va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish dotatsiyadan chiqish hamda byudjetning daromad qismini oshirishning asosiy yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat mulkini xususiylashtirish va undan samarali foydalanish borasida 2011-2013 yillarga mo`ljallangan xususiylashtirish dasturi, Prezident qarori va Davlat mulki ob`ektlarini samarali boshqarish chora-tadbirlari to``grisida Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalarini ishlab chiqishga asosiy e`tibor qaratilgan bo`lib, dasturlarning o`ziga xos xususiyati korxonalarga to``gridan-to``gri investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor ahamiyat qaratilganligidir.

Investorlarning takliflari xususiylashtirilayotgan ob`ektning xarid qiymati miqdoridan emas, balki investorning investitsiya dasturi mazmuni, uning ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonani modernizatsiya qilish hamda samarali boshqaruvni joriy qilinishiga yo`naltirilganligidan kelib chiqib baholanadi.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvini keskin kamaytirish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularning 486 tasida davlat ulushi 52 trillion so‘mni tashkil etmoqda.

YOqilg‘i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport va bank sohalarida davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ayrim vazirliklar o‘zi nazorat qiladigan sohadagi korxonalarda ta’sischi ekani erkin va sog‘lom raqobatga yo‘l bermayapti, buniyam bugun ochiq aytish kerak. Bunday tizimni endi o‘zgartirmasak, ushbu tarmoqlarda ham va umuman, iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.

Davlat aktivlari tartibsiz boshqarilayotgani ham samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda 972 ta davlat korxonasi aktivlarining atigi 21 foizi Davlat raqobat qo‘mitasi tomonidan, qolgan 79 foizi vazirlik va idoralar hamda xo‘jalik birlashmalari tomonidan boshqarilmoqda.

Bunday yondashuv so‘nggi 27 yil davomida davlat korxonalarini qanday ahvolga olib kelgani hech kimga sir emas. Aviasozlik sanoati kabi butun bir soha yo‘q bo‘lib ketdi.

Mavjud tizimni tartibga solish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni mustaqil agentlik etib qayta tashkil qilish lozim.

Bu Agentlik davlat mulkini boshqarish, davlat korxonalarini isloh qilish, aksiya va obligatsiyalar chiqarish yo‘li bilan ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish, xususiylashtirish jarayonlariga bosh-qosh bo‘ladi.

Davlat aktivlari ahamiyati va xususiylashtirish usullaridan kelib chiqib, guruhlarga ajratilgan holda quyidagi tartibda sotiladi:

1-guruh. Butunligicha sotiladigan davlat korxonalari (ob`ektlari) va ochiq birja savdolarida to`liq xususiy mulkka sotiladigan davlatga tegishli aktsiyalar paketi va davlat ulushlari. Ushbu guruhga kirgan korxona (ob`ektlarni) xususiylashtirish mexanizmi juda sodda, ya`ni ob`ektlar yoki aktsiyalar paketlarini birja orqali sotish. Bunda ob`ekt yoki aktsiyalar paketi savdo maydonchasiga qo`yiladi, reklama ishlari amalga oshiriladi, ularni sotishga ko`maklashuvchi tegishli institutlar ishtirok etadi. Xaridorlarda talab bo`lmagan taqdirda dastlabki sotish narxlarini qadam-baqadam pasaytirish mexanizmi qo`llanadi.

2-guruh. Sarmoyadorlar tomonidan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi evaziga nol qiymatda tanlov savdolariga qo`yiladigan korxona va ob`ektlar. Ushbu guruh ob`ektlari hududlarda tanlovlar e`lon qilish yo`li bilan sotiladi. Har bir hududda ushbu hudud ma`muriyatining rahbari boshchiligida tanlov komissiyalari tuzilgan. Sarmoyadorlarga nol xarid qiymati bo`yicha sotilgan past rentabelli, zarar ko`rib ishlovchi, iqtisodiy nochor davlat korxonalarining byudjetga va byudjetdan tashqari fondlar bo`yicha to`lovlar, shu jumladan, ular bo`yicha hisoblab yozilgan penyalar va jarimalar bo`yicha o`tgan yillardagi ishonchsiz qarzlari hukumat tomonidan hisobdan chiqarib tashlanadi.

3-guruh. Davlatga tegishli bo`lgan aktsiyalar paketi xalqaro tenderlarni tashkil etish asosida sotiladigan strategik ahamiyatga ega bo`lgan korxonalar. Yirik strategik korxonalar ochiq tenderlarni tashkil etish yo`li bilan sotiladi, bu yerda yakka tartibda xususiylashtirish jarayoni qo`llaniladi. Bunday tenderlarda ishtirok etish uchun xususiylashtirilayotgan korxonaga investitsiyalar kiritish va uni yanada rivojlantirish bo`yicha biznes-rejalarini taqdim etgan sarmoyadorlarga ruxsat etiladi.

Davlatga tegishli bo`lgan aktsiyalar paketi bunday tenderlarda sotiladigan korxonalar Davlat investitsiya dasturiga kiritilishi mumkin, bu ushbu korxonani 7 yilga daromad va foyda soli`gidan ozod etish imkonini beradi. Bundan tashqari, aktsiyalarning nazorat qilish huquqini bermaydigan paketini xarid qilgan, lekin korxonaga katta miqdorda mabla`g kiritgan sarmoyador Davlat mulki qo`mitasi bilan boshqaruv nazoratini qo`lga kiritish to``grisida shartnoma tuzishi mumkin.

## Asosiy tushuncha va atamalar

Mulk, davlat mulki, munitsipal mulk, davlat tadbirkorligi, davlat mulkining iqtisodiyotni tartibga solinishiga ta`siri, davlat tadbirkorligining bozorga ta`siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish,mulkni ijaraga berish, investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish.

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?

2.Davlat mulki iqtisodiyotni tartibga solishda qanday rol o`ynaydi?

3.Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?

4.Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta`sir ko`rsatadi?

5.Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyati nimadan iborat?

6.Davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta`sir ko`rsatadi?

7.O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishdan ko`zlangan maqsadlar nimalardan iborat?

8. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?

9.Davlat mulki qanday boshqariladi?

10.Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish samaradorligini oshirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

# 5. IQTISODIYOTNI DASTURLASh, PROGNOZLASh VA REJALAShTIRISh

## 5.1. Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirish

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim davlat shakllaridan biri dasturlash va rejalashtirishdir. Ushbu tartibga solish shaklining zaruriyati ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi, davlat mulkining mavjudligi, iqtisodiyotga yo`llanadigan kapital mabla`glar harakati va oqibatlarining uzoq muddatliligi hamda bozor kon`yunkturasini o`rganishi bilan ifodlanadi. Shu boisdan barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi prognozlashtiriladi, dasturlanadi va rejalashtiriladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish) qisqa muddat (1-2 yil), o`rta muddat (5 yil), uzoq muddatga (20 yil) mo`ljallanadi. Bunda mavjud o`tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish holati, bozor kon`yunkturasining o`zgarib borish tendentsiyalariga asoslanib, kelajaqdagi iqtisodiy ahvolning qanday bo`lishi, qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu - ekstropolyatsiya usuli deyiladi. Olingan ma`lumotlarga esa xususiy ishbilarmonlarning kapital mabla`glar sarflash rejalarini turli so`rovlar orqali o`rganib borish orqali aniqlik va tuzatishlar kiritiladi.

Prognozlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlarda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari ko`rsatiladi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun kapital mabla`glar sarflash rejalari tuziladi, ishlab chiqarish hajmi bilan talab o`rtasidagi nisbatlar o`rganiladi. Turli ishlab chiqarish bilan import o`rtasidagi bo`gliqlik, ishlab chiqarish bilan iste`mol, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o`rtasidagi bo`gliqlar aniqlanadi. Buning uchun tarmoqlararo balansni tuzish, aholi ro`yxatini o`tkazish muhim ahamiyatga ega. Bizda bir necha marta tarmoqlararo balans tuzilgan, aholini ro`yxatga olish amalga oshirilgan. Iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi. Ilgari ma`muriyatchilikka, buyruqbozlikka asoslangan jamiyatda iqtisodiy rejalar direktiv xarakterga ega bo`lib, yuqoridan belgilanib, quyidagi xo`jalik bo``ginlari uchun majburiy edi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkning ko`p shakllari mavjud bo`lgan sharoitda esa dastur va rejalar davlat korxonalari uchun direktiv, xususiy sektor uchun esa taklif, indekativ xarakterga ega bo`ladi. Ishbilarmon, tadbirkorlarning rejalarga amal qilishlarini ra`gbatlantirish maqsadida ularga turli imtiyozlar, ya`ni soliq to`lashda, kredit, subsidiyalar, xom ashyo, yoqil`gi-energiya, asbob-uskunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda imtiyozlar berilishi lozim bo`ladi.

Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishdan maqsad, bozor iqtisodiyotida yuz berishi mumkin bo`lgan turli nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining oldini olishga qaratilgan bo`ladi. Bu tartibga solish vositasining samaradorligi dastur va rejalarning tadbirkorlar manfaatiga qanchalik mosligiga, davlatning ularni ra`gbatlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlariga hamda rejalarning ilmiylik darajasiga bo`gliq bo`ladi.

O`zbekistonda bozor iqtisodiyotini tartibga solishni ta`minlashda Iqtisodiyot vazirligi muhim rol o`ynamoqda. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning kontseptsiyalari qisqa va uzoq muddatli rejalari, respublika va mintaqalarga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqish; aholini sotsial himoyalashga oid takliflarni asoslab berish, mehnat faoliyati va tadbirkorlik imkoniyatlarini ko`paytirish, iqtisodiy ahvolni so`glomlashtirish yo`llarini belgilash; bozor munosabatlariga o`tishning asosiy qoida va yo`nalishlarini . shakllantirish va unga mos ravishda xo`jalik mexanizmi, boshqaruv shakllari va uslublarini takomillashtirish; xalq xo`jaligi tuzilmasini qayta qurishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarini oqilona joylashtirishga oid takliflar tayyorlash; xalq xo`jaligi balanslarini tuzish asosida iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga oid

takliflarni ishlab chiqish; eksport-import ishlarini davlat yo`li bilan tartibga solish va ra`gbatlantirish sohasidagi yo`nalishlarni belgilash. Iqtisodiyot vazirligi ushbu vazifalarni bajarish orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida muhim o`rin tutadi.

## 5.2. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning metodologik asoslari.

O`zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajasi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo`nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;
- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilish; strategiya asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;
- kontseptsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;
- hududning moliyaviy resurslari o`sishini prognoz qilish; byudjet daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo`llarini izlash; byudjet daromad qismini to`ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlardan va nobyudjet jam`garmalaridan qo`shimcha mabla`glarni jalb etish[1].

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini tuzishda ma`lum tamoyillarga asoslanish kerak bo`ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiy fan nuqtai nazaridan quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadliligi;
- hududni rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari bo`yicha resurslarni to`plash va yo`naltirish;
- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqligi;
- hudud rivojlanishini qo`llab-quvvatlashning individualligi;
- qo`llab-quvvatlash mexanizmining ta`sirchanligi;
- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi hamda ular faoliyatining uy`gunligi.

Hududiy dasturlarni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo`nalishi hisoblanadi.

Hududiy dasturlarni bajarishga to`sqinlik qiladigan holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Hududlarni rivojlantirish bo`yicha qabul qilinadigan dasturlarning bajarilishiga ko`pgina hollarda quyidagi omillar to`sqinlik qilishi mumkin:

- respublika va hududiy maqsadli dasturlarni tanlashning sinalgan tizimlarining mavjud emasligi, ularni amalga oshirish ketma-ketligining yetarli darajada asoslanmaganligi;
- respublika tarmoq dasturlari hududiy jihatlarining yetarli darajada ishlanmaganligi;
- tarmoq dasturlari hududiy jihatlari monitoringining yo`qligi;
- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmining mustahkam emasligi;

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan

[1] Қаранг: Регулирование территориального развития в условиях рыночной экономики / Под ред. Б.М.Штульберга. -М., 1993-С 73; Содыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика– Т.: IQTISOD-MOLIYA; 2005. – С 165.

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo`naltirishni ta`minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo`lib, xalq xo`jaligi ahamiyatiga ega bo`ladi.

Maqsadli dasturlar o`rta va uzoq muddatga mo`ljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o`z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni, resurslar ta`minotini olishi kerak.

Dastur maqsadi o`lchamga ega bo`lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim.

Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uy`gunlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga da`vat etadigan, yo`naltiradigan bo`lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy me`yoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko`zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo`li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbulardan kelib chiqib, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda qo`yidagi vazifalarni bajarishga alohida e`tibor qaratish lozim bo`ladi;

- hudud ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini umumiy baholash va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendentsiyalari, iqtisodiy o`sish muammolarini va rezervlarini aniqlash;
- hududning mahalliy mineral-xom ashyo, yer-suv va mehnat resurslaridan foydalanishning miqdor va sifat darajalarini tahlil qilish;
- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, istiqbolli tarmoqlar va hududning ixtisoslashish sohasini, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari rivojlanishining ustuvor yo`nalishlarini aniqlash;
- maxalliy qishloq xo`jaligi va mineral xom ashyolardan samarali foydalanishga asoslangan, yangi eksportga yo`naltirilgan ishlab chiqarishlarni shakllantirishning aniq yo`llarini belgilash, jahon darajasidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni vujudga keltirish;
- hududda qulay, jozibador investitsion muhitni yaratish, xorijiy investorlar, mahalliy korxonalar, tadbirkorlar, aholi mabla`glari va resurslarini kengroq jalb etish;
- aholini ijtimoiy himoyalash va mehnat resurslarining oqilona bandligini ta`minlash mexanizmini ishlab chiqish;
- xo`jalik sub`ektlari o`rtasida raqobat sharoiti va to`laqonli bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- hududni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa ommaviy iste`mol mollari bilan o`zini-o`zi ta`minlashini oshirish;
- qishloq aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni jadallashtirish uchun qulay sharoitni shakllantirish. Buning uchun hududga mahalliy soliqlar bo`yicha imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ra`gbatlantirish orqali uning hudud yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish;
- hududning tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, eksport va import tarkibini oqilonalashtirish, hududda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash va yangi qo`shma korxonalarni tashkil etish.

## 5.3. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni baholash.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish uchun, avvalambor,

hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni umumiy baholash maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Hududning o`tgan davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga tavsif beriladi. Bunda hududning sanoat, qishloq xo`jaligi va ijtimoiy salohiyatini baholashga alohida e`tibor qaratilishi lozim bo`ladi.

2. Hududning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish darajasi va ahvoli to``grisidagi tahlilga asoslanib, uning rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendentsiyalar, iqtisodiy rivojlanish rezervlari va foydalanilmagan imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kelgusida hal etilishi lozim bo`lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolar aniqlanadi.

3. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijalari, ko`p ukladli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, hududiy bozor infratuzilmasi ahvoli baholanadi.

4. Hududdagi tarmoqlar va yirik sanoat korxonalarining o`tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinadi, ularning ish natijalari yoki orqada qolishining sabablari va omillari aniqlanadi.

5. Sanoat rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi darajasi belgilanadi, ishlab chiqarish quvvatlarini eksportga yo`naltirilgan va import o`rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va kengaytirish uchun qo`shimcha zahiralar va resurslar aniqlanadi. Hudud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ustuvor ahamiyatli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar aniqlanadi.

6. Hudud aholisini o`zida ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan ta`minlanganligi, ularni hududdan chiqarish va kiritish balansi, agroresurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligi, va chorva mollari mahsuldorligining o`sishi (pasayishi) omillari hamda sabablari baholanadi.

Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash qo`yidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Hududning mehnat, yer-suv va mineral xom ashyo resurslari bilan ta`minlanganligiga miqdoriy va sifat bahosi beriladi.

2. Hududdagi demografik vaziyat, aholining ish bilan bandligi keyingi o`n yillik davr bo`yicha baholanadi.

Ishsizlik darajasi, shu jumladan, uning yashirin shakllari baholanib, aholi va mehnat resurslari soni prognoz qilinadi.

3. Foydali qazilma boyliklari zahiralari, ularning o`zlashtirilish ahvoli tahlil qilinadi. Hudud mineral-xom ashyo bazasi imkoniyatlari, qo`shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishni hisobga olgan holda baholanadi. Shuningdek, qazib chiqaruvchi korxonalarning foydali qazilma boyliklari bilan ta`minlangani, ularning konlarni o`zlashtirish xarajatlari o`rganiladi.

4. Hududning yer-suv resurslari bilan ta`minlanish hamda yerlarning meliorativ ahvoli, yer bonitetlari o`rganilib, meliorativ yaxshilash istiqbollari o`rganiladi.

5. Hududning ishlab chiqarish, transport va aloqa infratuzilma salohiyati o`rganiladi. Aholining ijtimoiy infratuzilma ob`ektlari va xizmatlari bilan ta`minlanganlik darajasi baholanadi.

6. Hududda ishlab chiqaruvchi kuchlar, yangi korxonalarni joylashtirish uchun istiqbolli tuman, shahar, yirik aholi yashash punktlari tanlanadi.

### 5.4.Hududni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yo`nalishlarini belgilash.

Hududni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yo`nalishlari belgilanadi. Rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Dasturda hududni iqtisodiy va ijtimoiy istiqbolda rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari va ko`rsatkichlari bayon qilinadi. Bunda asosiy e`tibor yangi ishchi o`rinlari, tabiiy, moliyaviy, mehnat resurslari, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratiladi.

Bu yo`nalishlar quyidagi tadbirlarga qaratilishi lozim:

1. Hududning istiqboldagi ehtiyojlari va hududlararo ayriboshlash imkoniyatlarini kengaytirish asosida iqtisodiy maqbul tarmoq va ishlab chiqarishlar aniqlanadi. Istiqbolda

tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy ko`rsatkichlari, tarmoq tarkibining o`zgarishi, eksportga yo`naltirilgan va import o`rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi prognoz qilinadi. Bunda amaldagi korxonalarni texnik, texnologik va tashkiliy jihatdan yangilash muammolariga alohida e`tibor qaratiladi. Buning uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish yanada chuqurlashtiriladi, nisbatan kichik korxonalar rivojlantiriladi. Bu korxonalarda mahalliy mineral-xom ashyo va qishloq xo`jalik resurslaridan foydalaniladi.

2. Hududda yangi korxonalarni qurish, faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruktsiya qilish, ixtisosligini o`zgartirish zarurligi asoslanadi; yirik ob`ektlarga qo`shimcha mabla`glar jalb qilish hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

3. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari, ekin maydonlari tarkibining o`zgarishi, qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning natural hajmi prognoz qilinadi. Shuningdek, qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligi hamda chorva mollari mahsuldorligini oshirish yo`llari va manbalari belgilanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish ko`zda tutiladi.

4. Hududda xom ashyolarni, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tugallangan tsikldagi ishlab chiqarish tarmoqlari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlash va sotish shaxobchalarini vujudga keltirish, xorijiy investitsiyali qo`shma korxonalarni vujudga keltirish orqali yangi zamonaviy texnologiyalarni, xo`jalik yuritish shakllari va boshqarish usullarini joriy etish.

5. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida transport tizimi va kommunikatsiyalarni rivojlantirish istiqbollarini asoslash.

6. Mulkdorlar sinfini vujudga keltirish bo`yicha vazifalarni hal etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini ko`paytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish ko`lami, parametrlari belgilanadi. Bunda tashqi savdo tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga, mahalliy xom ashyo resurslarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyali korxonalarni rivojlantirishga alohida e`tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Dasturda tabiiy tashqi muhitni, tabiatni muhofaza qilish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tadbirlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari ham o`z ifodasini topadi.

Har bir hududiy dasturda uni amalga oshirish mexanizmi ko`zda tutilishi kerak. Bu mexanizmda dasturni moliyaviy, iqtisodiy resurslar bilan ta`minlanishi muhim o`rin tutadi.

Dasturni ishlab chiqishda har bir tadbir va tarmoq bo`yicha turli resurslarga bo`lgan talab, ehtiyoj hisob-kitob qilinadi. Shundan so`ng dastur bo`yicha uning resurslar bilan ta`minlanish manbalari aniqlanadi. Dasturlarda resurslar balanslashtiriladi. Maqsadlar va resurslar o`rtasidagi muvofiqlik ta`minlanadi.

Dasturlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirishda, avvalambor maxalliy resurslar va imkoniyatlar hisobga olinadi.

Joylardagi mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mahalliy byudjet, tadbirkorlar va korxonalar o`z mabla`glari, fermer va dehqon xo`jaliklari, aholi mabla`glarini jalb qilinadigan xorijiy investorlar, hududdan tashqaridagi tashkilot, korxonalar mabla`glarini hamda bank kreditlarini hududiy dasturni amalga oshirishga jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari lozim bo`ladi.

Shuningdek, hududiy dasturlarni amalga oshirishda respublika byudjeti va byudjetdan tashqari jam`garmalar, O`zbekiston Respublika taraqqiyot va tiklanish jam`garmasi mabla`glarini ham jalb etish mumkin.

Dasturlarni ishlab chiqishda undan kutilayotgan natijalar qanday bo`lishi oldindan belgilanishi lozim. Dasturlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari sifatida hududiy yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari, umumiy hajmi aholi jon boshiga ishlab chiqarish sur`atlari olinadi. Shuningdek, aholi turmush darajasi va uning ish bilan bandligi, aholi jon boshiga daromadlarning o`sishi, hudud aholisining gaz, elektr energiya, toza ichimlik suvi, uy-joy bilan ta`minlanishining yaxshilanishi,

hududning o`zini-o`zi oziq-ovqat, boshqa iste`mol tovarlari bilan ta`minlanishining yaxshilanishi ko`rsatkichlari dasturlarning bajarilishi natijalari hisoblanadi.

Dasturlarning bajarilishini tashkiliy jihatdan ta`minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarni amalga oshirishda butun mas`uliyat joylardagi mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi. Maqsadli hududiy dasturni ekspert baholash, umumiy nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqarma va bo`linmalari amalga oshiradilar.

Bunda respublika hukumati va joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirishdagi vakolatlari hamda vazifalari aniq belgilanishi lozim bo`ladi.

### 5.5.Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish yo`nalishlari.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- yetarli darajada rivojlanmagan, umumrespublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning yagona metodikasini tasdiqlash;
- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni monitoring qilish, ularni rivojlanish darajalariga ko`ra tipologiyasini ishlab chiqish;
- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo`llab-quvvatlash dasturlarining loyihalarini ekspertizadan o`tkazishni tashkil etish.

Joylarda hududlarni rivojlantirish dasturlarini samarali boshqarish maqsadida viloyat, shahar, tuman hokimliklariga quyidagi vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq bo`ladi:

- hududiy rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish, hududiy dasturni tuzish bo`yicha takliflar berish;
- dastur asosida qo`llab-quvvatlashga muhtoj, muammoli shahar, tuman, aholi punktlarini ajratish va belgilash;
- ular asosida mahalliy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish hududiy dasturlarni respublikaning hududiy siyosati ustuvorliklari hamda tamoyillariga muvofiqlashtirish;
- mahalliy dasturlar loyihalarini ekspertizadan o`tkazish va ular asosida yagona hududiy dasturlarni shakllantirish hamda ularni ko`rib chiqish, tasdiqlash uchun hududiy rivojlantirish bo`yicha Respublika komissiyasiga taqdim etish;
- maxalliy dasturlarni amalga oshirishga rahbarlik qilib bajarilishini nazorat qilish, dastur bo`yicha joriy axborotlar va hisobotlarni muntazam berib borish.

### 5.6. O`zbekistonda hududiy rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish

Bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan mamlakatlar tajribasi ko`rsatishicha, hududiy (mintaqaviy) siyosat tartibga solish usullari orqali mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini o`zgartirishga ta`sir etadi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish lozim”.deb ta’kidlab o‘tdilar.

Iqtisodiyotdagi tizimli o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o‘ta muhim masalaga etarlicha e’tibor berilmayapti.

Oqibatda, respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko‘rsatkichining 1 foiziga ham etmaydi. SHu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerak. Bu masalani, avvalo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar rahbarlari alohida nazoratga olishi kerak.

YAngi yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosi uchun 4 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va

1O‘zbekiston Respublikasi SHavkat Mirziyoevntng Oliy majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr’

hozirdan boshlab zarur choralar ko‘rilmasa, ushbu ko‘rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin.

Mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga etkazish bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqilishi vazifa qilib belgilandi[1].

Bu borada faqat poytaxt va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e’tibor markazida turishi kerak.

Qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish dasturlaridan bosqichma-bosqich shahar va posyolkalarda ko‘p qavatli uylar qurishga o‘tishimiz lozim. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishi darkor.

O`zbekistonda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishdan ko`zlangan bosh maqsad hududlarni barqaror rivojlantirishni ra`gbatlantirish va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajalari o`rtasida keskin farqlarning vujudga kelishiga yo`l qo`ymaslik uchun sharoit yaratishdan iborat.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlantirish uchun ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;
- hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishidagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;
- hududlar ixtisoslashuvini oqilonalashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalarni optimallashtirish;
- hududlarning hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy biqiqligiga barham berish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy shakllari sifatida qonunlar, qonunosti va sud huquqiy xujjatlar, aktlar xizmat qiladi. O`zbekistonda hududlar rivojlanishini tartibga solishda Prezident farmonlari, qaror, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari muhim rol o`ynamoqda.

Hududlar rivojlanishini tartibga solishning tashkiliy-institutsional tarkibi respublika ijro hokimiyati darajasida Vazirlar Mahkamasi, ko`pgina vazirlik va idoralar tomonidan shakllantiriladi.

Hududlarni rivojlantirish umumiy siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ayrim iqtisodiyot sektorlari va yo`nalishlari bo`yicha hududiy muammolar bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, “O`zdavmulk”, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo`mitasi, Qurilish va arxitektura bo`yicha qo`mita, “O`zkommunxizmat” agentligi va boshqalar shu`gullanadilar.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasida hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo`nalishlarbo`yicha amalga oshirildi:

- hududlar, tumanlar guruhi va tumanlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- hududlar mineral-xom ashyo resurslarini kompleks o`zlashtirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, tashqi atrof muhitni muhofaza qilish;
- sanoat va uning tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy va respublika dasturlarini ishlab chiqish, faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish quvvatlari profilini o`zgartirish, xorijiy investitsiyali yangi korxonalarni qurish;
- hududlar qishloq xo`jaligini ularning tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirish, qishloq xo`jaligida islohotlarni rivojlantirish va yanada chuqurlashtirish bo`yicha respublika, hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ish bilan bandlik, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta`minlash bo`yicha respublika dasturlarini amalga oshirish;

- respublika va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;

- mahalliy byudjetni mustahkamlash, hududlarga dotatsiya va subventsiyalar ajratish;

- boshqarishning hududiy-xo`jalik tizimini oqilona tashkil etish maqsadida mamlakatni ma`muriy-hududiy bo`linishini takomillashtirish.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mahalliy o`z-o`zini boshqarish organlari iqtisodiy bazasi, mamlakatdagi byudjet tizimi, tadbirkorlikning rivojlanish ko`lami, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari hamda usullariga, tezligiga, soliq imtiyozlarini qo`llash tajribasi, byudjetdan tashqari jam`garmalar, moliyaviy resurslarga, hududning investitsiyaviy va eksport imkoniyatlari, viloyatlar va tumanlararo, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar, bozor infratuzilmasi ob`ektlari rivojlanish darajasi, aholining ish bilan bandlik muammolarining xususiyatlari va hududdagi ekologik vaziyatga bo`gliq.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan to``gridan-to``gri tartibga solish respublika byudjeti, dotatsiya va subventsiyalar hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali bo`ladi.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.

2. Qishloq xo`jaligini rivojlantirishni tartibga solish. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda:

- hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo`jaligi ekin maydonlari va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;

- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- qishloq xo`jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

- qishloq xo`jaligi korxonalari moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish bo`yicha korxonalar tarmo`gini yaratish;

- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;

- zarar ko`rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo`jaligi korxonalarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash.

Qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo`jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdorligini oshirish, selektsiya va uru`gchilikni yaxshilash, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o`stirish chora-tadbirlari ko`riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo`shma korxonalarni tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda, respublika hududida, ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda qo`shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun maqsadli dasturlar tuzish va ularni ra`gbatlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Hududlarda temir yo`llar, avtomobil yo`llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo, tumanlararo tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Ijtimoiy sohani tartibga solishda respublika, hududiy va mahalliy boshqarish darajalari mavjud bo`ladi. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish territorial dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O`zbekistonda qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish va hududlarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- hududlarni rivojlantirish bo`yicha respublika va hududiy dasturlarni tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash hamda navbatga qo`yish tizimini shakllantirish;

- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas`uliyatini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo`yicha davlat dasturlarining hududiy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining hududiy jihatlari monitoringini tashkil etish;

- hududlar va tarmoq imkoniyatlari, zahiralarini chuqur o`rganish va hisobga olish asosida prognoz ko`rsatkichlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- dasturlarni amalga oshirish ustidan qat`iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun ma`muriy qarorlar qabul qilish bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, iqtisodiy ra`gbatlantirish tavsifiga ega bo`lgan dastak va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy jihatdan qo`llab-quvvatlash uchun hududni tanlashda hududdagi muammoli holatlarni chuqur o`rganish lozim bo`ladi.

Hukumat tomonidan hududlarni tashkiliy-axborot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy kreditlar, grantlar olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro dasturlar va texnik ko`maklar loyihalarida ishtirok etishida yordam berish va qo`llab-quvvatlash kerak bo`ladi.

Hududiy rivojlanishni tartibga solishda moliyaviy mexanizmlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Hududlarni rivojlantirish uchun 1999 yilgacha mavjud bo`lgan byudjetlararo transfertlar o`z mabla`glari minimal xarajatlarni qoplay olmaydigan hududlarga subventsiyalar shaklida berilar edi.

Subventsiyalar hajmi Davlat byudjeti loyihasi bilan birgalikda tasdiqlanadi. Mabla`glar, birinchi, navbatda hududlarning ish haqi, stipendiyalar, nafaqa va pensiyalarni moliyalashtirishga ajratiladi.

2000 yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to``grisida”gi Qonuni bu tizimga ba`zi o`zgartirishlar kiritdi. Bu o`zgarishlar jumlasiga mahalliy byudjetlarning defitsitsizligi to``grisidagi qoida kiritildi. Shuningdek, mahalliy hokimliklarga tasdiqlangan ko`rsatkichlardan yuqori, qo`shimcha tarzda tushgan daromadlardan o`z ehtiyojlari uchun ishlatish huquqi berildi.

Mahalliy byudjetlarni balanslashtirish umumdavlat soliqlardan ajratmalar normativlarini va berilgan dotatsiyalarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Respublika hukumati tomonidan mahalliy hokimiyat organlari va o`zini o`zi boshqarish organlariga davlat boshqaruvi vakolatlari bir qismining o`tkazilishi oqibatida hududiy mahalliy byudjetlarning roli oshadi.

## Asosiy tushuncha va atamalar

Iqtisodiy dastur.iqtisodiyotni dasturlash, prognoz,prognozlashtirish,reja, rejalashtirish,reja turlari, dasturlashning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, direktiv rejalashtirish, indikativ rejalashtirish,mintaqaviy siyosat, mintaqa(hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini dasturlash,tarmoqdasturlari.

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Iqtisodiy dastur nima?

2. Iqtisodiy dasturlash usullari nimalardan iborat?

3.Prognoz nima?

4.Prognozlashtirish nima va u qanday amalga oshiriladi?

5.Rejalashtirish nima va uning qanday turlarini bilasiz?

6.Rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?

7.Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish, rejalashtirish uni davlat tomonidan tartibga solishda qanday rol o`ynaydi?

8. Hududiy dasturlar nima uchun kerak va ular qanday maqsadlarga xizmat qiladi?

9. Hududiy dasturlar qanday tuziladi?

10.Tarmoq va hududiy rivojlanish davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?

11.O`zbekistonda amalga oshirilayotgan qanday dasturlarni bilasiz?
12.”Mustahkam oila yili” davlat dasturi to``grisida qanday tassavurlarga egasiz?

## 6.Iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.

### 6.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman, tovar xo`jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish uchun unga turli tomondan yondashish talab qilinadi. **Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o`rtasidagi raqobat** tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat.

**Resurslarni yetkazib beruvchilar** o`zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar.

Raqobat **iste`molchilar o`rtasida** ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya`ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko`proq nafga ega bo`lishga harakat qiladilar.

**Raqobat – bozor sub`ektlari iqtisodiy manfaatlarining to`qnashuvidan iborat bo`lib, ular o`rtasidagi yuqori foyda va ko`proq nafga ega bo`lish uchun kurashni anglatadi.**

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1) tartibga solish vazifasi;
2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
3) innovatsion vazifa;
4) moslashtirish vazifasi;
5) taqsimlash vazifasi;
6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning **tartibga solish vazifasi** ishlab chiqarishni talab (iste`mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta`sir o`tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya`ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko`p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub`ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko`rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning **moslashtirish vazifasi** korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo`naltirilgan bo`lib, ularning shunchaki o`zini-o`zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo`jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o`tishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** ishlab chiqarilgan ne`matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste`molchilar o`rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta`sir o`tkazadi.

Nihoyat, raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba`zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o`rnatishiga yo`l qo`ymaslikka yo`naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to``grisida to`laroq tushunchaga ega bo`lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko`rib chiqish zarur. **O`z miqyosiga ko`ra,** raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo`linadi.

**Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulay sharoitiga ega bo`lish, qo`shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o`rtasida boradi.** Tarmoq

ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo`lgan korxonalar qo`shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo`qotadilar va zarar ko`radilar.

**Tarmoqlararo raqobat turli tarmoq korxonalari o`rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat.** Bunday raqobat kapitalning foyda normasi kam bo`lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o`tishiga sabab bo`ladi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda me`yorlarini o`rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Iqtisodiy adabiyotlarda **bir tarmoq ichidagi raqobatning** to`rtta shakli alohida ajratib ko`rsatiladi. Bular: sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

**Sof raqobat** sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko`p sonli korxonalar mavjud bo`ladi. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste`molchilarining soni ham juda ko`p bo`ladi.Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o`rnata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajada bo`ladi.

**Sof monopoliyada** tarmoq bitta firmadan iborat bo`lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi

**Monopolistik raqobat** o`z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o`nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o`z mahsulotini tabaqalashtirish, ya`ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo`yicha farqlash orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

**Oligopoliya** – tarmoqda u qadar ko`p bo`lmagan korxonalarning mavjud bo`lishi va hukmronlik qilishidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda **`girrom va halol raqobatlashuv** usullari ham ajratib ko`rsatiladi. Raqobatlashuvning noan`anaviy, jamiyat tomonidan e`tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya`ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro`siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish `girrom raqobat deb yuritiladi.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo`llash, o`zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo`llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

**Narx vositasida raqobatlashuv** kurashning asosiy usuli bo`lib, ishlab chiqaruvchilarning o`z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

**Narxsiz raqobatda raqobat urashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko`rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro`-e`tibori hisoblanadi.**

Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo`lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o`rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste`molchilarga xizmat ko`rsatishni yaxshilash yo`li bilan sotiladigan tovar hajmini ko`paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo`lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo`lgan mabla`gni sarflash imkoniyatiga egadirlar.

## 6.2. Iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlar.

Davlat bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asoslaridan biri bo`lgan raqobat mexanizmining to`liq ishlashi uchun hamda aholini ma`lum darajada ijtimoiy himoyalash maqsadida iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ma`lumki, sobiq sotsialistik mamlakatlarda, shu jumladan, sobiq covet ittifoqida davlat mulkining yakkahokimligi, rejali xo`jalik yuritish tizimining amal qilishi oqibatida iqtisodiy raqobat uchun sharoit bo`lmadi. Tadbirkorlik va tanlash erkinligi ham mavjud emasdi. Shu boisdan O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tish uchun raqobatchilikni tiklash lozim bo`ladi. Buning uchun davlat mulkini uning ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirishning o`zi kifoya qilmaydi. Chunki yangidan tashkil topadigan aktsionerlik jamiyatlari, kontsern, uyushmalar, xususiy firmalar yana iqtisodiy yakkahokim bo`lib qolishlari mumkin. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda to`plangan yakkahokimlikka qarshi kurash tajribalari asosida antimonopol siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Dastlabki monopolizmga qarshi qonun 1890 yilda (trestlarga qarshi Sherman qonuni) AQShda qabul qilingan. Hozirgi davrda ana shunga o`xshash qonunlar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bo`lib, mazkur qonunchilik asosan uch yo`nalishga ega. Birinchidan, har qanday yirik firma, korporatsiya mahsulot ishlab chiqarishning 40-50 foizdan orti`gini o`z qo`lida to`plamasligi zarur.

Ikkinchidan, barcha yirik korxonalar jismoniy va yuridik shaxslar uchun o`zining va boshqa hissadorlik jamiyatlari aktsiyalarining to`planadigan ulushlari miqdori cheklab qo`yiladi. Uchinchidan, bozor baholarini talab va taklif nisbatini inobatga olmay, o`zaro kelishib belgilash va ushlab turishga qaratilgan kelishuvlar, bozorlarni o`zaro taqsimlab olishlar man qilinadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikni tatbiq etish uchun maxsus ma`muriy muassasalar, qo`mitalar tuziladi. Ular korxonalarning tuzilishiga, qimmatbaho qo`gozlarning taqsimlanishiga aralashadilar va barcha uchun majburiy qaror ishlab chiqaradi. Bunda Yaponiya tajribasi qo`l kelishi mumkin. Yaponiyada Ikkinchi jahon urushidan keyin yakkahokim monopoliyalarni man qiluvchi qonunga amal qilishni nazorat qiluvchi odilona kelishuvlar yuzasidan tashkil topgan qo`mita keng vakolatlarga ega bo`lib, mazkur qo`mita mustaqil ravishda ish yuritadi. Agar amaldagi qonunchilikning buzilishini qo`mita aniqlasa va bu holat sud tomonidan tasdiqlansa, uni buzgan firmaga juda katta jarima solinadi. Qo`mita o`zaro raqobat qiluvchi korporatsiyalarning bir-birlari bilan kartel shartnomalari tuzishlarini man qiladi. Agarda ana shunday shartnomalar iqtisodiy zarurat sifatida tuzilsa, qisqa muddatli bo`lishi nazorat qilinadi.

## 6.3.O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo`nalishlari.

O`zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish maqsadida 1992 yilning avgust oyida “Monopol faoliyatni cheklash to``grisida”gi Qonun kuchga kiritildi. Mazkur Qonun asosida iqtisodiyotda raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amalga oshirila boshlandi.

1996 yil 27 dekabrda O`zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to``grisida”gi, 1996 yil 26 aprelda “Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to``grisida”gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonun me`yor va talablarini amalga oshirish, monopoliyalarga qarshi kurashish va ularning faoliyati ustidan nazorat qilishga yo`naltirilgan funktsional idora sifatida 1992 yilda Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi tashkil etildi va u 1996 yil 15 mayda Moliya vizirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo`mitasiga aylantirildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 2 avgustdagi 2676-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 300-sonli Qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi tashkil etildi.

Iqtisodiyotning xususiy sektorini jadal rivojlantirishni ra`gbatlantirish, monopoliya kompaniyalari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, bankrot va monipolist kompaniyalarni qayta tashkil etish, raqobat muhitini shakllantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi 3602-sonli Farmoni va 2005 yil 2 maydagi 66-sonli Qaroriga muvofiq mazkur qo`mita O`zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlat qo`mitasiga aylantirildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to``grisida”gi PF-4191-sonli Farmoni bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash qo`mitaning asosiy vazifalari qatoridan chiqarildi.

O`zbekiston Respublikasida antimonopol siyosatning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublikada so`glom raqobat muhitini yaratish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar, mustahkam huquqiy bazani shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz funktsiyalarini amalga oshirish;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobat qonunlari, umumiy qabul qilingan normalar va qoidalarni samarali amalga oshirishni ta`minlovchi monopoliyaga qarshi tartibga solishning kuchli tizimini barpo etish;
- raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor qayta o`zgartirishlari chuqurlashishiga ko`maklashish;
- insofsiz raqobatchilar tomonidan tovar va moliya bozorlari, birinchi navbatda, iste`mol tovarlari bozorini monopollashtirish yuzasidan har qanday urinishlarning oldini olish, ularni cheklash va ularga barham berish;
- monopoliyaga qarshi davlat siyosati kontseptsiyasini amalga oshirish, monopoliyadan chiqarish bo`yicha respublika, tarmoq va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;
- monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek, o`z vakolati doirasida tabiiy monopoliyalar sub`ektlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- reklama va iste`molchilar huquqlarini muhofaza qilish to``grisidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- iste`mol tovarlari narxlari va xizmatlarga tariflar monitoringini o`tkazish, iste`molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning asossiz ravishda o`sib ketishi, bozorda sifatsiz iste`mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko`rsatilishiga olib keluvchi insofsiz raqobatning oldini olish chora-tadbirlarini ko`rish;
- monopol xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va nazorat qilishga, raqobat muhitini rivojlantirish, iste`molchilar huquqlarini muhofaza qilish va reklama faoliyatiga yo`naltirilgan normativ-metodologik bazani takomillashtirish va h.k.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini saqlash, rivojlantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to``grisida”gi Qonuni qabul qilingan. Bu Qonunga binoan monopolistik faoliyatga xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning raqobatga yo`l qo`ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi deb ta`rif beriladi[1]. 2012yilda O`zbekiston respubMonopoliyaga qarshi qonunchilikda monopolistik faoliyat uchun asos bo`ladigan “ustun mavqe o`rnini bosuvchisi bo`lmagan tovar bozorida yoki bir-birining o`rnini bosadigan tovarlar bozorida xo`jalik yurituvchi sub`ektning (bir guruh shaxlarning) o`ziga (o`zlariga) raqobatni cheklashga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatish, boshqa xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorga kirish erkinligini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan hukmron mavqe deb qaraladi. Bozordagi ulushi oltmish besh (65%) va undan ortiq foizni tashkil etadigan xo`jalik yurituvchi sub`ektning (bir guruh shaxlarning) mavqei ustun mavqe deb e`tirof etiladi”[2].

Shuningdek, xo`jalik yurituvchi sub`ektning bozordagi ulushi o`ttiz besh (35%)dan oltmish besh (65%)gacha bo`lib, bu hol monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan quyidagi hollarga qarab, ya`ni:

- xo`jalik yurituvchi sub`ektning bozordagi ulushi barqarorligiga;

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва рақобат тўғрисида”ги Қонуни. –Т.: 1996.

[2] Ўзбекистон Республикасининг “Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва рақобат тўғрисида”ги Қонуни.. –Т.: 1996.

- bozordagi raqobatchilarga tegishli ulushlarning nisbiy miqdoriga;

- muayyan tovar bozorini tafsiflovchi boshqa mezonlarga qarab aniqlangan bo`lsa, uning bozordagi mavqei ustun mavqe deb hisoblanadi[1].

Ustun mavqeni egallab turgan xo`jalik yurituvchi sub`ektning raqobatni cheklaydigan va boshqa xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning manfaatlarini kamsitgan yoxud kamsitishi mumkin bo`lgan harakatlari taqiqlanadi. Xo`jalik yurituvchi sub`ektning o`z yuqori mavqeini suiiste`mol qiladigan xatti-harakatlariga quyidagilar kiradi:

- bozorlarda taqchillikni keltirish yoki uni saqlash va narxlarni oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo`yish;

- monopol qimmat yoki monopol arzon narxlarni belgilash. Monopol qimmat narx tovar bozorida ustun mavqega ega bo`lgan xo`jalik yurituvchi sub`ektning ishlab chiqarish quvvatidan to`laligicha foydalanmaslik tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo`shimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilagan narx hisoblanadi.

Monopol arzon narx esa ushbu xo`jalik sub`ektining sotib olayotgan tovariga qo`shimcha foyda olish yoki qilingan asossiz xarajatlarni sotuvchi hisobiga qoplash maqsadida belgilaydigan narxidir. Shuningdek, raqobatchini bozordan siqib chiqarish uchun monopolistik mavqedagi xo`jalik sub`ekti belgilagan zarar ko`radigan darajadagi narx hisoblanadi. Bunday narxlarning belgilanishi oqibatida raqobat cheklanadi.

Insofsiz raqobat, ya`ni xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo`lga kiritishga qaratilgan ular o`rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan, iste`molchilarni chal`gitish usullari qo`llanuvchi raqobatdir.

O`zbekistonda monopoliyaga qarshi davlat organi monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatni cheklash hamda to`xtatib qo`yish sohasida davlat siyosatini olib boradi.

Monopoliyaga qarshi davlat organi xo`jalik sub`ektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Agar xo`jalik sub`ektlarining qo`shilishi, birlashtirilishi, xolding kompaniyalariga aylantirilishi oqibatida monopoliya vujudga keladigan bo`lsa, u holda ularning iltimosnomalari rad etiladi.

Ushbu organ aktsiyalar, ulushlar va boshqa mulkiy huquqlarni olish vaqtida monopoliyaga qarshi kurashga doir qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Zaruriy va mumkin bo`lgan hollarda monopolistik korxonalar majburiy tarzda bo`lib ham yuboriladi. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari buzilganda ushbu organ uni buzgan xo`jalik sub`ektlariga qonunda belgilangan jarimalarni soladi yoki ularning ishini sudga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to``grisida”gi Qonuniga (yangi tahriri) asosan tabiiy monopoliya sub`ektlari bilan iste`molchi va davlat manfaatlarining mutanosibligi ta`minlanadi. Ushbu qonunga ko`ra tabiiy monopoliya tovar bozorining texnologik xususiyatlari tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo`lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin bo`lmagan yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo`lmagan holati hisoblanadi[1].

O`zbekistonda tabiiy monopoliya sub`ektlarining faoliyati quyidagi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi:

- neft , neft  mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;
- temir yo`llari infratuzilmasidan foydalanish;
- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;
- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmatlari;
- aeronovigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmati;
- transport terminallari xizmatlari.

Qonunda tabiiy monopoliya sub`ektlari faoliyatini O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u vakolat bergan organ, ya`ni O`zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish,

---

[1] Ўша манба.

[1] Ўзбекистон Республикаси қонунлари. Табиий монополиялар тўғрисида. –Т.: Адолат, 2000, 33-бет.

raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlat qo`mitasi va uning joylardagi organlari tabiiy monopoliya sub`ektlari faoliyatini tartibga soladi.

Monopoliyaga qarshi organ qonun hujjatlarining buzilishiga yo`l qo`ygan tabiiy monopoliya sub`ektlariga jarima soladi yoki qonun buzilishi holatlarini to`xtatish va bartaraf etish bo`yicha bajarilishi majburiy bo`lgan ko`rsatmalar yuboradi, shu bilan birga, sudga da`vo arizasi bilan murojaat etadi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlariga bajarilishi majburiy bo`lgan, ular tomonidan ushbu qonunga zid tarzda qabul qilingan hujjatlarni bekor qilish yoki o`zgartirish kiritish to``grisida ko`rsatmalar yuboradi. Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini yaratishdan ko`zlangan maqsadlaridan biri iste`molchilarning tanlash erkinligini ta`minlash va huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. O`zbekiston Respublikasining “Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to``grisida”gi Qonunga muvofiq iste`molchi foyda chiqarib olish bilan bo`gliq bo`lmagan hamda shaxsiy iste`mol yoki xususiy xo`jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi yoki ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo`lgan fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Davlat iste`molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish cho`gidagi huquqlari hamda qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishini kafolatlaydi.

### 6.4. Raqobatni rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisida 2010 yil 12 noyabrda qilgan ma`ruzasida: “Hammamiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo`lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o`ynaydi. Ammo amaldagi “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to``grisida”gi Qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e`tiborga olgan holda, “Raqobat to``grisida”gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarur”[1], – deb ta`kidladi.

Hozirgi davrda “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to``grisida”gi Qonun zamon talablariga javob bermay qolganligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- tovar bozorlarida jiddiy tarkibiy o`zgarishlar yuz berdiki, buning natijasida amaldagi monopoliyaga qarshi qonunchilik ularga mos kelmay qolishi;
- raqobat to``grisidagi qonunchilikni moliyaviy bozor sohasida ham qo`llash zarurati;
- iqtisodiyotning globallashuvi va yangi integratsion aloqalarning kuchayishi tufayli O`zbekiston Respublikasidagi monopoliyaga qarshi qonunchilikni jahon tajribasi va boshqa mamlakatlar qonunchiligi bilan uy`gunlashtirish zarurati;
- monopoliyaga qarshi davlat organlari vazifalari hamda vakolatlarini aniq belgilash zarurati;
- davlatning raqobat siyosatini amalga oshirilishi oqibatida tovar bozorlarining monopollashuv darajasi kamaydi. Monopollashgan bozorlarida xo`jalik sub`ektlarining amaldagi qonunchilikni buzish shakllari, holatlari, turlari xilma-xillashib murakkablashishi;
- monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzuvchilar tarkibi o`zgarib, ular ichida xo`jalik sub`ektlari birlashmalari ulushining o`sishi.

Shu boisdan ham monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini yaratish va rivojlantirish vazifalari bilan bir qatorda, raqobatni himoya qilish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qabul qilinishi mo`ljallanayotgan “Raqobat to``grisida”gi Qonun raqobat muhitini yaratishga ko`maklashish bilan bir qatorda tovar bozorlaridagi tarkibiy o`zgarishlarni hisobga olgan holda raqobatni himoya qilishga, jahon tajribasiga asosan monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizm samaradorligini oshirishga yo`naltiradi.

---

[1] Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. –Т.: Ўзбекистон, 2010, 52-бет.

Birinchi Prezident I.A.Karimov, “ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. Shuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aktsiyalarni sotib olish, qo`shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo`yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir”[1], – deb ta`kidlagan 2012yilda O’zbekiston respublikasining “Raqobat to`g’risida”gi qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Raqobat to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi natijasida quyidagilarga erishilishi mumkin:

- raqobatni himoya qilish tovar va moliyaviy bozorlarni ham qamrab oladi;
- iqtisodiy, kapital kontsentratsiyasi (aktsiyalarni sotish-sotib olish, qo`shilish, birlashtirish va h.k.) bo`yicha bitimlarni nazorat qilish kuchayadi. Bozor, kapital kontsentratsiyasi bo`yicha bitimlarga monopoliyaga qarshi organlardan ruxsat olish protseduralari, tartib-qoidalari bu sohadagi xalqaro me`yorlarga muvofiqlashtiriladi;
- monopolist-korxonalarning tovar va xizmatlariga narxni shakllantirishda narxlarni tartibga solishning bozor mexanizmini himoya qilish kuchayadi. Bu borada yangi usul va dastaklar ishlab chiqiladi.

O`zbekiston Respublikasining “Raqobat to’g’risida”gi Qonunining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish hamda erkin raqobatni himoya qilish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qilish bo`yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi:

- monopolist-korxonalar va ayrim davlat boshqaruv organlarining raqobatga qarshi faoliyatining oldini olish, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va iste`molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash, xo`jalik sub`ektlarining raqobatlashish madaniyatini oshirish;
- raqobatni jadallashtirish choralarini ishlab chiqish, monopoliyaga qarshi organlar tarkibiy tuzilishini o`zgartirish, ularning vakolatlari, vazifalari va faoliyatini takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish;
- monopoliyaga qarshi kurashuvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini shakllantirish hamda muntazam ravishda takomillashtirish, ular faoliyatining ochiqligini ta`minlash, raqobatni himoya qilish bo`yicha amalga oshirayotgan ishlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.

**Asosiy tushuncha va atamalar**

Raqobat, raqobat muhiti, raqobat turlari, raqobat usullari, monopoliya, iqtisodiy monopoliya, tabiiy monopoliya,antimonopol siyosat, antimonopol siyosat usullari, raqobatni himoya qilish, raqobatni rivojlantirish,

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1.Raqobat nima?
2.Qanday raqobat turlarini bilasiz?
3.Qanday rabatlashish usullari mavjud?
4.Raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday vazifalarni bajaradi va qanday ahamiyatga ega?
5.Nima uchun davlat raqobatni rivojlantirishga intilishi va uni himoya qilishi kerak?
6.Monopoliya nima va uning qanday shakllari mavjud?
7.Monopoliya va monopolistik faoliyat bozor iqtisodiyotida qanday rol o`ynaydi?
8.Monopoliyalar faoliyatini nima uchun tartibga solish kerak?
9.Davlatning antimonopol siyosatining maqsadlari qanday?
10.Davlat monopoliyaga va monopolistik faoliyatni qanday usullar yordamida tartibga soladi?
11.Tabiiy monopoliyalar qanday tartibga solinadi?
12.O`zbekiston Respublikasining “Raqobat to``grisida”gi qonuning mazmuni va asosiy talablari bo`yicha qanday tasavvurga egasiz?

---

[1] Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2010, 52-бет.

# 7. BOZOR IQTISODIYOTIDA NARXNING REGULYATORLIK VAZIFASI VA DAVLATNING NARX VA INFLATSIYAGA QARSHI SIYOSATLARI

## 7.1. Qiymat va narxning zamonaviy nazariyasi. Ularning mehnat qiymati va naflilik nazariyalaridan farqi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida narx, narx belgilash tizimi – bu iqtisodiy munosabatlarning muhim tizimchasi va bozor mexanizmining tarkibiy qismlaridan biridir. Narx – bu ishlab chiqaruvchilar va iste`molchilar harakatlarini belgilovchi ko`rsatgichi va bozor iqtisodiyotining asosidir. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda narx va narx belgilash orqali ta`sir ko`rsatadi.

Hozirgi zamon qiymat va narx nazariyasi – bu iqtisodiy nazariya fanining uzoq muddatli rivojlanishi natijasidir. Iqtisodiy nazariyada qiymat, narx va ularni aniqlovchi omillar muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy nazariya – bu mehnatning qiymat nazariyasi va naflilik nazariyalarining o`zaro aloqalari va farqlari nuqtai nazaridan, ya`ni marjinalistik nazariya tahlillari natijasidir. Ingliz klassik siyosiy iqtisod namoyondalari A.Smit va D.Rikardolar qiymatning mehnat nazariyasini asoschilari hisoblanadi. Jamiyat uchun ishlab chiqarish zarur bo`lgan mahsulot qiymatini ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari yaratadi, degan `goya ushbu nazariyaning asosini tashkil etadi.

Qiymat sifat (xaridorlar va sotuvchilar o`rtasidagi, tovarlarni oldi-sotdi jarayonida insonlar o`rtasidigi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi) va miqdor (qiymatning miqdori unga ketgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan aniqlanadi) jihatlariga ega. Marjinalistlarning fikriga ko`ra narx – bu qiymatning puldagi ifodasidir. Agar qiymatning miqdori unga ketgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan aniqlansa, u holda narxning asosida tovarning qiymati yotadi, biroq talab va taklif mutanosibligiga bo`gliq holda narx miqdori tovar qiymatiga nisbatan o`zgaradi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarining qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat sarflar bilan aniqlanadi degan qarashlari qiymatni tovarning nafliligi belgilaydi, degan marjinal nazariya, naflilik nazariyasining vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Ushbu nazariyaning asoschilari avstriya maktabi namoyondalari K.Mengera, ye.Bem-Baverka va F.Vizeralar hisoblanishadi. Bu maktab XIX asrning oxirgi uchinchi qismida yuzaga kelgan. Bu nazariyaga asosan qimmat (qiymat) quyidagilarga bo`gliq: 1) iste`molni qondirishning muhimligiga(naflilikka); 2) naflilikni ta`minlanganlik darajasiga. Naflilik nazariyasi – bu sub`ektiv qiymat nazariyasidir, ya`ni har bir haridor tovarning nafliligi, qimmati haqida o`zini tasavvuridan, dididan kelib chiqqan holda xulosa qiladi. Ushbu maktab namoyondalari xarajatlarni xisobga olishmaydi. Qiymatning mehnat nazariyasi namoyondalari esa aksincha, tovarning nafliligini hisobga olishmagan.

Yuqorida nomlari keltirilgan nazariyalarning eng katta kamchiligi – bu qiymat miqdorini belgilovchi yagona manbani topishga urinish hisoblanadi: birida ijtimoiy mehnat sarflari, boshqasida esa, tovarning nafliligi va bozorda uni ta`minlanganlik darajasiga ur`gu beriladi. Amaliyot, qiymat mehnat sarflariga qanday bo`gliq bo`lsa, tovarning nafliligiga, iste`molchilarni unga bergan bahosiga ham shunday bo`gliqlikda ekanligini ko`rsatdi. Bu nazariyalarni umumlashtiriladi(sintez), ya`ni mehnat sarflari hamda, mehnat natijalari nafliligini ham hisobga olish zarur. Bunday sintez A.Marshal, Dj.Klarkom, P.Samuel sonlar tomonidanamalga oshirilgan. Zamonaviy narx va qimmat (qiymat) nazariyalari yo`nalishi asosichisi taniqli ingliz iqtisodchisi A.Marshal hisoblanadi. U qiymatning yagona manbaini aniqlashga urinishdan voz kechib, naflilik nazariyasinitalab va taklif nazariyasi va ishlab chiqarish xarajatlari(sarflari) nazariyasi bilan birlashtirdi. Tovarning qiymati ijtimoiy sarflar hamda, uning nafliligi bilan aniqlanishini yoritib berdi.

Qiymat bozor orqali aniqlanadi. Bozor – bu sotuvchi va haridorlar (talab va taklif) manfaatlari to`qnashuvi orqali narx shakllanishiga olib keluvchi iqtisodiy jarayondir. Buni quyidagi sxema bo`yicha tasvirlash mumkin:




Narx  axborot berish, taqsimlash va ra`gbatlantiruvchilik funktsiyalarini bajaradi.

Bozor munosabatlari sharoitida narxlarning turli ko`rinishlari mavjud bo`ladi. Xususan: korxonalarning ulgurji narxlari, chakana narxlar, davlat buyurtma narxlari, ta`riflar va b.

Shuningdek quyidagi narxlardan farqlanadi: joriy, haqiqiy bozor munosabatlarida amal qiluvchi narxlar va iqtisodiy ko`rsatkichlarni (ishlab chiqarish xajmi, narx indeksi va b.)o`zgarishini aniqlashda foydalaniluvchi taqqoslama narxlar.

**7.2. Narxlarni davlat tomonidan tartibga solinishining maqsadi va asosiy usullari.**

Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim:

– ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;

– iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;

– “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

– valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

– iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Birinchidan, biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashimiz shart.

Avvalo, inflyasiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas.

Jahon tajribasini puxta o‘rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqishimiz zarur.

O‘tish davrida iqtisodiyot sohasida statistik hisobotlarni to‘g‘ri yuritish va davlatning iqtisodiy salohiyatini aniq baholash juda muhimdir.

SHu orqali yalpi ichki mahsulotni xolisona baholashga erishish mumkin.

SHu maqsadda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valyuta fondining Milliy hisoblar tizimini respublikamizda 2020 yil 1 yanvardan boshlab to‘liq joriy etishimiz lozim[1].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxni davlat tomonidan tartibga solish markazlashgan-rejali iqtisodiyotdagidan farqli o`laroq keng qamrovli xarakter kasb etmaydi. Shu o`rinda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida narx shakllanishi stixiyali yuz beradi deb hisoblash noto``gri bo`ladi. Bu mamlakatlarda narx har doim davlatning e`tiborida bo`lib, davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Xususan, jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bo`gliq narxlar davlatning diqqat markazida bo`ladi. Davlatning narx orqali tartibga solishi – bu davlatning iqtisodiyotga ta`sir etishining asosiy ko`rinishlaridan biri hisoblanadi.

Narxni davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad:

1) takror ishlab chiqarishning zaruriy mutanosibligiga erishish;
2) inflyatsiya sur`atini pasaytirish;
3) narx o`sishi va ish haqlari o`rtasidagi mutanosiblikni ta`minlash;
4) davlat korxonalarini subsidiyalash;
5) davlat byudjetiga zarur resurslarni jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 28-dekabrdagi "2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim vazifalarimiz" haqidagi oily majlisga Mutojaatnomasi Xalq so'zi gazetasi 29 dekabr. 29.12.2019 yil

Davlat narx shakllanishiga bevosita va bilvosita ta`sir etadi. Narxni tartibga solishning to``gri va egri usullari farqlanadi. Ularning bo`linishi quyidagicha: narxni to``gridan-to``gri tartibga solish usuliga quyidagilar taalluqli:

1) narxni ma`muriy o`rnatilish;
2) narxni muzlatilish;
3) narxni yuqori darajasini o`rnatish;
4) samaradorlik darajasini reglamentlash;
5) davlat xarajatlarini tartibga solish;
6) amortizatsiya me`yorini o`rnatish va b.

Davlat spirtli maxsulotlarga monopol «aktsiz» narxlarini va transport tariflariga, xizmatlarga, aloqaga boshqa qator tovarlarga narxlarni, bojxona tariflarini belgilaydi.

Davlatning narxga ta`sir etish shakllaridan biri – bu davlatning ishlab chiqarish xarajatlariga va u orqali orqali narxga ta`sir etishidir. Bunga tezlashtirilgan amortizatsiya harajatlari usulini misol qilib keltirish mumkin. Davlat narx shakllanishiga, ishlab chiqaruvchiga yoki haridorga davlat tomonidan maxsus qo`shimcha to`lab berish yo`li bilan narxlarni pasaytirishi nazarda tutiluvchi narx subsidiyasi orqali ham ta`sir ko`rsatadi. Narxni tartibga solishda davlatning qat`iy o`rnatgan narxlari, davlat tomonidan buyurtma qilingan ishlab chiqaruvchilar maxsulotiga narxlar muxim o`rinni egallaydi. Qishloq xo`jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishni narx, dotatsiya va subsidiya orqali tartibga solishda davlatning roli juda yuqoridir. Davlat narx darajasi va narx barqarorligi mutanosibligini qo`llab-quvvatlaydi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda bozor tebranishini yumshatish maqsadida davlat tomonidan anchagina resurslar agrar sohaga yo`naltiriladi. Narxlar, qo`shimcha to`lovlar orqali maxsulot ishlab chiqaruvchilarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishlarini amalga oshirishlari darajasida davlat fermerlik narxlarini qo`llab quvvatlaydi. Shu yo`l bilan qishloq xo`jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish tarkibi va xajmi tartibga solinadi.

Barcha `garb mamlakatlarida narxlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimi juda ham bir-biriga yaqin. Bu qishloq xo`jaligi maxsulotlarining alohida turlariga narxlarni tebranishining yuqori va quyi chegaralarini o`rnatish hisoblanadi.

Evropa hamkorlik mamlakatlarida umumiy qishloq xo`jaligi siyosati yuritiladi. Bu siyosatning dastagi bo`lib, ichki va import narxlari o`rtasidagi farqlarni qoplovchi bojxona bojlari va kompensatsion to`lovlar shuningdek, qishloq xo`jaligi maxsulotlarini eksport qiluvchilarga maxsulotlarini yevropadan jahon bozorlariga nisbatan past narxlarda olib chiqish imkoniyatini beruvchi kompensatsion to`lovlar hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat yevropa qishloq xo`jaligi salohiyatini saqlab qolish, qishloq xo`jaligida ilmiy-texnika inqilobini amalga oshirish, balki, G'arbiy yevropani yirik maxsulot eksportchisiga aylantirish imkonini beradi. yevropa hamkorlik mamlakatlarida qishloq xo`jaligi va qora metallurgiya sohasida(narxlarni 15% gacha qamrab oladi) narxlarni milliy tartibga solish xususiyatlari mavjud. Qishloq xo`jaligi maxsulotlari narxlari bo`yicha qarorni yevropa hamkorligining vazirlar Kengashi qabul qiladi, biroq qora metallurgiya maxsulotlari narxlari esa bazis narxlari orqali o`rnatiladi.

### 7.3. Ba`zi davlatlarda narxni tartibga solish tajribalari.

AQSh da 10-15% narxlar davlat tomonidan tartibga solinadi. Davlat tomonidan narxlarni tartibga solish ishlab chiqarish xarajatlarini subsidiyalash vositasida hamda ishlab

chiqaruvchilarga sotish narxlarini kafolatlash yordamida ham amalga oshiriladi. AQSh da bozor narxi kafolatlangan quyi chegaradan tushib ketgan taqdirda davlat byudjetidan ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar ajratiladi. Maxsus hukumat tashkiloti kafolatlangan narx bo`yicha fermerlardan kafillikka qishloq xo`jaligi maxsulotlarini qabul qiladi. Agar kafillikka olingan muddat davomida (odatda bir yil) bozordagi narx kafolatlangan narxdan qo`tarilsa, u holda fermer o`z maxsulotini qaytib sotib olib, uni bozorda sotishi mumkin bo`ladi. Agar bozor narxi kafolatlangan narxdan pastligicha qolsa, tovar fermerlar tomonidan qaytib sotib olinmaydi va korporatsiya mulkiga o`tadi. AQSh da 10-15 yil mobayinida mamlakat ichida shakarning chakana narxi juda qat`iy tarzda kuzatib borildi. Bir kilogramm shakar 1 dollardan oshishi mumkin emas. Narxni makroiqtisodiy barqaror bo`lishi uchun subsidiya kiritildi.

Yaponiyada narxlarni tartibga solish uchun hukumatning maxsus narx byurosi mavjud. Byuro vazirliklarni minimal narxlar bo`yicha bergan takliflariga hulosa beradi. Frantsiyada qishloq xo`jaligi maxsulotlari, gaz, elektr energiyasi, transport xizmatlari narxlari to``gridan-to``gri tartibga solinadi. Shvetsariyada narxlarni nazorat qilish bo`yicha federal muassasa mavjud. Narxlar asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tarmoqlarda, xususan qishloq xo`jaligi, tarnsport, ta`lim, so`gliqni saqlash sohalarida tartibga solinadi.

Rossiya Federatsiyasida narxni tartibga solishda qat`iy narxlarni(tariflar) kiritish, yuqori samaradorlik darajasini, narxni o`zgarish koeffitsentini, savdo, savdo-ta`minot va sotuv narxlarining yuqori darajasini o`rnatish va deklaratsiya narxlarini o`rnatish usullari qo`llaniladi.

O`zbekiston Respublikasida davlat buyurtmasi asosida paxta xom ashyosiga va bu`gdoyga (yalpi xosilning ma`lum qismiga, masalan, paxta xom ashyosini 50% davlat buyurtma narxi bo`yicha bozordan arzon narxda sotib olinadi) narxning yuqori chegarasi o`rnatiladi. Qishloq xo`jaligi maxsulotlari esa qo`shilgan qiymat soli`giga tortilmaydi.

Narxni tartibga solish tizimi qishloq xo`jaligida barqarorlikka erishishga qaratilgan. Bu sohadagi narx kichik farq bilan tebranadi. G‘arb mamlakatlarida davlat qishloq xo`jaligiga anchagina mabla`g sarflaydi. Ta`kidlash joyizki, qishloq xo`jaligidan byudjetga tushadigan mabla`g, shu sohaga qilinadigan xarajatdan bir necha bor kamni tashkil etadi. YEIRXT ning 25 ta mamlakatlarida, ko`proq rivojlangan G‘arb mamlakatlarida qishloq xo`jaligiga byudjetdan ajratilgan mabla`glar shu tarmoqdan byudjetga tushadigan mabla`gdan 9 marotaba ko`pni, agar narx subsidiyasini ham qo`shadigan bo`lsak 18 barobar ko`pni tashkil etadi.

Umuman YEIRXT mamlakatlari bo`yicha, 1994 yilda byudjetdan va narx orqali qishloq xo`jaligiga ajratiladigan mabla`g qishloq xo`jaligida band bo`lgan bir kishiga 16342 dollarni, shu jumladan, AQSh da 39957 dollarni tashkil etadi. Bu mamlakatlarda subsidiyalar va maxsulot narxiga qo`shimcha to`lovlar ulushini hisobga olsak u holda: bu`gdoy narxida – 48%, guruchda – 86%, dehqonchilik maxsulotlarida – 50%, chorvachilik maxsulotlarida – 43 % ni tashkil etadi.

## 7.4. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati iqtisodiyotni tartibga solish shakllaridan biri sifatida.

Tovar va xizmatlarni sifatiga bo`gliq bo`lmagan holda narxning oshishi bevosita inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inflyatsiya pul birligini qadrsizlantiradi va xarid qobiliyatini pasaytiradi. Ishlab chiqarishdagi nomutanosiblik, avvalo, pul massasining tovar va xizmatlar massasiga mutanosib emasligi inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabab hisoblanadi va u tovar va xizmatlar bilan ta`minlanmagan pulni chiqarilishi bilan bo`gliqdir.

Inflyatsiya darajasi joriy davr narxlarida baholangan tovar va xizmatlar yi`gindisini o`tgan davr narxlaridagi bahosiga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Inflyatsiya jamiyatni barqaror rivojlanishini izdan chiqaradi, ko`zda tutilmagan taqsimlash jarayonlarini, kapitalni qayta taqsimlashni, bankdagi jam`garmalarining qadrsizlanishi va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi.

Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati va uning zarurligi inflyatsiya iqtisodiy o`sishni pasaytirishi va ba`zi hollarda ishlab chiqarishni inqiroz sabablaridan biri bo`lishi bilan asoslanadi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat – u yoki bu mamlakatda inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi aniq sabablar, uning darajasiga bo`gliq holda yuritiladi. Inflyatsiyaga qarshi kurashishning turli usullari mavjud, xususan:

1) nomonetar usullar – iqtisodiy faollikni o`sishini, iqtisodiy samaradorlikni o`sishini soliqlar orqali ra`gbatlantirish;
2) monetar usullar.

Hozirgi davrda G‘arb mamlakatlarida inflyatsiya nisbatan yuqori darajada emas, yiliga 3,5%-4% orali`gini tashkil etadi.

Markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida MDH mamlakatlarida inflyatsiya o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`ladi. 1991-1995 yillarda inflyatsiya yuqori darajaligi bilan xarakterlanadi. 1996-2003 yillarda esa inflyatsiya darajasining pasayishi va barqarorligi bilan xarakterlanadi.2019 yilda inflyatsiya darajasi 15,5% da kuzatilmoqda, bu ko’rsatkichlar 2020 yida 12,6%, 2021 yilda esa 9,9% bo’lishi prognoz qilinmoqda. Buni YaIM deflyator ko`rsatkichida ham ko`rish mumkin, O`zbekiston Respublikasida 1993 yilda u 1170% ni, 2002 yilda 152,7% ni, 2004 yilda esa 104,7% ni tashkil etdi.2018 yilda 326,9% ni, 2019 yilda 424,1% ni tashkil etishi, 2020 yilda 524,1% ni, 2021 yilda 637,9% bo’lishi prognoz qilinmoqda.

O`zbekiston Respublikasining inflyatsiyaga qarshi siyosatida 1994 yilda milliy valyutaning joriy etilishidan keyingi davr muhim bosqichi bo`ldi. Inflyatsiyaga qarshi siyosat – iqtisodiyotni barqarorlashtirish vositalaridan biri bo`lib, 1996 yildan iqtisodiy o`sish davri bosqichiga o`tildi. Milliy valyutani mustaxkamlash – O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida» kitobida «Valyutaning mustaxkamligi – iqtisodiy islohotlar yangi bosqichining asosiy muammosi» paragrafida ta`kidlanganidek milliy valyuta iqtisodiy barqarorlikning, korxona va tarmoqlarni moliyaviy holatini mustaxkamlashning qudratli omili, respublika iste`mol bozorini va aholini ijtimoiy himoyalashning omili ekanligi ma`lum bo`ldi.

## Asosiy tushuncha va atamalar

Narx, narxning funktsiyalari, davlat buyurtmasi narxlari, qiymat, kelishilgan narx, yuqori narx, davlat subsidiyasi, monopol narxlar.

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Qiymat va narx nazariyalarini mohiyatini tushuntiring?
2.Marjinalistlarning qiymat va narx nazariyasini va uning qiymatning mehnat nazariyasidan farqini tavsiflab bering?
3.Zamonaviy narx va qiymat nazariya qiymatning mehnat nazariyasi va yuqori naflilik nazariyalarining sintezi ekanligini tushuntirib bering?
4. Narxning regulyatorlik rolini qanday ahamiyati bor?
5.Narxni davlat tomonidan tartibga solishning qanday asosiy usullari mavjud?
6.To``gri va egri usullar deganda nimani tushunasiz?
7.Agrar sektordagi narxni davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va shakllari nimalardan iborat?
8.O`zbekistonda narxni davlat tomonidan tartibga solish usullari va shakllarini tushuntiring.
9.Inflyatsiyaga qarshi siyosat narxni davlat tomonidan tartibga solish shakllaridan biri ekanligini tushuntirib bering.

## 8. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING BYUDJET-SOLIQ USULLARI

### 8.1. Davlat byudjeti – davlat pul resurslarining asosiy fondi va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usuli.

Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida tartibga solishning byudjet-soliq va kredit shakllari muhim o`rinni egallaydi.

Davlat byudjetida jamiyat iqtisodiy munosabatlarining davlat daromadlarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan bo`gliq qismi namoyon bo`ladi. Soliqlar, zayomlar va boshqalar asosida davlat byudjeti daromadlari shakllantirilishi orqali yirik moliyaviy resurslar jamlanadi. Ushbu resurslarning umumiy xajmi YaIM ga nisbatan davlat byudjeti xarajatlarida namoyon bo`ladi. 2000 yilda rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti xarajatlari YaIM ga nisbatan foiz hisobida AQSh 29% dan Frantsiyada 51% gacha tebranganligini kuzatish mumkin. Butun YEIRXT mamlakatlari bo`yicha – 36,5%, shulardan, Italiyada – 46,7%, Germaniyada – 43%, Yaponiyada – 38,2%, Kanadada – 37,8%[4]. O`zbekiston Rspublikasida davlat byudjeti xarajatlari YaIM ga nisbatan 29,5% ni tashkil etadi. (maqsadli fondlar bilan – 38,5%)

Bu esa davlat byudjeti iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda muhim vosita ekanligini ko`rsatadi. Davlat byudjetining boshqaruvchanlik roli qayta taqsimlangan milliy daromadning bir qismini davlat mulki shakliga aylantirish ko`rinishida namoyon bo`ladi. Byudjet orqali, uning resurslaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish sohalari o`rtasida, moddiy va nomoddiy sohalar o`rtasida, tarmoqlar o`rtasida, hududiy birliklar va aholini ijtimoiy guruhlari o`rtasida milliy daromadni qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Byudjet makroiqtisodiy mutanosiblikka erishish va uni qo`llab-quvvatlashda muhim dastak bo`lib hisoblanadi. Asosan iste`mol va jam`garish fondlari o`rtasidagi zarur mutanosiblikni saqlab turishda davlat byudjetining roli kattadir. Byudjetning takror ishlab chiqarishga ta`siri, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirish, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan moliyaviy resurslar bilan ta`minlashda namoyon bo`ladi. Byudjet davlatning iqtisodiy siyosatini yuritishda muhim vosita bo`lib hisoblanadi.

Byudjetga iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish dastagi, takror ishlab chiqarishni oldindan aniqlash jarayonida, ya`ni ishlab chiqarish kuchlariga va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishga ta`sir etuvchi vositasi sifatida qaraladi. Alohida davrlarda esa, xo`jalik-tashkiliy faoliyatiga, davlat siyosati va iqtisodiy siyosatni ilmiylik darajasiga bo`gliq holda islotlarni amalga oshirishda byudjetning roli kattadir.

Asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo`lgan ishlab chiqarish xodimlari malakasini oshirishdagi muhim vazifalar ham byudjetga bo`gliqdir.

O`zbekistonda zarur takror ishlab chiqarish proportsiyasiga erishishda byudjetning roli va bunday proportsiyaga erishish uchun milliy daromadni qayta taqsimlashdagi byudjetning roli haqidagi ba`zi tasavvurlar quyidagi dalillar beradi: misol uchun, byudjetga yengil va oziq-ovqat sanoatidan tushgan tushumlardan shu tarmoqlarga byudjetdan qilingan xarajatlar bir necha marta ko`p bo`ladi. Bu boshqa tarmoqlarda yaratilgan milliy daromadning bir qismini yuqorida sanalgan tarmoqlarga yo`naltirilishini anglatadi va tarmoqlar o`rtasida, shu jumladan moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o`rtasida qayta taqsimlash yuzaga keladi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishda byudjet muhim o`rinni egallaydi.

O`zbekiston Respublikaisining davlat byudjeti daromadlarining tarkibi uning zarur takror ishlab chiqarish mutanosibligini ta`minlash, iqtisodiy siyosatining muhim vazifalarini xal etishdagi o`rni haqida yaqqol tasavvurlarni imkonini beradi.

---

[4] Вопросы экономики. 2002 №11 5-бет

Davlat byudjet orqali ilmni, ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Bir qator mamlakatlarda ilmiy texnik taraqqiyot loyiha ishlari (ITTLI) ga umumiy byudjet xarajatlarning 50% ajratiladi. (AQSh – 46,4%, Frantsiyada – 49,3%)[5]

Byudjet resurslari ITTLI bilan bir qator tarnsport va informatsion tuzilmani yaratishga, hamda aholini ma`lumot darajasini oshirishga yo`naltiriladi.

### 8.2. Soliqlar davlat byudjeti daromadining asosiy manbai va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish vositasi sifatida.

Soliqlar va ularning xajmi davlat byudjeti xarajatlari miqdoriga bo`gliq bo`lib, byudjet daromad qismining 90 va undan ortiqroq qismini tashkil etadi. Soliqlar – milliy daromadning bir qismini davlat mulkiga aylanish xususiyatiga ega. Shuning uchun soliqlarning undirilishi – bu milliy daromadning bir qismini davlat ixtiyoriga o`tkazish jarayoni hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar YaIM ga nisbatan 30% dan 50%gacha tashkil etadi. Soliqlar iqtisodiy o`sishga muhim ta`sir ko`rsatadi. Soliq yuki yuqori bo`lgan, ya`ni soliq miqdori YaIMga nisbati yuqori bo`lgan sharoitda iqtisodiy o`sish sekinlashadi, optimal soliq yuki aksincha, iqtisodiy o`sishni kuchaytiradi va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi. Shu o`rinda soliq yukining iqtisodiy o`sishga ta`siri bo`yicha tadqiqot natijalarini keltirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodchi Dj.Skali dunyoning 103 mamlakati bo`yicha ma`lumotlarni umumlashtirish asosida tadqiqot o`tkazgan. Uning tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, byudjetga undiriladigan daromadlar past soliq stavkali (19,3% atrofida) mamlakatlarda iqtisodiy o`sish o`rtacha yiliga 2,4% ni tashkil etadi, yuqori stavkali (43,2%) mamlakatlarda esa iqtisodiy o`sish 0,4% dan oshmasligi ma`lum bo`ldi6. Bundan muallif past proportsional soliqlar maqsadga muvofiq ekanligi xususida hulosa qiladi. Boshqa tadqiqotchilar soliq stavkalari muayyan optimal darajadan oshmasligi lozim deb hisoblaydilar. Aynan soliq yukining optimal darajasi bu davlat byudjeti ehtiyojlari bilan tadbirkorlar manfaatlari o`rtasida qarama-qarshiliklarni xal etishda eng maqsadga muvofiq yechim hisoblanadi.

Yuqoridagilarga muvofiq, bir qator davlatlarda, shu jumladan O`zbekiston Respublikasida ham zamonaviy moliyaviy siyosatning muhim yo`nalishlardan biri soliq yukini pasaytirish hisoblanadi.

Soliqlar davlat byudjetining daromadlar qismini moliyaviy resurslar bilan ta`minlashda asosiy fiskal funktsiyasi bilan birga, taqsimlash vazifasi va maxsulotlarni alohida turlarini ishlab chiqarishni ra`gbatlantirish vazifalarini bajaradi. Yoki aksincha, soliqlarni barqaror tutib turish, ba`zi ishlab chiqarishning o`sishini cheklaydi.

Aholi daromadlariga solinadigan progressiv soliq stavkalari, soliq undirilmaydigan minimumlarning o`rnatilishi, kam daromadlarga mos tarzda past soliq stavkalari va yuqori daromadlarga yuqori soliq stavkalarining o`rnatilishi soliqlarning taqsimlash vazifalariga misol bo`la oladi. AQSh da shaxsiy daromadlar bo`yicha minimal soliq stavkasi 12% ni, yuqori darajasi esa 36% ni, Yaponiyada esa mos tarzda 10% va 50% ni, Germaniyada 19% va 53% ni, Belgiyada 25% va 55% ni, Niderlandiyada 7,1% va 60% ni tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasida aholi daromadlariga solinadigan minimal soliq stavkasi 11% ni, yuqori soliq stavkasi esa 22% ni tashkil etadi. O`zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlarini chetga olib chiqishlarini chegaralash maqsadida daromad (foyda) soli`giga qo`shimchalar kiritilgan bo`lib, chetga chiqadigan daromadlarga qo`shimcha 10 % miqdorda soliq undirish qonunda ko`rsatilgan. Tovar va xizmatlar eksportini ra`gbatlantirish uchun bu tovar va xizmatlar qo`shilgan qiymat soli`gidan ozod etiladi.

---

[5] Общество и экономика, 1997 г №6, стр.12

[6] Налоговой кодекс Республики УзбекистанаТ. 1997 г. 93,112-стр.

Aholini ba`zi turdagi tovarlarning iste`molini chegaralash maqsadida alohida tovarlardan aktsiz egri soliqlarini undirish keng qo`llaniladi

## 8.3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari tizimida soliq imtiyozlari.

Turli ko`rinishdagi va shakldagi soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakli hisoblanadi. Imtiyozlardan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida foydalaniladi. Ular investitsiyalarni, tadbirkorlik faoliyatini, chet el kapitalini jalb etishni, pul va moddiy resurslarni tejashni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va bandlikni oshirishni ra`gbatlantirish maqsadida qo`llaniladi.

Iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida qo`llanilgan soliq imtiyozlari turli shakllarda namoyon bo`ladi. Eng keng tarqalganlari quyidagilar:

1) Chegirma ko`rinishida soliq kreditlari berish, ya`ni foydani kamaytirilgan soliqlar hisobiga oshirish. Masalan, AQSh da 1962 yildan buyon 20 yil mobaynida turli investitsion (soliq) kreditlar qo`llanib kelinmoqda, ya`ni foydalanish muddati 8 va undan ortiq yil bo`lgan, ishlab chiqarishga kiritilgan uskunalar qiymatining 7 % ga teng miqdorda foyda soli`gi qisqartiriladi.

Yaponiyada ham huddi shunday yangi texnika va texnologiyalarga qilingan investitsiyaning 7% miqdorida soliq krediti qo`llaniladi. Kanadada mos tarzda soliq chegirmalari 7%dan 20% gacha o`zgarib turadi. Bir qator mamlakatlarda tadbirkorning ITTLI ga qilgan xarajatlari o`rtacha yillik foydani belgilangan ulushidan ortiq bo`lsa, qisqartirilgan soliq shaklidagi soliq krediti qo`llaniladi. Masalan, AQSh da bazis davriga nisbatan o`rtacha yillik me`yoridan ITTLI ga qo`shimcha qilingan xarajatlarning 20%ga teng miqdorda foyda soli`gi kamaytiriladi. Frantsiyada ITTLI ga qo`shimcha qilingan xarajatlarning 50% ga teng miqdorda foyda soli`gi qisqartiriladi, Kanadada esa qo`shimcha qilingan xarajatlarning 100% ga teng miqdorda foyda soli`gi kamaytiradi[7].

Soliq krediti shaklidagi imtiyozlar ta`lim olish (asosan oliy ma`lumot) uchun yakka tartibdagi haq to`lovchilarga ham qo`llaniladi. AQSh dan keyingi ta`lim uchun to`lov miqdorining dastlabki 5 ming dollariga 20 % chegirma miqdorida «Ta`lim soliq krediti» hamda 13-17 yoshdagi xar bir o`quvchiga yiliga 500 dollar miqdorda soliq imtiyozi joriy etilgan8.

2) Imtiyozning ikkinchi shakli – soliqdan butunlay ozod etish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini o`rnatishdir. Bunday imtiyozlar kichik tadbirkorlikni ra`gbatlantirish maqsadida qo`llaniladi. Bunga qishloq xo`jaligi maxsulotlarini qo`shilgan qiymat soli`gidan ozod etilishini ham kiritish mumkin. Bunday imtiyozlar respublikamizda ham keng qo`llaniladi.

3) Soliq imtiyozlarining uchinchi shakli – tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo`llanilishi, ya`ni olinadigan foydaning xajmini tezlashtirilgan amortizatsiya miqdoriga qisqartirish usulidir. Xukumat tomonidan belgilangan oshirilgan amortizatsiya xarajatlarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo`shishga ruxsat beradi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari oshadi, biroq soliq miqdorini qisqarishi hisobiga olinadigan foyda miqdori o`zgarmaydi.

Mutanosiblikni tartibga solish uchun boshqa imtiyozlar ham qo`llaniladi. Misol uchun, AQSh da foydaning ijtimoiy infratuzilma ob`ektlari qurilishiga yo`naltirilgan qismi soliqlardan ozod etiladi. Ba`zi mamlakatlarda mehnatga haq to`lash va ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga sarflanadigan mabla`glarni soliqqa tortishning alohida tizimlari qo`llaniladi. Misol uchun, Frantsiyada texnik qayta qurollanishga sarflanadigan mabla`glarga solinadigan soliqlar juda ham past. Germaniya va Frantsiyada qo`shimcha ish o`rinlarini yaratish uchun qilingan xarajatlarga maxsus soliq imtiyozlari kiritilgan[9].

---

[7] Денги и кредит. 1996, №3, стр.61
[8] Мировая экономика и международные отношения. 2001, №4, стр.27
[9] Экономист. 1992. №10. стр. 37

Respublikamizda ham iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish maqsadida soliq imtiyozlari tizimidan keng qo`llaniladi. O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq chet el investitsiyasi bilan tashkil etilgan, import o`rnini bosuvchi va eksportga yo`naltirilgan maxsulot ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish korxonasi daromadi (foydasi) ishlab chiqarishni boshlagandan 5 yil muddatgacha soliqlardan ozod etiladi. Agar, ishlab chiqarish xajmining 25% dan orti`gini bolalar assortimentidagi tovarlar tashkil etsa va korxona ustav fondida chet el kapitali ulushi 50% dan ortiq bo`lsa 2 yilgacha soliqlardan ozod etiladi. Qishloq joylarda va aholi punktlari hududida yangi tashkil etilgan xalq iste`moli tovarlarini ishlab chiqarish va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ishlab chiqarishni boshlagandan to 3 yil muddatgacha soliqlardan ozod etiladi. Umumiy ishchilar sonining 75%dan kam bo`lmagan qismi o`rta maktab o`quvchilaridan va kasb-xunar o`quv yurtlari o`quvchilaridan tashkil topgan yuridik shaxslarning daromadlari(foyda) soliqlardan ozod etiladi.

Ekologiyaga, so`glomlashtirish va xayriya fondlariga, madaniyat muassasalariga, xalq ta`limi va so`gliqni saqlashga badallar to`lash hisobiga daromadni(foydani) soliqqa tortishni kamaytirish shaklidagi imtiyozlar ham mavjud.

### 8.4. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliq tizimini takomillashtirish

Mamlakatimiz mustaqilligi qo`lga kiritilgan dastlabki davrdan boshlab jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta`minlash muhim ustuvor vazifalardan biri bo`lib kelmoqda.

Mazkur yo`nalishda olib borilgan tadbirlar natijalarini quyidagi 84.1-rasmdan ko`rishimiz mumkin.

**8.4.1-rasm**

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soli`gi shkalasining o`zgarishi va maksimal stavkasining pasaytirilishi**[1]




Respublikada aholi bandligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bir necha yuz minglab yangi ish joylari yaratildi. Shu kabi aholi daromadlarini ko`paytirish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soli`gi yuqori stavkasi 2006 yilgi 29 foizdan 2010 yilga 22 foizgacha pasaytirilishiga qaramasdan, soliq tushumlari mos ravishda 567,7 mlrd.so`mdan 1594,0 mlrd.so`mga yoki 2,8 baravarga oshganligini quyidagi 10.3.2-rasmdan ko`rishimiz mumkin.

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

Mamlakatimiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromadlarini yagona stavkada soliqqa tortish o`zining bir qancha afzalliklariga ega:

- soliqni hisoblash tartibi imkon qadar osonlashadi;
- jismoniy shaxslarning ko`proq daromad topishga bo`lgan moyilligi kuchayadi va real daromadlarini oshirishga bo`lgan intilishlari ortadi. Bu esa, jismoniy shaxslarning mehnat qilishga qiziqishi, ishsizlar sonining kamayishi hamda turmush darajasini ko`tarishga soliq vositasida ra`gbat berish imkonini beradi;

8.4.2-rasm

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soli`gi stavkasi va undirilgan soliq summasining 2006-2010 yillar davomida o`zgarish dinamikasi**[1]




- yashirin tarzda daromad topayotgan jismoniy shaxslarga daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatini beradi, ular soliq stavkasi pastligi hisobiga soliqdan cho`chimaydilar;
- bu stavka hamma jismoniy shaxslar uchun bir xil bo`lishini belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha jismoniy shaxslar teng huquqli bo`lgani uchun soliq solinishida ham teng bo`lishi lozim;
- davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslar daromad soli`gi bo`yicha soliqdan qochish va bo`yin tovlash bo`yicha qilinadigan ma`muriy xarajatlar tejaladi;
- eng asosiysi, bunday tizim barcha jismoniy shaxslarga tushunarli bo`lib, turli noaniqliklar barham topadi, ular o`z haq-huquqlarini himoya qila oladilar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soli`gi tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo`lgan soliqqa tortilmaydigan miqdorning joriy etilishi aholidan olinadigan daromad soli`gi tartibini davr talabiga mos holda takomillashtirishga o`zining munosib hissasini qo`shadi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishda, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda, jami yillik daromaddan ushbu daromadni olish bilan bo`gliq bo`lgan xarajatlarni, byudjetga to`langan boshqa soliq va to`lovlarni chiqarib tashlash lozim.

Respublakimiz soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslarning ish haqi shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishda uch bosqichli stavkalardan ikki bosqichlisiga o`tish va asta-sekin yagona stavka joriy etish lozim. Hozirgi paytda yagona stavka qo`llanilayotgan mamlakatlar amaliyotida bu mexanizm o`zining samarasini ko`rsatmoqda.

Mamlakatimizda mehnat sharoitlari o`ta zararli, o`ta o`gir, zararli va o`gir bo`lgan ishlab chiqarishlarda ishlovchi xodimlarning (ayollarning) daromadlariga soliq solishning amaldagi imtiyozli tartibi belgilangan. Ularning mehnatiga haq to`lash shaklidagi daromadlariga belgilangan soliq stavkalarini qaytadan ko`rib chiqish lozim. Bizningcha, o`gir va zararli, o`ta

[1] Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

o`gir va o`ta zararli sharoitlarda ishlovchilar uchun imtiyozli soliq stavkasiga daromad soli`gining quyi stavkasi va o`rta stavkasi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to`lash shaklidagi daromadlaridan ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan xarajatlarni (masalan dori-darmon uchun, meditsina xarajatlari) chegirish va ularning yillik daromadlarini umumiy deklaratsiyalash tizimiga tezroq o`tkazish lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soli`gini takomillashtirishni iqtisodiy munosabatlar bilan o`zaro bo`gliq va uy`gunlikda takomillashtirish zarur. Chunki aholi bandligini ta`minlash va daromadlarini oshirish ularning farovonligini o`stirishning ishonchli yo`lidir. Shu bilan birga, soliqqa tortiladigan daromadlarning ortishi byudjet manfaatlariga ham to`liq mos keladi.

Bizga ma`lumki, O`zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlarning huquqiy asosi sifatida Soliq kodeksiga qadar “Mahalliy soliqlar va yi`gimlar to``grisida”gi Qonun ( 1993 yil may oyida qabul qilingan ) xizmat qilar edi. Bu qonun Soliq kodeksi qabul qilingandan so`ng o`z kuchini yo`qotdi, uning asosiy mazmuni esa kodeksda o`z aksini topdi. Biroq, qayd etish zarurki, “Mahalliy soliqlar va yi`gimlar to``grisida”gi Qonunda mahalliy soliqlar bo`yicha mahalliy hokimiyatlarning soliq va byudjet huquqlari aniq yoritib berilgan edi. Ammo, bu holat Soliq kodeksida to`liq aks ettirilmagan, ya`ni bunda mahalliy soliqlar va yi`gimlar bo`yicha faqat ularni turlarini ko`rsatish bilan cheklangan va mahalliy hokimiyatlarning soliq huquqlari mavhum holda qolgan. Shu boisdan, bizning fikrimizcha, mahalliy soliqlarning o`rni ortib borar ekan, bu soliqlarni joriy etish, bekor qilish va amal qilish holatlarini yanada to`laroq aks ettirish lozim. Buning uchun Soliq kodeksining 23-moddasiga qo`shimcha kiritish va unda mahalliy hokimiyatlarining soliq huquqlari aniq-ravshan qilib belgilanishi zarur, deb hisoblaymiz.

Ma`lumki, yer soli`gi soliq to`lovlarining moliyaviy natijalariga bo`gliq bo`lmagan holda undiriladi, ya`ni yerning fizikaviy, ximiyaviy xususiyati hamda ularning joylanishi soliqlarni belgilashda asos qilib olinadi. Ammo, qayd etish joizki, hozirga qadar respublikamizda yerlarning boniteti ancha yillar oldingi ma`lumotlar bo`yicha yuritilmoqda. Shuni e`tiborga olib yerlarning bonitetini qaytadan ob`ektiv aniqlash va shu asosda soliq stavkasini ham qayta ko`rib chiqish maqsadga muvofiq. Soliq tizimini takomillashtirish, uning bir qator vazifalarini real bajarilishiga erishib borishni ham o`z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

- soliq yukini soliq to`lovchilar o`rtasida to``gri taqsimlashga erishish, shu bilan birga uni imkoni boricha kamaytirish;
- soliqlarning mazmunini soliq to`lovchilarga to`liq ochib bergan holda tushuntirish, ularda soliq madaniyatini shakllantirish va uni oshirib borish;
- soliqlarni ixchamlashtirish, ya`ni ularni yagonalashtirish.

Soliq tizimining samaradorligini oshirishga qulaylik tu`gdiruvchi omillardan biri bu soliq yukining to``gri taqsimlanganligi va imkoni boricha uni kamaytirishdir. Soliq yukini to``gri taqsimlanganligi iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Soliq yukini iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha, ishlab chiqaruvchi va iste`molchilar o`rtasida to``gri taqsimlanishi katta ahamiyat kasb etadi

Mavjud soliq tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi bir qator masalalarga e`tibor berishni kuchaytirish lozim:

- soliqlarni joriy etish va ularni to`lash tartibiga ilmiy tomondan yondashishni kuchaytirish;
- mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda xorijiy tajribalardan unumli foydalanish;
- ixchamlashtirilgan soliqlar amal qilish doirasini kengaytirish;
- soliq sohasidagi har qanday o`zgarishlarni soliq to`lovchilarga ommaviy tarzda tushuntirib borishni keng yo`lga qo`yish;
- soliq sohasidagi qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga yo`l qo`ymaslik, unga qarshi qat`iy kurashish;

- soliq imtiyozlarini, asosan, soliq stavkalarini kamaytirish evaziga emas, balki boshqa xildagi imtiyozlardan unumli foydalanish, xususan tezkor amortizatsiyani qo`llash, soliq kreditlarining miqdorini ko`paytirish kabi vositalarni qo`llash orqali ro`yobga chiqarish;
- qat`iy stavkali soliqlarni kamaytirish, bu orqali tadbirkorlarni haqiqiy daromadidan kelib chiqqan holda soliq undirib olishni kuchaytirish.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, soliq tizimini yanada takomillashtirish faqatgina uning samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

**Asosiy tushuncha va atamalar**

Byudjet, byudjet tizimi, davlat byudjeti. mahalliy byudjet, soliqlar, soliqlarning vazifalari, soliq yuki, soliq imtiyozi,soliq organlari, iqtisodiy o`sish.
Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Davlat byudjeti nima va uqanday vazifalarni bajaradi?
2.Byudjet orqali davlat iqtisodiyotga qanday ta`sir ko`rsatadi?
3.Soliqlar va iqtisodiy o`sish o`rtasidagi aloqadorliklarni tushuntirib beri9ng?
4.Soliqlarning vazifalari nimalardan iborat?
5.Soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usuli va vositasi ekanligini tavsiflab bering?
6.Tezlashtirilgan Amortizatsiyani shaklidagi imtiyozlar mazmunini yoritib bering?
7.ITTLI ni ra`gbatlantirishda qanday soliq usullari va shakllari mavjud?
8.O`zbekistonda asosiy soliq imtiyozlarini sanab o`ting.
9.O`zbekistonda byudjet-soliq vositalari orqali iqtisodiyot davlat tomonidan qanday tartibga solinishini tushuntirib bering.

# 9.IQTISODIYoTNI TARTIBGA SOLIShNING PUL-KREDIT USULLARI

## 9.1. Pul va pul muomalasi, pulga bo`lgan talab va pul taklifi

Pul – umumiy ekvivalent rolini o`ynovchi tovardir.P**ul — bu hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo`lgan, umumiy ekvivalent rolini o`ynovchi maxsus tovardir.**

Pulning mohiyatini to`laroq tushunish uchun uning quyidagi **asosiy vazifalarini** ko`rib chiqamiz: 1) qiymat o`lchovi; 2) muomala vositasi; 3) boylik to`plash vositasi; 4) to`lov vositasi.

Tovar almashuv qiymatining pul bilan ifodalanishi uning narxini anglatadi. Tovarning almashuv qiymatini o`lchash uchun muayyan miqdordagi pul materialini birlik qilib olish zarur. Bunday birlik **narxlar o`lchovi (masshtabi)** deb ataladi. Pul muomaladan chiqarilganda **boylik to`plash** vazifasini bajara boshlaydi. Natural xo`jalik sharoitida boylik to`plash, jam`garish mahsulot jam`garish shaklida amalga oshirilgan. Tovar xo`jaligining rivojlanishi boylik to`plashning pul jam`garish shaklini keltirib chiqaradi.

Tovarlar nasiyaga to`lov muddati kechiktirib sotilganda, pul **to`lov vositasi** vazifasini bajaradi. Pulning bu vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmay, pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to`lashda ham to`lov vositasi vazifasini bajaradi. Qo`goz pullar, veksel va banknotlar — pulning to`lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqqan.

**Pulning o`z vazifalarini bajarish jarayonidagi to`xtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi.**

Mamlakat **pul tizimi**ning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1) milliy pul birligi (so`m, dollar, iena, funt sterling, marka va h.k.);

2) naqd pul muomalasida qonuniy to`lov vositasi sifatida amal qiluvchi qo`goz, tanga va kredit pullar tizimi;

3) pul emissiyasi, ya`ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;

4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. **Naqd pul muomalasida** bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. **Naqd pulsiz hisoblar** cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to`lov talabnomalari yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi. **Muomalada mavjud bo`lgan pul massasi** naqd va kredit pullarni qo`shish yo`li bilan aniqlanadi.

Muomalani ta`minlash uchun zarur bo`lgan pul miqdori quyidagi omillarga bo`gliq:

**1. Muayyan davrda (masalan, bir yil davomida) sotilishi va sotib olinishi lozim bo`lgan tovarlar summasi.**

**2. Pul birligining aylanish tezligi.**

**3. Kreditning rivojlanganlik darajasi, puldan to`lov vositasi sifatida foydalanish.**

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$\ddot{I}_{\grave{i}} = \frac{\grave{O}_{\acute{a}} - \tilde{O}_{\hat{e}} + \tilde{O}_{\grave{O}}}{\grave{A}_{\grave{O}}},$$

bu yerda:

$P_m$ — muayyan davrda muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori;

$T_b$ — sotilishi lozim bo`lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori × narxi);

$X_k$ — kreditga sotilgan tovarlar summasi;

$X_t$ — to`lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to`lovlar summasi;

$A_t$ — pulning aylanish tezligi.

Pul miqdoriga ta`sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasining quyidagi qonuniga ta`rif berish mumkin: **boshqa sharoitlar o`zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to``gri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.**

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko`pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo`lgan pul miqdorini hisoblash uchun “**$M_1$ ...$M_n$ pul agregatlari” yoki “tarkibiy qismi”** tushunchasidan foydalaniladi. **Barcha pul agregatlari yi`gindisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.**

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

**M0** — muomaladagi naqd (qo`goz va metall) pullar.

**M1** q M0 Q aholining joriy hisob varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarning hisob varaqlaridagi pul mabla`glari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo`lgan pul omonatlari.

**M2** q M1 Q tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jam`garma hisob varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mabla`glarini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o`tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular, asosan, jam`garish vositasi vazifasini bajaradi.

**M3** q M2 Q bank sertifikatlari Q aniq maqsadli zayom obligatsiyalari Q davlat zayom obligatsiyalari Q xazina majburiyatlari.

Demak, pul massasining har bir alohida agregati o`zining likvidligi darajasiga ko`ra farqlanadi. **Likvidlik — bu turli aktivlarning o`z qiymatini yo`qotmasdan (eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir.**

Pul bozori — bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mabla`glariga bo`lgan talab va pul taklifining o`zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

Pul taklifi — bu bozorda pul sifatida muomalada bo`lgan turli xil moliyaviy mabla`glar, ya`ni pul agregatlari yi`gindisi hisoblanadi.

Mamlakatdagi pul taklifi, asosan, Markaziy bank tomonidan tartibga solinsa-da, u iqtisodiyotdagi barcha taklifni qamrab ololmaydi. Chunki bu jarayonga uy xo`jaligi xatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosati ham ta`sir ko`rsatadi.

## 9.2. Kredit va bank tizimining vazifalari

Kredit bo`sh turgan pul mabla`glarini ssuda fondi shaklida to`plash va ularni pulga muhtoj bo`lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma`lum muddatga, foiz to`lovlari bilan qaytarish sharti bilan qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki sub`ekt o`rtasida, ya`ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o`rtasida yuzaga keladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

1) korxonalaming amortizatsiya ajratmalari;
2) mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
3) korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy ra`gbatlantirish fondlari;
4) korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek, uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalanilguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;
5) bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;
6) aholining bo`sh pul mabla`glari.

Kreditning bir qator vazifalari mavjud:

Birinchidan, kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo`sh pul mabla`glari ssuda fondi shaklida to`planib, keyin bu mabla`glar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to`lov vositalarini (veksel , chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo`jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o`rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To`rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o`sishni ra`gbatlantirish vazifasini bajaradi.

Beshinchidan, kredit o`z muassasalari orqali iqtisodiy sub`ektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Nihoyat, kreditning o`ziga xos vazifasi — iqtisodiyotni tartibga solishdir. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Kredit turli shakllarda amalga oshiriladi. Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki — pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida bank, tijorat, davlat, iste`mol va xalqaro kredit shakllarini o`z ichiga oluvchi pul kreditidan keng foydalaniladi.

Bank krediti — pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilar (tadbirkorlar, davlat, uy xo`jaligi sektori)ga pul ssudalari shaklida beriluvchi kredit. Bank krediti yo`nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo`yicha cheklanmaydi. Uning

foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jam`garilishigacha xizmat qiladi.

Xo`jaliklararo kredit — bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriluvchi kredit. U korxonalarning kapital qurilish, qishloq xo`jalik sohalaridagi munosabatlari, shuningdek, ichki xo`jalik hisobi bo``ginlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Tijorat krediti — korxonalar, birlashmalar va boshqa xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning bir-biriga beradigan krediti. Tijorat krediti, avvalo, to`lovni kechiktirish yo`li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste`mol krediti — xususiy shaxslarga, birinchi navbatda, uzoq muddat foydalaniladigan iste`mol tovarlari (mebel , avtomobil , televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma`lum muddatga beriladigan kredit. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to`lash bilan sotish shaklida yoki iste`mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste`mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti — ko`chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti — davlat pul mabla`glari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo`lib chiqadigan kredit munosabatlarining o`ziga xos shakli. Davlat krediti mabla`glari manbai bo`lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklidan, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalaniladi.

Xalqaro kredit — ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyon etuvchi shakli. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So`nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

Lizing — bu kreditning pulsiz shakli bo`lib, odatda, ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to`lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Lizing bo`yicha bitimlar 1 yildan to 10 yilga qadar tuzilishi mumkin. Odatda, ishlab chiqarish vositalarini ularning egalari bevosita emas, balki maxsus lizing kompaniyalari orqali ijaraga beradilar.

Faktoring — boshqa iqtisodiy sub`ektlarning qarzdorlik bo`yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari. Bunda bank korxonalarning «debitorlik hisob varaqalari»ni o`zi uchun foydali shartlar asosida naqd pulga sotib oladi, keyin esa bu qarzlarni qarzdordan undirib oladi.

Forfeyting — faktoring munosabatlarining uzoq muddatli shakli. Bunda qarzdorlik bo`yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o`tgandan so`ng undirishi mumkin bo`ladi.

Trast — bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo`yicha operatsiyalar majmui.

Kredit berish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

— ssuda berishning maqsadli tavsifi;

— kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi;

— ssudaning moddiy ta`minlanganligi va to`lovliligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta`minlashda banklar muhim rol o`ynaydi. Banklar pul mabla`glarini to`plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shu`gullanuvchi iqtisodiy muassasadir. Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo`lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tizimi, odatda, ikki bosqichli bo`lib, o`z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki Markaziy bank hisoblanadi. Markaziy bank quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini saqlaydi. Bu zaxiralar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-

valyuta zaxiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi;

2) cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta`minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi;

3) davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi;

4) barcha banklar faoliyatini uy`gunlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

5) xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi;

6) pul taklifi ustidan nazorat qilish mas`uliyatini o`z zimmasiga oladi, milliy valyutani muomalaga chiqaradi. Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

O`zbekiston Markaziy banki o`zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, bank xizmatlarini erkinlashtirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi. Bank tomonidan pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qo`gozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalari ham ishga solinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishini ta`minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o`z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas`ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko`proq ularning iqtisodiy jihatdan foydaliligi va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o`zlarining xo`jalik mavqeiga ko`ra aktsionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko`ra, faoliyatning biron-bir turiga xizmat ko`rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo`lishi mumkin.

Xalq banki — mamlakatda omonat ishlarini tashkil etish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirish, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berish kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, qo`shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yi`gma valyuta rejasining ijrosi, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta`minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashuvi bo`yicha investitsion va ipoteka banklarini ajratib ko`rsatish lozim.

Investitsion banklar — maxsus kredit muassasalari bo`lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo`li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan, davlat va tadbirkorlar)ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar o`zlarining qimmatli qo`gozlarini chiqarish yo`li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to`playdi va ularni korxona (milliy va chet el)lar aktsiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to`liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo`yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklari - bu ko`chmas mulk (er va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muasasalari. Ipoteka bankining resurslari o`zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

### 9.3. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli

Davlatning kredit tizimi ustidan ham ma`lum nazorat o`rnatishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun pul emissiya qilish huquqiga ega bo`lgan va pul muomalasini tartibga soladigan Markaziy Bank tashkil etilgan. Bundan tashqari, davlat ixtiyorida bir qancha ixtisoslashgan banklar bo`lishi lozim.

Oqibatda, ishbilarmonlarning bank operatsiyalarini kredit va moliyaviy tizim orqali tartibga solish imkoniyati vujudga keladi.

O`zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida kredit-pul siyosati sohasida quyidagi ustuvor yo`nalishlarni amalga oshirish asosiy vazifalar qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo`limlari hamda vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta`minlash, kredit va nakd pul emissiyasi, jami pul massasining asossiz o`sishini keskin cheklash;
- O`zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish[1].

Ushbu ustuvor yo`nalish va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida “Banklar va bank faoliyati to``grisida”gi Qonun qabul qilindi. Uning asosida ikki bosqichli bank tizimi amalda shakllandi. Markaziy bank emissiya banki bo`lib, uning zimmasiga boshqa rivojlangan mamlakatlardagi markaziy banklarga xos bo`lgan vazifalar yuklatildi. Sobiq tarmoq doirasida ish yurituvchi davlat banklari tugatilib, Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik-tijorat banklariga aylantirildi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tuzildi va u muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Hozirgi davrda, jahon bank amaliyotida pulga bo`lgan talab va taklifni, xususan, pul massasi, moliya bozorlari hamda bank tizimi likvidliligini samarali tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob stavkasi siyosati, majburiy zaxiralar siyosati, valyuta siyosati kabi bozor iqtisodiyotining bir qator zamonaviy vosita va mexanizmlari keng qo`llanmoqda.

“O`zbekiston Respublikasining Markaziy banki to``grisida”gi Qonunda monetar siyosatning: ochiq bozordagi operatsiyalari; Markaziy bankning hisob operatsiyalari; Markaziy bankning operatsiyalari bo`yicha foiz stavkalari; majburiy rezerv talablari va Markaziy bankning qayta moliyaviy ta`minlash kabi vositalari qayd etilgan.

Pul-kredit siyosatining vositalari - Markaziy bank tomonidan pulga bo`lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmidir. O`z navbatida, ushbu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo`linadi. Bevosita vositalar – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga nisbatan foiz stavkalari yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat bo`lgan ma`muriy usullardir. Bilvosita vositalar esa – Markaziy bank va tijorat banklari o`rtasida ixtiyoriy ravishda foydalaniladigan, ya`ni bozor orqali pulga bo`lgan talab va taklifni o`zgartirish, muomaladagi pul massasi miqdori va banklarning to`lovga qobiliyatliligini tartibga solish usulidir.

Bevosita vositalarga - foiz stavkalarini chegaralash, maqsadli kreditlar, har bir bank uchun kreditning yuqori chegarasini belgilash kabi ma`muriy usul va choralar kiradi. Ular bir qator kamchiliklarga ega bo`lib, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydi. Xususan, ular har bir bankka nisbatan qo`llanuvchi yakka tartibdagi nazorat qilish chorasi bo`lib, moliya bozorida raqobatni bo``gib qo`yadi, moliya sohasining rivojlanishini susaytiradi va banklarning moliyaviy vositachilik rolini pasaytiradi. Shuningdek, bir qator banklar ustidan nazoratning o`rnatilishi natijasida alohida tarmoq va hududlarda kreditlashtirish samarasini pasaytiradi, katta miqdordagi moliyaviy mabla`glarning nazorat qilib bo`lmaydigan sohaga, ya`ni xufiyona iqtisodiyotga yoki xorijga chiqib ketishiga olib keladi.

Bilvosita vositalarga - ochiq bozordagi operatsiyalar (davlatning va Markaziy bankning qimmatli qo`gozlarini birlamchi bozorlarda sotish), ikkilamchi bozordagi operatsiyalar (bevosita oldi-sotdi yoki REPO operatsiyalari), qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira talablari, valyuta siyosati, kredit auktsionlari, valyuta svoplari, veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi, lombard yoki overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Ular bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi va bevosita vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, Markaziy bankka pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish, pul massasi, moliya bozorini samarali tartibga solish, davlatning kreditni taqsimlash va pul-kredit orqali boshqarish jarayonlariga aralashuvini kamaytirish, moliya

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1995 й. 21-22-бетлар.

bozorining rivojlanishi va kengayishiga, banklarning vositachilik rolini oshirish, kapital qo`yilma va moliyaviy jam`garmalar hajmining ko`payishiga qo`shimcha qulayliklar yaratadi.

Markaziy bank o`zining va davlatning qimmatli qo`gozlarini, xorijiy valyutalarni erkin sotish va sotib olish, mabla`glarni depozitlarga jalb qilish va qaytarish, majburiy zaxira talablari me`yorini va qayta moliyalash stavkasini o`zgartirish orqali banklarning moliyaviy holatiga ta`sir qiladi (9.3.1-jadval).

Markaziy bank yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi hajmini iqtisodiyot uchun zarur bo`lgan miqdorgacha kamaytiradi. Pul massasining kamayishi hisobiga inflyatsiya darajasi pasayadi va milliy valyuta kursining barqarorligi oshadi. Bu esa, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va aholining bank tizimiga bo`lgan ishonchining tobora oshishiga, mamlakatda jam`garmalar va iqtisodiy faollikning o`sishi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratadi.

**9.3.1-jadval**

**Monetar siyosat vositalarining turlari**

| Bevosita vositalar | Bilvosita vositalar |
|---|---|
| Foiz stavkalarini chegaralash | Ochiq bozordagi operatsiyalar |
| Maqsadli kreditlar | Majburiy zaxiralar |
| Har bir bank uchun kreditlash miqdorini belgilash | Veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi |
| Har bir bank uchun hisobga olish me`yorlarini belgilash va boshqalar | Qisqa muddatli depozitlar mexanizmi |
| | Kredit auktsionlari |
| | Lombard va overdraft mexanizmlari |
| | Valyuta svoplari va bevosita oldi-sotdi operatsiyalari |

Manba: jadval Xalqaro valyuta fondi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bilvosita vositalar ixtiyoriy ravishda qo`llanilishi va sonining ko`pligi jihatidan bozor iqtisodiyoti talablariga to`liq javob berishi bilan bevosita vositalarga nisbatan afzalligi yaqqol ko`rinmoqda. Shu bois hozirgi paytda jahonning eng taraqqiy etgan davlatlarida ham pul-kredit siyosatining bilvosita vositalarini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

**So`nggi yillarda mamlakatimizda monetar siyosat sohasida ham bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, investitsiya loyihalari va davlat byudjeti taqchilligini Markaziy bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish amaliyotiga chek qo`yildi. Bu esa Markaziy bank mustaqilligini oshirdi. Tijorat banklarining bo`sh pul mabla`glarini Markaziy bankning depozit sertifikatlariga va maxsus depozitlariga jalb qilish bo`yicha operatsiyalar muntazam ravishda o`tkazib borilmoqda.**

**Markaziy bankning obligatsiyalari muomalaga chiqarildi, muomaladagi ortiqcha likvidlilikni kamaytirishning bozor mexanizmlari yaratildi, inflyatsiya va foiz stavkalari sezilarli darajada pasaytirildi. Amaldagi mavjud almashuv kurslari birxillashtirilib, milliy valyutaning barqarorligi ta`minlandi. Aholining banklardagi omonatlari miqdori sezilarli darajada o`sdi. 2003 yilda Xalqaro joriy operatsiyalar bo`yicha milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi ta`minlanib, XVFning VIII moddasi talablariga zid keluvchi barcha cheklovlar olib tashlandi.**

**Umuman, 2003 yilda amalga oshirilgan qat`iy monetar siyosat milliy valyuta barqarorligini ta`minlashga, inflyatsiya darajasi va foiz stavkalarini yanada pasaytirishga, pul bozorini rivojlantirish, valyuta bozorini erkinlashtirishga hamda pul mabla`glarining bankdan tashqari muomalasini qisqartirishga yo`naltirildi. O`z navbatida, 2003 yilda depozit operatsiyalari pul taklifi va bank tizimi likvidliligini tartibga solishda eng ko`p qo`llanilgan vosita bo`ldi.**

O`zbekistonda bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasi, likvidligi, ya`ni to`lov qobiliyatini oshirish uchun oldindan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O`zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo`ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida moliya-bank tizimini mustahkamlash bo`yicha talay ishlar amalga oshirildi. Oqibatda, so`nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko`paydi. 2009 yilning o`zida yetakchi banklarning nizom jam`garmalarini oshirish uchun qo`shimcha ravishda 500 milliard so`mdan ortiq davlat mabla`glari ajratildi. Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Mamlakatimizda28 ta tijorat banki "Fitch Reytings", "Mudis" va "Standartend Purs" kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarning "barqaror" degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo`ldi.

Umuman, davlat bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish tijorat banklarini yirik investitsiya institutlariga aylantirish orqali iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlanishi uchun mustahkam shart-sharoit yaratadi.

Asosiy tushuncha va atamalar

Pul, pulning vazifalari, muomala uchun zarur bo`lgan pul miqdori, pul muomalasi, pul emissiyasi, kredit, kreditning turlari, bank krediti.bank,Markaziy bank, tijorat banki, bank turlari, monetar siyosat, monetar vositalar, xalqaro kredit.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pul nima va u qanday vazifalarni o`taydi?
2. Pul muomalasi qonunini tushuntirib bering.
3. Pul muomalasi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
4. Pul emissiyasi nima va u qanday nazorat qilinadi?
5. Kredit nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
6. Kredit turlarini izohlab bering.
7. Markaziy bank qanday vazifalarni bajaradi?
8. Monetar siyosat nima?
9. Monetar vaositalar orqali iqtisodiyot qanday tartibga solinadi?
10. O`zbekistonda pul-kredit vositalar orqali davlat iqtisodiyotni qanday tartibga solmoqda?
11. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?pul-kredit vositalar orqali davlat iqtisodiyotni qanday tartibga solmoqda?

## 10. JAMIYaTNING IJTIMOIY SOHASI VA UNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINIShI

### 10.1. Jamiyatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli.

Ijtimoiy soha – bu aholini turmush darajasi, hayot tarzi va ularning farovonligi bilan bevosita bo`gliq bo`lgan tarmoqlar, korxonalar majmuidir. U o`zida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini (ta`lim, so`gliqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta`minot, uy-joy kommunal xizmatlari, yo`lovchi tashish transportlari, aloqa) mujassamlashtiradi.

Ushbu soha tarmoqlari va korxonalarining bir qismi bevosita mustaqil xo`jalik yurituvchi korxona va tashkilotlarga ta`lluqli bo`lsa, qolgan qismi davlatga tegishli korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Unga mos tarzda, ularning tarkibi va rivojlanishi xo`jalik organlari resurslari, davlat byudjeti rusurslari va davlat byudjetdan tashqari fondlari hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sohaning davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlardan moliyalashtiriladigan qismiga davlat bevosita tartibga solish ta`sirini ko`rsatadi, qolgan qismiga esa bilvosita qonun chiqarish, qarorlar qabul qilish yo`li bilan ta`sir ko`rsatadi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, uning holati avvalam bor moddiy ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan bo`gliqdir. Biroq teskari munosabat ham mavjud, ya`ni o`z navbatida u ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bo`gliqdir.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishida ijtimoiy sohaning roli oshib bormoqda. Ijtimoiy sohaning ustun darajada rivojlanib borishi ijtimoiy sohada band bo`lganlar ulushining oshib borishi bunga misol bo`la oladi.

Jamiyat rivojlanishida inson omilining roli muhim bo`lib, u doim oshib boradi. Iqtisodiy o`sishda ilmni va so`gliqni ta`sirini o`sib borishi haqida jahon bankining 1998G'1999 yillar uchun «Rivojlanishda ilmning xissasi»(«Znanie na slujbe razvitiya») nomli hisobotida to`xtalib o`tiladi. Xodimlarning ma`lumoti, malakasining oshishi YaIM da ushbu omillar hisobiga o`sish ulushida namoyn bo`ladi. Masalan, Amerika iqtisodchisi ye.Denisov taxminiga ko`ra 1929-1982 yillarda milliy daromad o`sishining 14% ma`lumot, malakani oshirish hisobiga 21% mehnat ugumdorligining o`sishi hisobiga erishilgan.

Ishchilar malakasining o`sishi – mehnat unumdorligini oshirishning muhim manbaidir, biroq ishlab chiqaruvchi so`gli`gini mustaxkamlash esa xodimlarning kasalliklari tufayli unumdorlikning pasayishiga va kasallik davri uchun nafaqalar to`lash bo`yicha xarajatlarning qisqarishi olib keladi.

Bu Rossiya Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot institutiga hulosa chiqarishga asos bo`ldi, ya`ni «mamlakatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy sohaga qilingan xarajatlar bilan to``gridan-to``gri bo`gliqlikda»[10].

G'arbning rivojlangan mamlakatlarida davlat byudjeti xarajatlari YaIM ga nisbatan 33-50% tashkil etadi. Masalan, bu ko`rsatkich 2001 yilda: AQSh – 31,9% ni, Bubk Britaniyada – 39,7% ni, Germaniyada – 46,5% ni, Italiyada – 47,2% ni, Frantsiyada – 52,1% ni, Shvetsiyada – 59,7% ni, yeX mamlakatlarida – 46,1% ni tashkil etdi[11].

Bundan byudjet xarajatlarining salkam yarmi va undan oshi`gi davlat tomonidan ijtimoiy-madaniy maqsadlarda foydalaniladi.

Rivojlangan davlatning asosiy byudjet xarajatlarini ijtimoiy-madaniy xarajatlar tashkil etadi. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy xarajatlarini asosini ta`lim, so`gliqni saqlash, ijtimoiy to`lovlar, ya`ni pensiya, nafaqalar to`lovlari tashkil etadi. Masalan, 1999 yilda 1990 yilga nisbatan aholini katta yoshdagilariga ta`lim berishning o`rtacha yili quyidagicha oshdi: Italiyada 5,5 yildan 13,5 yilgacha, Yaponiyada 9,9 yildan 17 yilgacha, AQSh da 11,3 yildan 19,6 yilgacha.

Shu tarzda XX asrning ikkinchi yarmida umumiy tendentsiyaning rivojlanishi, ya`ni ijtimoiy sohaning rivojlanishida, inson omiliga qo`yilmalarning o`sishida va bular orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda davlatning roli oshib bordi.

Bu sohadagi murakkab va asosiy muammolardan biri – bu vazifalarni chegaralash, ya`ni ko`proq maqsadga muvofiq bo`ladigan qaysi vazifalarni davlatdaga berish va qaysilarini mustaqil xo`jalik yurituvchi sub`ektlarda qoldirish.

Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy himoya xarajatlari asosiy rolni egallaydi. MDH va G'arb mamlakatlarida ushbu xarajatlarni taqqoslashda `garb statistikasida shu guruh xarajatlariga ijtimoiy transfertlardan tashqari so`gliqni saqlash xarajatlari ham qo`shilishini hisobga olish zarur.

Bu holatda nodavlat mulkchilik shaklidagi xo`jalik organlari resurslari hisobiga ijtimoiy himoya xarajatlarining katta qismini moliyalashtirish ko`rinishlariga ega bo`lish lozim.

### 10.2. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bo`gliqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tu`gilgandan nogironlarga, ko`p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin

[10] Академик Абалкин Л.И. Вопросы экономики. 1998, №6 стр 5.
[11] Мировая экономика и международные отношения, 2002. №11 стр 12.

tabaqalashuvining o`sishiga sabab bo`ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi.

Bozor ijtimoiy barqarorlikni ta`minlamaydi. Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar o`rtasidagi, mehnat va kapital o`rtasidagi muammolarni xal etuvchisi sifatida chiqadi.

Bularning hammasi, ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uy`gunlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini optimal uy`gunlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bo`gliq bo`lgan xarajatlarni samarali boshqarish mumkin. Davlat millatning so`gli`gi uchun, malakali kadrlarni tayyorlash uchun javobgarlikni o`z zimmasiga oladi. Aholini ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, mulkchilik huquqlarini himoya qilish ham davlatning zimmasidadir. Faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bo`gliq xarajatlarni samarali usullar bilan tartibga solishi mumkin. Va faqat uning yordami bilangina ijtimoiy yo`naltirilgan bozor tizimini yaratish va aholi daromadlari o`rtasidagi yuqori tabaqalanishlarni qisqartirish mumkin.

O`zbekistonda ijtimoiy madaniy maqsadlarga(aholini ijtimoiy himoyalari bilan birgalikda) umumiy birlashtirilgan byudjet xajmining YaIM ga nisbatida byudjet xarajatlari ko`rsatkichlarining mutanosibligi ijtimoiy sohani tartibga solish va rivojlanishida davlatning roli haqidagi tushunchalarni boyitadi.

O`zbekiston Respublikasining birlashgan (konsolidirovannogo) byudjet resurslarining yarmidan ko`pro`gi ijtimoiy madaniy maqsadlarga yo`naltiriladi. Shu sababli, jon boshiga qilinadigan bu xarajatlarning katta qismi byudjetdan tashqari pensiya fondi va bandlik fondlari hisobiga to``gri keladi. Ijtimoiy-madaniy xarajatlarning va YaIM mutanosibligining qisqarishi pulli ijtimoiy-madaniy xizmatlarni jon boshiga o`sishiga, ya`ni ushbu maqsadda xo`jalik organlari qilayotgan  xarajatning o`sishi bilan bo`gliq.

### 10.3. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning shakllari va usullari.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari ko`pgina omillarga bo`gliq. Ulardan: iqtisodiy rivojlanish darajasi, ushbu sohada davlat va nodavlat sektorlarining mutanosibligi, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqalar.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning asosiy shakllari bo`lib: qonunchilik aktlari, byudjet-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy sohaning bir qismini, ya`ni davlatga tegishli bo`lgan korxona va tashkilotlarni to``gridan-to``gri boshqarish.

Masalan, MDH mamlakatlarida va shu qatori O`zbekistonda ham ijtimoiy sohani tartibga solishning quyidagi shakllari qo`llaniladi:

1) mulkchilik shaklidan qat`iy nazar ishchilar uchun eng kam ish haqi darajasi, pensiya, ish kunining davomiyligi, mehnat tatilining davomiyligi qonunda belgilash yo`li bilan tartibga solish;
2) byudjet xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mehnatga haq to`lash tizimi tariflarini o`rnatish;
3) pensiya, nafaqalar, stipendiyalar darajasini o`rnatish, urush va mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiyozlar tizimini o`rnatish;
4) ishchilar uchun progressiv soliq stavkalarini o`rnatish;
5) ijtimoiy soha tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti xarajatlari eng optimal proportsiyasini o`rnatish;
6) ko`proq ijtimoiy-zaruriy maxsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o`rnatish orqali aholi daromadlarini tartibga solish, inflyatsiya jarayonida esa pesionerlar, davlat ijtimoiy soha ishtirokchilari ishchilarining daromadlarini indeksatsiyalash.

Eng kam ish haqining miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida eng kam ish haqi ancha yuqori ekanligini bilamiz. Biroq shu o`rinda turli narx darajalarini ham hisobga olish zarur. G‘arb mamlakatlarda soatbay ish haqining quyi chegarasi soatiga 5 dollar hisoblanadi.

Shu qatorda davlat tomonidan o`rnatilagn eng kam ish haqi darajasidan aholini turmush darajasini taxlil etishda va mutloq qashshoqlik ko`rsatgichi sifatida foydalaniladi. Eng kam ish haqi iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va bandlikka ham bo`gliqdir. Masalan, Jahon banki mutaxassislari tomonidan mutloq qashshoqlik darajsini aniqlashda aholini bir kunda 2,15 dollar daromad oladigan qisminigina hisobga olishadi.

Quo`ida rivojlangan mamlakatlar qatori markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohani islohotlar olib borilmoqda, ijtimoiy maqsadlarga daromadlarni taqsimlash munosabatlari o`zgarmoqda. Asosan pensiya tizimida sezilarli o`zgarishlar va pensiya islohotlari olib borilmoqda. Pensiya yoshi oshmoqda, davlat pensiya fondi bilan birga nodavlat pensiya fondlari shakllanmoqda. Jam`garib boriladigan pensiya fondi tizimi joriy etilmoqda.

Shunday bo`lsada, pensionerlar soni oshmoqda, pensiya uchun resurslarni oshirish talab etilmoqda, pensiya yoshi uzaymoqda. Masalan Angliya va boshqa qator mamlakatlarda 65 yoshdan pensiyaga chiqish haqida taklifi qo`yilmoqda. Eng ko`p jon boshiga ijtimoiy maqsadlarda qilingan xarajatlar Skandinaviya mamlakatlariga xosdir. Bu mamlakatlarda pensiya fondini shakllantirishni davlat o`z zimmasiga olgan. Germaniyada biroz boshqacha yondashuv mavjud. Pensiya fondini yaratishni aholining o`zi qabul qilgan, ya`ni uning o`zi ushbu fondga badalini olib borib berishi lozim. Ijtimoiy su`gurta fondini shakllantirishda xususiylashtirishlar olib borilmoqda, shu qatori Lotin Amerikada ham. Bunda tadbirkorlar ijtimoiy su`gurta fondi badallaridan ozod etiladi. Bu fondning resurslari ishchilarning badallari hisobiga va vaqti-vaqti bilan beriladigan davlat resurslari hisobiga shakllanadi.

Qator mamlakatlarda mutloq qashshoqlik ko`rsatgichi o`rnida xayot kechirish minimumi ko`rsatgichi qabul qilingan. Turli mamlakatlarda bu ko`rsatgich turlichadir. Qashshoqlik jihatini o`rtacha ish haqiga nisbatan foiz ko`rinishda aniqlash mezoni keng tarqalgan. Masalan, Bolgariyada hayot kechirish minimumi o`rtacha ish haqining 53-65% ga teng, Chexiyada 55-56% ga, Polshada 36% ga teng. Keltirilgan ko`rsatgichdan kam daromadga ega bo`lganlar qashshoqlar toifasiga kiritiladi.

O`zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo`nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Xalq ta`limi va so`gliqni saqlash uchun resurslarning shakllanishida o`zgarishlar bo`lib, davlat oliy va o`rta bilim yurtlarida shartnoma asosida ta`lim berish va o`quv yurtining yangi shakllari yuzaga keldi. So`gliqni saqlashda pulli va bepul xizmatlar ko`rsatish ko`rinishlari yuzaga keldi. Ijtimoiy su`gurtada ko`p bolali oilalarga maxalla yi`ginlari tomonidan yordam ko`rsatishning roli oshdi.

## 10.4. Davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash

Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Mehnat bozorida mehnat sotilmaydi, ishlovchilarning mehnat qilish qobiliyati, mehnat xizmati sotiladi[1], chunki mehnat kishilarning ma`lum maqsadga yo`naltirilgan faoliyati jarayoni bo`lib, unda ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari qo`shilishi natijasida kishilarning ehtiyojlarini qondirishga mo`ljallangan mahsulot yaratiladi va xizmat ko`rsatiladi[2].

Mehnat bozorida ishchi kuchini sotish va sotib olish erkin xodimni ishga yollash shaklida namoyon bo`ladi. Ishga yollash ma`lum shartlar, ya`ni ish kunining uzunligi, ish sharoitlari va rejimi, ish haqining miqdori, bajariladigan ish turi, lavozim va kasb majburiyatlari asosida amalga oshiriladi. Mehnat bozori yollanma ishchi, xodim va ish beruvchi, tadbirkorning iqtisodiy erkinligiga asoslanadi. Demak, ishchi kuchi mehnat bozorining ob`ekti hisoblanadi.

Uning sub`ektlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalari egalari, ish beruvchilar va ularning manfaatlarini ifodalovchi uyushmalar (tadbirkorlar uyushmalari);

- yollanma ishchi, xodimlar, ya`ni ishchi kuchi egalari va ularning manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar, kasaba uyushmalari;

---

[1] Курс экономическая теории: Учебник. 4-е доп и перераб изд. Киров : “АСА” 1999, – С.231.
[2] Шодмонов Ш.Ш., Ғафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. / Маъруза матни/ -Т., 2007, 23-бет.

- davlat. Davlat o`zining turli boshqarish organlari orqali ish beruvchi va yollanma xodimlar o`rtasida vosita bo`lib, ular o`rtasidagi ishga yollash bo`yicha bo`ladigan mehnat munosabatlarini tartibga soladi.

Mehnat (ishchi kuchi) bozori quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishchi kuchini zamonaviy ehtiyojlarga asosan takror ishlab chiqarishni ta`minlashga ko`maklashish;
- ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o`rtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta`minlash;
- ishchi kuchining mobilligi, ya`ni harakatchanligini faollashtirish;
- mehnat unumdorligini o`stirishga ra`gbatlantirish;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta`minlanishi orqali aholi daromadlari va turmush hdarajasini o`stirish.

**10.4.1-chizma**

**Mehnat bozori ob`ekti va sub`ektlari**[1]

Mehnat bozorining shakllanishi, rivojlanishi va amal qilishiga quyidagi omillar ta`sir ko`rsatadi:

- demografik omillar. Ular o`z ichiga aholining soni, o`sish sur`ati, tarkibi, unga iqtisodiy faol aholining ulushi va uning harakatchanligi (mobilligi) kiradi;
- ijtimoiy omillar. Ular jumlasiga aholining turmush darajasi, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi;

o- tashkiliy-huquqiy omillar, ular tarkibiga tadbirkorlik, mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy bazasi ishlab chiqilganligi va sifati, amal qilish samaradorligi; davlat boshqaruv organlari va muassasalarining mehnatni hamda aholining ish bilan bandligini tashkil etish, tartibga solishdagi rolini ifodalovchi omillar kiradi

**Mehnat bozorining vazifalari va unga ta`sir etuvchi omillar**

Mehnat bozori amal qilish mexanizmining muhim komponentlariga quyidagilar kiradi:

- ishchi kuchiga talab. U mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo`lgan ijtimoiy ehtiyojning umumiy hajmini ifodalaydi;
- ishchi kuchi (mehnat) taklifi, ishlashni istayotgan ishchi kuchining umumiy miqdori. Ishchi kuchi jinsi, yoshi, ma`lumoti, kasb-kori, malakasi nuqtai nazardan turli tarkibda namoyon bo`ladi;
- ishchi kuchi bahosi ishchi va xodimlarning ish haqida ifodalanadi, ish haqi tovar qiymatining puldagi ifodasi, bozor bahosidir.

**10.4.3-chizma**

**Mehnat bozori tarkibi (segmentlari)**[1]




---

[1] Муаллиф томонидан тузилди.

[1] Муаллиф томонидан тузилган.

- ishchi kuchi qiymati. Ishchi kuchi qiymati uni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan moddiy va nomoddiy ne`matlar, xizmatlar qiymati bilan belgilanadi;

- raqobat. Raqobat ish beruvchilar o`rtasida yuqori malakali ishchi kuchini jalb etish uchun olib borilsa, yollanma xodimlar o`rtasida yuqori haq to`lhanadigan ish o`rinlari uchun raqobat kurashi yuz beradi. Shuningdek, ish beruvchi va yollanma xodimlar o`rtasida ishga yollanish shartlari yuzasidan raqobat bo`ladi (10.4.4-chizma).

**12.1.4-chizma**

**Mehnat bozori amal qilishi mexanizmining komponentlari**[1]




Ammo ish haqi miqdori o`sganda ishchi kuchi taklifi ham ko`payadi. Aksincha holatda ishchi kuchi taklifi kamayadi.

Bozor muvozanati ishchi kuchiga bo`lgan talab va uning taklifi ma`lum muvozanatli ish haqi darajasida miqdor va tarkib jihatidan bir-birlariga muvofiq (teng) bo`lganlarida yuzaga keladi.

Davlat mehnat bozorini iqtisodiy va ma`muriy vositalar, dastaklar yordamida tartibga solib turadi (10.4.5-chizma).

**10.4.5-chizma**

[1] Муаллиф томонидан тузилган.

**Hududiy mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo`nalishlari**[1]




Mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo`nalishlar bo`yicha amalga oshiriladi:

- ishga yollashning minimal standartlarini qonuniy belgilash;
- ish vaqtining uzunligi, ish haqi, boshqa to`lov va imtiyozlar;
- mehnat sharoiti va xavfsizligini ta`minlash sohasidagi norma (me`yor)larni qonuniy belgilash;
- shaxslarni ma`lum turdagi mehnat faoliyati bilan shu`gullanishlariga qonuniy ruxsat berish va cheklash;
- ish beruvchi va xodimlarning faoliyatini fuqarolik huquqi hamda mehnat qonunchiligi asosida tartibga solish.

O`zbekiston Respublikasida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta`minlash strategiyasi quyidagilarni amalga oshirishni ko`zda tutadi:

- fuqarolarning mehnat qilish, tadbirkorlik, iqtisodiy faoliyat sohasi va turini hamda kasbni tanlash erkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta`minlash;
- mehnat faoliyati motivatsiyasining kuchli mexanizmini joriy etish, aholi iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;
- amalda mehnat bozorini shakllantirish, mehnat resurslarini iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat sohalari bo`yicha erkin taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi uchun sharoitlar yaratish[1].

---

[1] Обидов О.О. Меҳнат бозори ва унинг шаклланиши // Аграр соҳада ислоҳотларни янада чуқурлаштириш муаммолари ва ечимлари. –Т., “Меҳнат”, 2002. 157-бет.

[1] Доклад о человеческом развитии. Узбекистан 1997 г. –Т., 1998. – С 55-56.

Davlat mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta`minlanishi darajasiga hamda mehnat, ya`ni ishchi kuchi bozoriga faol yoki passiv ta`sir ko`rsatadi. Passiv ta`sir choralariga ishsizlik bo`yicha turli nafaqa va to`lovlar kiradi. Mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirishning asosiy choralar tadbiri esa quyidagilar:

- ish izlovchilarni ishga joylashtirish bo`yicha xizmatlar ko`rsatish;
- ishlovchi va ishsizlarni o`qitish, kasbga qayta tayyorlash;
- bevosita ish joylarini yaratish;
- doimiy ish bilan bandlikni subsidiyalashtirish;
- tadbirkorlikni, shu jumladan, o`z korxonalarini, ishbilarmonlik faoliyatini boshlamoqchi bo`lgan ishsizlarni qo`llab-quvvatlash;
- jamoat ishlarini tashkil etish[1].

Ushbu umumqabul qilingan vazifalarni amalga oshirish uchun O`zbekistonda 1992 yil 31 yanvarda “Aholini ish bilan ta`minlash to``grisida” Qonun qabul qilingan bo`lib, unga 1993-1995 yillar davomida qator o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan edi. 1996-1998 yillarda qabul qilingan Mehnat kodeksi, “Ta`lim to``grisida”gi, “Fermer xo`jaligi to``grisida”gi, “Dehqon xo`jaligi to``grisida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiqlashtirish maqsadida 1998 yil 1 mayda ushbu Qonun yangi tahrirda qabul qilingan.

Bugungi kunda O`zbekistonning deyarli barcha xududlarida ishchi kuchi ortiqchaligi mavjud va ishchi kuchi bozorida taklif talabdan yuqoridir. Shu bois ishlashni xohlovchilarning mehnat bozorida erkin harakat qilishlari va mustaqil ish bilan ta`minlanishlari uchun davlat fuqarolarga bir qancha kafolatlarni nazarda tutadi. Ya`ni davlat:

- ish bilan ta`minlash turini, shu jumladan, turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini `gayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanish;
- maqbul ishni tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berish;
- har kimga kasbga va ishga ega bo`lishda, mehnat qilish va ish bilan ta`minlanish shart-sharoitlari, mehnatga haq to`lash, xizmat po`gonasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratish;
- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o`qitish, mahalliy mehnat organlari yoki ularning yo`llanmasi bilan boshqa o`quv yurtlarida stipendiya to`lab malakasini oshirish;
- boshqa joydagi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to`lash;
- haq to`lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

Hozirgi vaqtda O`zbekistonda mehnat bozorini boshqarishda bir qator yo`nalishlar mavjud bo`lib, ular aholi bandligi davlat xizmatiga taalluqlidir. Bu xizmatning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotni tarqatish hisobiga mehnat bozorining faoliyat ko`rsatish samaradorligini oshirishdan iborat.

## 10.5. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasining o`sishi

Aholining turmush darajasi ko`p jihatdan uy xo`jaliklarining jam`garilgan aktivlari va oilalarning joriy daromadlariga bo`gliq bo`ladi. O`zbekistondagi oilalarning 98 foizi, joriy moddiy holatidan qat`i nazar, o`zlarining xususiy mulki bo`lgan shaxsiy turar-joylariga ega. Oilalarning katta qismi, jumladan, qishloq joylarida yashovchi kam ta`minlangan aholining katta qismi esa – 96,7 foizi, qishloq xo`jalik mahsulotlari yetishtirish yoki kichik tadbirkorlik faoliyatini yuritish mumkin bo`lgan, meros qilib qoldiriladigan tomorqa yerlariga ega (10.5.1-jadval).

---

[1] Рынок труда и социальная политика в Центральной и Восточной Европе. / Переходный период и дальнейшее развитие. Под ред. Николоса Бара. –М.: ИКЦ «Дис» 1997. – С. 223-234.

**10.5.1-jadval**

**Oilalarning o`z uy-joyi va meros qilib qoldiradigan tomorqa yerlari bilan ta`minlanganligi**

| Joriy daromadlar bo`yicha kvintillar | Kvintilda o`z uy-joyiga (individual uy yoki ko`p xonadonli uyda kvartiraga) ega bo`lgan oilalar salmo`gi, (%da) | Kvintilda tomorqa yeriga ega bo`lgan oilalar salmo`gi, (%da) |
|---|---|---|
| 1 kvintil | 98,2 | 87,3 |
| 5 kvintil | 97,8 | 56,2 |
| ***Yashash joyi*** | | |
| Shahar | 94,9 | 51,9 |
| Qishloq | 98,3 | 96,8 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Turmush darajasining muhim xususiyati, aholi uchun munosib turmush sharoitini ta`minlaydigan kommunal xizmatlarning asosiy turlaridan foydalanish imkoniyatlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda 1990-2010 yillar davomida ikkita maqsadli davlat dasturi – Aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta`minlash dasturlari amalga oshirildi. Mazkur dasturlarni amalga oshirish mobaynida, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mabla`glar, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlarning jalb qilgan kreditlari hisobidan 114,2 ming km. masofada suv tarmoqlari va 77,3 ming km. masofada gaz tarmoqlari qurib bitkazildi. 2011 yilning boshidagi holatiga ko`ra, aholining markazlashgan suv ta`minotidan foydalanish darajasi 82,6 foizni, gaz uchun esa – 83,7 foizni tashkil etdi.

**10.5.2-jadval**

**Uy xo`jaliklarining kommunal xizmatning asosiy turlari bilan ta`minlanganlik darajasi**

| **Kommunal xizmat turlari** | **Bu xizmatlardan foydalanadigan uy xo`jaliklari salmo`gi, (%da)** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **2001y.** | **2003y.** | **2005y.** | **2010y.** |
| Sovuq suv ta`minoti | 81,4 | 81,8 | 82,2 | 82,6 |
| Tabiiy gaz | 76,1 | 79,8 | 80,6 | 83,7 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Shu bilan birga, suv va gaz ta`minoti infratuzilmasining katta qismini ta`mirlash talab etiladi; ko`plab uy xo`jaliklari kommunal xizmatlarning ushbu turlari bilan ta`minlanmay aziyat chekmoqda. Bunday holat kam ta`minlangan oilalarga ham, daromadi yuqori oilalarga ham ta`sir ko`rsatadi. Biroq kam ta`minlangan oilalarning kommunal xizmatlardagi yetishmovchiliklarni muqobil manbalardan to`ldirish imkoniyatlari kamroq.

Shahar va qishloq uy xo`jaliklari o`rtasida ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish imkoniyati darajasi bo`yicha tafovut tabiiy gaz bo`yicha unchalik katta emas, biroq markazlashgan suv ta`minoti bo`yicha sezilarli va kanalizatsiya bo`yicha undan ham yuqori (10.5.3-jadval).

**10.5.3-jadval**

**Aholining ichimlik suvi, tabiiy gaz va boshqa kommunal xizmat turlari bilan ta`minlanganlik jarajasi (% hisobida)**

| Ko`rsatkichlar | **1990** | **2000** | **2009** | 2010 |
|---|---|---|---|---|
| Suv ta`minoti | 64 | 80,4 | 82,3 | 82,6 |
| Shu jumladan | | | | |
| Qishloq aholisi | 55 | 72,3 | 75,6 | 75,8 |
| Tabiiy gaz | 44,6 | 76,1 | 83,2 | 83,7 |
| Shu jumladan | | | | |
| Qishloq aholisi | 19,3 | 65,9 | 77,2 | 77,7 |
| Markazlashgan isitish suv tizimi | 29,1 | 35,4 | 41 | 41,0 |
| Kanalizatsiya | 25,5 | 28,3 | 37 | 37,1 |
| 1 kishiga to``gri keladigan uy-joy maydoni $m^2$ | 12,1 | 13,8 | 14,9 | 15,2 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Respublikada 1996 yildan boshlab aholi jon boshiga o`rtacha to``gri kelgan pul daromadlari o`sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi. Keyingi yillar davomida aholi real daromadlarining o`rtacha o`sishi 16,2 foiz atrofida bo`ldi. 2010 yilda real daromadlar 2000 yilga nisbatan 2,5 barobarga o`sdi (10.5.4-jadval).

**10.5.4-jadval**

**Mavjud real pul daromadlari, (% da)**

| **Yillar** | O`tgan yilga nisbatan | 2000 yilga nisbatan |
|---|---|---|
| 2000 y. | 124,7 | 100,0 |
| 2001 y. | 116,8 | 116,8 |
| 2002 y. | 112,6 | 131,5 |
| 2003 y. | 111,8 | 147,0 |
| 2004 y. | 114,4 | 168,3 |
| 2005 y. | 120,2 | 202,3 |
| 2008 y. | 123,0 | 246,8 |
| 2010y. | 130,0 | 251,2 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

2000-2010 yillar davomida respublikaning barcha joylarida aholi daromadlarining o`sishi kuzatildi. Eng yuqori o`sish sur`ati, daromadi yuqori mintaqalar – Toshkent shahri va Navoiy viloyatida kuzatildi. Mazkur mintaqalar o`rtasida daromadlar bo`yicha aholi jon boshiga to``gri keladigan mavjud tafovutlarining sezilarli kuchayishiga ta`sir ko`rsatdi. Aholining daromadlar strukturasida ish haqining ulushi o`smoqda (10.5.5-jadval).

**10.5.5-jadval**

**Aholining umumiy daromadi tarkibi** *(% da)*

| | **2001** | **2002** | **2003** | **2005** | **2009** | **2010** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Jami*** | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| ***Oylik pul daromadlari*** | 79,3 | 82,4 | 83,8 | 84,5 | 89,3 | 89,3 |
| Ish haqi | 29,9 | 28,2 | 29,5 | 29,5 | 32,0 | 32,1 |
| Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad | 10,0 | 12,9 | 15,1 | 15,4 | 22,4 | 23,2 |
| Shaxsiy yordamchi xo`jaliklardan olingan daromad | 16,2 | 17,8 | 17,5 | 17,0 | 9,4 | 9,3 |
| Ijtimoiy transfertlar | 15,3 | 15,5 | 15,8 | 17,3 | 17,9 | 18 |
| Qarindoshlardan olingan moddiy yordam | 4,4 | 5,2 | 4,2 | 4,1 | ... | ... |
| Mulkdan olingan daromad | 0,7 | 1,3 | 1,2 | 1,1 | 0,5 | 0,5 |
| Kreditlar, ssudalar | 2,6 | 1,4 | 0,5 | 0,6 | … | ... |
| Boshqa pul daromadlari | 0,2 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 7,1 | 6,2 |
| ***Natural shakldagi daromadlar (so`mga aylantirganda)*** | 20,7 | 17,6 | 16,1 | 14,9 | 10,7 | 10,7 |
| Shaxsiy yordamchi xo`jaliklardan natural iste`mol | 15,0 | 12,7 | 12,8 | 11,8 | … | ... |
| Imtiyozlar | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,1 | … | ... |
| Natura shaklidagi boshqa daromadlar | 5,3 | 4,7 | 3,2 | 3,0 | … | ... |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Aholining tadbirkorlik faoliyatidan, mulki va mustaqil ravishda bandlikdan olinadigan daromadlari tez sur`atlar bilan o`smoqda.

Aholi daromadlarining o`sishi xarajatlar tarkibining yanada mukammal bo`lishiga olib keldi. Aholining xarajatlar strukturasida tovarlar xaridi uchun xarajatlar salmo`gi kamaydi va xizmatlar uchun haq to`lashning salmo`gi o`sdi

**10.5.6-jadval**

**Aholi umumiy xarajatlari tarkibi** *(% da)*

| | 1990y | 2000y | 2009y | 2010y |
|---|---|---|---|---|
| **I Jami xarajatlar tarkibi** | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Ulardan, | | | | |
| Iste`mol xarajatlari | 81,1 | 84,3 | 78,5 | 87,4 |
| Iste`moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, chiqimlar (badallar) va boshqa to`lovlar) | 7,1 | 6,9 | 6,3 | 6,2 |
| Pul omonatlari va jam`garmalar | 11,8 | 8,8 | 15,2 | 15,4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **II jami iste`mol xarajatlari** | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Shu jumladan, | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari uchun | 58,3 | 59,8 | 51,9 | 49,8 |
| Nooziq-ovqat mahsulotlari uchun | 31,5 | 26,8 | 31,9 | 33,7 |
| Xizmatlar uchun to`lovlar | 10,2 | 13,4 | 16,2 | 16,5 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko`rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo`ljallangan prognozlari statistik to`plam. –T.: O`zbekiston, 2011 84-bet.

Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, aholi jon boshiga bir yilda non va non mahsulotlari iste`moli 1990 yildagi 170 kilogrammdan 2010 yilda 160 kilogrammga kamaygan. Go`sht va go`sht mahsulotlari aholi jon boshiga iste`mol qilish yiliga 1990 yilda 31 kg, 2000 yilda 34 kg, 2010 yilda esa 38 kilogrammni tashkil etdi (10.5.7-jadval).

**10.5.7-jadval**

**O`zbekistonda aholi jon boshiga asosiy mahsulotlar iste`moli ko`rsatkichi**

*(bir yilda, kg)*

| | 1990 y | 2000 y | 2009 y | 2010 y | 2010 yilda 1990 yilga nisbatan % |
|---|---|---|---|---|---|
| Non va non mahsulotlari | 170 | 167 | 161 | 160 | 94,1 |
| Go`sht va go`sht mahsulotlari | 31 | 34 | 36 | 38 | 122,6 |
| Sut mahsulotlari | 183 | 162 | 212,0 | 239 | 130,3 |
| Tuxum (dona) | 97 | 47 | 130 | 138 | 142,3 |
| Sabzavot jumladan | 107 | 128 | 237 | 238 | 222,1 |
| Kartoshka | 29 | 36 | 41 | 45 | 155,2 |
| O`simlik yo`gi va boshqa yo`glar | 12 | 12 | 13 | 13 | 103,2 |
| Shakar | 12 | 16 | 16 | 17 | 137,5 |
| Meva, jamdadan, uzum | 23 | 42 | 74 | 83 | 360,0 |

Manba: O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

2010 yilda 1990 yilga nisbatan bir yilda aholi jon boshiga sut mahsulotlari iste`moli 30,3%ga, tuxum 42,3%, sabzavot va poliz mahsuloti iste`moli 2,2 barobarga, kartoshka iste`moli 1,5 barobarga, meva, jumladan, uzum iste`moli 3,6 barobarga o`sgan.

Tahlil natijalari 2001-2010 yillarda kam ta`minlanganlik darajasining pasayish tendentsiyasi kuzatilganligini ko`rsatadi.

## 10.6. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash

Ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti to`la-to`kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yo`naltirish zaruriyati, albatta, inson manfaatidan kelib chiqadi. Bozorning shunday oqibatlari borki, bunda ma`lum toifa himoyaga muhtoj bo`lib qoladi. Shuning uchun ham tsivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi.

Ijtimoiy himoyalashdagi muhim masala aholini bozor bahosining tez o`sishi, inflyatsiya ta`siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bo`gliqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida mollar narxining ko`tarilishi to`xtatib bo`lmaydigan holatdir. Bunda oylik ish haqi va belgilangan daromadga ega bo`lganlarni o`sib borayotgan tovarlar va xizmatlar narxining salbiy ta`siridan muhofaza etish yirik ijtimoiy muammodir. Ayniqsa, davlat muassasasi tashkilotlaridagi band yumushchilar, nafaqaxo`rlar, talabalar ijtimoiy

himoyaga muhtoj bo`ladi. Bunda vaqti-vaqti bilan maosh, stipendiya, nafaqalar miqdorini bir oz oshirish masalani hal qilmaydi. Shuning uchun indeksatsiya usulini qo`llash yuz beradigan o`girlikni biroz yengillashtirib, turmush darajasiga bo`lgan o`gir ta`sirni yengillashtiradi. Chunki qabul qilinadigan indekslar tufayli daromad narx-navo darajasiga qarab o`zgarib turadi hamda ko`tarilayotgan baholar keltiradigan zararlarning asosiy qismini qoplab boradi.

Bundan tashqari, bozor narxlaridan himoya qilishda ta`minotning alohida usullarini qo`llash ahvolni yumshatishga yordam beradi. Masalan, aholining ayrim tabaqalari uchun maxsus ta`minot tayinlash yoki vaqti-vaqti bilan oziq-ovqat va sanoat mollari tarqatish kabi usullardan rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladi.

Ijtimoiy himoya yuqorida qayd qilingan usullar bilan chegaralanmaydi, sharoitga qarab aniq shakllarni topib, ularni qo`llab boradi. Ayniqsa, kam daromadlilarni bozorning salbiy ta`siridan asrash va turmush darajasining pasayib ketishiga yo`l qo`ymaslik davlatning muhim vazifasidir.

**Shu boisdan ham I.A. Karimov iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga beshta muhim tamoyilni asos qilib oldi. Ulardan biri demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining turmush darajasini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.**

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste`mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a`zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy su`gurta fondini tashkil etish;
- ko`rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ko`p bolali oilalarga to`lanadigan nafaqalar;
- kam ta`minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko`rsatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo`qotganlarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to`lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta`minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (so`gliqni saqlash, ta`lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo`llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy-madaniy, aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlariga ajratilgan xarajatlar ulushi 1990 yildagi 31,5% dan 2012 yilda 59%ga o`sgan.

Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya`ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi.

Buning uchun aholi daromadlari va mehnat haqlarining faol iqtisodiy faoliyatni ra`gbatlantirishdagi rolini oshirish lozim bo`ladi. Shuningdek, aholining oqilona, samarali ish bilan bandligini ta`minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ra`gbatlantirish, iqtisodiyotning aniq sektorida yangi ish o`rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmalari, shu jumladan, mehnat birjalari faoliyati samaradorligini oshirish lozim bo`ladi. Kam ta`minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun, avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda

muhtoj oilalarga subsidiya, mikrokreditlar berish, ularga mikrofirma, kichik korxona, fermer xo`jaliklarini tashkil etishlari uchun sharoitlar yaratish kerak bo`ladi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo`jalik sub`ektlarining homiylik, xayriya ishlariga mabla`glar ajratishlarini ra`gbatlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tushuncha va atamalar

Ijtimoiy soha, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga davlat xarajatlari, aholini ijtimoiy himoyasiga xarajatlar, hayot kechirish minimumi, eng kam ish haqi, yuqori narx, eng kam pensiya, so`gliqni saqlashga xarajatlar, qashshoqliq.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta`sir eta olishi mumkin?
2. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati nimalar bilan bo`gliq?
3. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oishi nimalarga bo`gliq?
4. Mehnat bozori nima va uning asoaiy elementlari nimalardan iborat?
5. Mehnat bozori davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning o`sib borishi sabablarini izohlab bering.
7. O`zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
8. O`zbekistonda yoshlarni ish bilan ta`minlash borasida nimalar amalga oshirilmoqda?
9. Davlatning daromadlar siyosatiningmazmunini tushuntirib bering.
10. .Davlat aholi daromadlarini oshirish bo`yicha qanday siyosat yuritmoqda?
11. O`zbekistonda aholi daromadlari va turmush darajasining o`sishi tendentsiyalarini izohlab bering.
12. .Ijtimoiy himoya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.
13. O`zbekistondakam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi va samaradorligini tushuntirib bering.

# 11. DAVLATNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA`MINLASh VAZIFALARI

## 11.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, tarkibiy elementlari

Milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta`minlashning eng muhim sharti yoki omili, ko`rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi eng umumiy tarzda mamlakatning moddiy va nomoddiy, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining mazmuni iqtisodga oid ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bir guruh olimlar mazkur iqtisodiy tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy yo`naltirilganligi, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo`lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida

ta`riflaydilar[1]. Shuningdek, uni hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarni himoya qilish va ro`yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini qo`llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb ham talqin qiladilar[2].

Ikkinchi guruh olimlar mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuvisiz va tazyiqisiz o`z iqtisodiy taraqqiyot yo`li va shakllarini belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydilar[3].

Uchinchi guruh olimlar esa “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligi deb ta`riflaydilar[4].

To`rtinchi guruh olimlar esa mazkur tushunchani iqtisodiyotning progressiv rivojlanishi va normal darajada amal qilishining muhim sharti, iqtisodiyot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanishi deb tavsiflaydilar.

Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko`rsatib bergan:

-iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo`jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o`zaro bo`gliq qilib qo`yadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat`i nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli  sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini  taqozo etadi;

- o`z-o`zidan rivojlanishga va taraqqiy etishga qodirligi. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o`sib borishi milliy iqtisodiy barqarorligi va mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi[1].

**Iqtisodiy xavfsizlik mazmuni**




Xavfsizlik  tizimdagi ob`ektning ichki va tashqi tahdidlarning mavjudligi sharoitida yashay olish va rivojlanish qobiliyatiga egalik va ko`zda tutilmagan, aniqlanishi qiyin bo`lgan noxush omillar ta`siriga bardoshlilik holatini ifodalaydi (11.1.2-chizma).

---

[1] Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. -М., ЗАО «Финстатинформ», 1998.- с.12.

[2] Ўша ерда.

[3] Жандаров А.М.,  Петров А.А. Экономическая безопасность России: определения гипотезы, расчеты.// Безопасность. 1994, №3 - с.8.

[4] Архипов А., Городецкий А., Михайлов Б. Экономическая безопасность: оценки, проблемы, способы обеспечения //. Вопросы экономики. №12, 1994.

[1] Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы // Транзитная экономика, 1998. – с.3.

11.1.2-chizma

Rivojlanish, barqarorlik va xavfsizlik tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi




Ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda ushbu ta`rif eng to``gri ta`rif sifatida e`tirof etilmoqda[2]Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub`ektlariga tegishli bo`lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes; davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, turli beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta`siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bo`gliqdir.

Tashqi iqtisodiy sohada xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, milliy valyutasining barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

O`tish, ya`ni tranzit iqtisodiyotiga ega bo`lgan, bozor iqtisodiyotiga o`tish maqsadida islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda, shu jumladan, O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakatning geopolitik holatini, uning hozirgi zamon jahon iqtisodiy tizimidagi o`rnini tubdan o`zgartirib yuboradi.

. Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizim ahvolining quyi chegarasini ifodalovchi ko`rsatkichlar qo`llaniladi. Mazkur quyi chegaralardan past ko`rsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz bera boshlaydi. Ushbu quyi chegarani va uning miqdoriy o`lchamlarini aniqlash, belgilash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo`ladi:

- milliy iqtisodiyot hamda iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini o`rganish va ularni tavsiflovchi ko`rsatkichlarni aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni tanglikka va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;
- turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;
- xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahdidlarning oldini olish yo`llarini aniqlash.

Turli iqtisodiy tahdidlar, noxush holatlar oqibatida ko`rilgan zararlarning o`rnini qoplash uchun zarur bo`lgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida favqulodda holatlar oqibatida ko`riladigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashga yo`naltirilgan resurslarni baholash va o`z vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Shunga bo`gliq ravishda “kompensatsion resurslar” va “kompensatsion salohiyat” (potentsial) tushunchalarini bir-biridan farq qilish lozim bo`ladi.

---

[2] Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы. // Транзитная экономика, 1998. №4.- с.4.

Kompensatsion resurslar o`z mazmuniga ko`ra su`gurta, zaxira, rezerv resurslarini anglatadi. Kompensatsion salohiyat (potentsial) mamlakat iqtisodiyotining tanglik, noxush holatlarga qayishqoqligini, uning oldini olish va uni yengib o`ta olish, xo`jalik jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va mustahkamligini tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Kompensatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning, xalq xo`jaligining biron-bir sektori yoki biron-bir yirik hududda noxushliklar vujudga kelganida ularni tiklay olishga qodirligini ifodalaydi.

Kompensatsion salohiyat o`z ichiga quyidagilarni oladi:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarakteridagi moddiy zaxiralar;
- hududlar bo`yicha joylashtirilgan maxsus zaxiralar;
- tanglik, noxush holatlar sodir bo`lgan joylarga moddiy resurslarni yetkazib berish uchun zarur bo`lgan qo`shimcha transport vositalari imkoniyatlari;
- yirik tiklash ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan qo`shimcha rezerv quvvatlari, ayniqsa, energetika tarmoqlarida, shuningdek, texnik vositalar;

**11.1.3-chizma**

**Kompensatsiya salohiyati komponentlari**




...jalaridagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy xavfsizlik ...

...qtisodiy...

- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoq iqtisodiyoti;
- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolari har birining iqtisodiy manfaatlari.Xulosa qilib, keng ma`noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o`sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga bardoshliligini ta`minlovchi, turli tahdid va yo`qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yi`gindisi deb ta`riflash mumkin bo`ladi.

## 11.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo`lish shakllari va ko`rsatkichlari

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo`lish shakllarini uning sub`ektlari va ob`ektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot sub`ektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi (11.2.1-chizma).

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya`ni yashash va shaxsiy dahlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shu`gullanish, mulkdor bo`lish, hayotiy iste`mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo`lish, qariganda va mehnat layoqatini yo`qotganda ijtimoiy ta`minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.

**11.2.1-chizma**

**Iqtisodiyot sub`ektlarining xavfsizligi**




Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari mavqelarida faoliyat yuritishlari nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo`jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan asosan uch yo`nalish, ya`ni ishlab chiqarish-xo`jalik, xo`jalik-iste`mol va moliyaviy sohalar bo`yicha turkumlanadi[1]. Bizning nazarimizda, ushbu uch yo`nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo`lgani bilan, ayrimlari uchun qo`shimcha yo`nalishlar ham muhim ahamiyat

[1] Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М., Изд-во "РАГС", 2001,- с.39.

kasb etadi. Masalan, O`zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqish jarayonida yangi transport yo`llari, kommunikatsiyalari ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo`yicha tabaqalanishi bilan bo`gliq ijtimoiy xavfsizlikni ta`minlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko`ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo`jalik, xo`jalik-iste`mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo`yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

11.2.2-chizma

Xo`jalik faoliyati sohalaridagi iqtisodiy xavfsizlik turlari




O`zbekiston uchun texnologik xavfsizlikni ta`minlash `goyat muhimdir. Chunki respublikamizga sobiq totalitar tuzumidan mo`rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, asosan, xom ashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo`naltirilgan iqtisodiyot meros bo`lib qolgan edi. Paxtaning 95 foizi qayta ishlanmasdan respublikadan tashqariga olib ketilar edi. Sobiq sho`rolar davrining 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy tarmoq ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoati ulushi esa 30 foizdan 14 foizgacha tushib qoldi.

Bu esa mustaqillikni mustahkamlashda texnologik xavfsizlikni ta`minlashning o`ta zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va chuqur tarkibiy jihatdan o`zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o`laroq sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, chunonchi, mashinasozlik, yoqil`gi-energetika, kimyo va yengil sanoat kabilarning hissasi ortib bordi. Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo`lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo`li bilan samolyotsozlik, radioelektronika va elektronika sohalarini rivojlantirishga katta e`tibor berilmoqda. Bu esa ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish, zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish, iste`mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to`ldirish asosida nafaqat texnologik, shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ham ta`minlash imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta`minlanishini, importga bo`gliqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi.O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash uchun ikki yo`nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;
- qishloq xo`jaligi ekinlari tarkibini qayta ko`rib chiqish.

Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari bilan ham o`z-o`zini ta`minlashni ko`zda tutadi. Aholiga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o`simlik yo`gi yetkazib berish, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo`lgan bazani barpo etish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana baholari barqarorligini ta`minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmlarini qisqartirib borish kabilar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashning muhim yo`nalishlari hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik tabiiy muhitga turli noxush ta`sirlardan, tabiiy ofat va halokatlardan hamda insonlarning va xo`jalik sub`ektlarining atrof-muhitga salbiy ta`sir ko`rsatishidan himoyalanganlikni ifodalaydi. Bu xususiyatlar iqtisodiy adabiyotlarda "ekologik imperativ" degan tushuncha bilan izohlanadi.[1] Mazkur tushuncha tabiiy muhit bilan insonning fiziologik va ijtimoiy xususiyatlari o`rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Moliyaviy xavfsizlik mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy moliyaviy sharoit va resurslarning yaratilganligi, moliyaviy tizimning yaxlitligini saqlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlar tahdidlariga muvaffaqiyatli qarshilik qilishni ifodalaydi. Bu xavfsizlik pul, byudjet, kredit, soliqqa tortish va valyuta tizimlarida vujudga keladigan tahdidlarning oldini olish, ulardan muhofazalanish kabilarni o`z ichiga oladi.

Ijtimoiy tavsifdagi xavfsizlik aholining eng boy va eng quyi tabaqalari daromadlari o`rtasidagi farq, kamba`gallik va qashshoqlik muammosi, turli yuqumli kasalliklar ko`lamining kengayishini oldini olish zaruratida o`z ifodasini topadi.

Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta`minlashda, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida ichki va tashqi transport yo`l va aloqa kommunikatsiyalari tizimining yaratilishi oqibatida transport yo`l va aloqa kommunikatsiyalari xavfsizligi ta`minlanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko`rsatkichlari (indikatorlari) quyidagilardan iborat:
- turmush darajasi va sifati;
- inflyatsiya sur`ati;
- iqtisodiy o`sish;
- byudjet defitsiti; davlat qarzi;
- jaxon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- "xufyona iqtisodiyot" faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Hududiy darajada umumiy ko`rsatkichlardan tashqari yana quyidagi ko`rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi:
- aholi daromadlari;
- chakana narxlar darajasi;
- uy-joy bilan ta`minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- hududning to`lov balansi;
- eksport-import sal dosi (11.2.3-chizma).

---
[1] Экологическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. -М.: Изд-во “РАГС”, 2001, – с.49.

Iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari




Yuqordag iko`rsatkichlar miqdorining tahlikali quyi (porogovaya cherta) chegarasini ko`rsatish va aniq belgilash lozim bo`ladi. Ushbu tahlikali quyi chegara – iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan xo`jalik faoliyati proportsiyalarining eng quyi maqbul nisbatlarini ifodalovchi miqdoriy indikatorlar bo`lib, ularga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarish turli elementlarining iqtisodiy rivojlanishiga to`sqinlik qiladi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi.

Tahlikali quyi chegaraning miqdoriy o`lchamlarini aniqlash uchun quyidagilarga asoslanish lozim bo`ladi:

- milliy iqtisodiyot holati va undagi mutanosibliklar hamda takror ishlab chiqarish elementlari va omillari holatining birlamchi, muhim xususiyatlarini tavsiflash;

- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarni to`liq va keng qamrovdi ifodalash;

- iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarga xavf soluvchi tahdidlarni to`liq va har tomonlama hisobga olish;

- iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasini ifodalovchi indikatorlardan hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiyoti holatini aniq baholashda va boshqa mamlakatlar bilan qiyoslashda foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Ushbu indikatorlarning mamlakat hisob, statistika va prognozlashtirish tizimi bilan muvofiq kelishi, maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysisidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o`z ichiga 50ta ko`rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan[1]:

1) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko`rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo`yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

2) moliyaviy tizim barqarorligi ko`rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o`zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko`rsatkichlar kiradi;

3) ijtimoiy soha ko`rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo`yicha quyi tahlikali chegaralarni o`z ichiga oladi;

4) tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko`rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste`molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo`yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari sifatida S.Yu.Glaz yev tmonidan tayyorlangan turkumlanishdan ko`proq foydalanilmoqda. Ushbu iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari turkumiga quyidagilar kiradi:[2]

- yalpi ichki mahsulotning umumiy va aholi jon boshiga to``gri keluvchi hajmi;
- sanoat mahsulotlari umumiy hajmida ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari ulushi;
- sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlikning ulushi;
- investitsiyalar hajmining YaIMga foiz hisobidagi nisbati;
- ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlarning YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- yangi turdagi mahsulotlarning yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmidagi ulushi;
- yashash minimumi darajasidan past daromad oluvchi kishilar ulushi;
- aholining tu`gilgan cho`gidan kutilayotgan o`rtacha umr uzoqligi (yosh);
- aholining eng yuqori daromad oluvchi 10% guruhining eng kam daromad oluvchi 10 % guruhi daromadlari o`rtasidagi farq kattaligi;
- qayd etilgan jinoyatlar, har 100000 kishi hisobiga;
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) metodologiyasi bo`yicha ishsizlik darajasi (foiz hisobida);
- yillik inflyatsiya darajasi (foiz hisobida);
- ichki qarzlar hajmining YaIMga nisbati, foiz hisobida, qiyosiy davrda;

---

[1] Қаранг: Илларианов А. Критерии экономической безопасности // Вопросы экономики, 1999. №10. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие (книга четвертая) / Ин-т экономики РАН.- М., ЗАО «Финстатинформ», 2002,- с.72-78; Экономическая безопасность хозяйственых систем. Учебник. – М., Изд-во РАГС, 2001,- с.176-180; Прохожев А., М.Корнилов О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5. 2003,- с. 232-233.

[2] Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – М.: Изд. "Вла-Дор", 1997. с.107-110; Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: Изд. "РАГС", 2001.- с.178-179.

- ichki qarzlarni qoplash va ularga xizmat ko`rsatish uchun joriy ehtiyojning byudjetga soliq tushumlari hajmidagi ulushi (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- tashqi qarzning YaIM kamomadini qoplashdagi ulushi;
- xorijiy valyutalar miqdorining milliy valyuta massasiga nisbati (foiz hisobida);
- naqd xorijiy valyuta miqdorining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati (foiz hisobida);
- (M2 pul massasi)ning YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- ichki iste`molda importning hissasi, shu jumladan, ichki oziq-ovqat mahsulotlari iste`moli hajmida import oziq-ovqat mahsulotlari ulushi (foiz hisobida);
- aholi yashash darajalari bo`yicha mamlakat hududlari o`rtasidagi farqlar.

Har bir mamlakatda rasmiy tarzda belgilangan quyi tahlikali chegara indikatorlari milliy va jahon iqtisodiyotidagi sharoitlarning o`zgarishi natijalari bilan taqqoslanadi.

Shuni ta`kidlash joizki, iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlarini turli nuqtai nazardan turkumlash mumkin. Masalan, A.Illarionovning fikricha, iqtisodiy rivojlanishning ta`minlanishi nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlari quyidagicha turkumlangan:
- davlat sektorining (korxonalarining) YaIM ishlab chiqarishdagi ulushi (foiz hisobida);
- davlat iste`molining YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- davlat xarajatlarining YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- davlat byudjetining YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- davlat qarzlari o`sishining YaIMga nisbati (foiz hisobida);
- pul massasining o`sish sur`ati (foiz hisobida);
- inflyatsiya sur`atlari (foiz hisobida);
- valyuta kursining pasayish sur`atlari (foiz hisobida);
- tashqi savdoga soliqlarning tashqi savdo aylanmasiga nisbati (foiz hisobida)[1].

Iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlarini milliy iqtisodiyot sub`ektlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta`minlash nuqtai nazaridan ham turkumlash mumkin. Masalan, A.Proxojev va M.Kornilovlar shaxsning, ya`ni alohida individ, fuqaroning hayotiy muhim manfaatini ro`yobga chiqarishi nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ifodalovchi quyidagi ko`rsatkichlarni turkumlagan:
- jon boshiga oylik daromad miqdorining rasmiy ravishda belgilangan yashash minimumi miqdoriga nisbati;
- aholi oziq-ovqat xarajatlarining yillik jon boshiga daromadlar hajmidagi ulushi;
- aholi jon boshiga kundalik iste`mol qilinayotgan kaloriyalar miqdori;
- aholi jon boshiga o`rtacha yillik daromadida uy-joy va kommunal to`lovlarga qilingan xarajatlar ulushi;
- aholi jon boshiga o`rtacha yillik daromadidagi jam`garmalarning ulushi va boshqalar[1]. Shuni aytib o`tish joizki, ushbu iqtisodiy xavfsizlik ko`rsatkichlarining o`rtacha jahon va MDH mamlakatlarining aynan shunday ko`rsatkichlariga, shuningdek, rasmiy belgilangan quyi tahlikali chegara indikatorlariga taqqoslash orqali milliy iqtisodiyotning real holatini aniqlash mumkin bo`ladi. Buning natijasida hukumat mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning maqsadlari va ularni amalga oshirish yo`nalishlarini belgilaydi.

### 11.3. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash maqsadi va vazifalari

Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy-tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda kontseptsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini ob`ektiv baholashga hamda uning rivojlanish tamoyili va tendentsiyalarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va

---

[1] Илларионов А. Критерии экономической безопасности. // Вопросы экономики. 1999. №10.
[1] Прохожев А, Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5, 2003. -с. 233.

xolatlardagi sabab-oqibatlari aniqlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas`ul, javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar belgilanadi.

Kontseptsiyani ishlab chiqishda iqtisodiy xavfsizlik va tahdidlarning haqiqiy holatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik kontseptsiyasida iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, intellektual salohiyatning holati, innovatsion darajasi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta`sir ko`rsatish darajasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendentsiyalarining istiqbolli prognozlari va ularning asosiy ustuvorliklari o`z ifodasini topishi lozim.

Iqtisodiy xavfsizlik kontseptsiyasi o`z ichiga quyidagilarni oladi:

- xavfsizlikni ta`minlash maqsadi va vazifalari;
- ularni amalga oshirish yo`llari va usullari;
- oliy hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlari, iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruv tizimlari, huquq-tartibot, milliy xavfsizlik organlarining umumdavlat, xududiy darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha vazifalari;
- mavjud va potentsial xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish;
- davlatning xavfsizlikni ta`minlashdagi imkoniyatlari, iqtisodiy resurslardan, vosita va kuchlardan ratsional foydalanishi nazarda tutiladi;
- iqtisodiy tahdidlarni bartaraf etish, ularning oldini olish va salbiy ta`sirini yumshatish yo`llari, vosita va usullari.

Xavfsizlik kontseptsiyasi asosida uni ta`minlashning davlat strategiyasi ishlab chiqiladi. Ushbu strategiya tahdidlarning mohiyatini, ob`ektlarini indikatori va ularning oldini olish yoki bartaraf etish mexanizmlarini belgilab beradi:

Iqtisodiy adabiyotlarda davlat iqtisodiy strategiyasining uch jihati va tarkibiy qismlari ajratib ko`rsatilgan.

1. Iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat hayot faoliyati muhim sohalarining himoyalanganligini ta`minlaydigan milliy, davlat manfaatlarini aniqlash.

2. Shaxs, jamiyat va davlatning muhim hayotiy manfaatlariga ziyon keltiradigan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va xavf-xatarlarni tavsiflash. Bunda qisqa, o`rta va uzoq muddatli davrlarda davlat va ijtimoiy-iqtisodiy tizim barqarorligiga zarar yetkazuvchi, salbiy ta`sir ko`rsatuvchi omillar va sharoitlar aniqlanadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikning turli tahdidlar, xavf-xatarlardan barqaror himoyalanishini ta`minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish, institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish bo`yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.[1] Ushbu strategiyada iqtisodiy xavfsizlik talablariga javob beradigan iqtisodiyotning mezon va parametrlari ham aniqlanadi.[2] Iqtisodiy manfaatlarga va xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yumshatishning ustuvor maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- aholining barcha ijtimoiy guruhlari va tabaqalari turmush darajasini oshirish orqali jamiyat barcha a`zolarining birdamligiga erishish;
- milliy iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni kiritishni ra`gbatlantirish, investitsion jarayonlarni faollashtirish;
- qat`iy soliq, pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta qadrini oshirish va mustahkamlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va samarali bojxona nazorat tizimini shakllantirish;
- mamlakat fani va intellektual salohiyati rivojlanishini qo`llab-quvvatlash;
- mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ular o`rtasidagi o`zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali ichki iqtisodiy makonni mustahkamlash;

---

[1] Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. - М.: Изд- во “РАГС”, 201.-с.96

[2] Давлат стратегияси ва иқтисодий сиёсатнинг моҳияти, мезонлари классификация нафақат ижтимоий-иқтисодий тараққиётни, шу билан бирга, унинг хавфсизлигини ҳам таъминлаши лозим. Қаранг: Ведута Е.Н. Стратегия и экономическая политика государства. - М.: Акад. Проект, 2004, - с.11-23.

- xo`jalik sub`ektlarining xalqaro bozorlarga chiqishdagi mustaqilligi va erkinligini ta`minlash.

Shuni aytib o`tish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda iqtisodiy vosita va chora-tadbirlar bilan bir qatorda korruptsiya, tashkiliy jinoyatchilikka, xufyona iqtisodiyotga qarshi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar, vositalardan ham foydalaniladi. Bunda iqtisodiy boshqaruv organlari huquq-tartibot, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona organlari bilan birgalikda faoliyat yuritadilar.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash uchun asosiy shart-sharoitlar quyidagilarda o`z ifodasini topadi:

- aholining tsivilizatsion ehtiyojlari me`yorida yashash imkoniyatining yaratilishi. Bu kishilar uchun tanlash erkinligi hamda uzoq muddat mehnat qobiliyatini saqlagan holda faoliyat yuritish huquqi va majburiyatini ifodalaydi. Buning uchun bozorning o`z-o`zini tartiblash va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash mehanizmlari uy`gunligini ta`minlashga xizmat qiluvchi resurs, energetik, transport, ishlab chiqarish va bozor infrastrukturalari shakllantiriladi;
- xotirjam yashash imkoniyatlarining yaratilishi. Buning uchun favqulodda noxush vaziyatlar vujudga kelishining oldini olish hamda ishonchli axborotga ega bo`lish uchun iqtisodiy sharoitlar vujudga keltirilishi lozim bo`ladi. Bundan ko`zlangan maqsad, birinchidan, iqtisodiy va texnogen xavf-xatarga qarshi turish, ikkinchidan, iqtisodiy jinoyatchilik va terrorizmning kuchayishiga qarshi turli imkoniyatlarni yaratish hisoblanadi;
- mamlakatning hududiy va iqtisodiy yaxlitligiga xavf soluvchi omillarning oldini olish. Bu omillar mamlakat hududlari rivojlanishi va aholi turmush darajasidagi farqlarning kattalashib ketishi tufayli vujudga keladi. Mamlakatning hududiy va iqtisodiy yaxlitligini ta`minlash uchun, birinchidan, yagona iqtisodiy makonni tashkil etish maqsadida pul va bank tizimini mustahkamlash, moliyaviy va savdo infratuzilmasini rivojlantirish; ikkinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirishga qaratilgan oqilona hududiy siyosatni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Ushbu shart-sharoitlarni yaratish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash mexanizmining asosiy elementlari huquqiy baza, boshqarishning iqtisodiy uslublari hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning huquqiy bazasini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar tashkil etadi. Endilikda esa “Xavfsizlik to``grisida”gi Qonunni qabul qilish lozim bo`ladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning quyidagi yo`nalishlarida ham faoliyat yuritiladi:

- iqtisodiyotdagi jarayonlarni ob`ektiv, keng qamrovli monitoringi, shu jumladan, shaxs, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlariga ichki hamda tashqi tahdidlarni aniqlash va prognozlashtirish uchun axborotlar bazasini yaratish;
- iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning oldini olish va salbiy oqibatlarini yengish hamda barham berish bo`yicha jarima va uzoq muddatli chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish. Bunda davlatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo`yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish chora-tadbirlarining natijalari baholanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha faoliyati quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi hamda davlatning barqarorligiga xavf tu`gdiruvchi omillarni aniqlash va monitoring qilish;
- ushbu omillarning zararli, salbiy ta`siriga barham berish yoki yumshatishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni shakllantirish va institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish.

## 11.4. O`zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari

Bozor munosabatlariga o`tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo`jalik sub`ektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo`l qo`ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini

yaxshilash, kichik va o`rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko`paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko`chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo`yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo``ginlarida qonun loyihalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonunga barchani, hatto davlat hokimiyati organlarining ham qat`iy rioya etishlari bo`yicha tadbirlar amalga oshirilishi zarur bo`ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash uchun davlat quyidagilarni ko`zda tutishi lozim:

- ijtimoiy institutlar strategiyasini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning faoliyatini koordinatsiyalashtirishga imkon beradigan institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish;
- xo`jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni qonuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash (ya`ni imtiyozlari va turli preferentslarni qisqartirish va yo`qotish) uchun iqtisodiy va ijtimoiy xatti-harakatlarning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- iqtisodiyot sub`ektlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga, faoliyat tartib – qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;
- iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyatlarni hal qilish mexanizmini yaratish;
- kadrlarni korxonalar xo`jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy usullariga o`qitishni tashkil qilish;
- jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o`sishiga yo`l qo`ymaslik;
- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish.

Shunga muvofiq ravishda sobiq totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan mamlakatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim bo`ladi:

1) samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo`llab-quvvatlash va istiqboli yo`q, eskirgan ishlab chiqarishni to`xtatib qo`yish;

2) tarkibiy o`zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;

3) iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta`minlash;

4) mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;

5) iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to`lovga qodir talab bilan uy`gunlashtirish;

6) korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;

7) eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;

8) ekologik xavfsizlikni oshirishni ta`minlash.

Ushbu vazifalarni bajarish milliy iqtisodiyotning ko`pchilik tarmoqlarining raqobatga bardoshli emasligini bartaraf etishga imkon yaratadi. Bundan kelib chiqqan holda, tarkibiy siyosat mikro va makro iqtisodiyot darajalarida uch asosiy yo`nalishda amalga oshirilishi kerak, degan xulosa chiqarish mumkin. Buning uchun davlat hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash uchun ma`lum tarmoq va sohalarni selektiv qo`llab-quvvatlashi darkor bo`ladi.

Makroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinishi zarur:

- jami talabni oshirish;
- jam`garish normasini o`stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta`minlash;
- rivojlanishdan to`xtab qolgan sektorlardagi barcha turdagi resurslarning rivojlanayotgan sektorlarga oqib o`tishini ra`gbatlantirish;
- yalpi investitsiyalarni ko`paytirish;
- eksportni ra`gbatlantirish;

- umum qabul qilingan tartib-qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida importni tartibga solish.

Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo`ladi:

- iqtisodiy nuqtai nazardan samarali korxona va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash;
- samarasiz ishlab chiqarishlar va korxonalarni tugatish yoki reorganizatsiya, ya`ni qayta tashkil etish;
- yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik;
- tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta`minlash maqsadida fond bozorining rivojlanishini tartibga solish va ra`gbatlantirish;
- narx o`sishini to`xtatish chora-tadbirlarini ko`rish;
- iqtisodiy sub`ektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni ra`gbatlantirish.

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash davlat strategiyasi, ya`ni doktrinasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur bo`ladi. Ushbu davlat strategiyasi oliy milliy davlat manfaatlariga javob bera olishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasida erishiladigan pirovard maqsad va uni amalga oshirish bosqichlari o`z ifodasini topishi lozim. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning kafolati bo`lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo`ladi:

- xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha xo`jalik va siyosiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish;
- ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo`lganligi to``grisida signal beruvchi indikatorlarni kiritish;
- iqtisodiy tahdidlarni yumshatish, bartaraf etish, neytrallashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash kontseptsiyasi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariga asoslanadi. Boshqacha aytganda mazkur kontseptsiya mamlakatning kelajagi to``grisidagi tasavvurga, isloh delga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bo`gliq bo`ladi.

## 12. BOZOR IQTISODIYOTIDA DAVLATNING MAKROIQTISODIY MUVOZANAT TA`MINLASH VA INQIROZGA QARSHI SIYOSATI.

### 12..1. Makroiqtisodiy muvozanat va uning namoyon bo`lish shakllari.

Iqtisodiyotdagi barcha murakkab takror ishlab chiqarish aloqalari makroiqtisodiy muvozanat zaruratligini oshiradi. Makroiqtisodiy muvozanat davlatning boshqaruvi ta`sirisiz ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Bozor iqtisodiyoida bunday muvozanatni namoyon bo`lishining muxim shakli bo`lib, ja`mi talab va ja`mi taklif barqarorligi hisoblanadi. Ushbu barqarorlik usuli bo`yicha birqancha kontseptsiyalar mavjud. Ma`ruzaning asosiy vazifasi barqarorlikka erishishning asosiy yo`llarini va kontseptsiyalarda e`tirof etilgan barqarorlik samaralarini ochib berish.

Birinchi galda ob`ektiv qonuniyat, ya`ni jamiyat daromadlari va xarajatlari o`rtasidagi muvozanatning zarurati makrodarajada yuzaga keladi. Bu muvozanatning aniq shakli bo`lib, ja`mi taklif (yaratilgan YaIM) va ja`mi talab (iste`mol etilgan YaIM) o`rtasidagi muvozanat hisoblanadi. Bozor mustaqil holda, davlat aralashuvisiz ta`kidlangan muvozanatni ta`minlay olmaydi.

Ja`mi talab va ja`mi taklif o`rtasidagi muvozanat yuzaga kelgan sharoitdagina makroiqtisodiy muvozanatga erishiladi. Ja`mi talab va ja`mi taklif o`rtasidagi mutanosiblikda ne`matlarni oldi-sotdisi, ma`lum bir muddat davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan va yakuniy iste`mol etishga yo`naltirilgan jam`garish, iste`mol va sof eksport bilan bo`gliq ja`mi

munosabatlar yi`gindisi namoyon bo`ladi. Bu esa tovar va xizmatlar bozori tushunchasidan xususiy bozorlar yi`gindisi (poyafzal bozori, gazlama bozori, qurilish mollari bozori, qishloq xo`jaligi maxsulotlari bozori va b.) tushunchasini farqli ekanini bildiradi. Xususiy bozorlarda oraliq maxsulotlarning (xom ashyo, material, yoqil`gi va b.) oldi-sotdi joylari mavjud.

Butun iqtisodiyot darajasida o`zaro bo`gliqlikdagi bozorlarning (ishlab chiqarish omillari bozori, mehnat bozori, pul bozori, moliya bozori va b.) umumiy tizimida tovar va xizmatlar bozori markaziy zveno bo`lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ja`mi talab va ja`mi taklif chambarchas bo`gliqlikda uchraydi. Ja`mi talab – bu mavjud daromadlar va narxlar darajasida talab eta olish mumkin bo`lgan tovar va xizmatlar xajmidir. Ja`mi taklif – bu mavjud narxlar darajasida ishlab chiqarilgan va taklif etilgan tovar va xizmatlar umumiy miqdoridir. Ja`mi talab – bu iste`mol tovarlariga va xizmatlarga va investitsion tovar va xizmatlarga bo`lgan talab. Ja`mi taklif ishlab chiqarilgan YaIM ga teng bo`lib, ja`mi talab uning iste`mol etilgan qismidir.

Iqtisodiyotning sektorlari va ularning xarajatlariga mos ravishda ja`mi talabning tarkibiy qismi quyidagicha:

1. Uy xo`jaliklarining iste`mol xarajatlari;
2. Xususiy sektorning investitsion xarajatlari;
3. Davlat byudjeti tashkilotlarining tarkibi va ularni rivojlantirish uchun investitsiya va moddiy sarflarga davlat xarajati;
4. Sof eksport

Ba`zi adabiyotlarda ja`mi talab tarkibining uchinchi qismida keltirilgan davlat byudjeti tashkilotlariga qilinadigan sarflar va moddiy investitsiya davlat xarajatlari davlat haridi deb ham yuritiladi. U quyidagilarni o`z ichiga oladi: davlat investitsiyasi, milliy mudofaaga xarajatlar, davlat tashkilotlari xodimlariga ish haqlari va h. Bu o`rinda davlat tashkilotlari xodimlariga beriladigan ish haqlari uy xo`jaliklarini iste`mol xarajatlariga sarfini aks ettiradi bu esa ikki marotaba hisoblashni keltirib chiqaradi. Uy xo`jalaiklarining iste`mol xarajatlari, xususiy sektorning investitsion xarajatlari, davlat xaridi va sof eksport yi`gindisi iste`mol etilgan YaIM miqdoridan ko`p bo`lishini keltirib chiqaradi.Taklif etilayotgan ja`mi talab tarkibi haqiqatga yaqinroqdir. U takror hisoblashdan xoli.

Ja`mi talabda investitsiya xususiy sektorda qanday bo`lsa davlatda ham shunday hisobga olinadi. Shu sababli makroiqtisodiy investitsiya mikroiqtisodiydan farqlanadi. Shuday ekan uy xo`jaliklari va firmalar uchun investitsiya nafaqat real kapitalga qo`yilma qilish balki moliyaviy aktivlarga qo`yilma qilish ham hisoblanadi(aktsiya, obligatsiya va b. qimmatli qo`gozlar). Makroiqtisodiy nuqtai nazarda moliyaviy aktivlarni (qimmatli qo`gozlar va b.) sotib olish investitsiya hisoblanmaydi. Investitsiya makroiqtisodiy nuqtai nazarda faqat real kapital harid qilish va asosiy kapitalga mehnatni yollash hisoblanadi.

Ja`mi talab xajmi bir qator omillarga bo`gliq, ular quyidagilar: uy xo`jaliklarini ishkuini sotishdan olgan daromadlariga, yakka tartibdagi tovar ishlab chiqarish faoliyatiga, soliqqa tortish xajmiga, mamlakatdagi narxning umumiy darajasiga, muomaladagi naqd pul miqdoriga, narx o`zgarishining kutilishiga, kutilayotgan foydga, bank kredit foizlarining usishiga va b.

Ja`mi talab va narx darajasi o`rtasidagi bo`gliqlik teskari, biroq ja`mi taklif va narx darajasi to``gri bo`glangan, ya`ni narx darajasi qancha yuqori bo`lsa, shuncha taklif ko`p bo`ladi.

Ishlab chiqarishga ta`sir etuvchi omillar bu ja`mi taklifga ham ta`sir etuvchi omillar hisoblandi.

## 12.2. Klassik va Keynschilik nazariyalarida ja`mi talab va ja`mi taklif tengligini ta`minlashda davlatning roli haqida.

Klassik siyosiy iqtisod namoyondalari bozorning o`zi umumiqtisodiy muvozanatni ta`minlaydi, bu o`rinda davlatning aralashuvini shart emas deb hisoblaydilar. Ularning kontseptsiyasiga ko`ra umumiqtisodiy muvozanat asosida J.B.Seyning «bozor qonuni» yotadiga, unga ko`ra taklif etilgan tovar o`zida talabni yuzaga keltiradi, ya`ni ma`lum xajmda ishlab

chiqarilgan tovarlar avtomatik tarzda yaratilgan tovarlar qiymatiga mos daromadni keltiradi, faqatgina ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish lozim bo`ladi. Bu qonun noaniq bo`lgan taklifdan, ya`ni tovarlarni sotishdan olingan barcha daromadlar, albatda boshqa tovarlarni sotib olishga sarflashdan kelib chiqadi. Agar daromadning bir qismi tovarlarni sotib olishga sarf etilmasachi, u holda ja`mi taklif va ja`mi talab o`rtasidagi muvozanatni buzilishiga olib keladi. Sey qonuni qo`shimchalari yuqoridagi muammoni xal etish uchun quyidagilarni taklif etadi: ushbu muvozanatni foiz stavkalari, ish haqlarini o`zgarishi va narx darajasini o`zgarishi orqali o`zini-o`zi tartibga soladi. Klassik siyosiy iqtisodchilarning fikriga ko`ra bu ko`rsatkichlarning moslashuvchanligi bozorda talab va taklif muvozanatini ta`minlaydi va shu yo`l bilan bozor mexanizmi milliy iqtisodiyot darajasida yuzaga keladigan nomuvofiqlikni bartaraf etadi. Davlat aralashuvi kerak bo`lmay qoladi.

20 yillarning oxiri va 30 yillarning boshida XX asrlik kapitalistik iqtisodiyot kuchli va uzoq muddatli makroiqtisodiy tengsizlik bilan to`qnashdi (inqiroz 1929-1933 y.). 100 yil muqaddam shakllangan Klassik siyosiy iqtisod XX asrning 30 yillarida bo`lgan inqiroz jarayonlarini tushuntirib berishga ojizlik qildi. Dj. Keyns ushbu holatni yoritishga xarakat qildi.

Keynsning fikricha ja`mi talab (xarajat) 4 qismdan tashkil topadi:

1. Shaxsiy iste`mol
2. Investitsiya iste`moli (xususiy va davlat investitsiyasi)
3. Davlat xarajatlari
4. Sof eksport

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi jam`garish va investitsiya tengligidan kelib chiqadi. Jam`garish deyilganda shaxsiy iste`moldagi daromad va xarajat o`rtasidagi farq tushuniladi. Investitsiya – bu asosiy va aylanma kapitalni o`sishiga qo`yiladigan kapital qo`yilmadir. Jam`garish investitsiyaning manbai hisoblanadi. Bu yerda butun iqtisodiyot darajasidagi investitsiya nazarda tutilib, moliyaviy aktivlar hisobga olinmaydi. Jam`garish investitsiya bilan mos tushmasligi mumkin. Gap shundaki jam`garish bir iqtisodiy agent tomonidan amalga oshirilsa, investitsiya boshqa bir agent tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun aholining jam`garmalari bo`yicha.

Agar jam`garish investitsiyadan ko`p bo`lsa, u holda maxsulotning bir qismi iste`mol etilmayotganini bildiradi, tovar-xom ashyo zaxirasi oshishiga olib keladi. Talabning qisqarishi ishlab chiqaruvchilarni maxsulot xajmini qisqartirishlariga majbur etadi. Agar jam`garaish investitsiyadan kam bo`lsa, uholda teskari jarayon kuzatiladi.

Klassik muvozanat modelidan Keyns modelining farqi quyidagilarni ma`lum qiladi:

1. Klassik modelida bank protsenti va narx egiluvchanligi holatidan sezilarli darajadagi o`zoq muddatli ishsizlikni namoyon bo`lishi mumkin emas. Keyns modelida jam`garish va investitsilar tengligiga asoslanadi, bu esa to`liq bo`lmagan ishsizlik sharoitida ham amal qiladi.
2. Klassik model egiluvchan narx mexanizmi mavjudligini nazarda tutadi. Keyns bu xulosani rad etdi. O`z maxsulotiga talabni pasayishiga duch kelgan tadbirkorlar maxsulot narxni pasaytirmasdan ishlab chiqarishni qisqartiradi va ishchilarni bo`shatadi, bu esa ishsizlikni keltirib chiqaradi. Bu holatda bozor mexanizmidagi ko`rinmas qo`l bir meyordagi bandlikni ta`minlay olmaydi.

Keyns bozor mexanizmi bilan davlat tomonidan talabni tartibga solish asosidagi mexanizmlarining bo`glangan modelni ishlab chiqdi.

J.B.Seyning «taklif o`z-o`zidan talabni yuzaga keltiradi» qonunini tanqid qilgan holda, Keyns meyondagi rivojlanishni ta`minlash uchun talabni ra`gbatlantirish zarur deb hisoblaydi, ya`ni shaxsiy iste`mol va investitsiyani.

XX asrning 70 yillardagi rivojlangan mamlakatlardagi ishlab chiqarishning pasayishi Keynis kontseptsiyasini tanqid qilishga imkon yaratdi va klassik kontseptsiya asosida takomillashtirilgan neoklassik kontseptsiya yuzaga keldi. Keyns nazariyasi inflyatsiyani ra`gbatlantirmasdan qanday qilib ishlab chiqarishni o`sishiga erishish va bandlikni ta`minlash

mumkin degan savollarga javob bera olmadi. Talabni ra`gbatlantirish samara bermadi, inflyatsiya kuchaydi. Iqtisodiy nazariyada neoklassiy yo`nalishi kontseptsiyasi vujudga keldi, aynan: monetarizm, iqtisodiy taklif nazariyasi va ratsional kutish nazariyasi.

Takror ishlab chiqarishda talabning ta`siri kontseptsiyasiga qarama-qarshi kontseptsiya, taklifga bilvosita ta`sir etish usulidan foydalanish kontseptsiyasi vujudga keldi. Taklif iqtisodi tarafdorlari quyidagilarni zarur deb hisoblaydi:

- Klassik jam`garish mexanizmining qayta tashkil etish;
- Bozor mexanizmining qayta vujudga keltirish, xususiy tadbirkorlikka erkinlik berish.

Taklif iqtisodi tarafdorlari jam`garishni ra`gbatlantiruvchi bo`lib yuqori soliq va inflyatsiya bo`lishi lozim deb hisoblaydi. Ular kontseptsiyasining asosiylari quyidagilar:

- Tadbirkorlarga soliq imtiyozlarini taklif etish, soliq islohotlarini o`tkazishni talab etish;
- Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarning mavjud bo`lishi.

Ratsional kutish kontseptsiyasi tarafdorlari iqtisodiy agentlar iqtisodiy jarayonlarni mustaqil bashorat qilishda mavjud ma`lumotlardan foydalanadi va optimal qarorlar qabul qiladi deb hisoblashadi. Ushbu kontseptsiya tarafdorlari har qanday iqtisodiy siyosat (keynscha, monetar) samarasiz deb bilishadi.

## 12.3. Iqtisodiy tsikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari

Yalpi talab va yalpi taklif, ishlab chiqarish bilan iste`mol, iste`mol va jam`garish hamda daromadlar bilan xarajatlar o`rtasida ziddiyat vujudga kelganida va bu ziddiyat kuchayib ketganida inqirozlar yuzaga keladi.

Tovar ishlab chiqarishni iste`moldan ajralib qolishi tasodif emas. Texnika taraqqiyoti foyda normasining pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqarishdan ishchilar siqib chiqariladi. Avvalgi darajada foyda massasini saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni kengaytirishga qo`shimcha kapital, investitsiya sarflanadi. Ishlab chiqarish ijtimoiy iste`moldan ortib ketadi va natijada inqiroz yuz beradi.

Muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda tang ahvol, krizisga olib keladi. Krizis –bu murakkab jarayon. Unga turli jihatdan yondashish mumkin.

Krizislar turli-tuman tarzda ro`y bersa-da, ularni umumiy, o`xshash tomonlarini nazarda tutib guruhlarga ajratish mumkin:

1. Xo`jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko`ra, krizislarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan krizislarga bo`lish mumkin. Umumiy krizislar butun milliy xo`jalikni qamrab oladi, ikkinchisi esa qisman, ya`ni ayrim sohalar yoki tarmoqlarga xos tanglik tarzida yuz beradi.

Masalan, moliyaviy krizis — davlat moliyasini chuqur tanglikka tushishi. U surunkali byudjet taqchilligida namoyon bo`ladi. Eng yomoni, davlatning chet el qarzlari bo`yicha to`lov qobiliyatini yo`qotishidir. 1929-1933 yili Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Italiya, 1998 yili Rossiya tashqi zayomlar bo`yicha to`lovni to`xtatishgan. 1931 yili AQSh tashqi qarzlar bo`yicha hamma to`lovlarni bir yilga muddatini uzaytirgan. 1998 yili Indoneziyada ro`y bergan moliyaviy krizis tufayli aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM 14,6%ga pasaydi.

**Pul-kredit krizisi**. Mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo`lib, bunda tijorat va bank krediti qisqaradi. Banklardan mijozlar yoppasiga o`z pullarini olishni boshlaydilar. Tadbirkorlar va aholi naqd pul ketidan quvishga tushadilar. Aktsiya va obligatsiyalarning kursi, bank protsenti tushib ketadi. Banklar sinib, yalpi bankrotga uchraydilar.

**Valyuta krizisi**. Bunda milliy valyutaning obro`si tushib ketadi. Chet elning obro`li valyutalari yetishmaydi. Bankda valyuta zaxirasi tugab boradi, milliy valyuta kursi tushib ketadi. Aholining obro`li valyuta ketidan quvishi ahvolni yanada qiyinlashtiradi. Bunga yorqin misol sifatida Argentina va Tailandda yuz bergan krizislarni ko`rsatish mumkin.

**Birja krizisi.** Bu tanglik birjada qimmatbaho qo`gozlar kursini birdan tushib ketishi va ularda emissiya qilishni qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlikda ifodalanadi.

**Ekologik krizis**. Atrof-muhitni, eng avvalo, inson salomatligini yo`qotish, umrining qisqarishiga olib keladigan darajadagi vaziyatning vujudga kelishi bilan ifodalanadi. U sanoatni shiddatli tarzda o`sishiga yo`l qo`ymaydi.

**Tarmoqlar krizisi.** Bunday krizis milliy xo`jalikni biron-bir tarmo`gini qamrab olib, ishlab chiqarishning tarkibiy o`zgarishi yoki normal xo`jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beradi. Misol qilib, 1958-1962 yillarda dengiz kemachiligi (kema qatnovi), 1977 yil to`qimachilik sanoati inqirozini ko`rsatish mumkin.

**Agrar krizis.** Bunday krizis qishloq xo`jaligi mahsulotlari savdosining keskin tarzda qisqarib ketishi, qishloq xo`jalik mahsulotlari narxlarining keskin tushib ketishi bilan ifodalanadi.

**Struktura-tarkibiy krizis.** Ishlab chiqarish tarmoqlari o`rtasidagi normal nisbatlar buzilishi tufayli tarkibiy krizis yuz beradi. Bunda bir tarmoq boshqa tarmoqning hisobiga rivojlanadi. Natijada, bu tarmoqda ahvol o`girlashadi. Misol uchun 70- yillarning o`rtasida ro`y bergan xom ashyo, energetika krizislarini ko`rsatish mumkin.

2. Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishi muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko`ra davriy, oraliq, nomuntazam krizislarga bo`linadi.

Davriy (tsiklli) krizislar ma`lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

Oraliq krizislar — to`liq tsikl bo`yicha yuz bermaydi. TSiklning biron-bir fazasida to`xtatiladi. Ular nisbatan uncha chuqur emas, ammo qisqa muddat davom etadi.

Nomuntazam krizislar biron-bir alohida sabablarga ko`ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat-sel, to`fon, qur`goqchilik kabilar tufayli iqtisodiyot tang ahvolga tushishi mumkin.

3. Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi xarakteriga ko`ra krizislar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish krizislariga bo`linadi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish krizisi turli naf keltiradigan ne`matlarni ko`p ishlab chiqarish, lekin ularni to`la realizatsiya qila olmaslikbilan xarakterlanadi.

Taqchil ishlab chiqarish krizisi davrida yetishmovchilik natijasida tang ahvol yuzaga kedadi, chunki muvozanat buziladi. Shunday qilib, iqtisodiyotni tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo`ladi.

Krizislarning mohiyatini yoritish uchun odatda, davriy, ya`ni takrorlanadigan krizislar o`rganiladi.

Vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan krizislar tsiklning takrorlanish muddatiga ko`ra: qisqa, o`rta va uzoq tsikllarga bo`linadi.

Taniqli iqtisodchilardan Y.Shumpeter iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishini tadqiq qilib, iqtisodiyotda tebranishlar uch darajada yuz berishini ko`rsatdi va bu tsikllarni ularni kashf etgan iqtisodchilar J.Kitchin, K.Juglyar, N.D.Kondrat yevlar nomi bilan atadi hamda iqtisodiyotda uchala tsikl o`zaro bo`gliq, o`zaro aloqadorlikda namoyon bo`lishini qayd etadi.

P. Samul son esa iqtisodiy tsikl bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma mamlakatlar hamda iqtisodiyotning barcha sohasi uchun taalluqli deydi.

**1. Qisqa muddatli tsikl (2-4 yil)** iste`mol tovarlariga bo`lgan bozor talabi va taklifi muvozanatining buzilishi va tiklanishi tarzida yuz beradi. Bu tsiklda ishlab chiqarish hajmi bozor kon yunkturasiga qarab o`zgaradi:

— narxlar darajasi kam o`zgaradi, ko`pchilik firmalar o`z xaridorlarini yo`qotmaslik uchun tovarlar narxini uzoq vaqt (yilda bir marta) o`zgartirmaslikka harakat qiladilar;

— ish bilan bandlik ham nisbatan barqaror, tebranish kichkina, asosan, alohida korxona va tarmoqlarda ish haqi o`zgarishiga bo`gliq;

— foyda normasi ham bu davr mobaynida kam o`zgaradi;

— qisqa muddatli davr uchun miqdoriy ko`rsatkichlar kam o`zgaradi.

**2. O`rta muddatli tsikl (7-12 yil)** tebranishlar katta, bu esa muvozanatning chuqur buzilganini ko`rsatadi:

— jamiyatda iqtisodiyotgina emas, balki ijtimoiy sohada ham barqarorlik buziladi;

— eng asosiysi, iqtisodiy o`sish tushkunlik bilan almashadi.

Ko`pchilik iqtisodchilarning fikricha, bu muddat asbob-uskuna, mashina, mexanizmlarga bozor talabi va taklifi muvozanatining buzilishi hamda tiklanishini ifodalaydi.

Ushbu tsiklda kapitalning bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa oqib o`tishi yuz beradi.

Iqtisodiy tsiklning klassik varianti 4 fazadan iborat bo`lib, ularning har birida ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, narxlar darajasi, ish bilan bandlik, protsent normasi turli xil bo`lishi kuzatilgan.

TSiklning birinchi fazasi krizis (tanglik, tushkunlik) bo`lib, iqtisodiy o`sish darajasi va sur`ati tushib ketadi, so`ngra mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqaradi. Bunday holat ortiqcha ishlab chiqarishga xos bo`lib, realizatsiya qilinmagan tovarlar zaxirasi ko`payib boradi va sanoat, savdo korxonalarining yoppasiga bankrot bo`lishiga olib keladi. Ishlab chiqarish to`xtashi natijasida ishsizlik ko`payadi, ish haqi pasayadi. Jamiyatda kredit aloqalari buziladi. Qimmatbaho qo`gozlar bozorida aktsiya kursi tushib ketib, barcha tadbirkorlarning pulga ehtiyojlari ortadi, qarz to`lash uchun bank protsenti o`sadi.

Krizisdan keyingi faza–depressiya (tur`gunlik) fazasi keladi. Bu fazada ishlab chiqarishdagi tushkunlik ham narxlar tushishi ham to`xtaydi. Tovar zaxiralari va pul kapitalining massasi ko`payib, bank protsenti stavkasi eng past darajaga tushadi. Tovar taklifini talabdan ortib ketishi to`xtaydi.

Iqtisodiyotda tur`gunlik bilan bir vaqtda narxning ko`tarilishi, ya`ni inflyatsiya yuz berishi mumkin. Bunday holat stagnatsiya deb atalib, aholi turmush darajasining pasayishiga katta ta`sir qiladi.

Depressiyadan so`ng jonlanish fazasi keladi. Bunda ishlab chiqarish avvalgiga nisbatan o`sadi, tovar zaxiralari bozorni uzluksiz ta`minlash darajasida bo`ladi. Sotib olish quvvati o`sishi bilan jonlanish kuzatiladi. Pul kapitaliga talab ortadi, protsent o`sadi, narxlar ham o`sa boshlaydi. Jonlanishdan so`ng yuksalish fazasiga o`tiladi. Mahsulot ishlab chiqarish avvalgiga nisbatan o`sadi, ishsizlik kamayadi, talab ortishi natijasida narxlar o`sadi. Kreditga talab oshib, protsent ham o`sadi. Investitsion tovarlar ishlab chiqarishning ko`payishi bilan xom ashyo resurslariga talab ortadi, narxlar ham o`sadi. Jonlanish fazasida yuzaga kela boshlagan disproportsiya kuchaya boradi. Iqtisodiyot yangi tushkunlikka yaqinlashadi va yana tushkunlik davri boshlanadi. Ana shunday tarzda tsikl qaytariladi.

Birinchi krizis 1825 yili Angliyada yuz berdi, so`ngra 1836 yili Angliya va AQShda, 1841 yili AQShda, 1847 yili AQSh, Angliya, Frantsiya va Germaniyada. 1857 yilgi krizis birinchi jahon tsiklik krizisi bo`lib tarixda qoldi, keyin – 1873, 1882, 1890 yillardagi krizis ro`y berdi. Iqtisodiyotga nisbatan katta talafotlar keltirgan krizis – 1900-1901 yildagi tushkunlik bo`ldi.

### 12.3. Uzoq muddatli tsikl. (40-60 yil).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko`pchilik iqtisodchilar statistik ma`lumotlar asosida narxlar va protsent stavkalarining ko`tarilishi hamda tushishiga e`tibor qaratishda. Keyinchalik esa u bilan bo`gliq iqtisodiy jarayonlarda ham o`zgarishlar sodir bo`lishi sabablarini izohlab berishga harakat qilishdi.

Bir uzun to`lqinni ikkinchisi bilan almashinishi ishlab chiqarish absolyut miqdorining pasayishi tarzida yuz berishi shart emas. U iqtisodiy o`sish sur`atining tezlashuvi va sekinlashuvi almashib turishini uzoq muddatli tendentsiyasi tarzida yuz beradi.

Iqtisodiyotdagi ana shunday holatni chuqur hamda o`z fikrlarini asoslagan holda rus iqtisodchisi N. D. Kondrat yev (1892-1938 yil) izohlab berdi. Shu sababli uni Kondrat yev tsikli deb ham atashadi.

Katta yuksalish asosini u ishlab chiqarishga yangi texnologiya, jahon xo`jaligiga yangi mamlakatlarning qo`shilishi (iqtisodiy ravnaqi), oltin qazib olish hajmining o`zgarishi, umuman, texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishning tarkibiy o`zgarishi bilan bo`glaydi.

Muvozanatning tiklanishi fazasida asosiy kapitalning passiv qismi yangilanadi, o`rta tsiklda esa, asosan, aktiv qismi yangilanadi.

Shu bilan birga, katta tsikllarning davri aniqlanadi:

1- to`lqin 1772-1783 yillardagi depressiyadan 1812-1825 yildagi beqarorlikkacha;

2- to`lqin 1825-1838 yillardagi depressiyadan 1866-1873 yillardagi beqarorlikkacha;

3- to`lqin 1873-1885 yillardagi depressiyadan 1913-1929 yillardagi beqarorlikkacha;

4- to`lqin 1929-1938 yillardagi depressiyadan 1966-1974 yillardagi beqarorlikkacha;

5- to`lqin 1974-1982 yillardagi depressiyadan boshlangan. Bu to`lqin, iqtisodchilarning fikricha, 2010 yillargacha davom etishi va 2010-2015 yillardan yangi 6–to`lqin boshlanishi mumkin. Bu tsikl mikroelektronika, boshqariladigan termoyadro energetikasi, gen injenerligini ishlab chiqarishga jalb etilishi bilan ajralib turadi.

### 12.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekistonga ta`siri va uni bartaraf etish yo`llari

Ko`plab mamlakatlarni qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O`zbekistonga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "... tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta`sir ko`rsatmaydi, bizni chetlab o`tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o`ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo`lmas xato bo`lur edi"[1], - deb ta`kidladi. Bunga sabab O`zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Buning tasdi`gini, Yurtboshimiz ta`biri bilan aytganda, respublikamizning tashqi dunyo bilan aloqalarining tobora kengayib borayotganida, rivojlangan mamlakatlar ko`magida va hamkorligida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo`yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O`zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o`sib borishida yaqqol ko`rishimiz mumkin.

Shu boisdan ham global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta`sir etmoqda. Inqiroz ta`sirini Yurtboshimiz "Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O`zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o``gitlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o`z navbatida, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko`rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko`rsatkichlarimizning o`sish sur`atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta`sir etadi"[2], - deb izohlab berdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekistonga ta`siri boshqa ko`pgina davlatlarga nisbatan bir muncha yumshoq bo`layotganini hayotning o`zi tasdiqlamoqda. Bunga sabab O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli asosida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub o`zgarishlar milliy iqtisodiyotimizning barqaror va mutanosib rivojlanishini tashqi salbiy holatlarga, turli inqirozlarga bardoshli bo`lishini ta`minladi. Shu boisdan ham Prezident I.A.Karimov: "Biz istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilgan, mashhur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo`naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o`tish modeli yildan-yilga ilgarilab borganimiz sari o`zini amalda oqlab, naqadar to``gri va puxta ekanini isbotlamoqda, deb aytish uchun bugun barcha asoslarimiz yetarli. Birinchi navbatda, iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo`lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o`z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o`z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta`minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar – ayniqsa, dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o`zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko`rsatmoqda"[1], - deb ta`kidlagan.

O`zbekistonda ushbu siyosat orqali moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta`minlash uchun asos yaratilgan..

---

[1] Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009, 11-бет.
[2] Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009, 12-бет.
[1] Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009, 30-31-бет.

O`zbekistonda qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo`yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelinganligi tufayli ham respublikaning tashqi qarzi 13,3% miqdorida bo`ldi. Vaholanki, ko`plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o`ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo`yganini ko`rish, kuzatish qiyin emasligini Yurtboshimiz o`zining asarida asoslab berdi.

O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatish imkonini beradigan omillar quyidagilardan iborat:

• Tijorat banklarining likvidliligi va kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi.

• Puxta o`ylangan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi natijasida inflyatsiyaning prognoz ko`rsatkichlari chegarasida saqlab qolinayotganligi.

• Oqilona byudjet-soliq siyosatining olib borilganligi natijasida Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda, soliq yukining pasayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

• Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o`zgarishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo`linganligi.

• Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdorining barqaror o`sish sur`atiga ega bo`layotganligi.

• Mamlakat tashqi qarzining mo``tadil darajasini ta`minlashga muvaffaq bo`linganligi.

• Fermer xo`jaliklarini qo`llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan katta miqdorda moddiy va moliyaviy resurslar ajratilayotganligi.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo`yicha 2009-2012 yillarga mo`ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O`zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo`nalishi bo`lib qoladi.

Inqirozga qarshi dasturning eng muhim yo`nalishlari quyidagilardan iborat.

**Birinchidan** – korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

**Ikkinchidan** – joriy kon`yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo`lishini qo`llab-quvvatlash bo`yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni ra`gbatlantirish uchun qo`shimcha omillar yaratish:

- aylanma mabla`glarini to`ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo`lmagan stavkalarda 12 oygacha bo`lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to`lovlardan – qo`shimcha qiymat soli`gi bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;
- banklar kreditlari bo`yicha to`lov muddati o`tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko`rib chiqish, byudjetga to`lanadigan to`lovlarning penyasidan kechish hamda boshqa muhim imtiyoz va preferentsiyalar berish.

**Uchinchidan** – qat`iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni ra`gbatlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish.

**To`rtinchidan** – elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya inte`molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

**Beshinchidan** – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni ra`gbatlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo`llab-quvvatlash iqtisodiy o`sishning yuqori sur`atlarini saqlab qolishda `goyat muhim ahamiyatga ega.

Ichki bozorda talabni ra`gbatlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo`llab-quvvatlash maqsadida Mahalliylashtirish dasturi doirasidagi loyihalar hajmini 3-4 barobar ko`paytirish mo`ljallanmoqda.

2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

- go`sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun bo`shagan mabla`glarni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo`naltirish sharti bilan yagona soliq to`lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;
- tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarni yagona soliq to`lovidan ozod qilish.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta`sirini bartaraf etish hamda inqirozdan so`ng barqaror va mutanosib iqtisodiy rivojlanishni ta`minlash maqsadida 2009-2014 yillarga mo`ljallangan ishlab chiqarishni uzluksiz modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyot raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirish, eksport salohiyatini o`stirish maqsadida innovatsiyalarni joriy etish asosida chuqur tarkibiy o`zgartirishlar qilish uchun eng muhim investitsiyaviy loyihalar dasturi amalga oshirilmoqda. Bu loyihalarning umumiy qiymati 55,4 mlrd. dollarni tashkil etib, uning 15,3 mlrd. dollari (ya`ni 27,6 %) neft gaz sohasiga, 12,1 mlrd. dollari (12,1%) neftgazkimyo sanoatiga, 7,5 mlrd. dollari (13,5%) transport va infratuzilmaga, 5,8 mlrd. dollari (10,5%) energetika sohasiga yo`naltiriladi (12.2.1-jadval).

**12.2.1-jadval**

**2009-2014 yillarga mo`ljallangan eng muhim investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish dasturi***

| **Sanoat tarmoqlari** | **Loyihalar qiymati (mlrd. doll)** | **Loyihalar tarkibi (umumiy qiymatiga nisbatan % hisobida)** |
|---|---|---|
| Jami | 55,4 | 100,0 |
| Shu jumladan: | | |
| Neft gaz sektori | 15,3 | 27,6 |
| Neftgazkimyo sanoati | 12,1 | 21,8 |
| Transport va infratuzilma | 7,5 | 13,5 |
| Energetika | 5,8 | 10,5 |
| Kimyo sanoati | 5,6 | 10,1 |
| To`g-kon va metallurgiya sanoati | 4,4 | 7,9 |
| To`qimachilik sanoati | 1,9 | 3,4 |
| Mashinasozlik | 1,4 | 2,5 |
| Qurilish materiallari sanoati | 0,8 | 1,4 |
| Boshqa tarmoqlar | 0,6 | 1,1 |

* O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o`rinbosari, Moliya vaziri R.S.Azimovning xalqaro anjumandagi “Effektivnost antikrizisnoy programmo’ i vajneyshie prioriteto’ post krizisnogo razvitiya Uzbekistana” mavzusidagi ma`ruzasidan olingan.

Ushbu investitsiyaviy loyihalarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda avtomobilsozlik, neft kimyosi, gaz kimyosi, elektrotexnika, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati ustuvor ravishda rivojlanadi. Shuningdek, mehnat si`gimi yuqori va raqobat ustuvorligiga ega bo`lgan, aholi ish bilan bandligini yuqori darajada ta`minlashga qodir bo`lgan to`qimachilik, poyafzal, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ham jadal rivojlanadi. Buning natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati yanada rivojlanadi va mustahkamlanadi, eksport tarkibi diversifikatsiyalashadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta`sirini bartaraf etish va inqirozdan keyingi taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish sharoitida O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturining muhim ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

• 2009-2012 yillarga mo`ljallangan mamlakatda qabul qilingan jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo`yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish va shu asosda iqtisodiy o`sishni uzoq muddatli barqaror sur`atlari va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta`minlash.

• Tarkibiy o`zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni, birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan talab yuqori bo`lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo`naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo`li bilan amalga oshirish.

• Qishloq joylardagi turmush sifati va qiyofasini tubdan yaxshilash, qishloqdagi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o`rni va ahamiyatini tubdan qayta ko`rib chiqishga, fermer xo`jaliklarini rivojlantirishga har tomonlama yo`naltirilgan uzoq muddatli, o`zaro chuqur bo`glangan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish.

• Aholi bandligini ta`minlash, uning turmush sifatini oshirishning muhim omili sifatida xizmatlar ko`rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish.

## 12.5. Funktsional iqtisodiy tizimlar va davlat boshqaruvi.

XX asrning ohiri va o`tgan asrning boshlarida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari asosan rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida yetarlicha kegaytirildi, Davlat xarajatlari 40-50% ga yetdi, YaIM ga nisbatan esa bundanda ko`proq. Gap shundaki, nafaqat miqdor krsatkichlarini, balki sifat o`zgarishlariga ham erishildi. Aholini muhtoj qismiga davlat xarajatlari darajasi oshdi (davlatning ijtimoiy-madaniy xarajatlarini oshishi, tadbirkorlik sektoriga e`tiborning oshishi va b.).

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida keyns va monetarizm kabi neoklassik kontseptsiyalaridan zururlari tanlanib foydalanmoqda. Ularning asosida funktsional iqtisodiy tizimlar(FIT) ko`rinishida o`z-o`zini boshqarish mexanizmining keng tizimi shakllantirilmoqda. FIT – bu iqtisodiyotni tartibga solishning yagona mexanizmida keynschilik, monetarizm va neoklassik kontseptsiyalarning o`ziga xos aralashmasidan iborat. Bunga raqobatmuhitini shakllantirish tizimi, milliy valyutani barqarorligini ta`minlash, ichki narx darajasini qo`llab-quvvatlash, ichki talabni ra`gbatlantirish, tashqi ta`sirlardan himoyalashlar misol bo`la oladi. AQSh misolida, inflyatsiya ta`siri kuchaygan biror-bir bozorda erkin bozorlar bo`yicha federal komissiya vaziyatni taxlil etadi va federal fond stavkalarini va qayta moliyalashtirish stavkalarini o`zgartirish bo`yicha federal zaxira tizimiga tavsiyalar beradi. FIT xo`jalik tarkibiy qismlarini samarali faoliyat yuritishi uchun tanlab olingan bozorinfratuzilmasi elemantlarini birlashtiradi.

Jadallik bilan rivojlanayotgan a`loqa vositalari, kommunikatsiya va elektron xisoblash texnikalarini bo`gliqligida FIT larni shakllantirish imkoniyatlarini tu`gildi.

FIT larda davlatning roli mutloq o`zgaradi. U xo`jalik tizimining markazida bosh muvofiqlashtiruvchi vazifasini bartaraf etadi. Davlat FIT lar orqali bozor faoliyatiga barqarorlikni quvvatlash va makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash maqsadidagina aralashadi. Shu bilan birga raqobat mexanizmini ishlashini ta`minlaydi yoki nazorat qilish uchun FIT lardan foydalanadi.

Asosiy tushuncha va atamalar

Makroiqtisodiy muvozanat, ja`mi talab, iqtisodiy rejalashtirish, bashoratlash, funktsional iqtisodiy tizimlar, sof eksport, Jan Batista Seyning qonuni,inqiroz,inqirozga qarshi choralar dasturi

Mustaxkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jami talab va jami taklif o`rtasidagi aloqadorliklarni yoritib bering?
2. Jami talabning tarkibiy qismlarini ayting?
3. Jami talab va taklif barqarorligini ta`minlashda davlatning roli haqidagi klassik va keyns nazariyalari qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

4. Inqiroz nima uchun sodir bo`ladi.?
5. Nima uchun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz rivojlangan mamlakatlarda hamon davom etmoqda?
6. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta`sir ko`rsatdi?
7. O`zbekistonda qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturining mazmunini va asosiy yo`nalishlarini tushuntirib bering.
8. O`zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi qanday amalga oshirilganini izohlab bering.

## 15. O’ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI.

### 15.1 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o’rni hamda ijtimoiy–iqtisodiy ahamiyati.

Mamlakat iqtisodiyoti o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali aholi ehtiyojlarini qondirish, ularning daromadlarini oshirish masalalarini hal etish, farovon yashashini ta’minlash, bandlik, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, bozordagi talab va taklifga samarali ta’sir ko‘rsatish, ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

2018 yil dekabr holati ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 59,4 foizni tashkil etdi, 48,9 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi. (O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,2 foiz ko‘p demakdir. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,2 birlikni tashkil qildi).

Iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor islohotlarini amalga oshirilishini ta’minlash mamlakatimizda kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirish darajasiga bog‘liqligi ko‘rinib turibdi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish, ishbilarmonlarga yanada erkinlik berish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz SH.Mirziyoev, “…tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi etakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”, deb ta’kidlaydilar.

Kichik biznes – bu xususiy sektorga (odatda yuqori boshqaruvga ega) ega bo‘lgan, o‘z bozorida dominant bo‘lmagan va mahalliy operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi va kam kishi ishlaydigan tashkilot. Tadbirkorlar biznesni yaratish, shakllantirish, yuritish, boshqarish va rivojlantirishda o‘zlarining yirik ishbilarmon hamkorlaridan o‘ziga xos muammolarga duch kelishmoqda. Ko‘p hollarda, agar biznes muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, shaxsiy moliya resurslari yo‘qoladi. Kichik biznesda katta korporatsiyalardan farqli o‘laroq, xatolar, risklar yoki kutilmagan voqealar oqibatlarini yumshatish uchun hech qanday etarli mablag‘ mavjud emas. Ko‘pgina kichik biznes sub’ektlari birinchi navbatda tadbirkorlik qarorlarini qabul qilishning ahamiyati va stressini kuchaytiradi. Tadbirkorlar, shuningdek, o‘z bizneslarining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uchun mas’ul hisoblanadilar. Ular odatda boshqarish vazifalari (rejalashtirish, tashkillashtirish va nazorat qilish)ni amalga oshirishda mas’uliyat yukini baham ko‘rish uchun direktorlar kengashi yo‘q.

Kichik biznesni boshlash uchun tadbirkor odatda jiddiy biznes riskiga duch keladi.Tadqiqotlarga ko‘ra, barcha mustaqil kichik biznesning 25 foizdan 33 foizgacha qismi dastlabki ikki yil davomida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Har 10 biznesning sakkiztasi 10 yil ichida tugaydi. Ishbilarmonlik sezilarli bo‘lishidan tashqari, tadbirkorlar katta moliyaviy risklarga duch kelishadi, chunki ular odatda biznesdagi barcha moliyaviy resurslarini emas, aksariyatini

investitsiyalashadi. Ular oilaviy va ijtimoiy xavflarni keltirib chiqaradi, chunki yosh biznesni boshlash va ishga tushirish talablari oila va do‘stlarga e’tibor berish uchun kam vaqt qoldiradigan 60-80 soatlik ish haftasini talab qiladi. Ular, shuningdek, psixologik riskni boshdan kechirishadi. YUqori muvaffaqiyatli tadbirkorlardan biri biznesni tadbirkorlik sub’ekti sifatida “tadbirkor xavfi” sifatida ishga tushirish hissiyotlarini tavsiflash orqali tadbirkorlikning jiddiy shaxsiy tavakkallarini qisqacha sarhisob qiladi.

Korxona tuzilmalari ko‘plab menejerlar va professional xodimlarning ishdan bo‘shatilishiga olib keldi. Boshqa yirik firmalarda ish topishdan ko‘ra, bu shaxslar o‘z bizneslarini boshlash uchun o‘zlarining ta’lim, tajriba va ko‘nikmalaridan foydalanadilar. “O‘z-o‘zimga xo‘jayin bo‘lish” – ko‘pchilik uchun kuchli motivatsiya hisoblanadi. Ishbilarmonlik darajasidan qat’i nazar, ular o‘z qarorlarini qabul qilish, o‘z vaqtlarini belgilash va ular nima qilishlarini va qachon amalga oshirilishini belgilashga muhtojdirlar. Aynan shuning uchun ham, bu shaxslarning ishi boshqalarning qarorlariga bog‘liq emas.

SHaxsiy va professional o‘sish. Tadbirkorlikni tashkil etishning qiyinchiliklari shaxsiy rivojlanishni o‘z ichiga oladi. Muvaffaqiyatli bo‘lish uchun tadbirkor xavflilik, noaniqlik va stress bilan kurashish, turli xil shaxslararo munosabatlarga ega bo‘lishi va cheklangan resurslarga ega bo‘lgan biznesni boshqarishi kerak. Ko‘pchilik bu o‘sishni boshdan kechirayotgan tadbirkor bo‘lib, biznesni maqsadli, samarali ishlab chiqarishga aylantirish ularning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Daromad. Ko‘plab tadbirkorlar muvaffaqiyatli biznesning katta daromadlari bilan aldanib qolishadi, garchi bu kabi katta muvaffaqiyatga erishish ehtimoli nozik bo‘lsa ham. Boshqalar esa biznesga o‘z sarmoyalarini berish bilan shug‘ullanishadi. Ajablanarlisi shundaki, ko‘pgina tadbirkorlar biznesni boshlash uchun asosiy motivator sifatida pulni baholamaydilar. Tadqiqotga olingan 500 ta tadbirkor, masalan, pul muhimligi bo‘yicha to‘rtinchi pog‘onaga loyiq deb topildi (umidsizlik, mustaqillik va hayotni nazorat qilishdan keyin).

Tadbirkorlikning jiddiy risklari va noaniqligini hisobga olgan holda, shaxsiy xavfsizlik, ehtimol tahdid ostida ko‘rinishi mumkin.

YAngi tashabbuskor uchun muvaffaqiyatli korxona yaratish va rivojlantirish, avvalambor, ishni, tashkilotni, odamlarni va ishlab chiqarishni (operatsiyalarni) samarali boshqarish boshqaruv tamoyillarini bilish va ularni qo‘llashni, to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab qiladi. Eng muhimi, biznes aloqalarini boshlash uchun qaror shaxsiy malakani, qobiliyatni talab etadi va kamchiliklarni aniq baholashga asoslangan bo‘lishi kerak. Tadbirkorning qarorlari korxonaga bevosita va chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Tadbirkor foyda olish uchun maqsadi bo‘lishi kerak, chunki rentabellik (o‘zini-o‘zi bajarish, mustaqillik yoki boshqa motivlar emas) omon qolish uchun juda muhimdir. Tadbirkor – samarali rejalashtiruvchi, tashkilotchi, muammoni hal qiluvchi va qaror qabul qiladigan shaxs bo‘lishi va odamlarni yaxshi boshqarishi kerak. Tadbirkor ikki turdagi rejalashtirishni amalga oshiradi. Start-ap rejalashtirish – korxona biznes uchun ochilishidan oldin sodir bo‘ladi. Keyinchalik tadbirkor belgilangan biznes uchun strategik va operatsion yo‘nalishni ta’minlaydigan doimiy rejalashtirishni amalga oshiradi.

Korxonaning o‘sishi. O‘sish va daromad olish uchun biznes tuzadigan muvaffaqiyatli tadbirkorlar muqarrar ravishda ular ishlayotgan biznes ular yaratganidan juda farq qiladi.

Kompaniyani kichik do‘kondan murakkab korporatsiyaga ko‘chirish ham tadbirkorning vazifasi va boshqaruv uslubida katta o‘zgarishni talab etadi. Korxonani samarali boshqarishga erishish uchun tadbirkor endi barcha qarorlarni qabul qila olmaydi va biznesning barcha yo‘nalishlarida ishtirok etishni davom ettira olmaydi. Buning o‘rniga, u kompaniyaning umumiy taraqqiyotini o‘rganib chiqqach, hokimiyatni vakillikka topshirish orqali xodimlarni boshqarishga jalb qilish, bu kishilarga batafsil ma’lumot berish, shaxsiylashtirilgan treninglar o‘tkazish va ularning harakatini muvofiqlashtirishga e’tibor qaratish kerak. Bunday holatda, ko‘plab tadbirkorlar kompaniyani dastlabki muvaffaqiyatini keltirib chiqaradigan qobiliyatlarni topa olmaydilar. Kompaniya bosh direktoridan yangiliklarni talab qiladi. Kichik biznesni boshqarayotgan tadbirkorlar mas’uliyat yuki sababli, yuqori darajada stressni boshdan

kechirishadi. Stress qisman tadbirkorning biznesni boshlashi va uning muvaffaqiyat yoki qobiliyatsizligi uchun umumiy hisobdorlik hissi tug‘diradigan xatarlari bilan bog‘liq. Tadbirkorlarning umumiy muammosi, ishchilar muammosiga bo‘lgan umidsizlik va muvaffaqiyatga erishishning yuqori ehtiyoji ham tadbirkorlarning stressiga olib kelishi mumkin. Ba’zi tadbirkorlar o‘zlari uchun asossiz maqsadlar qo‘yib, o‘zlarini juda qiynaydilar va umidsizlikka duch kelishadi.

Tadbirkorlar o‘zlarining bizneslarini bir necha sabablarga ko‘ra sotishga qaror qilishadi. Ular kompaniyani tugatish va sotishdan olingan daromadlarni sotish yoki foyda olish uchun boshqa kompaniyani ishga tushirish uchun foydalanishlari mumkin. Tadbirkorlar o‘z kompaniyasini sotishlari mumkin, chunki pensiya vaqtida etakchilikni amalga oshirish uchun malakali huquqbuzarlarning mavjud emasligini tushunadilar. Aksariyat tadbirkorlar o‘z bizneslarini savdodan so‘ng davom ettirishni xohlashadi va ko‘pchilik sotib olishning past ko‘rsatkichi haqida juda yaxshi bilishadi: Barcha sotib olishlarning yarmidan uchdan ikki qismigacha bo‘lgan ko‘rsatkichda korxonalar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

## 15.2 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashda davlatning iqtisodiy siyosati.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unga 200 milliard so‘m va 50 million dollar mablag‘ ajratildi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Bunday amaliy choralar o‘z natijasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta’minlamoqda. Ko‘pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to‘g‘ri keladi.

Joriy yilning 6 oyida tadbirkorlik sub’ektlari soni 60 mingtaga ortgan.

Yig‘ilishda ushbu ko‘rsatkichlar islohotlarning dastlabki natijalari ekani ta’kidlanib, asosiy e’tibor hanuzgacha uchrayotgan muammolarni hal etishga qaratildi.

Davlatimiz rahbari viloyat, tuman, shahar hokimlari va ularning birinchi o‘rinbosarlari mutlaqo yangicha ishlab, 70 foiz vaqtini hududda tadbirkorlikni rivojlantirishga sarflashi kerakligini ta’kidladi.

Har bir viloyat, tuman va shahar hokimlari va ularning birinchi o‘rinbosarlari faoliyatiga yangi tashkil etilgan yoki faoliyati qayta tiklangan kichik korxonalar va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonidan kelib chiqqan holda baho berib, rag‘batlantirish bo‘yicha yangi tizim joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Baho berishda korxonalarning yashovchanlik ko‘rsatkichi asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerakligi belgilandi. YA’ni, tashkil etilayotgan korxonalarning kamida 50 foizi keyingi 3 yil davomida ishlasa, hokim va uning tadbirkorlik bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Savdo-sanoat palatasining hududiy bo‘limlari rahbarlarini qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish nazarda tutilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga ushbu yangi tizimni joriy qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Yig‘ilishda Prezident SHavkat Mirziyoevning Sirdaryo viloyatiga o‘tgan haftadagi tashrifi doirasida Xovos tumanini “Tadbirkorlik hududi”ga aylantirish bo‘yicha taklif etilgan tashabbusni amalga oshirish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Iqtisodiyot va sanoat vaziri boshchiligidagi Respublika ishchi guruhi har bir tumanning salohiyatidan kelib chiqib, kichik biznesni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi zarurligi qayd etildi. Ushbu takliflar asosida tadbirkorlarga ularni amalga oshirish, kredit, er va bino ajratish, infratuzilmaga ulash kabi barcha masalalarda ko‘maklashiladi.

Videoselektorda sanoat sohasidagi kichik biznes sub’ektlari va yirik korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini keng yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlandi.

Masalan, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmoqlari o‘rganilganda tadbirkorlik sub’ektlari va yirik sanoat korxonalari o‘rtasida kooperatsiya deyarli yo‘qligi, oqibatda yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va butlovchi qismlar import qilinayotgani ma’lum bo‘lgan. Achinarlisi, ayrim sanoat korxonalari kichik ishlab chiqaruvchilar u yoqda tursin, xaridorlar talabi bilan ishlashni ham bilmaydi.

SHu bois Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga o‘nta yirik sanoat tarmog‘i, jumladan, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, elektrotexnika, qurilish materiallari, kimyo, avtosanoat korxonalari bilan kichik biznes o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatildi.

SHuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda kooperatsiya yarmarkalari o‘tkazish, mahsulot va xizmatlar o‘z egasini topishi uchun “YAgona elektron kooperatsiya birja portali”ni tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik rivojiga to‘siq bo‘layotgan yana bir muammo – loyihalarni joylashtirish uchun er ajratish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Bu tizim hanuzgacha ochiq-oshkora ishlamayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Misol uchun, 3 ming 500 gektar maydon “Er-elektron” axborot tizimiga taqdim etilgan bo‘lsa-da, shundan 1 ming 300 gektari yoki 37 foizi savdoga qo‘yilgan, xolos.

SHu bois, mutasaddilarga er ajratish masalasini idoralar bilan kelishish, binoni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini tubdan soddalashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Banklarning tadbirkorlik sub’ektlariga xizmat ko‘rsatishini yaxshilash va ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish masalasiga ham e’tibor qaratildi.

Hozirda kredit olish istagidagi tadbirkorning murojaati 3 bosqichda, ya’ni tuman-viloyat-respublika darajasida ko‘rib chiqiladi. Bankning markaziy idorasi rozilik bermasa, tadbirkor kredit ololmaydi. Oqibatda, bu jarayon ayrim hollarda oylab cho‘zilib ketyapti.

SHu bois, banklarda kredit ajratish masalalarini bir va ikki pog‘onaga o‘tkazish, 70-100 nafar xodim ishlaydigan filiallar o‘rniga 10-15 nafar shtatdan iborat ixcham bank xizmatlari markazlarini ko‘paytirish lozimligi ta’kidlandi.

Tadbirkorlarning kredit foiz stavkalariga oid fikrlari muhokama qilinar ekan, kreditlar bo‘yicha kafolat berish va foizlarni qisman qoplash maqsadida tashkil qilingan Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini kuchaytirish muhimligi aytildi.

Tadbirkorlarning bino-inshootlarini buzish va buning uchun kompensatsiya to‘lash borasida tizimli yondashuv yo‘qligi tanqid qilindi.

Albatta, joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari davomida ayrim binolarning buzilishi tabiiy hol. Biroq, aholi punktlarini istiqbolda rivojlantirish rejalarini hisobga olmasdan, katta hududlarda joylashgan inshootlar buzib yuborilayotgani oqibatida juda ko‘p miqdorda kompensatsiya to‘lovlari kelib chiqmoqda.

Hokimliklar buziladigan binolarning o‘rnida yangi korxonalarni qurish bo‘yicha investorlarni topib, kompensatsiya to‘lovini ularning hisobidan to‘lanishini ta’minlamayotgani sababli ushbu xarajatlar davlat byudjeti zimmasiga tushmoqda.

– Barcha hokimlarni qat’iy ogohlantiraman – asosli zarurat bo‘lmagan holda tadbirkorlarga tegishli mol-mulkni buzishga umuman yo‘l qo‘yilmasligi zarur va shart, – dedi davlatimiz rahbari.

Adliya va moliya vazirliklari, Savdo-sanoat palatasiga Biznes-ombudsman ishtirokida mol-mulkni buzish va kompensatsiya to‘lash tartiblarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif kiritish vazifasi qo‘yildi.

SHu nuqtai nazardan, tadbirkorlar bilan bevosita ishlaydigan davlat idoralarida nizolarni sudgacha hal etish tuzilmalarini tashkil etish zarurligi ta’kidlandi. Adliya vazirligi, Oliy sud va Savdo-sanoat palatasiga muqobil hakamlik sudlari faoliyatini va mediatsiya institutini kengaytirish masalalarini nazarda tutuvchi qaror loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tizimida Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish agentligi tashkil etish taklifi bildirildi. Mazkur agentlik ko‘rsatilgan sohani yuksaltirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas’ul bo‘ladi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini ham muvofiqlashtirib boradi.

## 15.3 O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikrivojlanishini rag’batlantirish va qo’llab – quvvatlash tizimi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni engillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko‘rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to‘siq va g‘ovlar bekor qilindi. Ko‘rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik sub’ektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bunday ijobiy o‘zgarishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng e’tirof etilmoqda. Jumladan, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e’lon qilingan «Biznes yuritish — 2020» hisobotida O‘zbekiston 69-o‘rinni egallab, islohotlar miqyosi va samaradorligi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi.

SHu bilan birga, tadbirkorlar va investorlar bilan uchrashuvlar joylardagi ijrochilar sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatidan to‘liq xabardor emasligini, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi sezilarli darajada ortda qolayotganligini, ayrim litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirishda ortiqcha byurokratik to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish borasida boshlangan islohotlarni davom ettirish hamda qabul qilingan qonun hujjatlarining joylarda to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash maqsadida:

1. Barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi hamda «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun talablariga so‘zsiz rioya qilishlari shartligi haqida qat’iy ogohlantirilsin.

Belgilansinki, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarini, shu jumladan ob’ektlarning qiymatini baholash natijalarini qayta ko‘rib chiqish va bekor qilish masalalari yuzasidan davlat organlari, shu jumladan nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan tashabbus bilan chiqish xususiy mulkning daxlsizligini buzish sifatida baholanadi hamda bunday ishlar ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka qat’iy rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirsin, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarini qayta ko‘rib chiqish va bekor qilish tashabbusi bilan chiqqanlik uchun vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslarining muqarrar javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortishga qadar oshirishni ta’minlasin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi (Zokirov), Energetika vazirligi (Sultanov), Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi (Abdullaev), Markaziy banki (Nurmuratov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Bekenov) rahbarlariga qurilish uchun

ruxsatnomalar berish, elektr ta’minoti tizimiga ulanish, ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish, kredit berish hamda to‘lovga qobiliyatsizlikni hal etish yo‘nalishlaridagi islohotlarning amaliyotga tatbiq etilishi etarli emasligi natijasida «Biznes yuritish» yillik hisoboti tegishli indikatorlari bo‘yicha mamlakatning reytingdagi o‘rni pastligicha qolayotganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

YUqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazirlik va idoralarning har birida sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni joylardagi ijrochilarga etkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzilsin.

Mazkur ishchi guruhlar zimmasiga islohotlarning mazmun-mohiyatini joylardagi ijrochilarga etkazish va tushuntirish, qonun hujjatlarini noto‘g‘ri qo‘llash amaliyotini bartaraf etish, joylarda tadbirkorlarning fikrini muntazam ravishda o‘rganib borish, tegishli organ tomonidan qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va ularga sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifalari yuklansin.

Ishchi guruhlari amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ma’lumot kiritib borsin.

3. SHunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2020 yil 1 fevraldan boshlab:

eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab etiladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlar «YAgona darcha» bojxona axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi. Bunda vakolatli organlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari «YAgona darcha» bojxona axborot tizimiga integratsiya qilinadi;

fitosanitariya, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va ekologik nazorat o‘tkazish uchun undiriladigan to‘lovlar miqdori vakolatli organning mazkur hujjatni berish uchun qilgan xarajatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan kelishilgan holda belgilanadi;

yuridik shaxslar tomonidan da’vo arizasi va uning ilovalarini javobgar hamda iqtisodiy sudga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron tarzda yuborish imkoniyati yaratiladi;

b) 2020 yil 1 oktyabrdan boshlab quvvati 140 kilovattgacha bo‘lgan elektr uskunalarini elektr tarmoqlariga ulash jarayonida sarflanadigan xarajatlar tadbirkorlik sub’ektining xohishiga ko‘ra, davlat xizmatlari markazlariga texnik shartlarni olish uchun murojaat qilish bilan bir vaqtda berilgan so‘rovnomasiga asosan «Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Mazkur mablag‘lar tadbirkorlik sub’ektlari foydalangan elektr energiyasi qiymatiga qo‘shiladigan ustamalar hisobidan bir yil davomida undirib olinadi.

4. 2020 yil 1 yanvardan quyidagi talablar bekor qilinsin:

tadbirkorlik sub’ektlari — yuridik shaxslar o‘rtasidagi ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomalarini taraflardan birining talabi bo‘yicha notarial tasdiqlanganda kommunal xizmatlar bo‘yicha qarzdorliklarni tekshirib olish;

davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchilar tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng arizani hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar tomonidan tegishli hududda joylashgan er uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulk, uning mulkdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotni bevosita qog‘oz ko‘rinishda taqdim etish;

meva-sabzavot va to‘qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qilish (paxtadan tashqari) uchun zarur ruxsatnoma va sertifikatlarni rasmiylashtirishda tadbirkorlik sub’ektlaridan to‘lov undirish.

5. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga doir «Yo‘l xaritasi» ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2020 yil 1 yanvarga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini kiritsin:

qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan xabarnoma yuborish tartibini bekor qilish, markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish ob’ektlari bundan mustasno;

ob’ektning zilzilaga bardoshliligi va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha loyiha hujjatlari yuzasidan ijobiy ekspertiza xulosasi va qurilish ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotni davlat xizmatlari markazlari tomonidan bir vaqtda tadbirkorlik sub’ektlari va hududiy qurilish sohasidagi nazorat inspeksiyalariga ob’ektni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun yuborish;

ob’ektlar bo‘yicha ijobiy ekspertiza xulosasi mavjud bo‘lmaganda qurilish-montaj ishlarini boshlashni taqiqlash, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda:

«Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan kuchlanishi 110 kV gacha bo‘lgan elektr qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulash bilan bog‘liq qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning muddatlarini va eng baland qiymatlarini belgilashni nazarda tutuvchi yagona kalkulyasiyasini tasdiqlasin;

elektr ta’minoti tizimiga ulanish jarayonida hujjatlarni ko‘rib chiqish, kelishish va ishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq tartibotlarni soddalashtirish va muddatlarini qisqartirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda meva-sabzavot va to‘qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qilish (paxtadan tashqari) uchun zarur ruxsatnoma va sertifikatlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq vakolatli organlarning xarajatlarini Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan qoplab berish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. «O‘zstandart» agentligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, «O‘zdavkarantin» inspeksiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2020 yil 1 fevralga qadar:

vakolatli organlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va «YAgona darcha» bojxona axborot tizimi platformasida tanlab olish asosida fitosanitariya, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, ekologik nazorat o‘tkazish va muvofiqlikni baholash imkonini beradigan alohida xavf-xatarlarni tahlil qilish tizimlarini joriy etishni yakunlasin;

vakolatli organlar tomonidan fitosanitariya, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va ekologik nazorat o‘tkazish uchun shartnomalarni oferta shakliga o‘tkazgan holda xizmatlar uchun to‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish imkonini yaratsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Adliya vazirligi:

ikki oy muddatda yuk tashuvchilar tomonidan yuk hujjatlari ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan dastlabki elektron axborotni bojxona idoralariga taqdim etish tartibini joriy etish orqali bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarini tezlashtirish choralarini ko‘rsin;

2020 yil 1 aprelga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llaridan katta hajmli va og‘ir vaznli yuklarning o‘tishi uchun ruxsatnomani rasmiylashtirish jarayonlari va to‘lovlarni amalga oshirishni elektron shaklga o‘tkazish ishlarini yakunlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, Savdo-sanoat palatasi, Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi uch oy muddatda:

litsenziyalash va ruxsatnoma berish tizimini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, ularni zamon talablariga moslashtirish va tizimlashtirish;

litsenziyalar va ruxsatnomalarni rasmiylashtirishda talab etiladigan hujjatlarni xatlovdan o‘tkazib, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda ularning muqobil shakllarini, shu jumladan xabardor etish tartibini joriy etish yuzasidan taklif kiritsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi «Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4160-son qarori bilan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishga tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari shaxsan mas’ul ekanliklari haqida ogohlantirilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoni 3-ilovasida ko‘rsatilgan xalqaro reytinglar indikatorlari bo‘yicha mamlakatimizning reyting ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi yoki pasayganligidan kelib chiqib, vazirlik va idoralarga nisbatan rag‘batlantirish yoki jazolash choralarini qo‘llash tartibini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan birga Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi «Biznes yuritish» yillik hisobotining qurilish uchun ruxsatnomalar olish, elektr ta’minoti tizimiga ulanish, mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish hamda xalqaro savdo indikatorlari bo‘yicha «davlat xizmatlarining sirli mijozi» instituti qo‘llanilishini ta’minlasin;

jamoatchilik nazorati va «davlat xizmatlarining sirli mijozi» institutining qo‘llanilishi natijalari bo‘yicha har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin.

Belgilansinki, ushbu bandda nazarda tutilgan yo‘nalishlar bo‘yicha «davlat xizmatlarining sirli mijozi» instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4210-sonli qarori talablari asosida qo‘llaniladi.

14. Savdo-sanoat palatasi va Davlat xizmatlari agentligining Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotining har bir indikatori bo‘yicha batafsil ma’lumotlar aks etgan maxsus portal sifatida Internet tarmog‘idagi businessinfo.uz saytidan foydalanish va uni doimiy yangilab borish haqidagi taklifi ma’qullansin.

15. Davlat xizmatlari agentligi 2020 yil 1 aprelga qadar o‘zining rasmiy veb-saytida davlat xizmatlarini ko‘rsatish muddatlarini avtomatik ravishda, shu jumladan ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan arizalar va mas’ul idoralar to‘g‘risida ochiq ma’lumotlarni real vaqt rejimida aks ettiruvchi bo‘lim yaratsin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining 2020 yil mart oyida o‘tkaziladigan Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida xalqaro hamjamiyat va xorijiy investorlarni O‘zbekistonda biznes yuritish imkoniyatlari bilan keng tanishtirish hamda respublikaning «Biznes yuritish» reytingidagi o‘rnini yanada yaxshilash masalalarini muhokama qilishga bag‘ishlangan alohida seksiya panelini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

17. «Biznes yuritish» yillik hisoboti indikatorlari uchun mas’ul vazirlik va idoralar 2020 yil 1 yanvarga qadar tegishli sohalarda amalga oshirilgan islohotlar, ularning amaliyotga tatbiq etilishini asoslovchi dalillar va statistik ma’lumotlardan iborat tahliliy materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishini ta’minlasin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birga bir oy muddatda Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotining har bir indikatori bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar yuzasidan keng qamrovli targ‘ibot ishlarini o‘tkazish rejasini tasdiqlasin va amalga oshirilishini ta’minlasin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Vazirlik va idoralar ikki oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

20. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.A. Gulyamov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

# 16.DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

## REJA:

### 16.1.Mintaqaviy iqtisodiyot

Mintaqaviy iqtisodiyot muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko‘pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligi o‘sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyot bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishi munosabati bilan mintaqaviy iqtisodiyot fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o‘rganishda hozirgi paytda ularda ro‘y berayotgan holatni chuqur (qaysi jihatlari ortayotganini) tushunish lozim. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistondagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari asosiy xalq xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko‘ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyi o‘rinlarni egallaydi.

Qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishchi kuchlari mavjudligi – Farg‘ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo‘jaligini xodimlar bilan ta’minlash jiddiy muammo bo‘lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Hozirgi vaqtdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri – iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo‘yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi past bo‘lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini

o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

## 16.2.Davlatning mintaqaviy siyosatining prinsiplari va mohiyati

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta’minlanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma’lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo‘yilmalar qayta taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo‘nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo‘nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo‘llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo‘nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo‘llash (ma’muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo‘yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomyeratsiya markazlariga nisbatan keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag‘batlantirishahri. Mazkur yo‘nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e’tibor beriladigan asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

## 16.3. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha nazariyalar: I.Tyunenning «qishloq xo‘jalik standarti» nazariyasi; A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi, A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi, U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi, F.Perruning «O‘sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo‘lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so‘ng – XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G. Fon Tyunen, V. Launxard, A.Veber nomlari bilan bog‘liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

alohida olingan biror qishloq xo‘jaligi yoki sanoat korxonasining ko‘rib chiqilishi;

joylashtirishning barcha omillari to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to‘g‘risida aniq javob olish mumkinligi to‘g‘risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo‘lgan). Tyunen qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta’minlovchi shahargacha bo‘lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo‘jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

V. Launxard ham sanoat korxonalarini ko‘rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalari joylashadigan joy to‘g‘ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

### V.Kristallerning «Markaziy joy» nazariyasi

V. Kristallyer «Markaziy o‘rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisob-kitoblar orqali hududiy iyerarxiya bir darajadan boshqa darajaga to‘g‘ri geometrik progressiya orqali o‘tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o‘z navbatida tumanlar ko‘plab qishloq fuqarolari yig‘inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar va xizmatlar yo‘naltirilgan. SHunday qilib, olim aholi punktlari guruhiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy o‘rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo‘nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma’muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o‘rganishga oxirgi o‘n yilliklarda nisbatan kamroq e’tibor berildi. To‘g‘ri, hududiy iqtisodiyot bo‘yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko‘rib chiqildi. Hududiy o‘sish nazariyalarini ko‘rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o‘sish modellarini qo‘llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o‘xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. CHunki mintaqalarning iqtisodiy

rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina belgilab beradi. Kompaniyalar o‘z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko‘rib chiqiladi**.**

### Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari: ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo‘jaligining kompleks rivojlantirish, xududiy mehnat taqsimoti.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o‘rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e’tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;

mintaqalarni kompleks rivojlantirish;

mintaqalar o‘rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;

mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo‘lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo, yoqilg‘i, energiya va iste’mol manbalariga yaqinligini ta’minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Mintaqalar o‘rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. SHuning uchun har bir mintaqa faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

## 16.4.O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatini o‘ziga xos xususiyatlari.

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida bozorning torayishiga olib keladi.

Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta’minlanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma’lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo‘yilmalar qayta taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo‘nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo‘nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo‘llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo‘nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo‘llash (ma’muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo‘yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomyeratsiya markazlariga nisbatan keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag‘batlantirishahri. Mazkur yo‘nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e’tibor beriladigan asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida ham bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan boshqa mamlakatlardagi singari “samarali” usulni qo‘llash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab foydalanilmayotgan zaxiralar ishga tushirilmoqda; yangi korxonalar asosan kommunikatsiyalar bilan yaxshi ta’minlangan kichik va o‘rta shaharlarga joylashtirilmoqda; qishloq xo‘jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hudud va shaharlarni rivojlantirish, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma obektlari bilan ta’minlanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, mamlakat ma’muriy-hududiy birliklari o‘rtasidagi aholi zichligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to‘g‘ri kelsa (1 km2 maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km2 maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.

Aholi tabiiy ko‘payishida shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan

shaharlarda aholi tabiiy ko‘payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Ohangaron, CHirchiq shaharlarida tabiiy o‘sish respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo‘yicha mamlakat ma’muriy-hududiy birliklari orasida eng yuqori o‘rinni egallaydi. U erda 335 ming kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud hisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Umuman, har bir tuman yoki shaharning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bu kabi misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy-iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning mana shunday alohida jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

**Tayanch iboralar:**

Mintaqa iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha nazariyalar: I.Tyunenning «Qishloq xujalik standarti» nazariyasi; A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi, A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi, U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi, F.Perruning «O‘sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi. V.Kristallerning «Markaziy joy» nazariyasi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari: ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo‘jaligining kompleks rivojlantirish, xududiy mehnat taqsimoti.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalar.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1.Mintaqa iqtisodiyoti nimani o’rganadi?
2.Mintaqa iqtisodiy siyosatining prinsiplari va vazifalari nimalardan iborat?
3.Mintaqa iqtisodiyot siyosatini davlat tomonidan tartibga solinishi.
4.Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotining o’rni.
5.Hududlarda mehnat taqsimotini to’g’ri joylashtirish.
6. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari
7. V.Kristallerning «Markaziy joy» nazariyasi
8. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari

## 17.DAVLATNING TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHI VA EKOLOGIYA SOHASIDAGI SIYOSATI

### 17.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof muhitni saqlash.

Ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo’lib qoldi.Insoniyat XXI asrga qadam qo’yar ekan, uning oldida, olamni asrash, kelajaak avlodning barqarorligini ta’minlash, turli ekologik muammolarning oldini olishdek dolzarb masala ko’ndalang turibdiki, bu hech kimni tashvishga solmay qolmaydi.

Natijada iqlimning o’zgarishi tabiiy resusrlarning kamayib ketishi, turli kasalliklarning paydo bo’lishi, fasllarning o’zgatib borishi kabi salbiy oqibatlar kelib chiqmoqda. Hozirgi paytda dunyoning qaysi bi r mintaqasini olib qaramaylik, inson hayoti uchun katta havf tug’dirayotgan ekologik vaziyatni bartaraf qilishdek og’ir muammolar o’z yechimimni kutib turganligining guvohi bo’lamiz.

Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurs (manba) lar deyiladi. Resurs so’zi fransuzcha bo’lib “Yashash vositasi” degan ma’noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo’lgan asosiy manbadir.

Tabiiy resurslarga: havo, suv, tuproq, turli xil rudalar, yoqilg’i va energiya manbalari ko’mir, neftь, gaz, turli xil yog’ochlar hamda yovvoi o’simliklar va hayvonlar kiradi. Bularning hammasi yer planetasida mavjud bo’lgan tabiiy resurslardir. Bundan tashqari kosmik resurslar ham mavjud. Kosmik resurslarga quyoshdan kelayotgan nur, meteoritlar va boshqalar kiradi.

Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilishni to'g'ri tushuntirish uchun ularni turlarga bo'lib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. qazilma boyliklar;
2. iqlim resurslari;
3. suv va havo resurslari;
4. tuproq resurslari;
5. o'simlik resurslari;
6. fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo'lgan hamma hayvonlar) resurslari;
7. atom resurslari;
8. biosfera resurslari;
9. kosmik resurslar;

Foydalanish darajasiga qarab tabiiy resurslar:

a) tugaydigan
b) tugamaydiganlarga bo'linadi.

Tugaydilan resurslar. Bular o'z navbatida qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan resurslarga bo'linadi.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamaya boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo'riqlash quyidagicha bo'lmog'i lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to'g'ri, tejab, o'rnida foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash, ishlatishda nobudgarchilikka yo'l ko'ymaslik, chiqindi kam chiqarish choralarini ko'rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o'rganish zarur va nihoyat ularning o'rnini bosuvchi yangi sun'iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to'la ta'minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba'zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o'rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

Qayta tiklanadigan resurslarga asosan, suv, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Masalan: tuproq, unda o'simlik o'stirib foydalanilishi natijasida tugab yo'q bo'lib ketmaydi. Tuproq shuning uchun ham tugamaydigan – qayta tiklanadigan resurslar jumlasiga kiritiladiki, madaniy o'simliklar undagi mineral ozuqa moddalar (azot, fosfor, kaliybirikmalarini va boshqalar) ni shimib oladi, ana shu ozuqa moddalar tiklab borilmasa, tuproqning unumdorligi yildan-yilga kamayib, dehqonchilik uchun butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi.

Inson foydalanadigan tabiiy resurslar tayyor holda bo'lmay balki uni inson tabiatdan oladi. Buning uchun inson ularning holatini, xossalarini, olish usullarini va ishlab chiqarishda foydalanish yo'llarini bilishi kerak. Buning uchun ma'lum malaka va o'quvga ega bo'lishi zarur. Faqat fan kishilarga, tabiat kuchlari ustidan hukmronlik o'rnatish vositalari va usullarini berish mumkin. Bu haqda ingliz olimi J.Bernal o'zining "Jamiyat tarihida fan" nomli asarida fanning tabiat kuchlarini yengishdagi muhim rolini xarakterlab "tabiatni tubdan o'zgartirmoq uchun fandan maksimal foydalanish kerak" degan edi.

Fan asosida kishilar tabiat boyliklarining o'rnini bosadigan sun'iy material yaratib, tabiat boyligini tejaydi, ularni kelajak avlodlar uchun saqlaydi.

Inson o'zi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni fan asosida bevosita yoki bilvosita tabiatda mavjud bo'lgan predmet va narsalarni qayta ishlagan holda undan oladi. Fan va texnika yutuqlariga tayangan holda inson yangidan-yangi materiallarn yaratmoqda. Inson ob'ektiv xarakterga ega bo'lgan tabiat qonunlarni to'g'ri bilib olgandagina u yordamida tabiat kuchlariga aktiv ta'sir ko'rsata oladi.

Inson tabiat qonunlari haqida bilimni tabiiy fanlar – matematika, gefizika, geologiyani va x.k. ni o'rganib, uni amalga tadbiq etish natijasida oladi. Fan asoslariga tayangan holda olimlarimiz tomonidan tabiiy resurslarni chuqur o'rganib, jamiyat manfaati yo'lida keng foydalanilayotganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Olimlar yer, suv, havo, o'simlik hamda iqlim resurslarini tadqiq qilishda va ulardan sistemali, ratsional foydalanishda muhim yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Masalan: tuproqni ishlashni yahshilash, tuproq eroziyalariga qarshi kurash, sug'orish sistemasini takomillashtirish, madaniy o'simliklarni oziqlantirish va uni o'sishi hamda rivojlanishini jadallashtirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda planetamizdagi tabiiy resurslar har tomonlama o'rganilib, undan ratsional foydalanish va uni qo'riqlash metodlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda. Demak, rivojlangan jamiyatda tabiatga ongli munosabatda bo'lib, uni qo'riqlab va undan jamiyat manfaati yo'lida fan va texnika taraqqiyotiga tayangan holda ratsional foydalanilib, uni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda saqlab qolinadi. Buning uchun tabiat haqida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

Inson tabiiy resurslardan foydalanishda ko'plab iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin, u ko'pincha, tabiiy sharoitning o'zgarishi kishilarning jismoniy, psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu kadar chambarchas bog'langanki, uning biron qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlarining holatini o'zgartirib yuborishini bilmaydi. Masalan: inson faoliyati natijasida atmosferada karbonat angidrid miqdorining ortishi planeta haroratining ortishiga sabab bo'ladi. Bu hol esa muzliklarning erishiga, iqlimning o'zgarishiga, suv sathi va miqdorining ortishiga, quruqliklarnin kamayishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilovchi asosiy omil moddiy boyliklardir. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish esa o'z navbatida tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarish kuchlari va fanning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson qo'lida tabiat kuchlaridan moddiy ne'mat ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi.

Turli davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida quyidagilar asosiy rolь o'ynagan:

1) kishilarning onglilik darajasi;
2) fan;
3) texnika;
4) tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar.

Insonning iqtisodiy va madaniy talablarini qondirish borasida hozirgi zamon texnikasining taraqqiyoti endilikda jamiyatning tabiatga ta'sirini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida inson faqat yer sirtinigina o'zgartirib qolmasdan, uning chuqur qatlamlaridagi va okean tublari, baland tog' bag'irlarini o'rganib, ulardagi resurslardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqda. Inson yerning chuqurroq qatlamlaridan foydali qazilma boyliklarni olish uchun bir qancha muhim muammolarni hal qilishi zarur.

## 17.2.Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o'rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda.

Qabul qilingan hujjatlar atrof-muhit obyektlarining ifloslanish darajasini ma'lum darajada kamaytirish, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlarni milliy ekologik muammolarni hal etishga jalb qilish imkonini berdi.

O’zbekiston Respublikasining atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasida birinchi navbatdagi vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1.Jamiyatning ta’lim olish va intelektual potentsialini o‘sishini ta’minlovchi sharoit yaratish;

2.Atrof-muhit holatini yaxshilash uchun hamda global ekologik muammolami hal etishga yetarli mablag‘ ajratish kerak;

3.Genetik fond, turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash;

4.Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlami takomillashtirish;

5.Maxsus muhofazaga olingan hududlami boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;

6.Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo‘yicha nazorat tizimini takomillashtirish va rivojlantirish;

7.Xususiylashtirish jarayonlarida ekologik talablarga rioya qilish va atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun javobgarlik kabilami nazorat qilish mexanizmini yaratish;

8.Ekologik xavfsiz mahsulotlar va texnologik jarayonlar sohasida ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish;

9.Ekologik axborotlar va atrof-muhit monitoringi bo‘yicha bank tizimini yaratish;

10.Tabiatni muhofaza qilish ishlari bo‘yicha faoliyatini yorituvchi markazlashgan axborot tizimini yaratish;

11.Ekologik va tarbiyaviy tizimini yanada rivojlantirish;

12.Xalqaro ekologik normalar va standartlar bo ‘ yicha bosqichma- bosqich dasturlar ishlab chiqish;

13.Xalq xo‘jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologi- yalar, chiqindilami zararsizlantirish va o‘zlashtirish bo‘yicha ilmiy-texnik ishlanmalami hayotga tadbiq etish, hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirish;

14.Atrof-muhitni muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish 10masalalari bo‘yicha xalqaro ekologik tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish.

Shu bilan birga, atrof-muhit muhofazasi sohasida amaldagi davlat boshqaruvi tizimi va nazorati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil bir qator kamchilik va muammolar borligini ko‘rsatdi, xususan:

chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida jismoniy va yuridik shaxslar, maxsus vakolatli davlat organlari, tashkilot va korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda nazorat qiluvchi yagona davlat organining mavjud emasligi;

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunish tartibining huquqiy asoslari yo‘qligi tufayli atrof-muhit muhofazasi sohasida idoralararo to‘laqonli hamkorlik qilish va bu boradagi vazifalarni amaliy jihatdan hal etish imkoni yo‘qligi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi ekologik, sanitariya me’yor va talablarini buzganlik uchun qonunchilikda nazarda tutilgan ma’muriy jazo choralarining yetarli emasligi va samarasi pastligi;

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining chiqindilar bilan ishlash sohasidagi vakolatlari faqat ishlab chiqarish chiqindilarini nazorat qilish bilan cheklangan edi. Qo‘mitaning amaldagi tashkiliy tuzilishi va shtatlar birligi unga yuklatilgan vazifalarni sifatli va to‘liq hajmda amalga oshirish imkonini bermayapti.

Shu munosabat bilan, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, bu yo‘nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorat tizimini takomillashtirish maqsadida, shuningdek, “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunuvchi va hisobot beruvchi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga aylantirish (keyingi o‘rinlarda — Davlat ekologiya qo‘mitasi) nazarda tutilmoqda.

Farmon bilan Davlat ekologiya qo‘mitasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish;

maishiy chiqindilarni to‘plash, tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va ko‘mish ishlarining samarali tizimini tashkil etish;

atrof-muhitning ekologik holati maqbul tarzda saqlanishini, ekologiya tizimlari, tabiiy komplekslar va alohida obyektlarni qo‘riqlashni, ekologik vaziyat sog‘lomlashtirilishini ta’minlash;

er, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya qilish borasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o‘simliklar ko‘paytiriladigan va saqlanadigan pitomniklar, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish;

ekologik tarbiya, targ‘ibot va ma’rifiy ishlarni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Farmonga muvofiq quyidagi tuzilmalar tashkil etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining markaziy apparatlarida Chiqindilarning hosil bo‘lishi, ularni to‘plash, saqlash, tashib ketish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko‘mish va realizatsiya qilish bo‘yicha nazorat inspeksiyalari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, viloyatlar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari huzurida “Toza hudud” davlat unitar korxonalari va mamlakatimiz shaharlarida, shuningdek, tuman hokimliklari huzuridagi obodonlashtirish boshqarmalarining chiqindilarni olib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan uchastkalari negizida ularning filiallari;

Tabiatni muhofaza qilish respublika va mahalliy jamg‘armalari negizida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha jamg‘arma tashkil etiladi, jamg‘arma mablag‘lari birinchi navbatda atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga, jumladan, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarga va bioresurslarni saqlash va qayta tiklashga, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza va monitoring qilish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishga, targ‘ibot va ma’rifiy ishlarni tashkil etishga, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yo‘naltiriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish respublika inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Bioxilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi etib qayta tuziladi va uning hududiy inspeksiyalari tashkil qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkil qilishga oid tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz qonunchiligiga Davlat ekologiya qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot berib borishi yuzasidan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston RespublikasiningMa’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini kuchaytirish, bu borada chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima sanksiyalari miqdorini oshirish, O‘zbekiston

Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunlariga ko‘p joyda uchraydigan foydali qazilmalarni qazib olishning belgilangan tartibini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini kuchaytirish yuzasidan o‘zgartish kiritiladi.

Mazkur farmonning amalga oshirilishi juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

birinchidan — atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat nazorati va boshqaruvi organlarining tizimli ish olib borish samaradorligini oshiradi;

ikkinchidan — ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi idoralararo samarali hamkorlikni ta’minlaydi;

uchinchidan — atrof-muhitning ekologik holati, ekologik tizim, tabiiy komplekslar va alohida obyektlarni qo‘riqlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

## 17.3.O’zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni. Himoya qilishning o’ziga xos xususiyatlari.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan boshlab Rio de Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada qabul qilingan ekologik siyosatni, ya’ni atrof-muhit holatini yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlami muvofaqqiyatli amalga oshirib kelmoqda.Ekologik muammolami hal etishning asosiy yo‘nalishlari va tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan atrof muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o‘z aksini topgan.Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng muhim vazifasi aholi sonining o‘sishi, shaharlaming transport orqali yuk tashishi, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bo‘g‘liq ravishda atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal etish, ya’ni tabiiy resurslami qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish masalalari turibdi. 0 ‘tish davrida, shubhasiz tabiiy resurslardan foydalanish darajasi o‘zgaradi va atrof-muhitnining ifloslanishiga ta’sir ko‘rsatadi.Bunday sharoitda Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davdat qo‘mitasi tomonidan tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va kam chiqindili texnologiyalardan foydalanish kabi ekologik siyosatni qoilashni taqoza etadi. Shunga qaramasdan respublikada quyidagi ekologik muammolar hal etilmay qolmoqda:

1. Orol bo‘yidagi ekologik tang ahvol;
2. Yer, suv, biologik resurslaming qisqarishi;
3. Yer, suv, biologik xilma-xillikga va atmosfera havosini sifatiga qo‘shni davlatlarning ta’siri;
4. Tabiiy holatni va uning ifloslanish manbalari, shuningdek tabi-iy resurslardan foydalanishni nazorat qilish uchun yetarli texnik va metodik imkoniyatlaming cheklanganligi;
5. Atrof-muhit holatini analitik nazorat qilish uchun maxsus as- bob uskunalaming ishlab chiqarish korxonalarining mavjud emasligi;
6. Tog‘-kon chiqindilari, avvalgi uran konlari, ulaming chegara hududlardagi holati;
7. Sanoat va maishiy turmushdagi chiqindilaming qayta ishlov- chi va o‘zlashtiruvchi tizimning takomillashmaganligi;
8. Tabiiy atrof-muhit va ulaming ifloslanish manbalari hamda tabiiy resurslardan foydalanish holati bo‘yicha ekologik bank tizimi ma’lumotlarining yetarli bo‘lmasligi.

Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari makroiqtisodiyotni isloh qilish jara-yonida uning diqqat markazida turmog‘i lozim.

O'zbekiston avvalgi tuzumdan Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik inqirozni, aholi salomatligi va atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, suv va yer resurslarini yo'qotgan yerlarni meros qilib oldi.

1980 yillar oxirida O'zbekistondagi ekologik muammolar shunchalik kuchayganki, Respublika hukumatining 1988 yil aprel oyida qabul qilingan qarorida davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni

muhofaza qilish davlat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'mitaning hududiy bo'linmalari viloyatlar (tumanlar), shuningdek Toshkent shahri tashkil qilingan davlat organlari maxsus yechim bo’lgan.

O'zbekiston Respublikasining Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (bundan buyon matnda Davlat ekologiya qo'mitasi) ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va takror ishlab chiqarish sohasida davlat organi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi tizimida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi qo'mitalari, shuningdek viloyatlar va Toshkent shahrining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha hududiy boshqarmalaridan tashkil topgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiya qo’mitasi qoshida va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari, tumanlar atrof-muhitini muhofaza qilish bo'linmalarida,"Toza Xudud" davlat unitar korxonasining shaharlar va shuningdek, respublika tumanlarida
maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchastkalari asosida tuman hokimlik larining obodonlashtirish bo’limlari tuzildi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ekologik vaziyatni barqaror ta'minlash, hududiy birliklarning samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining maqsadlariga muvofiqlashtirish hamda davlat boshqaruvida ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi doirasida davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida quyidagilar tuzilgan:

- Biologik xilma-xillik va qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspektsiyasi va yuridik shaxsni tashkil qilmasdan chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, yo'qotish, qayta ishlash, ko'mib tashlash va yo'q qilish nazorati inspektsiyasi bazasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish nazorati inspektsiyasi ;

- Respublika ixtisoslashtirilgan sanitariya tozalash korxonalari assotsiatsiyasi;

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi va billing tizimi asosida davlat unitar korxonasi shaklida ekologik axborot markazi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediyani joriy etish.

Davlat ekologiya qo’mitasi qoshida O'zbekiston Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ilmiy-tekshirish instituti, O'zbekiston ekologik qo'mitasi, "Eko-Energiya" Ilmiy-innovatsion markazi, Ilmiy-Axborotlar markazi kabi bo’limlar faoliyat ko’rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati mamlakat ekologik xavfsizligini va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof muhitga zararli ta'sirini oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, qayta ishlash va utilizatsiya qilishga yo’naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni takomillashtirish sohasidagi davlat organi hisoblanadi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bir qator xalqaro konventsiyalar va tegishli rivojlanish protokollari ratifikatsiyalariga qo'shildi:

-Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konventsiyasi (05/18/1993);

-Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoli (05/18/1993);

-London Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoliga o'zgartirishlar kiritish (05/01/1998);

-Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoliga Kopengagen o'zgartirish (05/01/1998);

-transchegaraviy suv oqimlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha BMTning YTK konventsiyasi;

-Tabiiy muhitga ta'sir etuvchi harbiy yoki boshqa dushmanona maqsadlardagi vositalaridan foydalanilishini taqiqlanishiga oid Konventsiya (05/26/1993);

- Iqlim o'zgarishi bo'yicha Asosiy konventsiya (06.20.1993) (Kyoto protokoli, 1999);

- Jiddiy qurg'oqchilik va / yoki cho'llanishga uchragan mamlakatlarda,ayniqsa Afrikada,cho'llanishga qarshi kurash konventsiyasi (31.08.1995);

-Xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakatlarini nazorat qilish va ularni yo'q qilish bo'yicha Bazel konventsiyasi (12/22/1995);

-Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konventsiya (06.05.1995 y);

-Butunjahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish konventsiyasi (22.12.1995);

-Yo'qolib borish xavfidagi yovvoyi fauna va floraning xalqaro savdosi bo'yicha konventsiyalar (01.07.1997);

-Ko'chmanchi yovvoyi hayvonot turlarini saqlash konventsiyasi (05/01/1998);

-Suv-botqoq hududlari bo'yicha asosan, qushlarning yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga molik Ramsar Konventsiyasi, (08/30/2001).

-Parijda iqlim o'zgarishi to'g'risidagi shartnoma (04/19/2018).

## 17.4. O’zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to’g’risida”gi qonuni va uning ahamiyati.

Ushbu Qonunning maqsadi ekologik nazorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ekologik nazorat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ekologik nazorat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

**Ekologik nazoratning asosiy vazifalari**

Ekologik nazoratning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish;

atrof muhit holatini kuzatib borish, atrof muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash;

mo‘ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

yuridik va jismoniy shaxslarning atrof muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash;

atrof muhitdagi o‘zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko‘rilayotgan tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilish;

tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta’minlash.

Ekologik nazoratning asosiy prinsiplari qonuniylik, xolislik, mustaqillik, oshkoralik, shaxs, jamiyat hamda davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Ekologik nazorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-ekologik nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

-fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atrof muhitni yaratish;

-ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organlari deb yuritiladi), mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan atrof muhitning muhofaza qilinishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlash borasida hamkorlik qilishining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

ekologik nazorat sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

**Ekologik nazorat subyektlari quyidagilardan iborat:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

-maxsus vakolatli davlat organlari;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari;

-davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari;

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar;

-fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;

-nodavlat notijorat tashkilotlari;

-fuqarolar.

**Tayanch iboralar:**

Tabiiy resurslar, tugaydigan resurslar, tugamaydigan resurslar, ekologik nazorat, qazilma boyliklar,davlatning ekologik nazorati.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1.Tabiiy resurslardan foydanishni tartibga solishda davlatning ekologik siyosati?
2.Hozirgi kunda O’zbekistonda qanday ekologik muammolar mavjud?
3.O’zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilishda qanday xalqari konventsiyalarga a’zo bo’lgan?
4.Tabiiy resurslardan unumli foydalanishda nimalar ahamiyatga ega?
5.Ekologik nazoratning asosiy vazifalari.
6.Ekologik nazorat sub’ektlarini sanab bering?

## 18.DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

### 18.1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati.

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o’rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davklatdan tashqi aloqalardan oqilona qaratilgan qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talb etadi.Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining, jahon iqtisodiyoti bilan ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o’zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o’zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqazo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta’minlash borasidagi davlat faaoliyatining yo’nalishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig’indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyatiuning davlat va xalqning suverinetitini ta’minlashdan iborat bo’lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo’yicha mexanizmining butun say-harakati ijtimoiy –iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliym mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashda o’z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo’naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo’lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy capital qo’yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat valyuta siyosatlari xisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini

ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko'rinishlari ham mvjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi.Ko'plab davlatlard mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini siyosiy mexanizm sifatida ta'riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining hatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o'rin ajratilgan bo'lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatning tashqi iqtisodiysiyosatni normative tartibga solish negizida milliy hamda halqaro huquq meyorlari yotadi.

Boroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy xuquqiy mehanizmlarning ham ahamiyati katta.Bunday mehanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategic faoliyatini belgilashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari mavjud bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog'i kerak.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o'ziga xos xususiyatlariga bo'lishi kerak.Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

-eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yahshilash

-importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish

-ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish

-mamlakatning iqtisodiy xaffsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda beksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va uarni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

` Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab –quvvatlash usullaridan keng foydalanish.Bu usullar quyidagilardan iborat:

-ekspotrga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kuchaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;

-milliy investitsiyalarni sug'urtalash;

-eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash;

-davlat tomonidan respublikagailg'or texnalogiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;

-eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga fuxsatnomalar berish;

-Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashinuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtirivojlantirish va iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

## 18.2.Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo’nalishlari va tarkibiy qismlari.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlar aralashuvi yuqori bo’lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo’liga ma’lum to’siqlar qo’yadi va bunday holat milliy mnafaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat istemol bozorlarini himoyalash ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokozolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo’lgan davlatlar ham bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o’rnatish, bojhona bojlari va ta’riflarini kiritish, mahsulot sifati va uning havfsizligini ta’minlovchi standartlarni o’rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta’sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o’z tashqi iqtisodiy siyosatalrini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asosiangan. Mamlakatning muvofik tashqi iqtisodiy siyosati deganda, hoshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish siyosatida ikki yo'nalish o’zaro bog’langan:

1) erkinlashtirish:
2) proteksionizm.

Ichki bozoni xorijiy raqobatdan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosat **proteksionizm** deyiladi.

Eekinlashtirish – davlatning tashqi savdoda iqtisodiy va ma’muriy t’siqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatidir.

Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos.Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti. Bu jarayon uch xil ko’rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o’rtasidagi o’zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o’rtasida;
- tariflar va savdolar Bosh bitimi (GATT), Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMTning konferensiyalarni (YuNKTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat - bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat ldoralari tomonidan amalga oshiriladigan choro-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatining makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko'rsatishning asosiy yo‘nalishlari bo’yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati bojxona siyosati kiradi (18.2.1-rasm)

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigun ayirboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklari jahon bozorida sotishga va ushbu lovarlami ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo’naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Eksport qiluvchi korxonalani rag‘batlantirishda davlat buyurtmalari, byudjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.




**18.2.1 rasm davlat atshqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo’nalishlari**

Tashqi savdo bo’yicha davlatning import siyosati, deganda mamlakatga xorijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellectual mulklarni kelishini tartibga solishga yo'naltirilgan chora- tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to’g’ridan to’g’ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompesatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarni xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valyuta siyosati davlat va xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl va usullar yig’indisini tashkil etadi.

Valyuta siyosati davlatning valyuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo‘lib, valyuta mablag'larini shakllantirish va ishlatishning asosiy yo’nalishlarini hamda bunday mahlag’lardan samarali foydalanishga yo’natirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o’z ichiga oladi.

Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo’lib valyuta bazori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi.

Davlatning valyuta siyosati diskont va deviz siyosatlarigabo’linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat lo’lov balansi muvozanatiani ta’minlash kabi vazifalani qamrab oladi.

**Diskont -** siyosati invcstitsiyalar harakatlarini tartibga solish va to’lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valuta kursini taxminiy tuzatish ichu n foizning hisob stavkasidan foydalanish bo’yicha chora-tadbirlar tizimini o’z ichiga oladi.
Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta’sir ko'rsatishda namoyon bo’ladi.

**Deviz** siyosati - valyuta intervensiyssi va valyuta cheklashlar yordamida valyutani xarid qilish va sotish bilan valyuta kursini tartibga solish tizimi.

**Valyuta intervensiyasi** - Markaziy bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo’lib, u milliy valuta kursi dinamikasi uni osish voki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko’zlaydi.

Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi Import siyosatlariga bo'linadi ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchimng ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki laqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valyuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati vujudga keladi.

**Ishchi kuchi import siyosati**, dcganda mamlakatga xorijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to''siqlar qo'yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

**Valuta iutervensiyasi**. Markaziy bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo'lib, u milliy valyuta kursi dinamikasi uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko'zlaydi. Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi import siyosatlariga bo'linadi ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki taqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valyuta daromadlarini qayd qilish imkoniyati vujudga keladi.

Ishchi kuchi import siyosati, deganda mamlakatga xorijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to'siqlar qo'yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

**Davlatning bojxona siyosati** - mamlakat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi bo'lib bojxona siyosatining asosiy maqsadlari qiyidagilar:

-bojxona nazorati ostidan eng samarali foydalanishini va bojxona hududida tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlaydi;

- mamlakal bozorini himoya qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishga doir savdo va sivosiy vazifalarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;

- bojxona siyosati bojxona ishining bir qismi bo'lib, uning asoslari O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi bilan belgilanadi. Davlatning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida qatnashuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirilishga va tartibga solishga qaratilgan.

### 18.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni bilvosita va bevosita usullari

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishda yuqoridagi holatlarnii hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimidan samarali foydalanilmoqda va uning tarkibiga kirgan tashkilot va muassasalar faoliyati takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modemizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimning asosiy vazifilari bo'lib quyidugilar hisoblanadi:

Respublika milliy manfaatlanga javob bcruvchi va uning jahon hamjamiyntidagi o'rnini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va amalga joriy etish;

• tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtish;

• mulkchilik ko'rmishining turli shakllaridan qat'iy nazar tashqi iqtisodiy faoliyatnmg barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradoriikni taminlash, ularning foliyati va manfaatlarini himoya qilish;

• milliy iqtisodiyotning tarkibiv bo'g'inlarini modernizat siyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish.

Ushbu vazifalami amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishda va erkinlashtirishda umumetirof etilgan quyidagi usullardan foydalaniladi: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartitga solishning bilvosita va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita (iqtisodiy. ma’muriy, me’yoriy-huquqiy) usullardir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo'lib tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini, ularning daromadini taqsimlashga bitim shartlarini bajarishga ta'sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valyutadan tushgan puldan airatmalar mcyori, xalqaro operatsiyalarni kreditlash va sug'urtalashning foiz stavkalari kabilar hisoblanib u subyektlarning u yoki bu harakati tanlash imkonini beradi.

**Bojxona bojlari iqtisodiy mazmuni va ko’rinishlari** Iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari ichida bojxona bojlari va tariflari juda muhim hisoblanadi. Ular yordamida tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tashqi savdo tartibga solinadi Tariflarni o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag’batlantirishi yoki qisqartirishi orqali umumiy ishlab chiqarish va istemol munosabatlariga ta’sir etishi mumkin.

Bojxona boji - bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan tovar (ishlar-xizmatlar) larga solinadigan majjburiy soliqdir. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo’llanadi va ularni hisoblash yo’llari.

Boj qiymati import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ularning ishonchli vakillari tomonidan mahsulotlar bayonnomasida ko’rsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Ammo ba’zi hollarda bojxona mahsulotining e’lon qilingan narxini tan olmasligi va uni o‘zi mustaqil aniqlashi mumkin. Amaldagi qollanilayotgan usulga qarab mahsulot narxi 20-25 foiz hatto 2 martagacha ko’paytirilishi mumkin. Shuning uchun mahsulot narxini belgilashning muhimligi hisobga olinib, uni belgilash qoidalari tariflar va savdo haqidagi bosh bilimga (GATT) kiritilgan.

Tashqi savdoni tartibga solishda o'ziga xos (spetsifik) usuliga ko’ra mahsulotning har bir o‘lchov birligidan (dona, klogramm, metr, metr kub va b.) undiriladi. Bundan tashqari yuqoridagi ikki usulni uyg'unlashgan aralash bojlar ham qo’llaniladi.

Bojxona bojlarining ikkinchi guruhi avvalo **import bojlari va eksport bojlari hamda tranzit bojlariga** ajratiladi.

Import bojlar ichki bozorlarga chel el tovarlar oqimini tartibga solish va davlat budjetini to’ldirish maqsadida belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng ko’p miqdordagi hojlarga bo’linadi. Eng kam miqdordagi import bojlar o’zaro qulay sharoitlar tartibini yaratib berishni ko‘zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o’rnatiladi.**Eng ko‘p miqdordagi import bojlari** esa bunday shartnoma va bitimlnr tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o’rnatiladi. Undan tashqari ko’plab mamlakatlarda imtiyozli bojlar ham qo’llaniladi va bu bojlar asosan rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan o’rnatiladi. Eksport bojlar mamlakatda ushhu mahsulotga talab ko’p bo’lgan holda uning taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Tranzit bojlari mamlakat hududida tovarlarni olib o’tila yotganida bojxona hududida (tovarlardan undiriladigan bojlar hisoblanadi.

**Bojxona tarifi** — aniqlangan belgilariga ko’ra guruhlashtirilgan mahsulotlar (klassifikator) ro‘yxati asosida mahsulotni bojxona chegarasidan olib o’tilayotganda to’lanishi lozim bo'lgan bojxona bojlari haqidagi umumiy ma’lumotdir.

Mahsulotni guruhlashlitirishda asosiy belgilar sifatida ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o’simlik dunyosi). Qayta ishlash darajasi (hom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar)ni misol qilib keltirish mumkin.

Zamonaviy sharoitda jahon savdosida tovarlar klassifikatorlari sifatida BMTning xalqaro savdo klassifikatordan, Bryussel Bojxona Nomenklaturasi nomlagan klassifikatoridan keng foydalaniladi.

Bu klassifikatolar mahsulotlarni tariflash,va shartli belgilashning uyg’unlashtirilgan tizimi bo’lib, unda olti xonali shartli raqamli belgiga ega bo’lgan mahsulot haqidagi asosiy ma’lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasidagi oqimi ko’rsatilgan.

Bojxona tariflari asosan milliy darajada qo'llaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi.

1) Fiskal - davlat byudjeti daromadlarini to’ldirish manbayi bo’lib xizmat qiladi:

2) proteksionistik — milliy ishlab chiqaruvchilani chet el raqobatidan himoya qiladi;

3) tartiblovchi, ya’ni ichki mahsulotlar bozorlari (tarkibini muvofiqlashtirish maqsadida mahsulotni chetga chiqishini cheklaydi va mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoq mahsulotlari eksportini rag’batlantiriladi.

Ko‘pgina davlatlar proteksionizm siyosatini iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida o‘z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida qo’llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar “sinishi” jamiyatda ishsizlik xavfi tug’iladi.

Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari tashqi iqtisodiv faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy, egiluvchan usullari sifatida turli soliqlar kcng qo’llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo‘llaniladi eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga ega. Bu eksportni rag‘batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko‘p bo‘lganda o’z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichidasotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar o’zining mazmuniga ko‘ra iqtisodiy, ma’muriy, me’yoriy-huquqiy ko’nnishga ega bo’lishi mumkin.

Litseniziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma’lum tadbidir.Tashqi iqtisodiy operatstyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hamda importi, moliya operatsiyalario’tkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litscnziyalar faqat davlat ro’yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi,boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan. Litsenziyalash ma’lum vaqt davomida umumdavlat maqsadlariga mo’ljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar bo’yicha eksportni (importni) chegaralash va nosog’lom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qo’llaniladi

Litsenziyalar - bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga bo’linadi Bosh litsenziyalar markaziy hukumat tomonidan heriladi va o’zida ma’lum mamlakatlarga strategic bo’lmagan, litsenziya hujjatlarini haqiqatda rasmiylashtishni talab qilinadigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi. Bir martalik litsenziyalar litsenziya berish huquqiga ega bo’lgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import bo’yicha bari-bir alohida bitimiga ruxsat ko’rinishida beriladi.

Moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valyuta oqimi harakatini tartibga solihs imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga o’xshash tug’ilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyalari, ularga horijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorijga o‘z ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

## 18.4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallari, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nazarda tutiladi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida eksportning asosiy qismini xomashyo tashkil etgan bo’lsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tayyor mahsulotlarni eksport qilish jadallik bilan ko’payib bormoqda.

O’zbekistonda davlatning tashqi iqtisodiy sohadagi sivosatini shakllantirishda rejali iqtisodiyotdan meros bo’lib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari ham hisobga olingan. Unga ko‘ra, an’anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayirboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligini, importning eksportdan ustunligi, eksport va import strukturasining samarasizligi: chet elga asosan xomashyo chiqarilib, chetdan iste’mol tovarlari keltirilganligi kabi salbiy jihatlarini sanash mumkin.

Bunday holat respublika iqtisodiyotidagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtiradi.

Shuning uchun ham O’bekistonning jahon hamjamiyatiga qo’shilishi respublikaning mavjud imkoniyatlarini obyektiv baholash va ulardan milliy manfaatlar yo’lida imkoni boricha to’liq fovdalashni talab qiladi.

Mustaqillik yillarida O’zbckistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi, unga ko’ra, islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita ma’muriy usullardan keng foydalanilgan bo’lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan 4-vosita iqtisodiy usullari joriy etilib, ekportga yo’naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma –bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo’yicha konvertatsiyalashuviga erishildi.(18.4.1 jadval)

**O’zbekislon Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari**

| | |
|---|---|
| Birinchi bosqich 1991-1994-yy | Import o‘rnini qoplash siyosatining yuritilishi Tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullar yetakchilik qildi. |
| Ikkinchi bosqich 1995-1997-yy | Tashqi savdoni tirtibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklari joriy qilindi Bu davr miqdoriy cheklovlarining qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo’llash davri hisoblanadi. |
| Uchinchi bosqich 1997-1999-yy | Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishini chuqur lashtirish, tarif va notarif usullarini soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo’naltirilgan siyosatning olib borilishi bilan izohlanadi |
| To‘rtinchi bosqich 2000-2003-yy | Tashqi savdoni va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002-yilning 1-iyulidan boshlab import tarifining uch pog’anali stavkalari (0; 10; 30) joriy etildi. |
| Beshinchi bosqich 2003-yildan hozirga qadar | O‘zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy va valyutaning joriy operatsiyalar bo’yicha konvertatsiyalashuviga erishldi. Bu, o’z navbatida, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag’baylantirish bo’ldi |

Respublikamizda ham ekxport salohiyatini o’stirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o’zi ishlab chiqargan tovar (ish,xizmat)larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko’zda tutilgan jumladan:

- qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha:tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi. ya'ni eksporl taoliyali lo’liqligicha qo'shilgan qiymal solig'idan ozod ctilgan.

- aksiz solig’i bo’yicha:tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga aksiz solig’i solinmaydi (O'zbckislon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim tovarlardan tashqari).

Daromad (fovda) solig’i bo’yicha:eksportchi korxonalar uchun rcalizatsiyaning umumiy hajmida o’zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga eksport qilish ulushiga bog’liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi.

**Asosiy tushuncha va atamalar**

Tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish, tashqi savdo siyosati, capital migratsiyasi siyosati, ishchi kuchi migratsiyasi siyosati, valyuta siyosati, eksport, import, tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy usullari, bojxona tariflari eksport va import kvotasi, litscnziyalash va standartlashtirish.

**Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyatini yoriting.
2. Davlat tashqi iqtisodiy sivosati shakllanishini tavsiflab bering.
3. Tashqi migratsiya siyosati mohiyatini izohlab bering.
4. Tashqi valyuta siyosati va uning yo‘nalishlari mohiyatini yoriting.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarini ayting.
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
7. Bojxona tarifining vazifalarini tushuntirib bering?
8. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma’muriy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Eksport qiluvchi korxonalarni subsidiyalashi va ularga belgilangan imtiyozlarning milliy iqiisodiyotga ta’siri qanday?
10. O'zbekistonda tashqi savdoni erkinlashtirishning bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

# AMALIY MASHG'ULOTLAR

## 1-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari iqtisodiy siyosatning maqsadlari.

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo`lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo`lgan ijtimoiy- iqtisodiy funktsiyalari va vazifalari.Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub`ektlarining hokimiyat organlari bilan o`zaro munosabatlari.Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. Iqtisodiy siyosat texnologiyalari. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari va vositalari.Iqtisodiy siyosat maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning samarali tizimini yaratish. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Davlat iqtisodiy strategiyasi turlarining klassifikatsiyasi.

## 2-mavzu. Iqtisodiyotni davlat tomonidantartibga solishning nazariy asoslari.

Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o`rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari kontseptsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o`rni haqida. Davlatning iqtisodiy rolihaqidagi qarashlar borasida Keyns inqilobi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo`yicha Keyns kontseptsiyasining asosiy mazmuni. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda davlatning roli haqida zamonaviy nazariya. Zamonaviy nazariyada ikki muqobil maktablarning aralashishi: yangi konservator va yangi keynschilik. Monetar nazariya va siyosatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va xususiyatlari.

## 3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi va strategiyasi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma`muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida institutsional (ma`muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institutsional(ma`muriy) islohotlarning asosiy yo`nalishlari. Institutsional (ma`muriy) islohotlar va iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o`zgartirilishi jarayonlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimining yaratilishi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga

qaratilgan yangi strategiyasi va siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi faoliyatining ijobiy natijalarini urgnish.

**4-mavzu. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.**

Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o`rni va ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan taribga solishdagi o`rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o`zaro aloqadorligi hamda ta`siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o`rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikningrivojlanishini ra`gbatlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari.Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o`ziga hos hususiyatlari.Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati.Davlat haridi va uning ichki bozorni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi.Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo`llari.

**5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o`rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o`rta muddatli prognozlar.Ilmiy prognozlashtirishning printsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash varejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funktsiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish printsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish,rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturning ustuvor yo`nalishlari.Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlari. “Harakatlar strategiyasi” davlat dasturining maqsad va yo`nalishlari.

**6-mavzu Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.**

Raqobatning kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O`zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo`llab quvvatlash va ra`gbatlantirish maqsadlari hamda yo`nalishlari O`zbekiston Respulikasining “Raqobat

to``grisida”gi qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. Raqobatni yanada rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish yo`llari.

### 7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx va inflyatsiyaga qarshi siyosatlari.

Narx va qiymatning zamonaviy nazariyasi - mehnatning qiymati va qiymatni qayta taqsimlash nazariyasining sintezi sifatida. Mehnatning qiymati nazariyasi va qayta taqsimlangan qiymat nazariyalarining zamonaviy nazariyadan farqi. Sobiq Sovet ittifoqi va uning respublikalaridagi markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari vavositalari. yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, MDH mamlakatlari va AQSh da qishloq xo`jaligi mahsulotlarini narxini boshqarish xususiyatlari. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatining maqsadi, usullari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida inflyatsion jarayonlarning xususiyatlari va uni oldini olish choralari.

### 8-mavzu Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.

Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YaIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko`rsatuvchi ko`rsatkich sifatida. Davlatning byudjet siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko`rsatkichi sifatida. O`zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o`sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini ra`gbatlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko`rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni ra`gbatlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba`zi ishlab chiqarish ko`rinishlarini soliqlardan ozod qilish. O`zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning ra`gbatlantiruvchilik rolini kuchaytirish yo`llari.

### 9-mavzu Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.

Pul va pul muomalasi, pulga bo`lgan talab va pul taklifi. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Davlatning monetarsiyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli. O`zbekistonning

kredit tizimi. O`zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlardaiqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy – inqirozining yuz berish sabablari. O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda banktizimining roli. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozihamon davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo`llari. Pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomilashtirish yo`nalishlari.

**10-mavzu Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.**

Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy (sotsial) siyosat tushunchalarining mazmuni. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi. “Sotsial davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O`zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash yo`llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o`stirish. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tiziminingshakllanishiva rivojlanishi. Davlatning ta`lim, so`gliqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo`nalishlari.

**11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash vazifalari.**

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta`minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo`lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko`rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari. O`zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo`nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bo`gliq iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash yo`llari. Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning uzviy bo`gliqligi.

**12-mavzu Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash va inqirozga qarshi siyosati.**

Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo`lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati. Iqtisodiy tsikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari.Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, inqirozga qarshi choralar dasturining

bajarilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlanishi. Hozirgi davrda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hamon davom etishi sabablari va uning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta`sir etishitendentsiyalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta`sirini yumshatishga imkon bergan omillar. O`zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining maqsadi, yo`nalishlari va amalga oshirilishi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etishi sharoitida O`zbekiston iqtisodiyotini barqarorva mutanosib rivojlantirish istiqbolyo`nalishlari. .

.

**13-mavzu. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati.**

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi siljish va o`zgarishlar,ularni belgilab beruvchi omillar. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Tarkibiy siyosatning maqsadi, printsiplari va yo`nalishlari. O`zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o`zgartirishning zarurligi. O`zbekistonda davlatning tarkibiy siyosatining o`ziga xos xususiyatlari. Chuqur tarkibiy o`zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo`nalishlari.

Investitsiyalar va investitsion faoliyat. Investitsiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o`rni. Investitsiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O`zbekistonda davlat investitsion siyosatining maqsadlari va asosiy yo`nalishlari. To``gridan-to``gri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni ra`gbatlantirish. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jam`garmalarini va korxonalarning o`z mabla`glarini investitsiya jarayonlariga jalb etishni ra`gbatlantirish yo`llari.

**14-mavzu Agrar sohani davlat tomonidantartibga solish va qo’llab-quvvatlash.**

Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi. Qishloq xo`jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o`zgartirish zarurati. Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi. Fermerlikni rivojlantirishda davlatning roli. Qishloq xo`jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari. O`zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o`ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo`jalik yuritish shakllari. O`zbekistonda fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvatlash yo`nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo`nalishlari

**15-mavzu. O’zbekistonda kichik biznes va xususiy taadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.**

Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o`rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Biznes va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo`nalishlari. Davlatning xususiy tarmoq va

tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tu`gdirib berilishi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub`ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi printsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferentsiyalar. O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. O`zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari. Xususiy mulk va sektorning ustuvorligini amalda ta`minlash, uni qo`llab-quvvatlash va dahlsizligini kafolatlashning istiqbol yo`nalishlari.

**16-mavzu Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.**

Mintaqaviy iqtisodiyot. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, printsiplari va maqsadlari. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo`llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo`nalishlari.

**17-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.**

Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof-muhit monitoringi. Ekologik me`yorlashtirish. Ekologik standartlar. Davlatning ekologik ekspertizasi. Ekologik litsenziyalashtirish. Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob`ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik su`gurtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo`yicha davlat organlarining vazifalari. O`zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to``grisida”gi qonuni va uning ahamiyati. Davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo`llari.

**18-mavzu Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo`nalishlari va ularni tartibga solish printsiplari. Ilmiy asosga ega bo`lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va

uning tarkibiy qismlari. Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati. Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi. Boj to`lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Litsenziyalash.O`zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo`llari. O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi. Mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini ta`minlashda davlatning roli va vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo`llari

# MUSTAQIL TA'LIMNI BAHOLASH BO'YICHAUSLUBIY KO'RSATMA

## 1.Kirish

«Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavr bosqichi 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 4-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bakalavr bosqichi 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi uchun «Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fani bo'yicha mustaqil ishlarning umumiy hajmi o'quv rejada 108 soat miqdorida belgilangan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lganvazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

## 2. Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

**Talaba mustaqil ishi** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – «Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes» kafedrasi professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan–semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

«Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o’quv adabiyotlari yordamida mustaqil o’zlashtirish, o’quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rib borish;
- belgilangan mavzular bo’yicha referat tayyorlash;
- O`zbekiston Resublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarini mustaqil o’rganish va konspektlashtirish;
- O’zbekiston Resublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me’yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo’yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko’rish;
- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to’garaklarida ishtirok etish;
- ko’rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza matnlarini tayyorlash;
- “talaba-o’qituvchi-kutubxona” kunida fan bo’yicha yangi o’quv adabiyotlari sharhini o’qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo’yicha nazariy, amaliy va statistik ma’lumotlarni yig’ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo’yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta’lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo’ysundirilganki, butun o’quv jarayoni to’laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o’zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta’lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

**Mavzuni mustaqil o’zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o’quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o’zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko’rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o’quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o’zlashtirish qiyin bo’lsa, savollar paydo bo’lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o’qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o’zlashtirilgan mavzu bo’yicha tayyorlangan matn o’qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O’quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo’lgan iqtisodiyot nazariyasi fani bo’yicha mustaqil ishlar ko’proq referatlar qo’rinishida bo’lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o’quv jarayonlaridan biri sifatida o’qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o’z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig’ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko’nikmalariga ega bo’ladi, o’rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o’rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog’laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

**Referat** - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

**Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

**Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.**

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.**

Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

## 3.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- ✓ talabaning o'qish bosqichi;
- ✓ muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- ✓ talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- ✓ fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- ✓ talabaning axborot manbalaribilan ishlay olish darajasiga;

- ✓ mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o’tish bilan shakl va hajm jihatidan o’zgarib borishiga;
- ✓ mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o’zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

### 4. Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo’lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- zarur ma’lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar hamda me’yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o’quv va ilmiy adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog’idan maqsadli foydalanish;
- ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g’oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

### 5. Talabalar mustaqil ishi bo’yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo’yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo’ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo’llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo’yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o’tkaziladi. «Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» fani bo’yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish yuzasidan hisobot shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan:

| № | Mustaqil ta’lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Soati |
|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo`lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo`lgan ijtimoiy- iqtisodiy funktsiyalari va vazifalari.Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub`ektlarining hokimiyat organlari bilan o`zaro munosabatlari.Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 2 | Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o`rni | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari kontseptsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o`rni haqida. | | |
| 3 | Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma`muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida institutsional( ma`muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institutsional(ma`muriy) islohotlarning asosiy yo`nalishlari. Institutsional(ma`muriy) islohotlar va iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o`zgartirilishi jarayonlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 4 | Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o`rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikningrivojlanishini ra`gbatlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari.Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o`ziga hos hususiyatlari.Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 5 | Dasturlash varejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funktsiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish printsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish,rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 6 | Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O`zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo`llab quvvatlash va ra`gbatlantirish maqsadlari hamda yo`nalishlari O`zbekiston Respulikasining “Raqobat to``grisida”gi qonunining mazmuni va uning monopolistik | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. | | |
| 7 | Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 8 | Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko`rsatkichi sifatida. O`zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o`sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini ra`gbatlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko`rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni ra`gbatlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba`zi ishlab chiqarish ko`rinishlarini soliqlardan ozod qilish. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 9 | O`zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlardaiqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy – inqirozining yuz berish sabablari. O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda banktizimining roli. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 10 | Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi. “Sotsial davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O`zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash yo`llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o`stirish. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 11 | O`zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo`nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bo`gliq iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash yo`llari.Mamlakatning iqtisodiy | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning uzviy bo`gliqligi. | | |
| 12 | Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari.Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlanishi. Hozirgi davrda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hamon davom etishi sabablari va uning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta`sir etishitendentsiyalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 13 | Investitsiyalar va investitsion faoliyat. Investitsiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o`rni. Investitsiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O`zbekistonda davlat investitsion siyosatining maqsadlari va asosiy yo`nalishlari. To``gridan-to``gri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni ra`gbatlantirish.Investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jam`garmalarini va korxonalarning o`z mabla`glarini investitsiya jarayonlariga jalb etishni ra`gbatlantirish yo`llari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 14 | Qishloq xo`jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari. O`zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o`ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo`jalik yuritish shakllari. O`zbekistonda fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvatlash yo`nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo`nalishlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 15 | Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tu`gdirib berilishi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub`ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi printsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferentsiyalar.O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | organlarining vazifalari. | | |
| 16 | Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo`llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo`nalishlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 17 | Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob`ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik su`gurtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo`yicha davlat organlarining vazifalari.O`zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 18 | Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati.Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi.Boj to`lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Litsenziyalash.O`zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari.Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo`llari. O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| | | | 108 |

## MUSTAQIL TA`LIM MAVZULARI

1. Markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o`tishda iqtisodiyotni tartibga solishdagi davlat rolining o`zgarishi.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shakllari va uslublari tizimida soliq imtiyozlari.
3. Jami talab va jami taklifni tartibga solishning yangi klassik va keynscha nazariyalari.
4. Jami talab va jami taklifni tartibga solish va undagi davlatning roli bo`yicha monetar nazariyasi.
5. Funktsional iqtisodiy tizimlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.
6. Iqtisodiyotni dasturlashtirish bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning yuqori shakli sifatida.
7. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda davlatning roli.
8. Davlat byudjeti va YaIM - taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish ko`rsatkichi sifatida.
9. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning shakllari va usullari.
10. Kam ta`minlangan aholi qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash.
11. O`zbekiston Respublikasining qishloq xo`jaligida narx belgilashning davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari.

12. Davlatning byudjetdan tashqari fondlari iqtisodiy jarayonlarning tartibga solishning shakli sifatida.
13. Davlatning normal takror ishlab chiqarishg jarayonlarini ta`minlash uchun tashqi sharoitlarini yaratish.
14. Hozirgi zamon davlatlarning asosiy ijtimoiy funktsiyalari.
15. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida iqtisodiyotni tartibga solinishning o`ziga xos yo`li.
16. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida inflyatsion jarayonlarning xususiyatlari.
17. O`zbekistonda davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatining xususiyatlari.
18. Raqobatchilik muhitini shakllantirishda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning o`rni.
19. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga ta`sirini kamatirish va iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash choralari.
20. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida pul-kredit vositalaridan samaradorli foydalanish.
21. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo`nalishlari.
22. O`zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solish va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish.
23. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksport qiluvchi korxonalarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy inqirozga qarshi choralar dasturi.
24.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining rivojlanayotgan mamlakatlarga ta`siri.
25. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga ta`siri.
26.Markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi.
27. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni.
28. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
29. Narxni davlat boshqaruvining asosiy usullari va maqsadi.
30. Rivojlangan mamlakatlarda narxni boshqarish xususiyatlari.
31.Qishloqda bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.
32.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta`sirida qishloq aholisining mustaqil ish bilan bandligini ta`minlash yo`llari.
33.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash
34. Davlatning narxni tartibga solish orqali inflyatsiyaga qarshi siyosati.
35.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ichki talabni rag``batlantirish.
36.Ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida mahsulot tannarxini pasaytirish.
37.Aholining to`lov qobiliyati bilan iste`mol tovarlari hajmi o`rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta`minlash.
38.O`zbekiston iqtisodiyotini barqaror o`sishini ta`minlovchi omillar.
39. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida inflyatsion jarayonlarning xususiyatlari.
40.Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida.
41.Davlat byudjeti va YaIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko`rsatkichi sifatida.
42.Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi
43.Aholining ijtimoiy qatlami o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi
44.Mamlakat hududlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi
45.Iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi.
46.Mamlakat tashqi qarzi va tashqi to`lovlarini boshqarish masalalari.
47.Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish ko`rinishlarini rag``batlantirish vositasi sifatida.
48.O`zbekistonda soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish xususiyatlari
49.Iqtisodiy o`sishni ta`minlashda soliq tizimi.
50.Soliq tizimi- Inqirozga qarshi dasturni amalga oshirishning muhim omili.

51.Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag``batlantirish.
52.O`zbekistonda monetar siyosat vositalaridan foydalanish xususiyatlari
53.Kredit - iqtisodiyotni davlat boshqaruvining shakli sifatida.
54.Iqtisodiyotning real sektorini qo`llab-quvvatlashda tijorat banklari kreditlarining o`rni.
55.Kichik tadbirkorlik sub`ektlarini moliyaviy mablag``lar bilan ta`minlashda kredit institutlarining roli
56.Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli.
57.Ijtimoiy sohani mablag`` bilan ta`minlash manbalari.
58.Ijtimoiy sohaning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tezligiga to`g``ridan-to`g``ri bog``liqligi.
59.Jamiyat ijtimoiy sohasini davlat boshqaruvining ob`ektiv zaruriyati.
60.O`zbekiston aholisi daromadi va turmush farovonligini yuksaltirish yo`llari.
62.Bozor mexanizmida ijtimoiy sohaning ahvoli.
63.Aholini ijtimoiy himoyalashning ahamiyati.
64.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ishchi kuchi migratsiyasiga ta`siri.
65.Mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo`nalishlari.
66.Yoshlarning ish bilan bandligini ta`minlashda bandlik xizmati markazining o`rni va uning faoliyatini takomillashtirish.
67.Ijtimoiy soha rivojlanishida byudjetdan tashqari fondlarlarning roli.
68.Davlatning ijtimoiy-madaniy maqsadlarga qilgan harajatlari, inson kapitalining rivojlanishi.

# GLOSSARIY

***Aholini ijtimoiy muhofaza qilish*** – davlat tomonidan aholining yetarli darajadagi hayotiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimi.

***Aholining real daromadlari*** **–** narx darajasi o`zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo`lgan daromadga sotib olish mumkin bo`lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya`ni, aholining ixtiyorida bo`lgan daromadning xarid quvvati.

***Bozor kon`yunkturasi*** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo`lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o`zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

***Byudjet defitsiti*** – byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

***Davlat byudjeti*** **–** davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

***Daromad solig`i*** – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to`lov (soliq).

***Daromad solig`i stavkalari*** – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

***Ijtimoiy soha*** **–** aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste`mol darajasiga bevosita bog`liq bo`lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmui. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko`rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmat ko`rsatish, yo`lovchi transporti, aloqa va boshqalar) kiradi.

***Ijtimoiy soha obektlari*** – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta`minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog`liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

***Ijtimoiy dasturlar*** **–** aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta`minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o`z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

***Soliqlar*** – davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalganliklari uchun majburiy to`lovlar.

***Unifikatsiya*** – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo`llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta`minlash.

***Soliqlarni unifikatsiya qilish*** **–** soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob`ekti o`xshash bo`lgan soliq turlarini birxillashtirish.

***Soliq imtiyozi*** **–** soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to`lashdan to`liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

***Preferentsiya*** **–** iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

***Soliq krediti*** **–** byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan soliq summasini ma`lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo`lib-bo`lib to`lash yoki soliqni qaytarish shakli.

***Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi*** **–** soliq solishning ayrim toifadagi soliq to`lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to`lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo`llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

***Soliq stavkasi*** **–** soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to`g`ri keladigan soliq me`yorini ifodalaydi.

***Soliq yuki*** **–** mablag`larni boshqa foydalanish mumkin bo`lgan yo`nalishlardan olib, soliqlarni to`lash uchun yo`naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo`lib, odatda soliq to`lovchining muayyan davrda byudjetga to`langan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog`i orqali ifodalanadi.

***Soliq yukini yengillashtirish*** – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

***Iqtisodiyotning real sektori*** – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne`matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq sohasi bo`lib, u o`z ichiga sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko`rsatish tarmoqlarini oladi.

***Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash*** – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma`naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o`z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo`nalish va vositalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

***Inqirozga qarshi mo`ljallangan choralar dasturi*** – O`zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo`ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo`lib, mazkur dasturda talab va taklifni rag`batlantirishga yo`naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o`sish sur`atlarini ta`minlovchi chora-tabdirlar majmui o`z aksini topgan.

***Bank-moliya tizimining barqarorligi*** – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o`z majburiyatlari yuzasidan talablarga to`la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko`rsatkichlari orqali aniqlanadi.

***Bank aktivlari*** **–** banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog`ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko`rinishida bo`ladi.

***Bank tizimining likvidligi*** – bankning o`z majburiyatlarini vaqtida va so`zsiz bajara olish imkoniyati.

***Banklar likvidligi*** – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o`sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag`lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

***Banklarning kredit portfeli*** – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo`lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma`lum sanaga ssuda hisobvaraqalarida qolgan pul mablag`lari majmuasi (qoldig`i).

***Investitsion kreditlar*** **–** ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo`lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

***Kooperatsiya aloqalari*** – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma`lum mahsulotni tayyorlash bo`yicha uzoq muddatli aloqalarni o`rnatish.

***Kreditor qarzdorlik*** **–** korxona, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to`lanishi lozim bo`lgan pul mablag`lari bo`lib, ular me`yordagi (muddati o`tmagan) hamda muddati o`tgan qarzdorliklarga bo`linishi mumkin.

***Mahsulot tannarxi*** – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog`liq barcha xarajatlar.

***Rentabellik*** – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko`rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko`rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko`rsatkichini korxona aktivlarining o`rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aktsiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

***Iqtisodiy nochor korxona*** – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to`lash bo`yicha talablarini qondirish, shuningdek, byudjet va nobyudjet fondlariga majburiy to`lovlarni ta`minlashga layoqatsiz bo`lgan korxona.

***Korxonaning bankrotligi*** – korxona moliyaviy-xo`jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o`z qarz majburiyatlari bajara olmasligi. Korxona xo`jalik sudining qaroriga ko`ra rasmiy holda bankrot deb e`lon qilinadi.

***Moliyaviy sog`lomlashtirish*** – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo`llash orqali uning moliyaviy holatini sog`lomlashtirish.

***Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish*** – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo`llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o`tkazish jarayoni.

***Import o`rnini bosish samarasi*** – mahalliylashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko`rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymati.

***Mamlakatning eksport salohiyati*** – muayyan mamlakatning o`zida mavjud bo`lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

***Tashqi savdo aylanmasi*** – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko`rinishidagi ifodasi bo`lib, muayyan vaqt oralig`idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig`indisiga teng bo`ladi.

***Tashqi savdo aylanmasi sal dosi*** – mamlakat eksporti va importi hajmlari o`rtasidagi farq, tafovut.

***Mamlakat to`lov balansi*** – mamlakat rezidentlari (uy xo`jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o`rtasida ma`lum vaqt (odatda bir yil) oralig`ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo`yicha to`lovlar summasining nisbati bo`lib, u o`z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o`tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

***Kichik biznes sub`ektlari*** – korxona ko`lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag`lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub`ektlar. Respublikamizda kichik biznes sub`ektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

***Yakka tartibdagi tadbirkorlik*** – alohida fuqarolar tomonidan o`zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo`jalik faoliyati.

***Mikrofirma*** – kichik biznes sub`ektlarining bir turi bo`lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko`ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

***Kichik korxona*** – kichik biznes sub`ektlarining bir turi bo`lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko`ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg`i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

***Yagona soliq to`lovi*** – kichik biznes sub`ektlarini qo`llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig`imlar o`rniga soddalashtirilgan tartibda to`lanuvchi yagona soliq turi.

***Ijtimoiy-amaliy markaz*** – ish bilan band bo`lmagan aholi va ishsizlar o`rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o`rinlarini yaratish bilan shug`ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

***Texnopark*** – o`z hududida kichik innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilma.

***Konsalting*** – ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko`rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o`z mijozlariga maslahat xizmati ko`rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog`liq iqtisodiy faoliyat.

***Sug`urta kompaniyasi*** – sug`urtalovchi rolida maydonga tushuvchi, ya`ni sug`urta hodisasi ro`y bergan chog`da sug`urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o`ziga oluvchi tashkilot.

***Investitsiyalar*** – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko`paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko`rinishi. U pul mablag`lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog`ozlar ko`rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag`lari ko`rinishidagi investitsiya ***nominal investitsiya***, ana shu pul mablag`lariga sotib olish mumkin bo`lgan investitsion resurslar ***real investitsiya*** deyiladi.

***Investitsiya dasturi -*** respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo`li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o`zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo`naltirilgan bir-biri bilan o`zaro bog`langan chora-tadbirlar kompleksi.

***Investitsiya muhiti*** – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

***Infratuzilma*** – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo`lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi. So`zma-so`z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir. «Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» - quyi, osti; «structura» - tuzilma, joylashuv so`zlaridan paydo bo`lgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma muhim o`rin tutadi.

***Ishlab chiqarish infratuzilmasi*** – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta`minlovchi tarmoqlar majmui bo`lib, o`z ichiga temir va avtomobil yo`llari, elektr, gaz va suv ta`minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo`jaligi va boshqalarni oladi.

***Erkin industrial-iqtisodiy zona –*** mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug`ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to`lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo`ladi.

***Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi*** – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni jalb etish bo`yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to`g`risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining asosiy yo`nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko`lamda ishlab chiqarishdan iborat.

***Intermodal markaz*** – yuk tashishlar bo`yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

***Logistika*** – inson-mashina tizimida moddiy, mehnat, energiya va axborot resurslari oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimi.

***Transport logistikasi*** – muayyan moddiy buyumlar, yuklar va boshqalarni bir joydan boshqa bir joyga optimal yo`nalish bo`yicha yetkazib berish, tashishni tashkil etish tizimi.

***Axborot infratuzilmasi*** – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o`zaro faoliyatini ta`minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmui.

***Ijtimoiy infratuzilma –*** aholining turmush faoliyatini, uning farovonligi ta`minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va ob`ektlar majmui. Masalan, ta`lim muassasalari, dam olish va davolanish maskanlari, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko`rsatish shoxobchalari, tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta`minoti, yo`lovchi transporti va boshqalar.

***«Agrobank» aktsiyadorlik tijorat banki*** – iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik xarakatini qo`llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustaxkamlash, qishloq xo`jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo`jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo`yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to`ldirishga yo`naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko`rsatish maqsadida 2009 yil 30 martda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrobank» aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to`g`risida»gi qarori asosida «Paxtabank» aktsiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.

***«Qishloq qurilish bank» aktsiyadorlik tijorat banki*** – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga muvofiq 2009 yil 30 martda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq qurilish bank» Aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to`g`risida»gi qaroriga muvofiq «G‘alla-bank» aktsiyadorlik tijorat binki negizida «Qishloq qurilish bank» Aktsiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. «Qishloq qurilish bank» Aktsiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so`m miqdorida shakillantirilgan.

***Fermer xo`jaligi*** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi, mustaqil xo`jalik yurituvchi sub`ekt.

***Melioratsiya*** – yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo`jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi.

***Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*** – O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida»gi Qonuni 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni qoidalariga muvofiq holda, milliy tajribaning tahlili va ta`lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo`lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo`ljalni to`g`ri ola bilish mahoratiga ega bo`lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo`naltirilgan.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro`yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta`lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o`zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o`z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

***Kasanachilik*** – yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish.

***Kooperatsiya aloqalari*** – turli soxa ishlab chiqarish tarmoqlarida ma`lum maxsulotni tayyorlash bo`yicha uzoq muddatli aloqalarni o`rnatish.

***Bandlik*** – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg`ul bo`lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

***Makroiqtisodiy ko`rsatkichlar*** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o`lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko`rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o`sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

***Yalpi ichki mahsulot*** – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

***Profitsit*** – davlat byudjeti daromadlarning xarajatlardan ko`proq bo`lishi.

***Pul - kredit siyosati*** – davlat tomonidan iqtisodiy o`sishni ta`minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta`minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

***Samarali iqtisodiy siyosat*** – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o`zaro uyg`unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

***Xalqaro moliya tashkilotlari*** – davlatlar o`rtasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko`maklashish, kredit ko`rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro hisoblashuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo taraqqiyot banki, yevropa investitsiya banki, mintaqaviy xalqaro rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

***Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar*** – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

***Jahon banki*** – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg`armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o`zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

***Xalqaro valyuta jamg`armasi*** – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta`sir ko`rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg`aramasi – a`zo davlatlar o`rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to`lov balansining kamomadi bilan bog`liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo`li bilan moliyaviy yordam ko`rsatish uchun mo`ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o`z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

***Osiyo taraqqiyot banki*** – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko`maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o`sishini rag`batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

***Global moliyaviy-iqtisodiy bozor*** – jahon mamlakatlari o`rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo`jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

***Jahon bozori kon`yunkturasi* - j**ahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o`zgarish tendentsiyalari.

***Tashqi qarz*** – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag`larining jami hajmi.

***«Katta yigirmalik»*** – jahondagi 20 ta eng boy va rivojlanayotgan yirik davlatlarni o`z ichiga oluvchi mamlakatlar guruhi bo`lib, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadi.

***Protektsionizm*** – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

***Iqtisodiy islohotlar*** – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sifat jihatidan takomillashtirish, uning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta`minlash imkonini beruvchi, maqsadga muvofiq holda va izchil ravishda amalga oshiriluvchi tub o`zgarishlar, chora-tadbirlar majmui.

***Iqtisodiy rivojlanish sur`atlari*** – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko`payishi va sifat jihatidan takomillashuvi darajasi.

***Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi*** – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

***Makroiqtisodiy muvozanat*** – iqtisodiyot turli tomonlarining o`zaro tengligi bo`lib, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo`ladi.

***Industriyalashtirish*** – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o`tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko`paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

***Sekulyarlashtirish*** – davlat va jamiyat boshqaruvini din ta`siridan holi qilish jarayoni.

***Urbanizatsiya*** – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining tabiiy o`sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylaridan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro`y beradi.

***Erkinlashtirish*** – xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta`minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo`nalishlaridan biri.

***Eksport*** – tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni tashqi bozorda sotish uchun mamlakat tashqarisiga olib chiqilishi.

***Qo`shilgan qiymat*** – korxona yalpi mahsulotining bozor narxidan joriy moddiy xarajatlar (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) chiqarib tashlangandan qolgan qismi bo`lib, u o`z ichiga mehnat haqi, foyda, ayrim soliq va to`lovlarni oladi.

***Tejamkorlik*** – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejamli foydalanish bo`yicha iqtisodiy munosabat bo`lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta`minlashning asosiy omili hisoblanadi.

***Inflyatsiya*** – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o`sishi.

***Inflyatsiya darajasi*** **–** ma`lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o`zgarishi.

***Emissiya*** – muomalaga pul yoki qimatli qog`ozlarni chiqarish.

***Pul emissiyasi*** – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

***Bank likvidliligi*** **–** banklar majburiyatlarini o`z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

***Pul massasi*** **–** har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta`minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladian naqd va naqd pulsiz xarid hamda to`lov vositalari majmuidir.

***Korporativ obligatsiyalar*** **–** korporativ tashkiliy tuzilmalar (yuridik shaxslar) tomonidan o`zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan qarz instrumentlari.

***Valyuta bozori*** **–** xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to`lov hujjatlari bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog`liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasi.

***Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi*** – mamlakatning o`rta va uzoq muddatga iqtisodiy o`sishning yuqori sur`atlarini ta`minlab turish qobiliyati.

***Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi*** – iqtisodiyotning to`lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o`sish va turmush sifatini oshirishni ta`minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

***Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi*** **–** iqtisodiyotning turli qism va bo`laklari o`rtasidagi proportsiyalar va o`zaro nisbatlar.

***Tarkibiy o`zgarishlar siyosati*** – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

***Kooperatsiya aloqalari*** – mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

***Mahalliylashtirish*** **–** import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish orqali unga bo`lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo`lga qo`yish.

***Iste`mol bozoridagi mutanosiblik*** – iste`mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to`lovga qodir talabining o`zaro mosligi.

***Tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi*** – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

***Eksportning geografik tarkibi*** – alohida qit`a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

***Investitsiyalar*** – daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob`ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda ularga doir huquqlar.

Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va

ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O`zbekiston Respublikasi hududida ***chet el investitsiyalari*** deb e`tirof etiladi.

***Infratuzilma*** – iqtisodiy tizim umumiy tuzilishining yordamchi tavsifga ega bo`lgan hamda ushbu tizim umumiy faoliyatining bir maromda borishini ta`minlovchi tarkibiy qismi.

***To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar*** **-** o`zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag` kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatilishi ustidan nazorat o`rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko`ra aktsiyalarni kamida 10 foiziga egalik qilish.

***Korxonalarni texnik qayta qurollantirish*** **-** alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo`li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo`naltirilgan bo`ladi.

***Aholi pul daromadlari*** – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog`ozlar, ko`chmas mulk, qishloq xo`jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko`rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

***Natural daromad*** – mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo`jaliklarining o`z iste`mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

***Nominal daromad*** **–** aholi tomonidan ma`lum vaqt oralig`ida olingan daromadlarining pul ko`rinishidagi miqdori.

***Real daromad*** **–** narx darajasi o`zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo`lgan daromadga sotib olish mumkin bo`lgan tovar va xizmatlar miqdori bo`lib, real daromad aholining ixtiyorida bo`lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

***Turmush sifati*** – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko`ra uning o`lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

***Global moliyaviy-iqtisodiy bozor*** **–** jahon mamlakatlari o`rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo`jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

***Diversifikatsiya*** – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko`paytirish.

***Diversifikatsiya strategiyasi*** **–** korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendentsiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo`lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo`shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

***Dividend*** – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aktsiya egalariga to`lanadigan qismi bo`lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aktsiyalar bilan to`lanadi.

***Jahon banki*** – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg`armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o`zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

***Jahon bozori kon`yunkturasi*** **-** jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o`zgarish tendentsiyalari.

***Joriy kon`yunktura*** **–** muayyan davrda tovarlarga bo`lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon`yunktura ayni

davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

***Ijtimoiy soha obektlari*** – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta`minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog`liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

***Ijtimoiy hamkorlik*** – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo`lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo`lidagi hamjihatligi.

***Iqtisodiy o`sish*** – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to`g`ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o`sishi.

***Import*** – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko`maklashadi.

***Investitsion soliq krediti*** – soliq majburiyati bo`yicha to`lash muddatini o`zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to`lovchida belgilangan tartibdagi asos bo`lsa, u holda soliq to`lovlarini kamaytirilgan holda ma`lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to`lash mumkin bo`ladi.

***Inson omili*** – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo`nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jixatni o`z ichiga oladi. Birinchi jihat O`zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta`lim va sog`liqni saqlash, nafaqa bilan ta`minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e`tiborini o`zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o`z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa`y-harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

***Institutsional siyosat*** **-** davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo`qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo`yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

***Intermodal markaz*** – yuk tashishlar bo`yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

***Inflyatsiya darajasi*** – ma`lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste`mol savati bo`yicha narxlar darajasining foizdagi o`zgarishi.

***Iste`mol*** – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

***Iste`mol krediti*** – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo`llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste`mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

***Ish bilan band bo`lgan jami aholi*** – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lgan qismi.

***Ishsizlik*** – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o`z kuchini qo`llay olmay «ortiqcha» bo`lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo`lib qolish hodisasi.

***Kapital xarajatlar*** - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag`lar va zaxiralarning o`sishi.

***Kichik biznes sub`ektlari*** – korxona ko`lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag`lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub`ektlar. Respublikamizda kichik biznes sub`ektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

***Kichik korxona*** – kichik biznes sub`ektlarining bir turi bo`lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko`ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg`i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

***Konstitutsion burch*** – O`zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo`yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo`lgan majburiyatlardir.

***Konstitutsion hukumat*** – demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat–konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta`minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tatbiq etilishini ham o`zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta`minlaydi.

***Qonun*** – oliy yuridik kuchga ega bo`lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to`g`ridan-to`g`ri, referendum o`tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o`zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub`ektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan me`yoriy–huquqiy hujjat.

***Qonun ustuvorligi*** – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat`iy hukmron bo`ladi. Ya`ni hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo`ysunmasligi mumkin emas, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tatbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

***Qonunchilik*** – 1) davlat tomonidan o`z funktsiyalarini amalga oshirish-ning asosiy usullaridan biri bo`lib, davlat hukumati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi; 2) ijtimoiy munosabatlarni to`la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig`indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir ko`rinishi.

***Qonunchilik palatasi*** – O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasi. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo`yicha ko`ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellikta deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko`rsatishiga asoslanadi.

***Kredit*** – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo`sh mablag`larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

***Kutilayotgan inflyatsiya darajasi*** – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma`lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo`lg`usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

***Kuchli davlat*** – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma`naviyatga ega bo`lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma`naviy asosga ega bo`ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do`stlik va bag`rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

***Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari*** – mustahkam iqtisodiy asosga ega bo`lgan, demokratik qadriyatlar qaror topgan, ma`naviy–ma`rifiy yuksaklikka erishgan va boshqaruvning demokratik uslublari shakllangan davlatdan jamoat va nodavlat tashkilotlari hal qiluvchi o`rin tutadigan jamoatchilik fikri, tashabbusi va davlat idoralari ustidan nazorati ustuvor ahamiyat kasb etadigan, fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish idoralarining roli muttasil ortib boradigan jamiyatga o`tish kontseptsiyasi.

***Kuchli jamiyat*** – mustahkam negizning barqarorligi ta`minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

***Makroiqtisodiy ko`rsatkichlar*** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o`lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko`rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o`sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

***Mamlakat to`lov balansi*** – mamlakat rezidentlari (uy xo`jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o`rtasida ma`lum vaqt (odatda bir yil) oralig`ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo`yicha to`lovlar summasining nisbati bo`lib, u o`z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o`tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

***Mehnat bozori*** – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo`lgan va band bo`lmagan qismlari va ish beruvchilar o`rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo`lgan talab va taklif o`rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko`p aspektli, o`suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

***Mehnat haqi*** – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to`lovlar bo`lib, ular hisoblangan summalar yig`indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo`linadi: ish haqi va ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar.

***Mikrokredit*** – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang`ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo`jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermer xo`jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

***Modernizatsiya*** – ob`ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me`yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko`rsatkichlariga moslashtirish.

***Moliya tizimi*** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

***Narx*** – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

***Nodavlat va jamoat tashkilotlari*** – davlatga qarashli bo`lmagan, ammo ma`lum qonunlar yoki me`yoriy hujjatlarga bo`ysungan holda faoliyat ko`rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

***Parlament*** – frantsuzcha «parle» gapirmoq so`zidan kelib chiqqan bo`lib, rasmiy so`zlashish joyi ma`nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

***Pudrat*** – shartnoma yoki xo`jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko`ra belgilangan ishni bajarishi to`g`risidagi shartnoma.

***Pul - kredit siyosati*** – davlat tomonidan iqtisodiy o`sishni ta`minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta`minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

***Pul*** – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

***Sal do* -** muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi sal dosi), xorijiy to`lovlar va tushumlar (to`lov balansi sal dosi) o`rtasidagi farq.

***Sektor*** – institutsion birliklar yig`indisi bo`lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funktsiyalari bir xil bo`ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o`xshashib ketadi.

***Servis*** – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko`rsatish; ishlab chiqarish-texnika maqsadlarida mahsulotlarni, moddiy-maishiy, xo`jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog`liq bo`lgan xizmat ko`rsatish sohalari.

***Soliq imtiyozi*** – soliq to`lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to`lashdan to`liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

***Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi*** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to`lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to`lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo`llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

***Soliq stavkasi*** – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to`g`ri keladigan soliq me`yori.

***Soliq yuki*** – mablag`larni boshqa foydalanish mumkin bo`lgan yo`nalishlardan olib, soliqlarni to`lash uchun yo`naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo`lib, odatda soliq to`lovchining muayyan davrda byudjetga to`langan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog`i orqali ifodalanadi.

***Soliqlar*** – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg`araz xususiyatga ega bo`lgan, byudjetga yo`naltiriladigan majburiy pul to`lovlari tushuniladi.

***Soliqlarni unifikatsiya qilish*** **–** soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob`ekti o`xshash bo`lgan soliq turlarini birxillashtirish.

***Tashqi qarz*** **–** mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag`larining jami hajmi.

***Tashqi nodavlat qarzlar*** **–** mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag`larining jami hajmi.

***Tashqi savdo*** – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

***Tashqi savdo siyosati*** – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko`zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

***Turmush darajasi*** – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda xizmatlar bilan ta`minlanganlik hamda ularni iste`mol qilish darajasi.

***Xalqaro valyuta jamg`armasi*** – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta`sir ko`rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg`aramasi – a`zo davlatlar o`rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to`lov balansining kamomadi bilan bog`liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo`li bilan moliyaviy yordam ko`rsatish uchun mo`ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o`z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

***Xalqaro tashkilotlar*** **–** ularning har biri xalqaro siyosatda o`zlarining faoliyat maqsadlari yo`nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

***Xalqaro tranzit*** **-** xorijiy yuklarni jo`natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo`lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

***Xizmat ko`rsatish sohasi*** **–** ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko`rinishga ega bo`lmagan iste`mol qiymatlarini yaratishga yo`naltirilgan sohalari. U o`z ichiga moddiy xizmatlar ko`rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko`rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o`qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

***Xususiy tadbirkorlik*** – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o`zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo`jalik faoliyatidir.

***Shaxsiy daromad*** – jismoniy shaxslarning soliq to`lagunga qadar daromadi.

# ILOVALAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
________ D.Xolmatov
"___" ________ 2024-yil

# Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish FANINING

# ISHCHI O'QUV DASTURI

***2024/2025 o'quv yili kundizgi ta'lim shakli, 4-kurslari uchun***

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **300000-Ijtimoyi fanlar, jurnalistika va axborot** |
| **Ta'lim sohasi:** | **310000 – Ijtimoyi va xulq va mansub fanlar** |
| **Ta`lim yo`nalishi:** | **60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'iycha)** |

**NAMANGAN – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>MSER6</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>7</td><td>ECTS-Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul’ turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td>Haftadagi dars soatlari<br>6 soat</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish</td><td>72</td><td>108</td><td>180</td></tr>
</table>

**O’quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o`qitishdan maqsad - talabalarda iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmining o`ziga xos xususiyatlari, shakl va usul, vositalari, davlatning iktisodiy siyosati to`g`risidagi tizimli, keng kamrovli nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga quyidagi talablar qo`yiladi. Talaba: -asosiy kategoriyalarini va tadqikot usullari; bozor iktisodiyotining o`zini o`zi tartibga solishi mexanizmining kamchiliklari, salbiy oqibatlarga, ya’ni inqirozlarga olib kelishi mumkinligi, bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi; davlat iqtisodiy siyosati va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, bu boradagi turli nazariy konsepsiyalar, davlat iqtisodiy siyosatining va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va vositalari haqida tasavvurga ega bo`lishi;

-davlatning iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o`zgartirish va uni modernizasiya qilishga qaratilgan tarkibiy-investision siyosatini; davlatning agrar, antimonopol, mintaqaviy, iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash hamda ekologiya sohalaridagi siyosatlarining maqsad va vazifalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

-davlat iqtisodiy siyosatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq, pul-kredit vositalarii qo`llash; ijtimoiy sohani boshqarish, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish usullarini tahlil qilish; davlatning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash indikatorlarini tahlil qilish; O`zbekistonda iqtisodiyotni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida barqaror, mutanosib o`sishni ta’minlashning ustuvor yo`nalishlari bo`yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

### FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI:

### 1-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari iqtisodiy siyosatning maqsadlari.

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo`lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo`lgan ijtimoiy- iqtisodiy funktsiyalari va vazifalari.Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub`ektlarining hokimiyat organlari bilan o`zaro munosabatlari.Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. Iqtisodiy siyosat texnologiyalari. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari va vositalari.Iqtisodiy siyosat maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning samarali tizimini yaratish. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Davlat iqtisodiy strategiyasi turlarining klassifikatsiyasi.

### 2-mavzu. Iqtisodiyotni davlat tomonidantartibga solishning nazariy asoslari.

Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o`rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari kontseptsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o`rni haqida. Davlatning iqtisodiy rolihaqidagi qarashlar borasida Keyns inqilobi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo`yicha Keyns kontseptsiyasining asosiy mazmuni. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda davlatning roli haqida zamonaviy nazariya. Zamonaviy nazariyada ikki muqobil maktablarning aralashishi: yangi konservator va yangi keynschilik. Monetar nazariya va siyosatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va xususiyatlari.

### 3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi va strategiyasi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma`muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida institutsional (ma`muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institutsional(ma`muriy) islohotlarning asosiy yo`nalishlari. Institutsional (ma`muriy) islohotlar va

iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o`zgartirilishi jarayonlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimining yaratilishi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi va siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi faoliyatining ijobiy natijalarini urgnish.

**4-mavzu. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.**

Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o`rni va ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan taribga solishdagi o`rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o`zaro aloqadorligi hamda ta`siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o`rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikningrivojlanishini ra`gbatlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari.Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o`ziga hos hususiyatlari.Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati.Davlat haridi va uning ichki bozorni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi.Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo`llari.

**5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o`rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o`rta muddatli prognozlar.Ilmiy prognozlashtirishning printsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash varejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funktsiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish printsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish,rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturning ustuvor yo`nalishlari.Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlari. “Harakatlar strategiyasi” davlat dasturining maqsad va yo`nalishlari.

**6-mavzu Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.**

Raqobatning kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O`zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo`llab quvvatlash va ra`gbatlantirish maqsadlari hamda yo`nalishlari O`zbekiston Respulikasining “Raqobat

to``grisida”gi qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. Raqobatni yanada rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish yo`llari.

**7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx va inflyatsiyaga qarshi siyosatlari.**

Narx va qiymatning zamonaviy nazariyasi - mehnatning qiymati va qiymatni qayta taqsimlash nazariyasining sintezi sifatida. Mehnatning qiymati nazariyasi va qayta taqsimlangan qiymat nazariyalarining zamonaviy nazariyadan farqi. Sobiq Sovet ittifoqi va uning respublikalaridagi markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari vavositalari. yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, MDH mamlakatlari va AQSh da qishloq xo`jaligi mahsulotlarini narxini boshqarish xususiyatlari. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatining maqsadi, usullari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida inflyatsion jarayonlarning xususiyatlari va uni oldini olish choralari.

**8-mavzu Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.**

Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YaIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko`rsatuvchi ko`rsatkich sifatida. Davlatning byudjet siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko`rsatkichi sifatida. O`zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o`sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini ra`gbatlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko`rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni ra`gbatlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba`zi ishlab chiqarish ko`rinishlarini soliqlardan ozod qilish. O`zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning ra`gbatlantiruvchilik rolini kuchaytirish yo`llari.

**9-mavzu Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.**

Pul va pul muomalasi, pulga bo`lgan talab va pul taklifi. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Davlatning monetarsiyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli. O`zbekistonning kredit tizimi. O`zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlardaiqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy – inqirozining yuz berish sabablari. O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy

oqibatlarini yumshatishda banktizimining roli. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozihamon davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo`llari. Pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomilashtirish yo`nalishlari.

**10-mavzu Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.**

Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy (sotsial) siyosat tushunchalarining mazmuni. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi. “Sotsial davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O`zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash yo`llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o`stirish. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tiziminingshakllanishiva rivojlanishi. Davlatning ta`lim, so`gliqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo`nalishlari.

**11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash vazifalari.**

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta`minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo`lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko`rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari. O`zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo`nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bo`gliq iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash yo`llari. Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning uzviy bo`gliqligi.

**12-mavzu Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash va inqirozga qarshi siyosati.**

Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo`lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati. Iqtisodiy tsikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari.Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlanishi. Hozirgi davrda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hamon davom etishi sabablari va uning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta`sir etishitendentsiyalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta`sirini yumshatishga imkon bergan omillar. O`zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining maqsadi, yo`nalishlari va amalga oshirilishi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etishi sharoitida O`zbekiston iqtisodiyotini barqarorva mutanosib rivojlantirish istiqbolyo`nalishlari. .

.

## 13-mavzu. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi siljish va o`zgarishlar,ularni belgilab beruvchi omillar. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Tarkibiy siyosatning maqsadi, printsiplari va yo`nalishlari. O`zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o`zgartirishning zarurligi. O`zbekistonda davlatning tarkibiy siyosatining o`ziga xos xususiyatlari. Chuqur tarkibiy o`zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo`nalishlari.

Investitsiyalar va investitsion faoliyat. Investitsiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o`rni. Investitsiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O`zbekistonda davlat investitsion siyosatining maqsadlari va asosiy yo`nalishlari. To``gridan-to``gri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni ra`gbatlantirish. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jam`garmalarini va korxonalarning o`z mabla`glarini investitsiya jarayonlariga jalb etishni ra`gbatlantirish yo`llari.

## 14-mavzu Agrar sohani davlat tomonidantartibga solish va qo’llab-quvvatlash.

Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi. Qishloq xo`jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o`zgartirish zarurati. Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi. Fermerlikni rivojlantirishda davlatning roli. Qishloq xo`jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari. O`zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o`ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo`jalik yuritish shakllari. O`zbekistonda fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvatlash yo`nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo`nalishlari

## 15-mavzu. O’zbekistonda kichik biznes va xususiy taadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.

Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o`rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Biznes va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo`nalishlari. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tu`gdirib berilishi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub`ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi printsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferentsiyalar. O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. O`zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari. Xususiy mulk va sektorning ustuvorligini amalda ta`minlash, uni qo`llab-quvvatlash va dahlsizligini kafolatlashning istiqbol yo`nalishlari.

**16-mavzu Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.**

Mintaqaviy iqtisodiyot. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, printsiplari va maqsadlari. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo`llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo`nalishlari.

**17-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.**

Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof-muhit monitoringi. Ekologik me`yorlashtirish. Ekologik standartlar. Davlatning ekologik ekspertizasi. Ekologik litsenziyalashtirish. Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob`ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik su`gurtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo`yicha davlat organlarining vazifalari. O`zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to``grisida”gi qonuni va uning ahamiyati. Davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo`llari.

**18-mavzu Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo`nalishlari va ularni tartibga solish printsiplari. Ilmiy asosga ega bo`lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari. Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati. Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi. Boj to`lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Litsenziyalash.O`zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo`llari. O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi. Mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini ta`minlashda davlatning roli va vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo`llari

## II.2. Ma’ruza mavzularini taqsimlanishi

| № | Mavzular | Soati |
|---|---|---|
| 1 | Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari iqtisodiy siyosatning maqsadlari. | 2 |
| 2 | Iqtisodiyotni davlat tomonidantartibga solishning nazariy asoslari. | 2 |
| 3 | Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi. | 2 |
| 4 | O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi. | 2 |
| 5 | Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish. | 2 |
| 6 | Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. | 2 |
| 7 | Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx va inflyatsiyaga qarshi siyosatlari.. | 2 |
| 8 | Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari | 2 |
| 9 | Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari. | 2 |
| 10 | Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati | 2 |
| 11 | Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash vazifalari. | 2 |
| 12 | Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash va inqirozga qarshi siyosati. | 2 |
| 13 | Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati. | 2 |
| 14 | Agrar sohani davlat tomonidantartibga solish va qo’llab-quvvatlash. | 2 |
| 15 | O’zbekistonda kichik biznes va xususiy taadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi | 2 |
| 16 | Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari. | 2 |
| 17 | Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati. | 2 |
| 18 | Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi | |
| | **jami** | **36** |

## III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR
## II.1. FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI

### 1-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari iqtisodiy siyosatning maqsadlari.

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo`lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo`lgan ijtimoiy- iqtisodiy funktsiyalari va vazifalari.Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub`ektlarining hokimiyat organlari bilan o`zaro munosabatlari.Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. Iqtisodiy siyosat

texnologiyalari. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari va vositalari.Iqtisodiy siyosat maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning samarali tizimini yaratish. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Davlat iqtisodiy strategiyasi turlarining klassifikatsiyasi.

**2-mavzu. Iqtisodiyotni davlat tomonidantartibga solishning nazariy asoslari.**

Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o`rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari kontseptsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o`rni haqida. Davlatning iqtisodiy rolihaqidagi qarashlar borasida Keyns inqilobi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo`yicha Keyns kontseptsiyasining asosiy mazmuni. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda davlatning roli haqida zamonaviy nazariya. Zamonaviy nazariyada ikki muqobil maktablarning aralashishi: yangi konservator va yangi keynschilik. Monetar nazariya va siyosatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va xususiyatlari.

**3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi.**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi va strategiyasi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma`muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida institutsional (ma`muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institutsional(ma`muriy) islohotlarning asosiy yo`nalishlari. Institutsional (ma`muriy) islohotlar va iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o`zgartirilishi jarayonlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimining yaratilishi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi va siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi faoliyatining ijobiy natijalarini urgnish.

**4-mavzu. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.**

Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o`rni va ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan taribga solishdagi o`rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o`zaro aloqadorligi hamda ta`siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o`rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikningrivojlanishini ra`gbatlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari.Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o`ziga hos hususiyatlari.Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor

rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati.Davlat haridi va uning ichki bozorni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi.Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo`llari.

**5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o`rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o`rta muddatli prognozlar.Ilmiy prognozlashtirishning printsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash varejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funktsiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish printsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish,rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturning ustuvor yo`nalishlari.Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlari. “Harakatlar strategiyasi” davlat dasturining maqsad va yo`nalishlari.

**6-mavzu Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.**

Raqobatning kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O`zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo`llab quvvatlash va ra`gbatlantirish maqsadlari hamda yo`nalishlari O`zbekiston Respulikasining “Raqobat to``grisida”gi qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. Raqobatni yanada rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish yo`llari.

**7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx va inflyatsiyaga qarshi siyosatlari.**

Narx va qiymatning zamonaviy nazariyasi - mehnatning qiymati va qiymatni qayta taqsimlash nazariyasining sintezi sifatida. Mehnatning qiymati nazariyasi va qayta taqsimlangan qiymat nazariyalarining zamonaviy nazariyadan farqi. Sobiq Sovet ittifoqi va uning respublikalaridagi markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning

regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari vavositalari. yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, MDH mamlakatlari va AQSh da qishloq xo`jaligi mahsulotlarini narxini boshqarish xususiyatlari. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatining maqsadi, usullari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharotida inflyatsion jarayonlarning xususiyatlari va uni oldini olish choralari.

**8-mavzu Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.**

Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YaIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko`rsatuvchi ko`rsatkich sifatida. Davlatning byudjet siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko`rsatkichi sifatida. O`zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o`sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini ra`gbatlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko`rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni ra`gbatlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba`zi ishlab chiqarish ko`rinishlarini soliqlardan ozod qilish. O`zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning ra`gbatlantiruvchilik rolini kuchaytirish yo`llari.

**9-mavzu Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.**

Pul va pul muomalasi, pulga bo`lgan talab va pul taklifi. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Davlatning monetarsiyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli. O`zbekistonning kredit tizimi. O`zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlardaiqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy – inqirozining yuz berish sabablari. O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda banktizimining roli. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozihamon davom etayotgan sharoitda O`zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo`llari. Pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomilashtirish yo`nalishlari.

**10-mavzu Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.**

Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy (sotsial) siyosat tushunchalarining mazmuni. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi. “Sotsial davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O`zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash yo`llari. Daromadlar

siyosati va aholi turmush darajasini o`stirish. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. O`zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tiziminingshakllanishiva rivojlanishi. Davlatning ta`lim, so`gliqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo`nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O`zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo`nalishlari.

**11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash vazifalari.**

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta`minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo`lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko`rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashning ustuvor yo`nalishlari. O`zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo`nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bo`gliq iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash yo`llari. Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning uzviy bo`gliqligi.

**12-mavzu Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash va inqirozga qarshi siyosati.**

Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo`lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati. Iqtisodiy tsikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari.Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlanishi. Hozirgi davrda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hamon davom etishi sabablari va uning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta`sir etishitendentsiyalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O`zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta`sirini yumshatishga imkon bergan omillar. O`zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining maqsadi, yo`nalishlari va amalga oshirilishi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etishi sharoitida O`zbekiston iqtisodiyotini barqarorva mutanosib rivojlantirish istiqbolyo`nalishlari. .

.

**13-mavzu. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati.**

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi siljish va o`zgarishlar,ularni belgilab beruvchi omillar. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Tarkibiy siyosatning maqsadi, printsiplari va yo`nalishlari. O`zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o`zgartirishning zarurligi. O`zbekistonda davlatning

tarkibiy siyosatining o`ziga xos xususiyatlari. Chuqur tarkibiy o`zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo`nalishlari.

Investitsiyalar va investitsion faoliyat. Investitsiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o`rni. Investitsiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O`zbekistonda davlat investitsion siyosatining maqsadlari va asosiy yo`nalishlari. To``gridan-to``gri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni ra`gbatlantirish. Investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jam`garmalarini va korxonalarning o`z mabla`glarini investitsiya jarayonlariga jalb etishni ra`gbatlantirish yo`llari.

## 14-mavzu Agrar sohani davlat tomonidantartibga solish va qo’llab-quvvatlash.

Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi. Qishloq xo`jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o`zgartirish zarurati. Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi. Fermerlikni rivojlantirishda davlatning roli. Qishloq xo`jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari. O`zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o`ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo`jalik yuritish shakllari. O`zbekistonda fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvatlash yo`nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo`nalishlari

## 15-mavzu. O’zbekistonda kichik biznes va xususiy taadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.

Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o`rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Biznes va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo`nalishlari. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tu`gdirib berilishi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub`ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi printsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferentsiyalar. O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. O`zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari. Xususiy mulk va sektorning ustuvorligini amalda ta`minlash, uni qo`llab-quvvatlash va dahlsizligini kafolatlashning istiqbol yo`nalishlari.

## 16-mavzu Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.

Mintaqaviy iqtisodiyot. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, printsiplari va maqsadlari. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo`llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo`nalishlari.

**17-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.**

Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof-muhit monitoringi. Ekologik me`yorlashtirish. Ekologik standartlar. Davlatning ekologik ekspertizasi. Ekologik litsenziyalashtirish. Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob`ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik su`gurtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo`yicha davlat organlarining vazifalari. O`zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to``grisida”gi qonuni va uning ahamiyati. Davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo`llari.

**18-mavzu Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo`nalishlari va ularni tartibga solish printsiplari. Ilmiy asosga ega bo`lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari. Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati. Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi. Boj to`lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Litsenziyalash.O`zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo`llari. O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi. Mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini ta`minlashda davlatning roli va vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo`llari

## III.2. AMALIY MASHG’ULOT MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

| **№** | **Mavzular** | **Soati** |
|---|---|---|
| 1 | Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari iqtisodiy siyosatning maqsadlari. | 2 |
| 2 | Iqtisodiyotni davlat tomonidantartibga solishning nazariy asoslari. | 2 |
| 3 | Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 4 | O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi. | 2 |
| 5 | Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish. | 2 |
| 6 | Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. | 2 |
| 7 | Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx va inflyatsiyaga qarshi siyosatlari.. | 2 |
| 8 | Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari | 2 |
| 9 | Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari. | 2 |
| 10 | Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati | 2 |
| 11 | Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash vazifalari. | 2 |
| 12 | Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlash va inqirozga qarshi siyosati. | 2 |
| 13 | Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati. | 2 |
| 14 | Agrar sohani davlat tomonidantartibga solish va qo’llab-quvvatlash. | 2 |
| 15 | O’zbekistonda kichik biznes va xususiy taadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi | 2 |
| 16 | Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari. | 2 |
| 17 | Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati. | 2 |
| 18 | Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi | |
| | **jami** | **36** |

## MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

| № | Mustaqil ta’lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Soati |
|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo`lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo`lgan ijtimoiy- iqtisodiy funktsiyalari va vazifalari.Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko`zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub`ektlarining hokimiyat organlari bilan o`zaro munosabatlari.Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 2 | Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o`rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari kontseptsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o`rni haqida. | | |
| 3 | Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma`muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida institutsional( ma`muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institutsional(ma`muriy) islohotlarning asosiy yo`nalishlari. Institutsional(ma`muriy) islohotlar va iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o`zgartirilishi jarayonlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 4 | Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o`rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikningrivojlanishini ra`gbatlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O`zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari.Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o`ziga hos hususiyatlari.Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 5 | Dasturlash varejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funktsiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish printsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash,prognozlashtirish,rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 6 | Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O`zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo`llab quvvatlash va ra`gbatlantirish maqsadlari hamda yo`nalishlari O`zbekiston Respulikasining “Raqobat to``grisida”gi qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 7 | Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o`rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko`rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 8 | Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o`rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko`rsatkichi sifatida. O`zbekiston davlat | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o`sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini ra`gbatlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko`rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni ra`gbatlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba`zi ishlab chiqarish ko`rinishlarini soliqlardan ozod qilish. | | |
| 9 | O`zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo`llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlardaiqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy –inqirozining yuz berish sabablari. O`zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda banktizimining roli. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 10 | Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o`zaro bo`gliqligi. “Sotsial davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O`zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta`minlash yo`llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o`stirish. Kam ta`minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 11 | O`zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo`nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bo`gliq iqtisodiy xavfsizlikni ta`minlash yo`llari.Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashning uzviy bo`gliqligi. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 12 | Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida O`zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlari.Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, inqirozga qarshi choralar dasturining bajarilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlanishi. Hozirgi davrda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hamon davom etishi sabablari va uning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta`sir etishitendentsiyalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 13 | Investitsiyalar va investitsion faoliyat. Investitsiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o`rni. Investitsiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O`zbekistonda davlat investitsion siyosatining | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | maqsadlari va asosiy yo`nalishlari. To``gridan-to``gri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni ra`gbatlantirish.Investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jam`garmalarini va korxonalarning o`z mabla`glarini investitsiya jarayonlariga jalb etishni ra`gbatlantirish yo`llari. | | |
| 14 | Qishloq xo`jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari. O`zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o`ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo`jalik yuritish shakllari. O`zbekistonda fermer va dehqon xo`jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo`llab-quvatlash yo`nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo`nalishlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 15 | Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tu`gdirib berilishi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish va qo`llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub`ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi printsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ra`gbatlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferentsiyalar.O`zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 16 | Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo`llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo`nalishlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 17 | Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob`ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik su`gurtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo`yicha davlat organlarining vazifalari.O`zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |
| 18 | Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati.Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi.Boj to`lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | kvotalash. Litsenziyalash.O`zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o`ziga xos xususiyatlari.Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo`llari. O`zbekistonning jahon xo`jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. | | |
| | | | 108 |

## VI. FAN O‘QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENTSIYALAR)

Fanni o‘zlashtirishi natijasida talaba:

- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish fanlar tizimida tutgan o‘rni, obyekti va predmeti, shakllanishi, rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi***;
- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, qonunlar, asosiy tushunchalar, jarayonlarning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi***;

Talaba makroiqtisodiyotni tahlil qilish usullarini qo‘llash, ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni aniqlay olish, muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo‘lishi kerak.***

## VII. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar

jamoa bo‘lib ishlash va ximoya qilish uchun loyihalar

## VIII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo’yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo’yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo’llaniladi. Nazorat turlari bo’yicha baholash: 5 – “a’lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o’quv semestrida bir marta yozma ish shaklida o’tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg’ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo’yicha baholanib boriladi va o’rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg’ulot hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarini o’z vaqtida, to’laqonli bajarganligi, mashg’ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

SHuningdek, amaliy (seminar) mashg’ulot va mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo’yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o’rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o’rtachalanadi**.

O’tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo’yicha yozma ish shaklida o’tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T. 1. - Toshkent: O`zbekiston.. 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag`ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

5. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi - T.: Uzbekistan, 2017. - 46 b.

6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmoni

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma.- T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2018. - 300 bet.

2. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016

3. Abel A.V., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013.

4. Miropol'skogo D.YU., Brodskiy T.G., Makroekonomika. Uchebnik dlya vuzov.-SPb.: Piter, 2018.-368 s.

5. Nosova S. Mikroekonomika. Makroekonomika. Uchebnik. - M.: Knorus, 2014,-468 s.

6. Zolotarchuk V.V. Makroekonomika: Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2015. - 537 s.

7. Guseynov P.M., Semenixina V.A. Makroekonomika. Uchebnoe posobie. - M.: 2014.-254

8. Voronin A.YU., Kirshin I.A. Makroekonomika - I. Uchebnoe posobie / - M.: NITS Infra-M, 2013. - 110 s.

9. Ivasenko A.G., Nikonova YA.I. Makroekonomika. Uchebnoe posobie — Moskva : KnoRus, 2016. —314 s

10. Ishmuhamedov A.E., Djumaev Z.A, Jumaev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 bet.

11.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O‘zbekiston, 2018 - 76 b.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 2019 yil 21 iyunь.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq suzi gazetasi, 2018 yil 29 dekabr’.
14. Axmedov D.K., Ishmuxamedov A.E., Jumaev K.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: «O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti», 2004. -240 bet.
15.Maruganova E.A., SHapiro S.A. Makroekonomika. Ekspress kurs.: uchebnoe posobie- M.: KPORUS, 2010.-302 s.
16.Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Makroekonomika; Uchebnik dlya vuzov. SPb.: Piter, 2009. -350 s.
17. Samuel’son, Pol E., Nordxaus, Vil’yam D. Makroekonomika. Uchebnoe posobie. M.: OOO «I.D. Vil’yame», 2009. -592 s.
18. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. Uchebnik. M.: «Delo i Servis»,J2005. -464 s.
19. O‘zbekiston raqamlarda 2017-2018. O‘zbekiston Respublikasining yillik statistik to‘plami - T.: 45. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statitika kumitasi. 2019. - 130 str

**Internet saytlari**

1. www. stat. uz
2. www. uza. uz
3. www. ceep. uz
4. www. internetindicators. com
5. www. economvworld. ore

**Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:**

Yashil Iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasining 2024-yil, 24-iyundagi 11-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

- Iqtisodiyot fakulteti kengashining 2024-yil, 25- iyundagi 16-sonli majlisida ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

- NamDU o’quv-uslubiy kengashining 2024-yil, 28- iyundagi 16-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

**Fan/modul uchun mas’ul:**

Sh.Z.Lutpidinov - Namangan davlat universiteti “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD)

Taqrizchilar:
Z.Abdulxakimov – NamMII “Iqtisodiyot” kafedrasi dots., (PhD).
D.Boymirzayev-NamDU - “Menejment” kafedrasi dots., (PhD).

**NamDU o'uv-uslubiy boshqarma boshlig'i** **X. Mirzaaxmedov**

**Iqtisodiyot fakulteti dekani** **N. Narzullayev**

**Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri** **B.Urinov**

**Tuzuvchi** **Sh.Lutpiddinov**

**Test**

**1. Quyidagilardan qaysi biri aholi daromadlari tarkibiga kirmaydi?**

a) foiz, dividend, renta;
b) davlat sug`urtasi bo`yicha to`lovlar;
v) mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo`jaliklarining o`z iste`molchilari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari;
g) ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad;
d) soliqlar.

**2. Qaysi daromad turi xodimlar mehnatining natijasiga bog`liq?**

a) ish haqi;
b) dividend;
v) foiz;
g) renta;
d) ijara haqi.

**3. «Transfert to`lovlari» - deganda:**

a) bozor sektoriga yollangan ishchilarning ish haqi;
b) davlat sektoridagi xizmatchilarning daromadlari;
v) yirik kompaniyalar va tadbirkorlar foydasi;
g) kichik mulkdorlar daromadi (foyda, renta, foiz, dividend);
d) kam ta`minlangan aholi guruhlariga, nogironlarga, qariyalarga, boquvdagi kishilarga, ishsizlarga to`lanadigan nafaqalar.

**4. Aholi real daromadining o`sishi qaysi holda ro`y beradi?**

a) nominal daromad va narxlarning o`sishi mutanosib bo`lganda;
b) nominal daromad narxlardan tez o`sganda;
v) narxlar nominal daromaddan tez o`sganda;
g) soliqlar va majburiy to`lovlar nominal daromaddan tez o`sganda;
d) iste`mol bozorining to`yinganlik darajasi pasayganda.

**5. Bozor munosabatlariga o`tishning ilk davrida biz aholini ijtimoiy himoyalashning qaysi yo`lidan bordik?**

a) ishsizlarni himoyalash yo`lidan;
b) nafaqaxo`rlarni, talabalarni himoyalash yo`lidan;
v) o`quvchi yoshlarni, 2 yoshga yetmagan bolalarni himoyalash yo`lidan;
g) butun aholini himoyalash yo`lidan;
d) 2-jahon urushi va Afg`oniston urushi qatnashchilarini himoyalash yo`lidan.

**6. BMT Bosh Assambleyasi qaysi yilni «Qashshoqlikni tugatish yili» deb e`lon qildi?**

a) 1991 yilni;
b) 1993 yilni;
v) 1994 yilni;
g) 1995 yilni;
d) 1996 yilni.

**7. Aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash masalasi respublikada qanday muhim vazifalarni hal etishga bog`liq deb bilasiz?**

a) ishlab chiqarishni barqarorlashtirishning davlat tomonidan belgilangan reja asosida rivojlantirilishi;
b) davlat mablag`lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari, jamg`armalarning mablag`larini kengroq jalb etish;
v) odamlarning kuch va qobiliyatlaridan jamiyat ravnaqi yo`lida to`laroq foydalanish mexanizmini vujudga keltirish;
g) aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga, qashshoqlikka yo`l qo`ymaslik;
d) yuqoridagilarning barchasi.

**8. 1990 yilda Respublika aholisining necha foizi jami daromadi tirikchilik o`tkazish uchun**

**zarur bo`lgan eng quyi darajadan past edi?**

a) 50%;
b) 60%;
v) 65%;
g) 70%;
d) 80%.

**Test**

**9. Ish haqi nima?**

a) Ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir;
b) ish haqi iqtisodiy resurs hisoblangan mehnatning bahosi;
v) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta`minlash vositasi;
g) barcha javoblar to`g`ri;
d) to`g`ri javob yo`q.

**10. Ish haqining vazifasi nimadan iborat?**

a) ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash;
b) sarflangan mehnatning miqdori va sifatini hisobga olish;
v) mehnat me`yori bilan iste`mol me`yori o`rtasidagi bog`liqlikni ta`minlash;
g) iqtisodiy faoliyatni rag`batlantirish;
d) barcha javoblar to`g`ri.

**11. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?**

a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka;
b) dam olish kunlari, tanaffuslar;
v) pensiya fondi, sog`liqni saqlashga ajratma;
g) narxlar o`zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi;
d) yuqoridagilarning barchasi.

**12. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirishga qanday yo`llar bilan erishishi mumkin?**

a) ishchi kuchiga talabni oshirish orqali;
b) ishchi kuchi taklifini qisqartirish orqali;
v) aniq kasbni malakali litsenziyalash orqali;
g) mehnat unumdorligini oshirish orqali;
d) yuqoridagi barcha yo`llar bilan.

**13. Ish haqi darajasini tabaqalashtirishga qanday erishiladi?**

a) tarif - malakali ma`lumotnomalar yordamida;
b) tarif - setkalari yordamida;
v) tarif - tavkalari yordamida;
g) ish haqiga qo`shimcha koeffitsientlar yordamida;
d) yuqoridagilarning barchasi yordamida.

**14. Milliy iqtisodiyotni bozor mexanizmi orqali tartibga solishda bozor elementlarini ko`rsating?**

**A)** Foyda, soliq, inflyatsiya;
**B)** Narx, talab va taklif, raqobat;
**C)** Narx, pul, kredit;
**D)** Jamg`arish va investitsiya.

**15. Nima sababdan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning zarurati yuzaga keladi?**

**A)** Milliy moliya kapitalini iqtisodiy maqsadlarga ishlatishdan;
**B)** Bozor mexanizmlari xal eta olmadigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni xal etish, muvofiqlashtirishdan;

**C)** Harbiy-sanoat komplekslarini yaratish qiziqishlaridan;
**D)** Davlat korxonalarini ko`paytirishdan.

**16. Iqtisodiyotda muammolardan qaysi birini bozor mexanizmi orqali bartaraf etib bo`lmaydi?**
**A)** Fan texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish;
**B)** Ijtimoiy himoya, mudofaa, ekalogiya va boshqa ijtimoiy muammolarini;
**C)** Resurslardan samarali foydalanish;
**D)** Talabni taklifga moslashtirish.

**17. Quyidagilardan qaysi biri bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning vazifasi hisoblanmaydi?**
**A)** Pul-kredit munosabatlarini tartibga solish;
**B)** Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;
**C)** Ijtimoiy ishlab chiqarishni rejalashtirish va tovar narxlarini o`rnatish;
**D)** Iqtisodiy o`sishning barqarorligini ta`minlash.

**18. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning rivojlanish bosqichlarini ko`rsating?**
**A)** Ikkinchi jahon urushiga qadar va ikkinchi jahon urushidan keyingi bosqichlar;
**B)** Mustaqillikni qo`lga kiritilishiga qadar va undan keyingi bosqichlar;
**C)** XIX asrga qadar va XX asrdan keyingi yillar;
**D)** Qog`oz pullarning joriy etilishiga qadar va undan keyingi bosqich.

**19. Milliy iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy yo`llarini ko`rsating?**
**A)** Faqat bozor mexanizmi;
**B)** Yagona markazdan ongli ravishda markazlashgan rejali boshqarish;
**C)** Davlat va bozor mexanizmlari uyg`unligi asosida;
**D)** Bozor mexanizmi, yagona markazdan ongli ravishda markazlashgan rejali boshqarish, davlat va bozor mexanizmlari uyg`unligi asosida.

**20. Davlatning milliy iqtisodiyotdagi rolini cheklash va iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmidan foydalanish masalasi birinchi marta kim tomonidan olg`a surilgan?**
**A)** D.Rikardo;
**B)** A.Smit;
**C)** M.Keyns;
**D)** F.Kene.

**21. Merkantalist maktabi namoyondalari jamiyat rivojlanishi uchun iqtisodiyotning qaysi sohasini rivojlantirishni muxim deb biladilar?**
**A)** Tashqi savdo-sotiqni;
**B)** Pul, kredit, bank sohasini;
**C)** Soliq-byudjet sohasini;
**D)** Qishloq xo`jaligini.

**22. Fiziokrat maktabi namoyondalari jamiyat rivojlanishi uchun iqtisodiyotning qaysi sohasini rivojlantirishni muxim deb biladilar?**
**A)** Tashqi savdo-sotiqni;
**B)** Qishloq xo`jaligini;
**C)** Soliq-byudjet sohasini;
**D)** Pul, kredit, bank sohasini.

**23. F.Kenening ta`limoti bo`yicha "sof mahsulot" yaratiladi**
**A)** Qishloq xo`jaligida;

**B)** Savdoda;
**C)** Sanoatda;
**D)** Qurilishda.

**24. A.Smit ta`riflagan "ko`rinmas qo`l" – bu ... .**
**A)** Jamiyat manfaati yo`lida davlatning iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi;
**B)** Erkin raqobat sharoitida iqtisodiy manfaat asosida harakat qilayotgan tadbirkorlarning irodasiga va hoxishiga bog`liq bo`lmagan iqtisodiy qonunlarning amal qilishi;
**C)** Jamiyatning va insoniy mafaatlarning ustivorligini ko`zlovchi xo`jalik yuritish mexanizmi;
**D)** O`zboshimchilikka asoslangan xo`jalik yuritish mexanizmi.

**25. J.B.Seyning "bozor qonuni" asosiy qoidalari**
**A)** taklif o`ziga mos darajada talabni xosil qiladi va bozorda muvozanatni ta`minlaydi;
**B)** Investitsiyaning jamg`arishga tengligi, iqtisodiy o`sishni taminlaydi;
**C)** Jamg`arishning oshishi investitsiyani kamaytiradi;
**D)** Taklif o`ziga mos talabni keltirib chiqarmaydi.

**26. Klassik-siyosiy iqtisod maktabining «Iqtisodiy liberalizm» nazariyasi nechanchi yillarda inqirozga uchradi?**
**A)** 1929-33 yillarda;
**B)** 1915-20 yillarda;
**C)** 1910-15 yillarda;
**D)** 1935-40 yillarda.

**27. Dj.M.Keyns davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirishda qaysi vositalardan keng foydalanishni taklif etadi?**
**A)** Fizkal va kreditli tartibga solish;
**B)** Ijtimoiy himoya va aholi daromadlarini tartibga solish;
**C)** Monetar va kredit;
**D)** Jamg`arish va iste`mol fondlarini tartibga solish.

**Testlar**

**28. Narx-.............:**
**A)** oldi-sotdi vositasi;
**B)** ishchi kuchining bahosi;
**C)** qiymatning va naflilikning puldagi ifodasi;
**D)** qo`shimcha qiymat.

**29. Baholar oralig`idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?**
**A)** narx ko`rsatkichi;
**B)** narx diapazoni;
**C)** narx chegarasi;
**D)** yuqoridagi barcha nom bilan.

**30. Baho shakllanishiga qanday omillar ta`sir ko`rsatadi?**
**A)** iqtisodiy xarajatlar;
**B)** tovarning nafliligi;
**C)** raqobat va davlat siyosati;
**D)** yuqoridagilarning barchasi.

**31. Aholining qaysi qatlamiga inflyatsiya nisbatan ko`proq zarar keltiradi?**
**A)** Pensionerlarga;
**B)** Mulk egalariga;
**C)** Aktsiya egalariga;

**D)** Ish boshqaruvchilarga.

**32. Quyidagilardan qaysi biri muomala uchun ko`proq pul miqdorini taqazo qiladi?**

**A)** Sotish lozim bo`lgan tovarlar miqdorining ko`payshi;
**B)** Pul birligi aylanish tezligining ortishi;
**C)** Barter ayriboshlash xissasining ortishi;
**D)** Bir – birini qoplaydigan to`lovlarning ortishi.

**33. Tovar va xizmatlarning nafliligi nima?**

**A)** Iste`mol xususiyatiga ega bo`lishi;
**B)** Foydaliligi;
**C)** Bahoga ega bo`lishi;
**D)** Ehtiyojni qondirish layoqati.

**34. Narx umumiy darajasi va yalpi talab hajmi o`rtasida qanday bog`liqlik mavjad?**

**A)** To`g`ridan – to`g`ri;
**B)** Qarama - qarshi;
**C)** Ham to`g`ri va ham teskari;
**D)** Bog`liqlik yo`q.

**35. Bozor iqtisodiyotida davlatning narxlarga to`g`ridan-to`g`ri ta`sir etish usulini ko`rsating?**

**A)** Bozor iqtisodiyotida narxlarni faqat iste`molchilar belgilaydi;
**B)** Talab va taklif asosida;
**C)** Taklifni oshirish;
**D)** Quyi narx darajasini o`rnatish.

**36. Davlat qaysi sohada tovarlarni minimal narxlarda xarid qilishni kafolatlaydi?**

**A)** Sanoatda;
**B)** Qishloq xo`jaligida;
**C)** Qurilishda;
**D)** yengil sanoatda.

**37. Davlatning narxni tartibga solishdan ko`zlagan maqsadiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?**

**A)** Ishsizlikni butunlay yo`qotish;
**B)** Ish haqi va narx o`sishini mutanosibligini ta`minlash;
**C)** Inflyatsiya suratini pasaytirish;
**D)** Barqaror takror ishlab chiqarishga erishish.

**38. Quyidagi o`rnatilgan narxlardan qaysi biri davlat tomonidan narxlarni to`g`ridan-to`g`ri tartibga solish usuliga kirmaydi?**

**A)** Bozor muvozanati narxlari;
**B)** Amortizatsiya meyorini o`rnatish;
**C)** Muzlatilgan narxlar;
**D)** Ma`muriy o`rnatilgan narxlar.

**39. Davlatning amortizatsiya harajatlarini tezlashtirishdan ko`zlagan maqsadi:**

**A)** Ishlab chiqarishni pasaytirish;
**B)** Ishlab chiqarishdan eski texnologiyani chiqarish va yangisini tezroq joriy etish;
**C)** Asosiy fondlarni ko`paytirish;
**D)** Foydani oshirish.

**40. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatidan ko`zlagan maqsad:**

**A)** Iqtisodiy o`sishni pasaytirish;
**B)** Narxlar darajasini oshirish;
**C)** Ish haqi va narx darajasini mutanosibligini ta`minlash, takror ishlab chiqarishni rag`batlantirish;
**D)** Aholi daromadlarini qisqartirish.

**41. Davlatning inflyatsiyaga qarshi kurashishning usullari**

**A)** Monetar va nomonetar;

**B)** Bilvosita va bevosita;
**C)** To`g`ri va egri;
**D)** Tabiiy va sun iy.

**Test.**

**42. Quyidagilardan qaysi biri aholi daromadlari tarkibiga kirmaydi?**

a) foiz, dividend, renta;
b) davlat sug`urtasi bo`yicha to`lovlar;
v) mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo`jaliklarining o`z iste`molchilari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari;
g) ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad;
d) soliqlar.

**43. Qaysi daromad turi xodimlar mehnatining natijasiga bog`liq?**

a) ish haqi;
b) dividend;
v) foiz;
g) renta;
d) ijara haqi.

**44. «Transfert to`lovlari» - deganda:**

a) bozor sektoriga yollangan ishchilarning ish haqi;
b) davlat sektoridagi xizmatchilarning daromadlari;
v) yirik kompaniyalar va tadbirkorlar foydasi;
g) kichik mulkdorlar daromadi (foyda, renta, foiz, dividend);
d) kam ta`minlangan aholi guruhlariga, nogironlarga, qariyalarga, boquvdagi kishilarga, ishsizlarga to`lanadigan nafaqalar.

**45. Aholi real daromadining o`sishi qaysi holda ro`y beradi?**

a) nominal daromad va narxlarning o`sishi mutanosib bo`lganda;
b) nominal daromad narxlardan tez o`sganda;
v) narxlar nominal daromaddan tez o`sganda;
g) soliqlar va majburiy to`lovlar nominal daromaddan tez o`sganda;
d) iste`mol bozorining to`yinganlik darajasi pasayganda.

**46. Bozor munosabatlariga o`tishning ilk davrida biz aholini ijtimoiy himoyalashning qaysi yo`lidan bordik?**

a) ishsizlarni himoyalash yo`lidan;
b) nafaqaxo`rlarni, talabalarni himoyalash yo`lidan;
v) o`quvchi yoshlarni, 2 yoshga yetmagan bolalarni himoyalash yo`lidan;
g) butun aholini himoyalash yo`lidan;
d) 2-jahon urushi va Afg`oniston urushi qatnashchilarini himoyalash yo`lidan.

**47. BMT Bosh Assambleyasi qaysi yilni «Qashshoqlikni tugatish yili» deb e`lon qildi?**

a) 1991 yilni;
b) 1993 yilni;
v) 1994 yilni;
g) 1995 yilni;
d) 1996 yilni.

**48. Aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash masalasi respublikada qanday muhim vazifalarni hal etishga bog`liq deb bilasiz?**

a) ishlab chiqarishni barqarorlashtirishning davlat tomonidan belgilangan reja asosida rivojlantirilishi;
b) davlat mablag`lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari, jamg`armalarning mablag`larini kengroq jalb etish;
v) odamlarning kuch va qobiliyatlaridan jamiyat ravnaqi yo`lida to`laroq foydalanish mexanizmini vujudga keltirish;

g) aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga, qashshoqlikka yo`l qo`ymaslik;

d) yuqoridagilarning barchasi.

**49. 1990 yilda Respublika aholisining necha foizi jami daromadi tirikchilik o`tkazish uchun zarur bo`lgan eng quyi darajadan past edi?**

a) 50%;
b) 60%;
v) 65%;
g) 70%;
d) 80%.

**7-ilova.**

**50. Ish haqi nima?**

a) Ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir;
b) ish haqi iqtisodiy resurs hisoblangan mehnatning bahosi;
v) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta`minlash vositasi;
g) barcha javoblar to`g`ri;
d) to`g`ri javob yo`q.

**51. Ish haqining vazifasi nimadan iborat?**

a) ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash;
b) sarflangan mehnatning miqdori va sifatini hisobga olish;
v) mehnat me`yori bilan iste`mol me`yori o`rtasidagi bog`liqlikni ta`minlash;
g) iqtisodiy faoliyatni rag`batlantirish;
d) barcha javoblar to`g`ri.

**52. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?**

a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka;
b) dam olish kunlari, tanaffuslar;
v) pensiya fondi, sog`liqni saqlashga ajratma;
g) narxlar o`zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi;
d) yuqoridagilarning barchasi.

**53. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirishga qanday yo`llar bilan erishishi mumkin?**

a) ishchi kuchiga talabni oshirish orqali;
b) ishchi kuchi taklifini qisqartirish orqali;
v) aniq kasbni malakali litsenziyalash orqali;
g) mehnat unumdorligini oshirish orqali;
d) yuqoridagi barcha yo`llar bilan.

**54. Ish haqi darajasini tabaqalashtirishga qanday erishiladi?**

a) tarif - malakali ma`lumotnomalar yordamida;
b) tarif - setkalari yordamida;
v) tarif - tavkalari yordamida;
g) ish haqiga qo`shimcha koeffitsientlar yordamida;
d) yuqoridagilarning barchasi yordamida.

# KEYSLAR BANKI

**Vaziyatlar**

**1-masala.**

Tovar birligini ishlab chiqarish uchun bir guruh tovar ishlab chiqaruvchilar 20, ikkinchi guruh – 25, uchinchi guruh – 15, to`rtinchi guruh 30 soat vaqt sarflaganlar. Agar birinchi guruh barcha tovarlarning 20, ikkinchi – 50, uchinchi guruh – 12, to`rtinchi 18% ni ishlab chiqargan bo`lsa, tovar birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnatning miqdorini aniqlang.

**2-masala.**

«A» korxonada ishchi bir yilda 1,5 mln. so`m ish haqi olib, 2,5 mln. so`mlik qo`shimcha mahsulot yaratgan. «V» korxonada bir ishchi yiliga 1,2 mln. so`mlik ish haqi olib, 2,8 mln. so`mlik qo`shimcha mahsulot yaratgan. 8 soatlik ish kunida ishchining o`zi uchun va korxona egasi uchun ishlagan vaqtini hisoblanga va har ikki korxonada qo`shimcha va zaruriy mehnatning nisbatini toping.

**3-masala**

Germaniyada X1X asr oxiri XX asr boshlarida 30 yil davomida ishchilarning ish haqi 25%ga o`sgan. Shu vaqt davomida turmush qiymati 40%ga oshgan. Real ish haqining o`zgarishini aniqlang.

**4-masala.**

Asosiy kapital 100 mln. so`m, uning xizmat qilish muddati 10 yil. Aylanma kapital – 8 mln. so`m. Shundan 2 mln. so`m ishchi kuchini sotib olishga sarflangan. Qo`shimcha qiymat normasi – 200% bo`lsa, avanslangan kapitalni, ishlab chiqarish xarajatlarini va yillik mahsulot qiymatini aniqlang.

**5-masala.**

Avanslangan kapital – 200 mln. so`m, shundan – 180 mln. so`m doimiy kapital. Qo`shimcha qiymat normasi 150% dan 200% gacha o`sgan. Foyda normasining o`zgarishini aniqlang.

**6-masala.**

Sanoat kapitali – 800 mln. so`m bo`lib, shundan 200 mln. so`mi o`zgaruvchi kapitaldan iborat. Qo`shimcha qiymat normasi 150%, savdo kapitali 200 mln. so`m bo`lsa, quyidagilarni hisoblang:

a) sanoat va savdo soxasidagi tadbirkorlarning o`rtacha foyda normasini;

b) sanoat va savdo soxasidagi tadbirkorlarning foydasini.

**7-masala.**

Tadbirkor 1 yilda 2% to`lash sharti bilan 100 mln. so`m kapitalni ssudaga olgan. O`rtacha foyda normasi – 10%. Tadbirkorlik daromadi va foizni aniqlang.

**8-masala.**

Bankning xususiy kapitali 115 mlrd. so`m, banka qo`yilgan kapital 900 mlrd. so`m. Bank foizi – 8%, bankning qarzdorlardan oladigan ssuda foizi 12% bo`lsa, bank foydasi va bank foydasining normasini aniqlang.

**9-masala.**

Maydoni bir xil 3 ta yer maydonchasiga 100 ming so`mdan kapital sarflangan. O`rtacha foyda normasi – 20%. Birinchi maydonchadan 10 ts, ikkinchisidan 12 ts, uchinchisidan 15 ts hosil olingan. Hosildorlik bo`yicha differentsial renta 1 ni hisoblang.

**10-masala.**

Monopoliyaning kapitali – 200 mlrd. so`m, o`rtacha foyda normasi – 10%. Texnika taraqqiyotini monopoliyalashtirish hisobiga – 8 mlrd. so`m qo`shimcha foyda olingan, ishlab chiqarish va

sotishni monopollashtirish hisobiga – 5 mlrd. so`m foyda olingan. Monopoliyaning umumiy foydasini hisoblang.

**11-masala.**

A tovardan 1000 dona tayyorlangan. Ulardan 800 tasini tayyorlash uchun 8000 soat, 50 tasini tayyorlash uchun 250 soat, qolgan tovarlarning har birini tayyorlashga 8 soatdan vaqt sarflangan. Agar 1 soatda sarflangan mehnat qiymati 500 so`mga teng bo`lsa, tovar birligining ijtimoiy qiymatini aniqlang.

**12-masala.**

1784 yilda Angliyada 1 funt qo`lda yigirilgan ip 130,4 pens turgan. 1823 yilda yigiruv mashinasining ixtiro qilinishi mehnat unumdorligini 11,7 marta oshirishga imkon berdi. Mashina ishlatilgandan keyingi 1 funt ipning qiymatini aniqlang.

**13-masala.**

Tovar ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat 6 soatni tashkil etadi. 1 gramm oltin qazib chiqarish uchun 0,3 soat sarflanadi. 1 dollarning oltin mazmuni 0,888 g. Agar oltin qazib chiqarish sanoatida mehnat unumdorligi 1,5 marta oshirilsa, tovarning qiymati oltinda va dollarda qanday o`zgaradi?

**14-masala.**

Ishlab chiqarish vositalariga sarflangan xarajatlar tovar qiymatining ¼ qismini tashkil etib, o`zgarmay qolsa, jonli mehnatning unumdorligi yiliga 10%dan ortib borsa, necha yildan keyin tovarning qiymati 2 marta kamayadi?

**15-masala.**

Yil davomida sotilgan tovarlar 10 mlrd. so`mni tashkil etadi. Ulardan 40 mlrd. so`mlik tovar kreditga sotilgan. Kreditga sotilib, muddati yetib kelgan to`lovlar – 30 mlrd. so`m, o`zaro hisob-kitoblar – 15 mlrd. so`m. Quyidagi hollarda muomala uchun zarur bo`lgan pulning miqdorini aniqlang:

a) pulning yil davomidagi aylanishlari soni n q 5.

b) pulning yil davomidagi aylanishi 20% qisqargan.

**16-masala.**

A tovarga talab va taklif bir xil proportsiyada o`sadi. V tovarga talab taklifga nisbatan tezroq o`sadi. D tovarga taklif talabga nisbatan tezroq o`sadi. Yuqoridagi omillarning ta`sirida narxlar, tovar ishlab chiqaruvchilarning qayta taqsimlanishi qanday o`zgaradi? Tovar ishlab chiqarish hajmi o`zgaradimi?

**17-masala.**

Har kuni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur tirikchilik vositalarining qiymati – 10 doll. Har haftada iste`mol qilinadigan tovarlar – 30 doll., har chorakda kerak bo`ladigan tovarlar 150 doll., har yarim yilda kerak bo`ladigan tovarlar – 400 doll., yiliga kerak bo`ladigan tovarlar 690 doll.ni tashkil qilsa, ishchi kuchining bir kunlik qiymatini aniqlang.

**18-masala.**

Ishchi kuchining bir kunlik qiymati 10000 so`m. Shundan 3000 so`m ovqatlanishga, 6000 so`m kiyim va uy anjomlariga, 1000 so`m madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi. Agar ijtimoiy mehnat unumdorligi 2 marta oshsa, mehnat intensivligi ishchining moddiy ehtiyojlarini 25% oshirsa, madaniy ehtiyoj 1,5 marta oshganda ishchi kuchi qiymatining o`zgarishini aniqlang.

**19-masala.**

Kostyum 100 ming so`m turadi. Unga 1 metri 20000 so`m turadigan gazlamadan 3 m sarflangan. Tikuv mashinasining yemirilgan qismi – 2 ming so`m, astarning qiymati 14 ming so`m. Kostyum tayyorlashda yangidan yaratilgan qiymatni aniqlang.

**20-masala.**

Frantsiyadagi «Sen-Frer» kompaniyasiga qarashli korxonalardagi 5580 to`quvchidan har biri 6 stanokda ishlab soatiga 150 frank olgan. Ular 10 tadan stanokda ishlay boshlaganlaridan keyin soatiga 20 frankdan ortiq ish haqi olgan. Ish kuni – 7 soat. Stanokning bir soatdagi unumdorligi

12,5 m. Ishchining 1 metr gazlama uchun qanchadan yo`qotishi va kompaniyaning 1 haftalik qo`shimcha daromadini hisoblang.

**21-masala.**

Ishbay haq to`lash bo`yicha ishchi smenada 5 ta mahsulot yaratib, 15 dollar olgan. Teylor tizimi bo`yicha ishlashga o`tilishi bilan norma – 10 mahsulot birligi qilib belgilangan va ikki rastsenka belgilangan normani bajarganda – 4 dollar, bajarmaganda – 2 dollar.

Agar ishchilarning 10% normani 100% bajarsa, qolgan ishchilar 80% bajarsa, normani bajarmagan ishchilar yaratgan mahsulot massasi va ularning ish haqining o`zgarishini aniqlang.

**22-masala.**

Bir qator mamlakatlarda qo`llanilayotgan Xelsi tizimi bo`yicha ishni bajarish uchun belgilangan vaqt normasi – 150 soat, 1 soat uchun belgilangan stavka – 1,2 dollar, «mukofot» - 1 soatga belgilangan stavkaning 30% miqdorida belgilangan. Ishchi ish normasini 75 soatda bajarsa, mehnatning intensivligi va ish haqining o`zgarishini aniqlang.

**23-masala.**

3 mlrd. so`m hajmdagi kapital yiliga 1,6 marta aylangan. Kapital 1 marta aylanish vaqtini va 1 yilda aylangan kapital miqdorini aniqlang.

**24-masala.**

Avanslangan kapital – 200 mln. so`m. Shundan bino va inshootlarning qiymati – 40 mln., mashina va jihozlar – 100 mln., asbob-uskunalar – 12 mln. (shundan tez yemiriladiganlari – 4 mln.), xom ashyo va yordamchi materiallar – 30 mln., yoqilg`i va energiya – 8 mln., ishchi kuchi – 10 mln. so`m. Doimiy va o`zgaruvchi, asosiy va aylanma kapital miqdorini aniqlang.

**25-masala.**

Ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurishga 90 mln., mashina va jihozlar sotib olishga 120 mln. so`m sarflangan. Bino va inshootlar – 30 yil, mashina va jihozlar o`rtacha 10 yil xizmat qiladi. Asosiy kapitalning umumiy aylanish tezligini toping. Asosiy kapital aylanishining xususiyatlari nimalardan iborat?

**26-masala.**

Mashinaning qiymati – 5 ming dollar. Xizmat qilish muddati – 8 yil. Mashinaning yillikemirilish qiymati va amortizatsiya normasini aniqlang.

**27-masala.**

3 oyga ssudaga berilgan 200 mln so`m 4 mln. so`m daromad keltirgan. Yana shu kapital 5% to`lash sharti bilan 6 oyga, so`ngra 2% to`lash sharti bilan 3 oyga ssudaga berilgan. Ssuda foizining yillik normasini aniqlang.

**28-masala.**

Aktsiyaning nominal bahosi 10000 so`m, dividend 1000 so`m, ssuda foizining normasi 2% bo`lsa, quyidagi hollarda aktsiya kursining o`zgarishini aniqlang:

a) ssuda foizining normasi 3%gacha ortadi;

b) dividend 3000 so`mgacha ko`payadi.

**29-masala.**

Fermer ijaraga olingan yer uchastkasiga 25 ming lir kapital sarflab, 5 ming lir foyda oldi. O`rtacha foyda normasi 12%. yer rentasini aniqlang.

**30-masala.**

O`zaro teng 3 ta yer uchastkasiga 5 ming lirdan kapital sarflangan. Birinchi uchastkadan 125, ikkinchisidan 100, uchinchisidan 50 tonna bug`doy olingan. O`rtacha foyda normasi 25%. Differentsial yer rentasini aniqlang.

# TARQATMA MATERIALLAR

## 2. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari .

**Raqobat** – bu yuqori foyda va daromad olish hamda naflilikning eng yuqori darajada yetkazish maqsadida bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to`qnashishidir .

**Ishlab chiqaruvchilar o`rtasidagi raqobat.**

Tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish, yuqori narxlarda sotish va bozordagi mavqeini mustahkamlash orqali eng ko`p foyda olishga qaratildi .

**Resurs egalari o`rtasidagi raqobat.**

O`zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish orqali ko`proq omilli daromadga ega bo`lishga qaratiladi .

**Iste`molchilar o`rtasidagi raqobat.**

Daromadlarning mavjud darajasida ko`proq miqdordagi tovarlarni sotib olishga, ya`ni sarflangan puli evaziga ko`proq naflilikka ega bo`lishga qaratiladi .

## 1. Iqtisodiyotda prognozlashning mohiyati va zaruriyati.

**Prognoz** – yunoncha so'z bo'lib, oldindan ko'ra bilish, bashorat etish ma'nolarini anglatib, kelajakni ilmiy usullar orqali istiqbollash tushuniladi.

**Prognozlash**

Iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismi.

**Reja**

Tadqiq etilayotgan holatni, ob'ektni aniq qism voqelikni ko'ra bilish va oldiga qo'gan maqsadni aniq qo'yishni nazarda tutadi .

**Prognoz** - bu istiqboldagi voqea, xodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya'ni kelajakda ob'ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu xolatga erishishning muddatlari va alternativ yo'llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalar .

## Raqobatning vazifalari:

- **Tartibga solish vazifasi** – ishlab chiqarishni talabga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta`sir o`tkazishdan iborat.
- **Resurslarni joylashtirish vazifasi** – ishlab chiqarish omillarini ular eng ko`p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.
- **Innovatsion vazifasi** – fan – texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko`rinishdagi yangiliklarning joriy etishini anglatadi.
- **Moslashtirish vazifasi** – korxonalarning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo`naltirilgan .
- **Taqsimlash vazifasi** - ishlab chiqarilgan ne`matlar yalpi hajmining iste`molchilar o`rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta`sir o`tkazadi.
- **Nazorat qilish vazifasi** – bozordagi ba`zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o`rnatishiga yo`l qo`ymaslikka yo`naltirilgan .

## Raqobat shakllari:

- **1. Ishlab chiqaruvchi larning bozordagi mavqeiga ko`ra**
  - Sof yoki erkin raqobat;
  - Sof monopoliya;
  - Monopolistik raqobat;
  - Oligopoliya.
- **2. Miqyosiga ko`ra:**
  - Tarmoqlar ichidagi raqobat;
  - Tarmoqlar o`rtasidagi raqobat;
  - Millliy xo`jalik doirasidagi raqobat;
  - Jahon xo`jaligi doirasidagi raqobat.
- **3. Sodir bo`lish xarakteriga ko`ra**
  - Tartibsiz (stixiyali) raqobat;
  - Tartibga solinadigan raqobat
- **4. Amalga oshirish usuliga ko`ra:**
  - Narx vositasidagi raqobat;
  - Narxsiz raqobat.
- **5. Amalga oshirish yo`liga ko`ra:**
  - Xalol raqobat;
  - G`irrom raqobat.

**Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) larning bozordagi mavqeini belgilab beruvchi omillar:**

- Ishlab chiqaruvchi (sotuvchilar) soni.
- To`siqlarning mavjudlik darajasi (bozorga kirish va undan chiqib ketish).

| Raqobat shakllari / Asosiy belgilar | Sof raqobat | Sof monopoliya | Monopolistik raqobat | Oligapoliya |
|---|---|---|---|---|
| 1.Ishlab chiqaruvchi (sotuvchilar) soni | Juda ko`p | Yagona | Nisbatan ko`proq | Kam sonli |
| 2. To`siqlarning mavjudlik darajasi | Mavjud emas | Katta, taqiqlash bilan barobar | Unchalik katta emas | Katta |

Narxning raqobat vositasi sifatida qo`llanish darajasiga qarab **narx yordamidagi** va **narxsiz raqobat** ajratiladi.

Raqobatlashishda g`ayrioddiy usullar (josuslik, qotillik, zo`ravonlik va h.k.) ning qo`llanish darajasiga ko`ra **halol** va **g`irrom raqobat** farqlanadi.

**Raqobat usullari:**

**Narx yordamida** → Narx vositasida raqobatlashishda ishlab chiqaruvchilar o`z tovarlarining narxini raqiblari tovarlari narxidan pasaytirish orqali iste`molchilarni og`dirib olish va bozordagi mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

**Narxsiz** → Narxsiz raqobatda raqobatlashish vositasi sifatida narxdan tashqari omillardan foydalanib tovar sotish hajmini ko`paytirib borishga harakat qilinadi.

## Narx yordamida raqobatlashish:

**<<Narxlar jangi>>**

Bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoq (bozor) dan siqib chiqarish uchun tovarlariga narxlarini vaqti – vaqti bilan va uzoq muddat pasaytirib turadi.

**Demping narxlarini qo`llash**

Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o`zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollard tan narxdan ham past bo`lgan narxlarga chiqaradi.

**Narxlardan chegirma qilish**

Bunda tovar narxlaridan muayyan foizda chegirma qilinadi.

**Imtiyozli narxlarni qo`llash**

Bunda xarid hajmini ko`paytirib borgan iste`molchilarga rag`batlantiruvchi imtiyozli (pasayib boruvchi) narxlardan foydalaniladi.

## Narxsiz raqobatlashish

- **Tovar sifatini tabaqalashtirish** – bir xildagi ehtiyojni qondiradigan va bir turga mansub bo`lgan tovarlar turlicha iste`mol xossalariga ega bo`ladi.
- **Tovarlarni kreditga sotish**- tovarlar nisbatan ortiqcha bo`lgan sharoitda ishlab chiqaruvchi o`z tovarlarini narxini kechiktirib to`lash sharti bilan sotib, raqiblaridan ustun kelishi mumkin.
- Sotish vaqtida va kafolatlangan muddatda **tekin servis xizmati** ko`rsatish.
- **Marketing** –uning vositasida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtirishga harakat qilinadi.
- **Reklama** , tovar belgilari, firma muhirlari hamda qadoqlash usullari tovarlar jozibadorligini oshirish va sotish hajmining ko`payishini rag`batlantirishning muhim yo`llari hisoblanadi.

## 2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari.

**Monopoliya** – iqtisodiy faoliyatning biror sohasida (ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, tijorat va h.k.) korxona yoki davlatning tanho hukmronligini ifodalaydi.

**Monopoliyalarning kelib chiqish sabablari:**

- Kapitalning to`planishi va markazlashish.
- Fan – texnika taraqqiyoti.
- Davlatning ayrim faoliyat sohalarini qo`llab – quvvatlashi.
- O`zaro kelishish.

**Monopoliyaning turlari**

1. **Bozorni qamrab olish darajasiga ko`ra:** sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya farqlanadi.

**Sof monopoliya** – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakka hukmronlik holati hisoblanadi. Masalan: << O`zbekiston havo yo`llari>>DAK, <<O`zbekiston temir yo`llari>> DAK, Toshkent aviatsita ishlab chiqarish birlashmasi.

**Oligopoliya** – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Masalan: O`zbekistonda sement (asosan Bekobod,Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan) va h.k.

**Monopsoniya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko`p bo`lib, ular tovar yoki xizmatlarning yagona iste`molchisi yoki xaridori mavjud bo`lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Masalan: <<O`zDEUavto>> korxonasi.

2. **Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko`ra:** tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun`iy monopoliya farqlanadi.

**Tabiiy monopoliya** – iqtisodiy faoliyatning texnikaviy va texnologik xususiyatlari taqozo qilib, ular raqobatni qo`llash mumkin bo`lmagan yoki qiyin bo`lgan sohalarni o`z ichiga oladi.

- Suv, energiya, gaz ta`minoti korxonalari.
- Temir yo`l transporti.
- Harbiy – mudofaa majmuasi korxonalari.

**Legal (qonuniy ) monopoliya** – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.

- **Patent tizimi** – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar huquqini taqdim etish tizimi.
- **Mualliflik huquqi** – ilmiy, badiiy va san`at asarlari, ko`rsatuvlar,efir to`lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli.
- **Tovar belgilari** –bu savdo belgilari, maxsus ramzlari, nomini ro`yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo`yicha paydo bo`lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

**Sun`iy monpoliyalar** - ishlab chiqarish va kapitalning to`planishi hamda korxonalarning turli yo`llar bilan birlashtirish natijasida vujudga keladi.

- **Kartel** – bir tarmoq korxonalarining ittifoqi bo`lib, uning ishtirokchilari to`liq iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi, faqat ishlab chiqarish hajmi, sotish bozorlari va baholari to`g`risida kelishib oladi.

- **Sindikat** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashmasi bo`lib, uning a`zolari ishlab chiqarish sohasida mustaqilligini saqlab qoladi, mahsulot esa sindikat mulki sifatida sotiladi.
- **Trest** – ishlab chiqarish vositalari va mahsulotga birgalikda egalik qiluvchi korxonalar guruhi bo`lib foyda qo`shilgan kapital hajmiga qarab taqsimlanadi.
- **Konsorsium** – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi .)
- **Konsern** – rasmiy jihatdan mustaqil bo`lgan, ko`p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalarning) majmuini o`z ichga oluvch birlashma.

**Davlatning antimonopol siyosati** – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi. Bu siyosat o`z ifodasini antimonopol qonunlarida topadi.

## Antimonopol faoliyatni tartibga solishning asosiy yo`nalishlari:

- ❖ Bozorning monopollashuvini cheklash;
- ❖ Raqobatchi kompaniyalar qo`shilishini taqiqlash;
- ❖ Monopol narxlar belgilanishini taqiqlash ;
- ❖ Raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo`llab quvvatlash.

**O`zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi muassasa .**

- ❖ O`zbekiston Respublikasi mopnopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo`llab - quvvatlash davlat qo`mitasi.

## O`zbekiston respublikasining antimonopol qonunchiligi .

- ❖ <<Monopolistik faoliyatni chaklash to`g`risida>> gi qonun (1992 y).
- ❖ <<Iste`molchilarning huquqlarining himoya qilish to`g`risida>> gi qonun (1996 y).
- ❖ <<Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to`g`risida>> gi qonun (1996 y).

## AQSHning antimonopol qonunchiligi

- ❖ **Sherman qonuni** (1890 yil) – unda ishlab chiqarish va savdoni cheklash maqsadida tuzilgan bitimlar noqonuniy deb hisoblanadi .
- ❖ **Kleyton qonuni** (1914 yil) – iste`molchilarni narx orqali kamsitish , majburiy shartnomalar tuzish, raqobatchi korxonalarning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish taqiqlanadi .
- ❖ **Seller – Kefover qonuni** (1950 yil) – bu qonunda Kleyton qonuniga o`zgartirish kiritilgan bo`lib, unda nafaqat raqobatchi korxonalarning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni balki ishlab chiqarish vositalarni sotib olish ham taqiqlanadi .

## 3. Narxning mazmuni va uning vazifalari, turlari.

**Narx** – talab va taklifning muayyan nisbatida tovar (xizmati) ni ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurs xarajatlari hamda uning nafliligining pul ko`rinishida ifodalanishi.




**Narxning vazifalari:**

| | |
|---|---|
| 1.Qiymatni hisobga olish | Tovarlarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, olingan natijalar va uning nafliligi narx yordamida hisobga olinadi. |
| 2. Muvozanatlikni ta`minlash | Bunda narx talab va taklifga ta`sir ko`rsatish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. |
| 3. Tartibga solish | Bozor narxlari va davlatning narx siyosati iqtisodiy faollikka ta`sir ko`rsatish orqali iqtisodiyotni tartibga solishda muhim vosita vazifasini bajaradi. |
| 4. Raqobat vositasi | Ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste`molchilar narx vositasida raqobatlashganda u raqobat vositasi vazifasini bajaradi. |
| 5. Ijtimoiy himoyalash | Narx bu vazifani tovarlar datatsion (budjet mablag`lari hisobidan arzonlashtirilgan) narxlarda sotilsa bajaradi. |




- Ulgurji narxlar
- Chakana narxlar
- Xarid narxlari
- Datatsion narxlar
- Demping narxlar
- Nufuzli narxlar
- Ta`riflar

- Qat`iy belgilangan narxlar
- Erkin narxlar
- Tartibga solinadigan narxlar

- Hududiy narxlar
- Milliy narxlar
- Jahon narxlar.

**Monopol narxlar** – monopol mavqeiga ega bo`lgan tovarlarga belgilanib ishlab chiqarish bahosidan yuqori yoki past bo`lishi mumkin.

**Irratsional narxlar** – yer, suv, o`simlik va hayvonat dunyosi kabi tabiiy resurslarga belgilanadigan narxlarni bildiradi.

**Demping narxlar** – bunday narxlarda ishlab chiqaruvchilar bozor-dagi mavqeini muatahkamlash va raqiblarini siqib chiqarishda foydalaniladi.

**Datatsion narxlar** – davlat budjeti hisobidan arzonlashtirilgan narxlardir.

**Ta`riflar** –turli xil xizmatlar ( telefon,transport, kommunal va h.k.) bahosi sifatida chiqadi.

**Narx dipozoni** – turli narxlar oralig`ining puldagi ifodasi.

**Narx diskriminatsiyasi** – narxlarni kamaytirish deb ham atalib, u narxlardagi farq ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlardan kelib chiqmaganda ro`y beradi.

## 4. Raqobatning turli ko`rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari.

**Raqobatning turli shakllarga asoslangan tarmoqlarida narx tashkil topishining umumiy shart – sharoitlari.**

- Narx asosida ishlab chiqarish sarf- xarajatlari yoki tovar (xizmat) qiymati yotadi.
- Narx tovarlar naflilik darajasini ifodalaydi.
- Narx o`zida tovarlarga bo`lgan talab va taklif nisbatini mujassamlashtiradi .
- Raqobatlashish usullari ham narx tashkil topishida o`z o`rniga ega bo`ladi.
- Narx tashkil topishiga davlat iqtisodiy siyosati ta`sir ko`rsatadi.
- Narx shakllanishida xufiyona iqtisodiyotning rivojlanishi darajasi ham ma`lum o`ringa ega.

**Monopolistik raqobatli tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi va narxning aniqlanishi.**

Raqobatning bu shaklida har bir ishlab chiqaruvchi o`z mahsulotini turli usullar bilan tabaqalashtirish orqali bozordagi mavqeini mustahkamlash va mahsulotiga narx belgilashga harakat qiladi.

**Sof raqobatli tarmoq (xizmat) da narxning tashkil topish xususiyatlari:**

- Narx yalpi talab va yalpi taklif ta`siri ostida shakllanadi.
- Alohida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lar bozor narxlariga va sotish hajmiga ta`sir ko`rsata olamaydi.
- Yalpi talab va yalpi taklifda ro`y berib turadigan nisbatan katta o`zgarishlar bozor narxlari va sotish hajmini o`zgartiradi.
- Tarmoqqa kirish uchin to`siqlar mavjud bo`lmasligi sababli narxlar nisbatan beqaror hisoblanadi.

**Sof monopoliya sharoitida tarmoqqa kirish uchun to`siqlarning asosiy turlari.**

- Ishlab chiqarish miqyosini keltirib chiqaradigan to`siqlar (iqtisodiy, moliyaviy, texnologik va boshqa).
- Qonuniy to`siqlar (patent va litenziyalar kabi).
- Tabiiy monopoliyalar tabiati taqozo qiladigan to`siqlar.
- G`irrom raqobat usullaridan foydalanish.
- Xom ashyoning muhim turlariga xususiy mulkchilik.

**Davlatning narx siyosati** - bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida narxlarni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi .

**Narxlarni erkinlashtirish yo`llari:**

- Narxlarni birdaniga yoki <<esankiratadigan>> tarzda qo`yib yuborish ;
- Narlar o`sishini sun`iy ravishda ta`xtatib qo`yish;
- Narxlarni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni ma`lum darajada saqlab qolish;
- Narxlarni asta – sekinlik bilan va bosqichma - bosqich erkinlashtirish.

кишиларга наф келтиришини баҳолаш воситаси бўлиб, товар бирлиги учун тўланадиган пул миқдори билан ўлчанади.

Нарх бозор механизмининг регуляторлик вазифасини бажаради. Унинг иқтисодиётучун аҳамиятини бажарадиган функцияларидан кўриш мумкин:

1. Ҳисоб-китоб ва ўлчов функцияси.
2. Иқтисодий тартиблаш функцияси.
3. Рақобат воситаси функцияси.

## 2. Давлатнинг инфляцияга қарши сиёсати.

Инфляция деганда, одатда, муомаладаги пул массасининг кўпайиши натижасида пулнинг қадрсизланишига айтилади. Инфляция фақат пул муомаласига хос бўлган ҳодиса ҳисобланади.

Иқтисодиётдада инфляцион жараёнларнинг юзага келишига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:

– чакана савдо ва пуллик хизматларнинг нақд пул тушумларини шакллантиришдаги ролининг юқори эканлиги;

– аҳолининг пуллик даромадлари миқдорининг ўсиш тенденциясини мавжудлиги;

– истеъмол товарлари баҳсининг ўсиш ҳолатининг мавжудлиги;

– нақд пулларнинг банклардан ташқари айланмаси.

## 2. Давлатнинг инфляцияга қарши сиёсати.

Инфляциянинг ҳар томонлама авж олиб кетиши мамлакатда ижтимоий ва итисодий жиҳатдан карама қаршиликлар юзага келишига олиб келади. Шунинг учун давлат инфляциянинг олдини олиш, пул муомаласини барқарорлаштириш чора-тадбирлари ишлаб чиқади. Инфляцияга қарши курашнинг асосий шакллари: **пул ислоҳати ва инфляцияга қарши сиёсат** ҳисобланади.

## 2. Давлатнинг инфляцияга қарши сиёсати.

Пул муомаласини барқарорлаштиришга пул ислоҳотини ўтказмасдан ҳам эришиш мумкин. Пул муомаласини барқарорлаштиришнинг қуйидаги усуллари мавжуд: ревальвация, девальвация, деноминация. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражасига, иқтисодиётнинг ҳолатига, пулнинг кадрсизланиш даражасига, давлат сиёсатига караб давлат пул ислоҳотини ўтказиши, пулни ревальвация, деноминация қилиши мумкин.

**Ревальвация** - (ре... ва лот. valeo - қадр-қимматга эгаман) - миллий валюта - пул бирлиги курсини бошқа мамлакатлар ёки халқаро валютапул бирликларига нисбатан расмий ошириш.

**Девальвация** - (де ва лот. valeo - қиймат) - миллий пул бирлиги курсининг чет эл валюталари (эркин алмаштириладиган валюталар, халқаро ҳисоб бирликлари)га нисбатан пасайтирилиши.

**Деноминация** - (де ва лот. nominatio - ном) - валютанинг баркарорлигини ошириш ва ҳисоб-китобни ихчамлаштириш мақсадида қоғоз пул номинали (ёзиб қўйилган қиймати)ни пасайтириш; эски пулни курси (қадри) юқори қилиб белгиланган, номи ўзгармаган янги пулга маълум нисбатда алмаштириш.

## 3. Солиқлар давлат бюджети даромадининг асосий манбаи ва ижтимоий-иқтисодий жараёнларини тартибга солиш воситаси сифатида .

«Фискал» лотинча «fiscus» сўзидан олинган бўлиб, хазина деган маънони англатади. Бу ўз навбатида «хазина сиёсати» деган тушунчани ҳам юзага келтиради.

Фискал, яъни хазина сиёсатига инсоният тарихида ўтган йирик давлат арбобларидан бири, ўрта асрларда буюк салтанат барпо қилган Амир Темур катта эътибор қилган. У давлатни идора қилиш тизимини юзага келтиришда асосан хазинани тўлдирувчи солиқларга таянган.